24.10 ^{14}S izotopi orqali arxeologik topilmalarning yoshini aniqlashda qanday metod yotadi?

24.1-masala. Yadro p proton vanneytrodan iborat. Quyidagilar qaysi kimyoviy moddaga tegishli ekanligini zaryad va massa sonlarini yozgan xolda aniqlang. Agar atom massasi m_a bo'lsa, kimyoviy moddaning taxminiy radiusini va solishtirma bog'lanish energiyasini aniqlang.

Topshiriq raqami	p	n	m_a . m.a.b.
1	6	6	12,0000
2	16	20	35,9671
3	18	18	35,9675
4	10	10	19,9924
5	14	14	27,9769
6	18	22	39,9624
7	7	8	15,0001
8	19	21	39,9640
9	20	20	39,9626
10	6	7	13,0034
11	10	11	20,9938
12	18	20	37,9627
13	20	23	42,9588
14	14	15	28,9765
15	8	9	16,9991
16	14	16	29,9738
17	20	26	45,9537
18	7	7	14,0031
19	22	24	45,9526
20	10	12	21,9914
21	23	27	49,9472
22	24	26	49,9461
23	22	28	49,9448
24	8	8	15,9949
25	22	26	47,9479
26	8	10	17,9992
27	20	28	47,9525
28	24	28	51,9405

24.2-masala. Jadvalda keltirilgan kimyoviy moddalarning barqaror izotoplar tarkibiga kiruvchi neytron va protonlar sonini aniqlang.

Topshiriq raqami	Atom nomeri	Kimyoviy modda	Izotop simvoli
1	1	Vodorod	${}^1\text{N}, {}^2\text{N}$

2	2	Geliy	$^3\text{Ne}, ^4\text{Ne}$
3	3	Litiy	$^6\text{Li}, ^7\text{Li}$
4	5	Bor	$^{10}\text{V}, ^{11}\text{V}$
5	6	Uglerod	$^{12}\text{S}, ^{13}\text{S}$
6	7	Azot	$^{14}\text{N}, ^{15}\text{N}$
7	8	Kislород	$^{16}\text{O}, ^{17}\text{O}, ^{18}\text{O}$
8	10	Neon	$^{20}\text{Ne}, ^{21}\text{Ne}, ^{22}\text{Ne}$
9	12	Magniy	$^{24}\text{Mg}, ^{25}\text{Mg}, ^{26}\text{Mg}$
10	14	Kremniy	$^{28}\text{Si}, ^{29}\text{Si}, ^{30}\text{Si}$
11	16	Oltingugurt	$^{32}\text{S}, ^{33}\text{S}, ^{34}\text{S}, ^{36}\text{S}$
12	17	Xlor	$^{35}\text{Cl}, ^{37}\text{Cl}$
13	18	Argon	$^{36}\text{Ar}, ^{38}\text{Ar}, ^{40}\text{Ar}$
14	19	Kaliy	$^{39}\text{K}, ^{40}\text{K}, ^{41}\text{K}$
15	20	Kalsiy	$^{40}\text{Ca}, ^{42}\text{Ca}, ^{43}\text{Ca}, ^{44}\text{Ca},$ $^{46}\text{Ca}, ^{48}\text{Ca}$
16	22	Titan	$^{46}\text{Ti}, ^{47}\text{Ti}, ^{48}\text{Ti}, ^{49}\text{Ti}, ^{50}\text{Ti}$
17	23	Vanadiy	$^{50}\text{V}, ^{51}\text{V}$
18	24	Xrom	$^{50}\text{Cr}, ^{52}\text{Cr}, ^{53}\text{Cr}, ^{54}\text{Cr}$
19	26	Temir	$^{54}\text{Fe}, ^{56}\text{Fe}, ^{57}\text{Fe}, ^{58}\text{Fe}$
20	28	Nikel	$^{58}\text{Ni}, ^{60}\text{Ni}, ^{61}\text{Ni}, ^{62}\text{Ni}, ^{64}\text{Ni}$
21	29	Mis	$^{63}\text{Cu}, ^{64}\text{Cu}$
22	30	Rux	$^{64}\text{Zn}, ^{66}\text{Zn}, ^{67}\text{Zn}, ^{68}\text{Zn},$ ^{70}Zn
23	31	Galliy	$^{69}\text{Ga}, ^{71}\text{Ga}$
24	32	Germaniy	$^{70}\text{Ge}, ^{72}\text{Ge}, ^{73}\text{Ge}, ^{74}\text{Ge},$ ^{76}Ge
25	34	Selen	$^{74}\text{Se}, ^{76}\text{Se}, ^{77}\text{Se}, ^{78}\text{Se},$ $^{80}\text{Se}, ^{82}\text{Se}$
26	35	Brom	$^{79}\text{Br}, ^{81}\text{Br}$
27	42	Molibden	$^{92}\text{Mo}, ^{94}\text{Mo}, ^{95}\text{Mo}, ^{96}\text{Mo},$ $^{97}\text{Mo}, ^{98}\text{Mo}$
28	50	Qalay	$^{112}\text{Sn}, ^{114}\text{Sn}, ^{116}\text{Sn}, ^{119}\text{Sn},$ $^{122}\text{Sn}, ^{124}\text{Sn}$

24.3- masala. Tabiiy kimyoviy toza modda atomining massasi A . Bu modda atom massalari A_1 va A_2 bo'lgan izotoplardan iborat. Tabiatda g_1 va g_2 foiz miqdorda uchraydi. Jadvaldagi no'malumlarini aniqlang.

Topshiriq raqami	A , m.a.b	A_1 , m.a.b	A_2 , m.a.b	g_1 , %	g_2 , %
1	?	14.0031	15.0001	?	0.365
2	50.9415	?	50.9439	0.24	?
3	4.0026	3.0140	?	?	99.99987
4	?	62.9296	64.9278	69.1	?
5	69.72	?	70.9247	?	39.8
6	35.453	34.9688	?	75.77	?
7	?	78.9183	80.9185	?	49.46
8	1.0079	?	2.0141	99.985	?
9	85.468	84.0118	?	?	27.85
10	?	0.0981	7.0160	7.5	?
11	107.868	?	108.9048	?	48.6
12	60.9415	49.9671	?	0.24	?
13	?	10.0129	11.0093	?	80.1
14	4.0026	?	40026	0.00013	?
15	12.011	12.000	?	?	1.11
16	?	112.9041	114.9039	4.28	?
17	35.453	?	36.9659	?	24.23
18	10.81	10.0129	?	19.9	?
19	?	120.903	122.9042	?	42.7
20	63.546	?	64.9278	69.1	?
21	1.0079	1.008	?	?	0.015
22	?	68.9256	70.9247	60.2	?
23	6.941	?	7.0160	?	92.5
24	14.0067	14.0031	?	99.635	?
25	?	137.9069	138.9060	?	99.911
26	12.011	?	13.0033	98.89	?
27	79.904	78.9183	?	?	49.46
28	?	84.9118	86.9092	72.15	?

24.4-masala. Jadvalni pion va myuonlarning parchalanish sxemalari hamda nuklonlarning xajmiy ta'sirlashuvi asosida to'ldiring.

Topshiriq raqami	pion va myuonparchalanish sxemalari	nuklonlarning xajmiy ta'sirlashuv sxemalari
1	$? \rightarrow \mu^+ + \nu$	$n + p \Leftrightarrow ? + \pi^- + ? \Leftrightarrow p + n$
2	$\pi^0 \rightarrow ? + \gamma$	$p + n \Leftrightarrow ? + \pi^0 + n \Leftrightarrow p + n$
3	$\mu^+ \rightarrow ? + \nu + \vartheta$	$n + n \Leftrightarrow n + ? + n \Leftrightarrow n + n$
4	$? \rightarrow e^+ + e^- + e^+ + e^-$	$? + n \Leftrightarrow n + \pi^+ + n \Leftrightarrow n + ?$
5	$\mu^- \rightarrow ? + \nu + \vartheta$	$p + p \Leftrightarrow ? + \pi^0 + p \Leftrightarrow p + p$
6	$\pi^- \rightarrow ? + \vartheta$	$? + n \Leftrightarrow p + \pi^0 + n \Leftrightarrow ? + n$
7	$\pi^0 \rightarrow \gamma + \gamma + ?$	$p + n \Leftrightarrow ? + \pi^+ + ? \Leftrightarrow n + p$
8	$\pi^0 \rightarrow ? + e^- + \gamma$	$n + ? \Leftrightarrow n + \pi^0 + n \Leftrightarrow ? + n$
9	$? \rightarrow e^+ + \nu + \vartheta$	$? + p \Leftrightarrow p + \pi^- + p \Leftrightarrow p + ?$
10	$\pi^+ \rightarrow ? + \nu$	$p + p \Leftrightarrow p + ? + p \Leftrightarrow p + p$
11	$\pi^0 \rightarrow e^+ + ? + \gamma$	$n + n \Leftrightarrow ? + \pi^0 + n \Leftrightarrow n + n$
12	$\mu^- \rightarrow e^- + \nu + ?$	$p + ? \Leftrightarrow p + \pi^0 + n \Leftrightarrow p + ?$
13	$? \rightarrow \gamma + \gamma$	$? + n \Leftrightarrow n + \pi^0 + n \Leftrightarrow n + ?$
14	$\mu^+ \rightarrow e^+ + ? + \vartheta$	$p + ? \Leftrightarrow n + \pi^+ + n \Leftrightarrow ? + p$
15	$\pi^- \rightarrow \mu^- + ?$	$p + n \Leftrightarrow p + ? + n \Leftrightarrow p + n$
16	$? \rightarrow \gamma + \gamma + \gamma$	$? + p \Leftrightarrow p + \pi^0 + p \Leftrightarrow p + ?$
17	$\pi^0 \rightarrow ? + e^+ + e^- + e^+$	$p + p \Leftrightarrow p + ? + p \Leftrightarrow p + p$
18	$? \rightarrow \mu^- + \vartheta$	$n + ? \Leftrightarrow p + \pi^- + p \Leftrightarrow ? + n$
19	$\mu^- \rightarrow e^- + ? + \vartheta$	$p + n \Leftrightarrow n + ? + n \Leftrightarrow n + p$
20	$\pi^0 \rightarrow ? + \gamma + \gamma$	$? + n \Leftrightarrow n + \pi^0 + n \Leftrightarrow n + ?$
21	$? \rightarrow e^+ + e^- + \gamma$	$n + n \Leftrightarrow n + \pi^0 + ? \Leftrightarrow n + n$
22	$\pi^0 \rightarrow e^+ + e^- + e^+ + ?$	$p + n \Leftrightarrow n + ? + n \Leftrightarrow n + p$
23	$? \rightarrow e^- + \nu + \vartheta$	$p + p \Leftrightarrow p + \pi^0 + ? \Leftrightarrow p + p$
24	$\pi^+ \rightarrow \mu^+ + ?$	$p + n \Leftrightarrow p + \pi^0 + ? \Leftrightarrow p + n$
25	$\mu^+ \rightarrow e^+ + \nu + ?$	$n + p \Leftrightarrow p + ? + p \Leftrightarrow p + n$
26	$\pi^0 \rightarrow \gamma + ?$	$n + ? \Leftrightarrow p + \pi^- + p \Leftrightarrow ? + n$
27	$\pi^0 \rightarrow \gamma + ? + \gamma$	$p + ? \Leftrightarrow p + \pi^0 + p \Leftrightarrow ? + p$
28	$\pi^0 \rightarrow e^+ + e^- + ?$	$? + n \Leftrightarrow p + \pi^0 + n \Leftrightarrow ? + n$

24.5-masala. Parchalanish doimiysi λ va yarim emirilish davri T bo'lgan radioaktiv moddada, t vaqt mobaynida k yadro parchalandi.

Radioaktiv moddaning o'rtacha yashash davri τ bo'lsa, jadvaldagi noma'lumlarni toping.

Topshiriq raqami	λ, yil^{-1}	T, yil	t	$k, \%$	τ
1	0.0546	?	10 yil	?	?
2	?	?	?	26,2	65,8 sut
3	0,0565	?	?	36,36	?
4	?	5,26	4 yil	?	?
5	?	86	?	43,12	?
6	?	?	16 yil	?	25,4 yil
7	?	?	1 yil	64,46	?
8	0,3466	?	2,5 yil	?	?
9	?	?	?	43,73	42,3 yil
10	0,0433	?	?	47,77	?
11	?	5730	3000 yil	?	?
12	?	17,6	?	44,62	?
13	?	?	10000 yil	?	34625 yil
14	?	?	100 sut	43,75	?
15	0,1318	?	5 yil	?	?
16	?	?	?	51,71	5,5 yil
17	0,00806	?	?	53,50	?
18	?	30	25 yil	?	?
19	?	12,7	?	58,26	?
20	?	?	100 sut	?	105,3 sut
21	?	?	200 sut	38,63	?
22	0,2666	?	3 yil	?	?
23	?	?	?	51,32	8266,6 yil
24	0,025	?	?	52,76	?
25	?	16	20 yil	?	?
26	?	2,6	?	60,67	?
27	?	?	200 sut	?	238 sut
28	?	?	300 sut	49,66	?

24.6-masala. Radioaktiv izotopning massasi m bo'lsa, uning aktivligi a topilsin. Preparat aktivligining o'zgaruvchi parametrga bog'liqligi taxlil qilinsin. Izotopning xamma atomlari radioaktiv, deb hisoblansin.

Topshiriq raqami	Izotop	m, mkg	T	t	Bog'lanishni tahlil qiling
------------------	--------	-----------------	-----	-----	----------------------------

1	${}_{86}\text{Rn}^{222}$	0.15	3.8 sut	2 sut	$a=f(t)$
2				4 sut	
3				6 sut	
4				8 sut	
5	${}_{88}\text{Ra}^{228}$	0.1	6.7 yil	5 yil	$a=f(t)$
6		0.2			
7		0.3			
8		0.4			
9	${}_{81}\text{Ti}^{210}$	0.25	1.3 min	24 ch	$a=f(T)$
10	${}_{82}\text{Pb}^{210}$		22 yil		
11	${}_{83}\text{Bi}^{210}$		5 sut		
12	${}_{84}\text{Po}^{210}$		138,4 sut		
13	${}_{82}\text{Pb}^{209}$	0.3	3.3 soat	6 soat	$a=f(t)$
14				12 soat	
15				18 soat	
16				24 soat	
17	${}_{81}\text{Tl}^{207}$	0.16	4.8 min	5 min	$a=f(A)$
18	${}_{87}\text{Fr}^{221}$		4,8 min	5 min	
19	${}_{82}\text{Pb}^{210}$		21,8 yil	25 yil	
20	${}_{89}\text{Ac}^{227}$		21,8 yil	25 yil	
21	${}_{89}\text{As}^{225}$	0,05	10 sut	30 sut	$a=f(t)$
22		0,1			
23		0,15			
24		0,2			
25	${}_{83}\text{Bi}^{213}$	0.25	47 min	1 soat	$a=f(t)$
26				2 soat	
27				3 soat	
28				4 soat	

24.7- masala. Radioaktiv yadro parchalanish natijasida n ta α -zarracha va t ta β -zarracha yo'qotib boshqa modda yadrosiga aylandi. Jadvaldagi noma'lumlarni toping.

Topshiriq raqami	Boshlang'ich modda	n	t	Hosil bo'lgan modda
1	${}_{92}\text{U}^{238}$	1	2	?
2		3	2	?
3		5	2	?
4		6	3	?
5	?	5	4	${}_{82}\text{Pb}^{206}$
6	?	2	4	

7	?	2	3	
8	?	1	2	
9	${}_{90}\text{Th}^{232}$	1	2	?
10		3	2	?
11		5	2	?
12		5	3	?
13	?	6	3	${}_{83}\text{Bi}^{209}$
14	?	4	3	
15	?	3	2	
16	?	1	2	
17	${}_{92}\text{U}^{235}$	2	2	?
18		5	2	?
19		6	3	?
20		7	4	?
21	?	5	3	${}_{82}\text{Pb}^{208}$
22	?	4	2	
23	?	3	2	
24	?	1	2	
25	${}_{93}\text{Np}^{237}$	3	1	?
26		3	2	?
27		6	2	?
28		7	3	?

24.8 - masala. Issiq neytronlar zichligi ρ , uzunligi d bo'lgan moddadan o'tib β marta kamaymoqda. Nishon atom yadrosining qamrab olish reaksiyasi effektiv kesimi σ . Jadvaldagi noma'lumlarni toping.

Topshiriq raqami	modda	ρ , kg/m ³	σ , barn	d , sm	B
1	Alyumin	2699	?	79,4	3
2	Berilliy	1848	?	888,8	
3	Bor	2340	?	0,011	
4	Vanadiy	6110	?	2,98	
5	Volfram	19300	19,2	?	2
6	Temir	7874	2,53	?	
7	Indiy	7310	190	?	
8	Indiy	22400	430	?	
9	Marganets	1738	0,063	10	?
10	Mis	8960	3,69		?
11	Molibden	10200	2,4		?

12	Nikel	8900	4,6		?
13	Nikel	8570	?	6,1	1,5
14	Qo'rg'oshin	7298	?	18,26	
15	Osmiy	22570	?	0,39	
16	Platina	21450	?	0,76	
17	Platina	19860	1025	?	50
18	Simob	13546	38	?	
19	Kumush	10500	62	?	
20	Tantal	16600	21,3	?	
21	Titan	4500	5,8	6	?
22	Xrom	7190	2,09		?
23	Rux	7140	1,07		?
24	Sinniy	6510	0,18		?
25	Uran	18950	?	1,8	2
26	Gr	2265	?	1357	
27	Oltinugurt	2000	?	37,67	
28	Kaliy (suyuq)	800	?	28,56	

24.9-masala. Yadro reaksiyasini to'liq xolda yozing. Jadvaldagi noma'lumlarni toping. Yadro reaksiyasi natijasida ajraydigan energiya miqdorini toping.

Topshiriq raqami	Yadro reaksiyasining qisqacha yozilishi
1	$^{14}\text{N} (? , p) ^{17}\text{O}$
2	$^2\text{H} (d, n) ?$
3	$^9\text{Be} (d, 2\alpha) ?$
4	$^6\text{Li} (? , p) ^7\text{Li}$
5	$^9\text{Be} (a, ?) ^{12}\text{C}$
6	$^2\text{H} (d, ? ^3\text{H})$
7	$^{35}\text{Cl} (a, ?) ^{35}\text{S}$
8	$? (p, \alpha) ^4\text{He}$
9	$? (a, n) ^{30}\text{P}$
10	$^3\text{H} (d, n) ?$
11	$^{56}\text{Fe} (d, ?) ^{54}\text{Mn}$
12	$^7\text{Li} (? , n) 2 ^4\text{He}$
13	$^{10}\text{B} (a, n) ?$
14	$^3\text{H} (^3\text{H}, 2n) ?$
15	$^{95}\text{Mo} (? , n) ^{96}\text{Tc}$
16	$? (d, \alpha) ^4\text{He}$
17	$^{24}\text{Mg} (d, \alpha) ?$

18	${}^3\text{He} (? , p) {}^4\text{He}$
19	$? (p, n) {}^{113}\text{Sn}$
20	${}^{65}\text{Cu} (d, 2n) ?$
21	${}^7\text{Li} (p, ?) {}^4\text{He}$
22	${}^3\text{He} (? , 2p) {}^4\text{He}$
23	${}^{54}\text{Fe} (n, p) ?$
24	${}^{32}\text{S} (? , p) {}^{32}\text{P}$
25	${}^6\text{Li} (p, ?) {}^3\text{He}$
26	${}^6\text{Li} (n, a) ?$
27	$? (p, a) {}^{22}\text{Na}$
28	${}^{14}\text{N} (n, p) ?$

24.10-masala. Agar namunalarning ${}^{44}\text{S}$ bo'yicha faolligi yangi o'simliklar faolligining β siga mos kelsa, qadimgi yog'och va matodan iborat arxeologik topilmaning yoshini aniqlang. ${}^{44}\text{S}$ ning yarim emirilish davri 5730 yilga teng.

Qadimgi yog'ochdan namuna				Qadimgi matodan namuna			
Topshiriq raqami	$\beta, \%$	Topshiriq raqami	$\beta, \%$	Topshiriq raqami	$\beta, \%$	Topshiriq raqami	$\beta, \%$
1	80	8	1	15	98	22	84
2	60	9	0,8	16	96	23	82
3	40	10	0,6	17	94	24	80
4	20	11	0,4	18	92	25	78
5	10	12	0,2	19	90	26	76
6	5	13	0,05	20	88	27	74
7	20	14	0,01	21	86	28	72

LABORATORIYA ISHLARI

1-Laboratoriya Ishi

ATVUD MASHINASIDA KINEMATIKA VA DINAMIKA QONUNLARINI O'RGANISH

Kerakli asboblari: Atvud mashinasi, qo'shimcha yukchalar, sekundomer.

Ishning maqsadi

Talaba ishni bajarish mobaynida «tezlik», «tezlanish», «massa», «kuch», «impuls» kabi fizik kattaliklarning ma'nosini, Nyutonning uchta qonunining mazmunini bilishi hamda bog'langan yuklar tizimi harakatini ifodalovchi oddiy o'lchashlarni bajarib, ushbu harakatlarni tavsiflashda kinematika va dinamika qonunlarini tadbiiq eta olishi kerak.

Topshiriq

1. Atvud mashinasining tuzilishini va o'lchash usulini o'rganish.
2. Yo'l qonunini tekshirish.
3. Tezlik qonunini tekshirish.
4. Nyutonning 2- qonunini tekshirish.
5. O'lchash natijalarining aniqligini tekshirish.

Asosiy nazariy ma'lumotlar

Jismlarning yoki jism qismlarining bir-biriga nisbatan ko'chishiga mexanik harakat deyiladi. Jismlarning mexanik harakatini o'rganishda mutlaq (absolyut) qattiq jism va moddiy nuqta tushunchalaridan keng foydalaniladi. Ixtiyoriy ikki nuqtasi orasidagi masofa doimo o'zgarishsiz qoladigan jism mutlaq qattiq jism deyiladi. Moddiy nuqta deb esa o'lchamlari va shakli qaralayotgan masofaga nisbatan hisobga olinmasa ham bo'ladigan jismga aytiladi.

Jism ilgarilama harakat qilganda uning ikkita nuqtasini birlashtiruvchi to'g'ri chiziq o'z-o'ziga parallelligicha qoladi. Moddiy nuqtaning mexanik harakati davomida bosib o'tgan nuqtalarining geometrik o'rni harakat trayektoriyasi deyiladi. Harakat trayektoriyasining uzunligi bosib o'tilgan yo'lni beradi. Moddiy nuqtaning boshlang'ich va oxirgi vaziyatlarini tutashtiruvchi, yo'nalishga ega bo'lgan to'g'ri chiziq kesmasiga moddiy nuqtaning ko'chishi deyiladi. Ko'chish vektor kattalik, yo'l esa skalyar kattalikdir.

Jismlarning tezligi vaqt davomida o'zgarib tursa, bunday harakat o'zgaruvchan harakat deyiladi. Bunda tezlanish

$$a = \frac{g - g_0}{t}$$

ifoda orqali aniqlanadi. a tezlanish bilan harakatlanayotgan jismning t vaqtdan keyingi tezligi va bosib o'tgan yo'li tekis tezlanuvchan harakatda

$$g = g_0 + at, \quad S = g_0 t + \frac{at^2}{2}$$

tekis sekinlanuvchan harakatda esa

$$g = g_0 - at, \quad S = g_0 t - \frac{at^2}{2}$$

ifodalar orqali topiladi.

Tekis tezlanuvchan harakatda tezlik vektorining yo'nalishi bilan tezlanish vektorining yo'nalishi bir xil, sekinlanuvchan harakatda esa qarama-qarshi bo'ladi.

To'g'ri chiziqli tekis tezlanuvchan harakatda koordinataning vaqt bo'yicha o'zgarishini ifodalovchi tenglamaga harakat tenglamasi deyiladi

$$x = x_0 + g_0 t + \frac{at^2}{2}$$

Jism tezligining kattaligi va yo'nalishi bu jismga boshqa jismlarning ko'rsatadigan ta'siri natijasida o'zgaradi. Jism tezligining o'zgarishiga, ya'ni tezlanish olishiga yoki uning deformatsiyalanishiga sababchi bo'lgan ta'sirni tavsiflovchi kattalikka kuch deyiladi. Jismning olgan tezlanishi unga ta'sir etuvchi kuchga to'g'ri, jismning massasiga esa teskari proporsionaldir. Bu xulosa Nyutonning 2-chi qonunini ifodalaydi:

$$\vec{F} = m \cdot \vec{a} \quad \vec{a} = \frac{\vec{F}}{m}$$

Nyutonning ikkinchi qonuni faqat inersial sanoq sistemalari uchun o'rinlidir. Ushbu qonunni jismning impulsi ($\vec{P} = m \vec{g}$) orqali quyidagicha yozish mumkin:

$$\frac{d}{dt}(m \vec{g}) = \vec{F} \quad \text{yoki} \quad \frac{d\vec{P}}{dt} = \vec{F}$$

Bu Nyuton 2-chi qonunining umumiyroq ko'rinishdagi ifodasi bo'lib, quyidagicha ta'riflanadi: moddiy nuqta impulsining o'zgarish tezligi unga ta'sir etayotgan kuchga teng.


Agar jismga bir nechta kuch ta'sir qilayotgan bo'lsa, unda Nyutonning 2-chi qonunining matematik ifodasini quyidagi ko'rinishda yozish mumkin:

$$m\vec{a} = \vec{F}_1 + \vec{F}_2 + \dots + \vec{F}_n = \sum_{i=1}^n \vec{F}_i = \vec{F}$$

\vec{F} - jismga ta'sir etayotgan hamma kuchlarning natijalovchisidir. U jismga qo'yilgan barcha kuchlarning vector yig'indisiga teng.

Qurilmaning tavsifi va o'lchash usuli

Qurilma - Atvud mashinasi (1-rasm) vertikal holatda o'rnatilgan A sterjendan iborat bo'lib, bu sterjenda santimetrlarga bo'lingan shkala mavjud. Sterjenning yuqori qismiga kam ishqalanish bilan aylana oladigan yengil B blok mahkamlangan. Blok orqali uchlariga bir xil massali C va C^I yuk osilgan ingichka ip o'tkazib qo'yilgan. C^I yukni M elektromagnit ushlab tura oladi. C yuk bemalol o'tishi uchun halqasimon P platforma va pastki D platforma A sterjenga o'rnatiladi. Ishni bajarishda bir-biridan farq qiluvchi m₁ va m₂ massali yukchalar va sekundomer kerak bo'ladi. Agar C yuk ustiga og'ir yukchani, C^I yuk ustiga yengil yukchani qo'yib, elektromagnit bilan ushlab turib, keyin qo'yib yuborilsa, ta'sir etuvchi kuchlar o'zgarmas bo'lgani uchun, sistema tekis tezlanuvchan harakat qiladi. Tekis harakatni kuzatish uchun yukchalarni faqat C yuk ustiga qo'yish kerak. Shunda yukchalarni halqasimon P platforma ushlab qolib, D platformaga urilguncha sistema tekis harakat qiladi. Agar yengil yukcha C^I yuk ustiga qo'yilsa, C yuk ustidagi yukchani halqasimon P platforma ushlab qoladi va harakat tekis sekinlanuvchan bo'ladi.



Nyutonning ikkinchi qonuniga asosan, moddiy nuqtaning tezlanishi barcha ta'sir etuvchi kuchlarning vektor yig'indisiga to'g'ri proporsional, massaga esa teskari proporsionaldir. Yukchalar ilgariharakat qilgani uchun ularni moddiy nuqta deb hisoblash mumkin. Agar B blok vaznsiz holatda deb faraz qilinsa, ipning tarangligi o'ng va chap tomonda bir xil bo'ladi.

Ishni bajarish tartibi

1-vazifa. Jism tinch holatdan boshlab tekis tezlanuvchan harakat qilgandagi yo'l qonunini tekshirish

1. C yukning ustiga m₁ massali yukcha qo'yilib M elektromagnit zanjiri tok manbaiga ulanadi va C^I yukni pastga tushirib M magnitga tortiladi. D platforma C yukning pastki qismidan biron masofada joylashtiriladi. Halqasimon platformani yukdan balandroqda o'rnatiladi.

2. Elektromagnit toki o'chirilib, shu ondayoq sekundomer ishga tushiriladi. C yuk D platformaga urilganda sekundomer to'xtatiladi. Tajriba 5 marta

bajariladi. O'lchash natijalari 1-jadvalga yozilib, o'rtacha vaqt hisoblanadi.

3. D platforma 10-20 sm ga suriladi va platformadan C yukning pastki qismigacha bo'lgan masofa o'lchanadi. Yuqoridagi tajriba o'sha yukchalar bilan 5 marta bajariladi va o'rtacha vaqt hisoblanadi.

Tajriba uch xil S_1, S_2, S_3 masofalar uchun bajariladi.

1-jadval

N	$S_1=$			$S_2=$			$S_3=$			$\bar{a} = \frac{1}{3} \sum_{i=1}^3 a_i$	δ
	t_{1i}	$\langle t_1 \rangle$	$\langle a_1 \rangle$	t_{2i}	$\langle t_2 \rangle$	$\langle a_2 \rangle$	t_{3i}	$\langle t_3 \rangle$	$\langle a_3 \rangle$		
1											
2											
3											
4											
5											

4. Tajriba bir xil yukchalar bilan o'tkazilganda tizimning tezlanishi ham (deyarli) bir xil bo'ladi

$$a = \frac{2S_1}{t_1^2} = \frac{2S_2}{t_2^2} = \frac{2S_3}{t_3^2}$$

5. Tekis tezlanuvchan harakatda yo'l qonunini tekshirish aniqligini baholash uchun, har xil o'tilgan yo'llarda tezlanishni topishdagi nisbiy xatolikni hisoblash kerak

$$\delta = \frac{\langle \Delta a \rangle}{\langle a \rangle} * 100\%$$

bu yerda
$$\langle \Delta a \rangle = \frac{1}{3} \{ |\langle a \rangle - a_1| + |\langle a \rangle - a_2| + |\langle a \rangle - a_3| \}$$

2-vazifa. Tezlik qonunini tekshirish

1. C yukning yuqorigi yuzasidan biror masofada halqasimon P platforma joylashtiriladi. Undan pastda (taxminan 30 sm da) tekis D platforma o'rnatiladi. C yukga qo'shimcha yukcha qo'yiladi va tizim boshlang'ich holatga keltirilib, elektromagnit toki ulanadi.

2. Elektromagnit toki o'chirilib, shu ondayoq sekundomer ishga tushiriladi. P platforma qo'shimcha yukchani ushlab qolganda sekundomer to'xtatiladi. C yo'lda tizimning tekis tezlanuvchan harakati uchun ketgan t vaqt o'lchanadi. Vaqt kamida 5 marta o'lchanadi.

3. Halqasimon platforma yukchani ushlab qolganda tizimning tekis harakatidagi tezligi aniqlanadi. Uni aniqlash uchun platformalar orasidagi masofadan C yukning balandligini ayirib l yo'l topiladi va tekis harakat vaqti τ o'lchanadi. τ quyidagi tartibda aniqlanadi: elektromagnit toki o'chirilib shu ondayoq sekundomer ishga tushiriladi, D platformaga C yuk urilganda sekundomer to'xtatiladi va t' vaqt hisoblanadi. C va l

ning muayyan qiymatlari uchun t' vaqt 5 marta o'lchanadi. Tekis harakat vaqti quyidagicha aniqlanadi

$$\langle \tau \rangle = \langle t' \rangle - \langle t \rangle.$$

Bunda: $g = \frac{l}{t}$ va $a = \frac{g}{\langle t \rangle} = \frac{l}{\langle \tau \rangle \cdot \langle t \rangle}.$

Yuqoridagi tajriba halqasimon platformaning 3 xil holati uchun o'tkaziladi (ya'ni S_2, l_2 va S_3, l_3 holat uchun ham shu tartibda bajariladi). O'lchash natijalari 2- jadvalga yoziladi.

2-jadval

№ №	S _i =		l _i =		$\langle a \rangle = \frac{a_1 + a_2 + a_3}{3}$ va $\langle \Delta a \rangle$
	t'	t	$\langle \tau \rangle$	$g_1 = \frac{l_1}{\tau_1}$ $a_1 = \frac{g_1}{\langle t_1 \rangle}$	
1					
2					
3					
4					
5					
	$\langle t' \rangle$	$\langle t \rangle$			

4. Bir xil qo'shimcha yuk qo'yilganda sistemaning tezlanishi bir xil bo'ladi. Shuning uchun quyidagi tenglik o'rinlidir (taqriban)

$$a = \frac{g_1}{\langle t_1 \rangle} = \frac{g_2}{\langle t_2 \rangle} = \frac{g_3}{\langle t_3 \rangle}.$$

Agar 1-chi va 2-chi tajribalarda qo'shimcha yukcha bir xil bo'lsa, unda $a_1 = a_2 = a_3$ (taqriban).

5. Tezlanishni aniqlashdagi xatolikni baholash uchun 1 qismning 5 punktidagi amallar bajariladi.

3-vazifa. Nyutonning 2- qonunini tekshirish

Atvud mashinasida qo'shimcha yukchani **C** yukdan **C^I** yukka olib qo'yib, tizimning massasini o'zgartirmay harakatlanuvchi kuchni o'zgartirish mumkin. Dinamikaning asosiy qonunini tekshirishda 2 ta qo'shimcha yukcha kerak bo'ladi.

1. **C** yukning pastki asosidan S_1 masofada yaxlit platforma o'rnatiladi.
2. O'ngdagi **C** yuk ustiga 2 ta **m₁** va **m₂** yukchalar qo'yiladi va elektromagnitni tok manbaiga ulab, tizimni boshlang'ich holatda ushlab turiladi.
3. Elektromagnit tokdan uziladi va bir vaqtning o'zida sekundomer ishga tushiriladi. **D** platformaga **C** yuk urilganda sekundomer to'xtatiladi. t vaqt 5 marta o'lchanadi.

Bu hol uchun,
$$S = \frac{at^2}{2} \quad (1)$$

va
$$m_t a_1 = (m_1 + m_2)g = F_1 \quad ; \quad (2)$$

bu yerda
$$m_t = 2m + m_1 + m_2$$

O'lchangan vaqt (t_i) ning qiymatlari, vaqtning o'rtacha qiymatining kvadrati $\langle t_i \rangle^2$ va S_1 masofa 3-jadvalga yoziladi.

4. S_1' va S_1'' qiymatlar uchun 1, 2, 3 punktlar qaytariladi va 3-jadvalga yoziladi.

5. Chapdagi C^I yuk ustiga yengil yukcha ($m_1 < m_2$) va o'ngdagi C yuk ustiga esa og'ir yukcha qo'yilgan hol uchun tajriba qaytariladi. Bu hol uchun

$$S_2 = \frac{a_2 t_2^2}{2}, \quad (3)$$

$$m_t a_2 = F_1 = (m_1 - m_2)g. \quad (4)$$

Olingan natijalar 3-jadvalning o'ng tomoniga yoziladi va o'rtacha vaqt $\langle t_2 \rangle$ aniqlanadi hamda $\langle t_2 \rangle^2$ hisoblanadi.

6. (1) va (3) dan

$$\frac{a_1}{a_2} = \frac{S_1 \langle t_2 \rangle^2}{S_2 \langle t_1 \rangle^2} \quad (5)$$

(2) va (4) dan esa

$$\frac{a_1}{a_2} = \frac{F_1}{F_2} = \frac{m_1 + m_2}{m_1 - m_2} \quad (6)$$

hosil qilinadi.

Agar tajribada o'lchangan kattaliklar (5) va (6) formulalarning o'ng tomonlari tengligini isbotlasa, u holda formulaning chap tomonlari ham tengligi isbotlanadi. Demak, tajriba asosida aniqlangan tezlanishlar nisbati (5), Nyutonning ikkinchi qonuniga asosan hisoblangan (2,4) tezlanishlar nisbatiga teng ekanligi tekshiriladi.

Shuning uchun tajriba natijalari bo'yicha $\frac{S_1 \langle t_2 \rangle^2}{S_2 \langle t_1 \rangle^2}$ nisbat topiladi. Bu amal 3-6 ta turli kombinatsiyalarda bajariladi. Ularning barchasi taxminan o'zaro teng bo'lishi hamda $\frac{F_1}{F_2}$ nisbatga yaqin bo'lishi kerak.

3-jadval

N ^o	$F_1=(m_1+m_2)g$	$F_2=(m_1-m_2)g$	$\frac{S_1 \langle t_2 \rangle^2}{S_2 \langle t_1 \rangle^2}$	$\frac{m_1+m_2}{m_1-m_2}$	
----------------	------------------	------------------	---	---------------------------	--

N ^o	S ₁	t ₁	<t ₁ > ²	S ₂	t ₂	<t ₂ > ²			δ
1									
2									
3									
4									
5									

N ^o	S' ₁	t ₁ ¹	<t ₁ ¹ > ²	S' ₂	t ₂ ¹	<t ₂ ¹ > ²	$\frac{S_1^1 <t_2^1>^2}{S_2^1 <t_1^1>^2}$	$\frac{m_1 + m_2}{m_1 - m_2}$	δ ¹
1									
2									
3									
4									
5									

S₁¹ va S₂¹ uchun ham shu tartibda bajariladi.

Quyidagi nisbat aniqlanadi

$$\delta = \left(\frac{m_1 + m_2}{m_1 - m_2} - \frac{S_1 <t_2>^2}{S_2 <t_1>^2} \right) / \frac{m_1 + m_2}{m_1 - m_2} \quad (7)$$

va ularning o'rtacha qiymati topiladi

$$\langle \delta \rangle = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^n \delta_i * 100\% .$$

Hisoblashlarni soddalashtirish uchun tajribani S₁ = S₂ , □ S₁¹ = S₂¹ , S₁¹ = S₂¹ qiymatlarda o'tkazish mumkin, ya'ni bunda 3 punktdan keyin 5 punkt bajariladi va h.k. Masofalar albatta har xil bo'lishi mumkin, unda (5) va (7) formulalar qisqarmaydi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Qattiq jismning ilgarilanma harakati deb qanday harakatga aytiladi? Moddiy nuqta nima? Qachon qattiq jismning ilgarilanma harakatini moddiy nuqta-ning harakati deb qarash mumkin?
2. Trayektoriya, ko'chish, tezlik va tezlanish nima?
3. Kuch, kuch impulsi, kuch momenti nima? Teng ta'sir etuvchi kuch nima? Nyutonning 3 ta qonunini ta'riflang.
4. Massa deb nimaga aytiladi? Moddiy nuqtaning impulsi qanday kattalik? Dinamikaning asosiy qonuni qanday tushuntiriladi?
5. Inersial sanoq tizimini tushuntiring.

6. Atvud mashinasining tuzilishini soʻzlab bering. Unda yukning tekis, tekis tezlanuvchan va tekis sekinlanuvchan harakati qanday kuzatiladi.
7. Atvud mashinasida tekis tezlanuvchan harakatning yoʻl qonuni qanday tekshiriladi?
8. Atvud mashinasida tekis tezlanuvchan harakatning tezlik qonuni qanday tekshiriladi?
9. Nyutonning ikkinchi qonunini Atvud mashinasi yordamida qanday tekshirish mumkin?

ADABIYOTLAR

1. Savelyev I.V. "Umumiy fizika kursi", I tom. Toshkent, "Oʻqituvchi" nashriyoti, 1983.
2. Ismoilov M.I., Habibullayev P.K., Xaliulin M.G. Fizika kursi (Mexanika, elektr, elektromagnetizm). Toshkent, "Oʻzbekiston" 2000.
3. Ahmadjonov O. Fizika kursi (Mexanika va molekulyar fizika). Toshkent, "Oʻqituvchi" 1985.
4. Трофимова Т.И. Курс физики. М.: Высшая школа, 1990.
5. Детлаф А.А., Яворский Б.М. Курс физики. М.: Высшая школа, 1989.

2 - laboratoriya ishi

JISMLARNING INERSIYA MOMENTLARINI DINAMIK USUL BILAN ANIQLASH

Kerakli asboblari: Blokli va elektromagnitli asosga mahkamlangan aylanuvchi gorizontol stolchadan iborat qurilma, stolcha ustiga oʻrnatish uchun massa markazi orqali teshilgan m_0 massali ikkita parallelepiped, shtangensirkul, masshtabli chizgʻich, elektrosekundomer.

Ishning maqsadi

Talaba ishni bajarish mobaynida aylanma harakat uchun kinematika va dinamika qonunlarini, bu qonunlardagi kattaliklarning maʼnosini bilishi hamda mexanik tizimlar uchun energiyaning saqlanish qonunidan foydalanib, jismlarning inersiya momentlarini tajriba orqali aniqlay olishi kerak.

Bu ishda energiyaning saqlanish qonunidan foydalanib dinamik usul bilan parallelepipedning inersiya momenti aniqlanadi.

Topshiriq

1. Jismlarning inersiya momentlarini aniqlashning dinamik usulini oʻrganish.
2. Qurilma - yuk qoʻyiladigan aylanuvchi stolcha tuzilishi bilan tanishish.

3. Parallelepipedning inersiya momentini ikki usul bilan aniqlash: tajriba orqali - energiyaning saqlanish qonuni yordamida, nazariy - Shteyner teoremasi yordamida.
4. Tajriba natijalarini nazariy usulda topilgan natijalar bilan solishtirish orqali o'lchash aniqligini baholash. Inersiya momentini o'lchash natijalarini tahlil qilish.

Asosiy nazariy ma'lumotlar

Jismlarning aylanma harakati deb shunday harakatga aytiladiki, bunda jismning barcha nuqtalari markazlari bir to'g'ri chiziqda yotadigan aylanalar chizadi, bu to'g'ri chiziq aylanish o'qi deyiladi.

Aylanma harakatni tavsiflash uchun quyidagi tushunchalar kiritiladi:

1. Aylanish davri T - bir marta to'la aylanish uchun ketgan vaqt.
2. Aylanish chastotasi ν - vaqt birligidagi aylanishlar soni

$$\nu = \frac{1}{T}. \quad (1)$$

3. Radius vektorning burilish burchagi $d\varphi = \frac{ds_{yoy}}{r}$.

4. Burchak tezlik

$$w = \frac{d\varphi}{dt}. \quad (2)$$

5. Burchak tezlanish

$$\beta = \frac{dw}{dt} = \frac{d^2\varphi}{dt^2}. \quad (3)$$

Aylanma harakat uchun kiritilgan bu kattaliklarning qulayligi shundaki, ular jismning barcha nuqtalari uchun bir xildir.

Aylanma va chizikli harakatni tavsiflovchi kattaliklar orasida quyidagi bog'lanish mavjud.

Chizikli siljish

$$dS = r d\varphi, \quad (4)$$

bu yerda r - aylanish radiusi.

Chizikli tezlik

$$v = w \cdot r. \quad (5)$$

Tangensial tezlanish

$$a_t = \beta \cdot r. \quad (6)$$


Normal tezlanish

$$a_n = w^2 r. \quad (7)$$

Burchak tezlikning o'zgarishi kuch momentining ta'siriga bog'liq. Kuch momenti son jihatdan kuchning yelkaga ko'paytmasiga teng

$$|\vec{M}| = F \cdot l.$$

Kuch yelkasi deb (O) aylanish markazidan \vec{F} kuch ta'sir qilayotgan chiziqqacha bo'lgan eng qisqa masofaga aytiladi (1-rasm). Kuch yelkasi (l) ni radius-vektor (\vec{r}) orqali ifodalasak:



1 - rasm

$l = r \cdot \sin \alpha$ bundan:

$$|\vec{M}| = F \cdot r \cdot \sin \alpha.$$

Vektor ko'rinishda yozsak

$$\vec{M} = [\vec{r}, \vec{F}] \quad (8)$$

Kuch momenti vektori (\vec{M})ning yo'nalishi (\vec{r}) va (\vec{F}) ning yo'nalishlari bilan o'ng vint qoidasi asosida bog'langan. Δm massali moddiy nuqta uchun Nyutonning ikkinchi qonuni tenglamasini yozib, chiziqli va aylanma harakat kattaliklari orasidagi bog'lanishdan foydalansak, quyidagi ifodani olamiz

$$M = \Delta m r^2 \beta = J \beta \quad (9)$$

Bu yerda $J = \Delta m r^2$ skalyar kattalik bo'lib, moddiy nuqtaning aylanish o'qiga nisbatan inersiya momenti deyiladi.

Jismning barcha nuqtalarining aylanish o'qiga nisbatan inersiya momentlari yig'indisi

$$J = \sum J_i = \sum \Delta m_i r_i^2 \quad (10)$$


qattiq jismning inersiya momenti deyiladi.

(9) formulani vektor ko'rinishida quyidagicha yozish mumkin

$$\vec{M} = J \cdot \vec{\beta}.$$

(11)

Jismga qo'yilgan barcha kuchlarning aylanish o'qiga nisbatan natijalovchi kuch momenti jismning shu o'qqa nisbatan inersiya momentini burchak tezlanishga ko'paytmasiga teng. Bu aylanma harakat uchun dinamikaning asosiy qonuni (Nyutonning ikkinchi qonuni) ta'rifi hisoblanadi. Bundan inersiya momenti jismning inertlik o'lchovi ekanligi kelib chiqadi, ya'ni aylanma harakatda massa rolini o'ynaydi. Inersiya momenti jism massasining aylanish o'qiga nisbatan qanday taqsimlanganligiga bog'liq. O'qdan uzoqda joylashgan nuqtalarning $J = \sum \Delta m_i r_i^2$ yig'indiga qo'shgan hissasi o'qqa yaqin joylashgan nuqtalarga nisbatan kattaroq bo'ladi. Jism inersiya momentining qiymati jismning shakliga, o'lchamlariga, massasiga va aylanish o'qiga nisbatan qanday joylashganligiga bog'liq.



2 - rasm

Og'irlik markazidan o'tmagan o'qqa nisbatan jismning inersiya momenti (2-rasm) Shteyner teoremasi orqali aniqlanadi: jismning og'irlik markazidan o'tmagan istalgan aylanish o'qiga nisbatan inersiya momenti shu o'qqa parallel bo'lgan, og'irlik markazidan o'tuvchi o'qqa nisbatan inersiya momenti va jism massasi bilan og'irlik markazidan aylanish o'qigacha masofa (o'qlar orasidagi masofa) kvadratining ko'paytmasi yig'indisiga teng

$$I_{O'O''} = I_{C'C''} + md^2. \quad (12)$$

Qurilmaning tavsifi va o'lchash usuli

Bu ishda ikkita bir xil to'g'ri burchakli parallelepiped shaklidagi qattiq jismlarning inersiya momentlarini aniqlash uchun vertikal o'q atrofida erkin aylana oladigan gorizontol aylana stolchadan foydalaniladi. Stolchaga shkif mahkamlangan bo'lib, unga ip o'ralgan va bu ip kronshteynga mahkamlangan blok orqali o'tkazilib, uchiga yuk osilgan. Dastlab yuk eng yuqori holatda elektromagnit yordamida tutib turiladi. Elektromagnit o'chirilganda yuk ipni tortib pastga tusha boshlaydi va stolchani unda joylashgan parallelepiped shaklidagi jismlar bilan birga aylantiradi.


Energiyaning saqlanish qonuniga asosan, dastlabki holatda yuqoriga ko'tarilgan yukning potensial energiyasiga teng bo'lgan tizimning to'liq mexanik energiyasi yukning ilgari lanma harakati kinetik energiyasiga, stolchani aylantirish kinetik energiyasiga va ishqalanish kuchlariga qarshi ish bajarishga sarflanadi.

Podshipniklardagi ishqalanish kuchlariga qarshi bajariladigan ishga sarflanuvchi mexanik energiyani hisoblash qiyin bo'lganligi uchun tajriba har xil m_1 va m_2 yuklarda olib boriladi. Bu esa ishqalanishga qarshi bajarilgan ishlarni hisobga olmaslikka imkon beradi, chunki bu ishlarning qiymati o'zgarmaydi


$$m_1gh = \frac{m_1g_1^2}{2} + \frac{Iw_1^2}{2} + A_{ishq}, \quad m_2gh = \frac{m_2g_2^2}{2} + \frac{Iw_2^2}{2} + A_{ishq} \quad (13)$$

Bu yerda I - aylanayotgan tizim inersiya momenti, g_1, g_2 - yuklarning chiziqi tezligi, w_1, w_2 - yuklar pastga tushib platformaga urilgan paytda stolchani aylantirish burchak tezliklari.

Yuk tinch holatdan (boshlang'ich tezlik nolga teng) tekis tezlanuvchan ilgari lanma harakat qilgan hol uchun kinematika formulalaridan foydalansak:



3 - rasm



$$I_0 = \frac{1}{12} m_0 (b^2 + c^2)$$

$$I_{1-yuk}^{Naz} = 2I_0 + 2m_0 d_1^2$$

$$I_{2-yuk}^{Naz} = 2I_0 + 2m_0 d_2^2$$

4 -rasm

$$g = at, \quad h = \frac{at^2}{2} = \frac{g \cdot t}{2}, \quad g = \frac{2h}{t}.$$

Chiziqli va burchak tezliklarni ($w = \frac{g}{t}$) bevosita o'lchash imkoniyati bo'lgan h va t orqali ifodalash mumkin:

$$g_1 = \frac{2h}{t_1}, \quad g_2 = \frac{2h}{t_2}, \quad w_1 = \frac{2h}{t_1 r}, \quad w_2 = \frac{2h}{t_2 r},$$

bu yerda r - shkif radiusi.

Bu almashtirishlarni hisobga olgan holda (13) ni quyidagicha yozish mumkin:

$$m_1 gh = \frac{m_1 \cdot 2h^2}{t_1^2} + \frac{I \cdot 2h^2}{t_1^2 r^2} + A_{ishq} \quad (14)$$

$$m_2 gh = \frac{m_2 \cdot 2h^2}{t_2^2} + \frac{I \cdot 2h^2}{t_2^2 r^2} + A_{ishq} \quad (15)$$

(15) dan (14) ni ayirsak

$$(m_2 - m_1)g = I \frac{2h}{r^2} \left(\frac{1}{t_2^2} - \frac{1}{t_1^2} \right) + 2h \left(\frac{m_2}{t_2^2} - \frac{m_1}{t_1^2} \right) \quad (16)$$

(16) dan inersiya momenti uchun quyidagi ifoda kelib chiqadi

$$I = \frac{(m_2 - m_1)gr^2 t_1^2 t_2^2}{2h(t_1^2 - t_2^2)} - \frac{r^2(m_2 t_1^2 - m_1 t_2^2)}{t_1^2 - t_2^2} \quad (17)$$

bu yerda I - aylanayotgan stolchanning va stol ustidagi barcha jismlarning aylanish o'qiga nisbatan inersiya momentlari.

Ikkita bir xil parallelepiped shaklidagi jismlarning aylanish o'qiga nisbatan inersiya momentlarini aniqlash uchun ustiga parallelepipedlar qo'yilgan stolchani aylantirib tajriba o'tkazish kerak. Parallelepipedlar stolchaga ikki xil holatda mahkamlanadi va har bir holat uchun (17) formula bo'yicha aylanayotgan tizimning I_1 va I_2 inersiya momentlari hisoblanadi. Bo'sh stolchani aylantirib tajriba o'tkaziladi va (17) formula bo'yicha stolchanning I_c inersiya momenti topilib, butun tizimning inersiya momentidan ayriladi

$$I_{1-yuk} = I_1 - I_c, \quad (18)$$

$$I_{2-yuk} = I_2 - I_c, \quad (19)$$

bu yerda, I_{1-yuk} va I_{2-yuk} - parallelepipedlarni stolcha markaziga yaqin va uzoq joylashtirilgan holatlardagi inersiya momentlari.

Ishni bajarish tartibi

1. Shtangensirkul yordamida shkifning diametri o'lchanadi va radiusi hisoblanib, 1-jadvalga yoziladi.

2. m_1 yukning massasi o'lchanadi yoki qurilmadagi jadvaldan aniqlanadi. m_1 yukning ustiga qo'yiladigan qo'shimcha yukcha massasi Δm o'lchanadi va $m_2 = m_1 + \Delta m$ topiladi.
3. Yukni elektromagnit tutib turadigan holatgacha ko'tariladi va elektromagnit ulanadi.
4. Elektromagnit tutib turgan yukning pastki qismidan yuk kelib uriladigan platformagacha bo'lgan h balandlik o'lchanadi.
5. Elektromagnit o'chiriladi va shu ondayoq sekundomer ishga tushiriladi. Stolcha bo'sh bo'lgan holatda m_1 yukning t_1 tushish vaqti o'lchanadi. Tajriba 3 marta bajariladi. $\langle t_1 \rangle$ o'rtacha vaqt topiladi. Natijalar 1-jadvalga yoziladi.
6. Pastga tushadigan yukka qo'shimcha yukcha qo'yiladi. 5-punkttdagi o'lchashlar takrorlanadi. Yukning qo'shimcha yukcha bilan birgalikda tushish uchun ketgan o'rtacha vaqti $\langle t_2 \rangle$ topiladi. Natijalar 1-jadvalga yoziladi.
7. Parallelepipedlarni stolchanning markaziga yaqin holatda o'rnatiladi, 5 va 6 punktlardagi o'lchashlar takrorlanib, m_1, m_2 yuklarning o'rtacha tushish vaqti $\langle t_1' \rangle, \langle t_2' \rangle$ aniqlanadi. Natijalar 1-jadvalga yoziladi.
8. Parallelepipedni stolcha chetiga yaqin holatda o'rnatiladi. 5 va 6 punktlardagi o'lchashlar takrorlanib, m_1, m_2 yuklarning o'rtacha tushish vaqti $\langle t_1'' \rangle, \langle t_2'' \rangle$ topiladi. Natijalar 1-jadvalga yoziladi.
9. Shtangensirkul yordamida parallelepipednin "b" va "c" tomonlari o'lchanadi.
10. Parallelepipedni stolcha markaziga va chetiga yaqin holatda o'rnatish uchun mo'ljallangan o'qchalar orasidagi $2d_1$ va $2d_2$ masofalar o'lchanadi hamda d_1, d_2 qiymatlar 2-jadvalga yoziladi.
11. Parallelepipedning bittasi tarozida tortiladi va uning m_0 massasi 2-jadvalga yoziladi.

O'lchash natijalarini hisoblashga doir uslubiy ko'rsatmalar

1. (17) formulaga $\langle t_1 \rangle$ va $\langle t_2 \rangle$ ning qiymatlarini qo'yib bo'sh stolchanning inersiya momenti I_c topiladi.
2. (17) formulaga $\langle t_1' \rangle, \langle t_2' \rangle$ ning qiymatlarini qo'yib, parallelepipedlar markazga yaqin holatda o'rnatilganda stolchanning inersiya momenti I_1 topiladi.

3. Parallelepipedlar markazga yaqin holatda o'rnatilganda stolchanning inersiya momenti I_1 dan (18) formula bo'yicha bo'sh stolchanning inersiya momentini ayirib, markazga yaqin o'qchalarda o'rnatilgan parallelepipedning aylanish o'qiga nisbatan inersiya momenti aniqlanadi.

4. (17) formulaga $\langle t_1'' \rangle, \langle t_2'' \rangle$ ning qiymatlarini qo'yib, parallelepipedlar chetki o'qchalarda o'rnatilgan holat uchun stolchanning inersiya momenti I_2 topiladi.

5. Parallelepipedlar chetki o'qchalarda o'rnatilgan holatda stolchanning inersiya momenti I_2 dan (19) formula bo'yicha bo'sh stolchanning inersiya momentini ayirib, chetki o'qchalarda o'rnatilgan parallelepipedning aylanish o'qiga nisbatan inersiya momenti aniqlanadi.

6. Inersiya momentining nazariy qiymati formuladan keltirib chiqariladi. Unga binoan bitta parallelepipedning og'irlik markazidan o'tuvchi o'qqa nisbatan inersiya momenti

$$I_0 = \frac{1}{12} m_0 (b^2 + c^2)$$

ga teng.

Shteyner teoremasi yordamida qurilmaning aylanish o'qiga nisbatan parallelepipedning inersiya momentini topish mumkin:

$$I_{1-yuk}^{Naz} = 2I_0 + 2m_0 d_1^2, \quad I_{2-yuk}^{Naz} = 2I_0 + 2m_0 d_2^2.$$

7. Inersiya momentlarining tajriba orqali va nazariy aniqlangan qiymatlari solishtiriladi

$$\Delta_1 = |I_{1-yuk}^{Naz} - I_{1-yuk}|, \quad \Delta_2 = |I_{2-yuk}^{Naz} - I_{2-yuk}|.$$

8. Inersiya momentini aniqlashdagi nisbiy xatoliklar topiladi

$$\delta_1 = \frac{|I_{1-yuk}^{Naz} - I_{1-yuk}|}{I_{1-yuk}^{Naz}} \cdot 100\%, \quad \delta_2 = \frac{|I_{2-yuk}^{Naz} - I_{2-yuk}|}{I_{2-yuk}^{Naz}} \cdot 100\%.$$

1 - jadval

№	r	h	m ₁	m ₂	Bo'sh stol			Stolcha markazida			Stolcha chetida			
					t ₁	t ₂	I	t ₁ ^I	t ₂ ^I	I ₁	t ₁ ^{II}	t ₂ ^{II}	I ₂	
1														
2														
3														

2 - jadval

m ₀	b	C	d ₁	d ₂	I ₀	I _{1-yuk} ^{Naz}	I _{2-yuk} ^{Naz}
----------------	---	---	----------------	----------------	----------------	-----------------------------------	-----------------------------------

--	--	--	--	--	--	--	--

NAZORAT SAVOLLARI

1. Jismning aylanish o'qiga nisbatan inersiya momentini aniqlash usulini tushuntiring.
2. Yuk - stolcha -platforma tizimi uchun energiyaning saqlanish qonuni qanday yoziladi?
3. Aylanma harakatni tavsiflovchi kattaliklar - burchak tezlik, burchak tezlanishni ta'riflang. Chiziqli va aylanma harakat kinematikasini tavsiflovchi kattaliklar o'zaro qanday bog'langan?
4. Aylanma harakat dinamikasining asosiy kattaliklari - jismning kuch momenti, inersiya momenti, impuls momentining ma'nosini tushuntiring.
5. Aylanma harakat dinamikasining asosiy qonunini ta'riflang. Ilgarilanma harakat bilan solishtiring.
6. Aylantiruvchi momentning ishi qanday aniqlanadi? Qattiq jism aylanma harakatining kinetik energiyasi nimaga teng?
7. Jismlarning inersiya momentlarini nazariy va tajriba orqali aniqlash usullarini tushuntiring.

ADABIYOTLAR

1. Savelyev I.V. . "Umumiy fizika kursi", I tom. Toshkent, "O'qituvchi" nashriyoti, 1983 .
2. Ismoilov M.I., Habibullayev P.K., Xaliulin M.G. Fizika kursi (Mexanika, elektr, elektromagnetizm). Toshkent, "O'zbekiston" 2000.
3. Ahmadjonov O. Fizika kursi (Mexanika va molekulyar fizika). Toshkent, "O'qituvchi" 1985.
4. Трофимова Т.И. Курс физики. Москва. «Высшая школа» 1990.
5. Детлаф А.А., Яворский Б.М. Курс физики. Москва. «Высшая школа», 1989.

3 - Laboratoriya Ishi

OBERBEK MAYATNIGIDA JISMLARNING INERSIYA MOMENTLARINI ANIQLASH

Kerakli asboblari: Oberbek mayatnigi, mayatnikni harakatga keltiruvchi m massali yuk, inersiya momentlari topilishi kerak bo'lgan m_0 massali to'rtta silindrsimon yuklar, shtangensirkul, masshtabli chizg'ich, elektrosekundomer.

Ishning maqsadi

Talaba ishni bajarish mobaynida quyidagi nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'lishi kerak: aylanma harakat uchun kinematika va dinamika qonunlarini tushuntirib bera olishi, bu qonunlardagi kattaliklarning ma'nosini bilishi, jismlarning inersiya momentlarini tajriba orqali aniqlay olishi, bog'langan va aylanayotgan jismlarning harakat tenglamalarini tuzishi va o'lchash aniqligini baholab bera olishi kerak.

Bu ishda ilgari aylanma va aylanma harakat uchun dinamika qonunlaridan foydalanib, jismlarning inersiya momenti aniqlanadi.

Topshiriq

1. Qattiq jismlarning inersiya momentlarini aniqlashning ushbu ishda qo'llaniladigan usulini o'rganish.
2. Tajriba qurilmasi- Oberbek mayatnigi tuzilishi bilan tanishish.
3. Oberbek mayatnigidagi jismlarning inersiya momentini ikki usulda - tajriba orqali va nazariy aniqlash.
4. Tajriba natijalarini nazariy usulda topilgan natijalar bilan solishtirish orqali o'lchash aniqligini baholash.
5. Inersiya momentlarini o'lchashda olingan natijalarni tahlil qilish.

Asosiy nazariy ma'lumotlar

Jismlarning aylanma harakati deb shunday harakatga aytiladiki, bunda jismning barcha nuqtalari markazlari bir to'g'ri chiziqda yotadigan aylanalar chizadi, bu to'g'ri chiziq aylanish o'qi deyiladi.

Aylanma harakatni tavsiflash uchun quyidagi tushunchalar kiritiladi:

1. Aylanish davri T - bir marta to'la aylanish uchun ketgan vaqt.
2. Aylanish chastotasi ν - vaqt birligidagi aylanishlar soni

$$\nu = \frac{1}{T}. \quad (1)$$

3. Radius vektorining burilish burchagi $d\varphi = \frac{ds_{yoy}}{r}$.

4. Burchak tezlik

$$w = \frac{d\varphi}{dt} . \quad (2)$$

5. Burchak tezlanish

$$\beta = \frac{dw}{dt} = \frac{d^2\varphi}{dt^2} . \quad (3)$$

Aylanma harakat uchun kiritilgan bu kattaliklarning qulayligi shundaki, ular jismning barcha nuqtalari uchun bir xildir.

Aylanma va chiziqli harakatni tavsiflovchi kattaliklar orasida quyidagi bog'lanish mavjud.

Chiziqli siljish

$$dS = r d\varphi , \quad (4)$$


bu yerda, r - aylanish radiusi.

Chiziqli tezlik $v = w \cdot r . \quad (5)$

Tangensial tezlanish $a_t = \beta \cdot r . \quad (6)$

Normal tezlanish $a_n = w^2 r . \quad (7)$

Burchak tezlikning o'zgarishi kuch momentining ta'siriga bog'liq. Kuch momenti son jihatdan kuchning yelkaga ko'paytmasiga teng:



1 - rasm

$$|\vec{M}| = F \cdot l .$$

Kuch yelkasi deb (O) aylanish markazidan \vec{F} kuch ta'sir qilayotgan chiziqqacha bo'lgan eng qisqa masofaga

aytiladi (1-rasm).

Kuch yelkasi (l) ni radius-vektor (\vec{r}) orqali ifodalasak:

$$l = r \cdot \sin \alpha$$

Bundan, $|\vec{M}| = F \cdot r \cdot \sin \alpha .$

Vektor ko'rinishda yozsak


$$\vec{M} = [\vec{r}, \vec{F}] . \quad (8)$$

Kuch momenti vektori (\vec{M})ning yo'nalishi (\vec{r}) va (\vec{F}) ning yo'nalishlari bilan o'ng vint qoidasi asosida bog'langan. Δm massali moddiy nuqta uchun Nyutonning ikkinchi qonuni tenglamasini yozib, chiziqli va aylanma harakat kattaliklari orasidagi bog'lanishdan foydalansak, quyidagi ifodaga ega bo'lamiz

$$M = \Delta m r^2 \beta = J \beta ,$$

(9)

bu yerda, $J = \Delta m r^2$ skalyar kattalik bo'lib, moddiy nuqtaning aylanish o'qiga nisbatan inersiya momenti deyiladi.



2 - rasm

Jismning barcha nuqtalarining aylanish o'qiga nisbatan inersiya momentlari yig'indisi

$$J = \sum J_i = \sum \Delta m_i r_i^2 \quad (10)$$

qattiq jismning inersiya momenti deyiladi.

(9) formulani vektor ko'rinishida yozish mumkin

$$\vec{M} = J \cdot \vec{\beta}. \quad (11)$$


Jismga qo'yilgan barcha kuchlarning aylanish o'qiga nisbatan natijalovchi kuch momenti jismning shu o'qqa nisbatan inersiya momentini burchak tezlanishga ko'paytmasiga teng. Bu aylanma harakat uchun dinamikaning asosiy qonuni (Nyutonning ikkinchi qonuni) ta'rifi hisoblanadi. Bundan inersiya momenti jismning inertlik o'lchovi ekanligi kelib chiqadi, ya'ni aylanma harakatda massa rolini o'ynaydi. Inersiya momenti jism massasining aylanish o'qiga nisbatan qanday taqsimlanganligiga bog'liq. O'qdan uzoqda joylashgan nuqtalarning $J = \sum \Delta m_i r_i^2$ yig'indiga qo'shgan hissasi o'qqa yaqin joylashgan nuqtalarga nisbatan kattaroq bo'ladi. Jism inersiya momentining qiymati jismning shakliga, o'lchamlariga, massasiga va aylanish o'qiga nisbatan qanday joylashganligiga bog'liq.

Og'irlik markazidan o'tmagan o'qqa nisbatan jismning inersiya momenti (2-rasm) Shteyner teoremasi orqali aniqlanadi: jismning og'irlik markazidan o'tmagan istalgan aylanish o'qiga nisbatan inersiya momenti shu o'qqa parallel bo'lgan, og'irlik markazidan o'tuvchi o'qqa nisbatan inersiya momenti va jism massasi bilan og'irlik markazidan aylanish o'qigacha masofa (o'qlar orasidagi masofa) kvadratining ko'paytmasi yig'indisiga teng

$$I_{O'O''} = I_{C'C''} + md^2. \quad (12)$$

Qurilmaning tuzilishi va o'lchash usuli

Oberbek mayatnigi gorizontol o'q atrofida aylana oladigan shkivga xoch shaklida (biri ikkinchisidan 90° farq bilan) mahkamlangan to'rtta bir



xil sterjendan tashkil topgan. Shkivga ip o'rab, ipning uchiga yuk osib qo'yilgan. Sterjenlarga har biri m_0 massali to'rtta yuk simmetrik ravishda o'rnatilgan bo'lib, aylanish o'qidan yuklarning markazigacha bo'lgan R masofa yuklarning chiziqli o'lchamlaridan ancha katta. R masofani o'zgartirish orqali yuklarning aylanish o'qiga

3-rasm

nisbatan inersiya momentlarini o'zgartirish mumkin.

Shkivga o'ralgan ipni yuk pastga tortishi natijasida sterjenlar aylanma harakat qiladi. Tizim yukning ilgari-ylanma va sterjenlarning aylanma harakatini o'z ichiga olganligi sababli, dinamikaning ilgari-ylanma va aylanma harakatlar uchun asosiy qonunini qo'llab, yuk va sterjenlarning harakat tenglamasini tuzish va yechish kerak

$$\begin{cases} m\vec{a} = m\vec{g} + \vec{F}_t \\ I\vec{\beta} = [\vec{r}_1\vec{F}_t] + \vec{M}_{ishq} \end{cases} \quad (13)$$

Bu yerda m - ipga osilgan yukning massasi, \vec{F}_a - ipning taranglik kuchi, \vec{M}_{ishq} - ishqalanish kuchi momenti, $\vec{\beta}$ - burchak tezlanish, I - aylanayotgan tizimning aylanish o'qiga nisbatan inersiya momenti, \vec{a} - yuklarning ilgari-ylanma harakati tezlanishi bo'lib, u ip ingichka, cho'zilmaydigan bo'lganda shkiv sirtidagi nuqtalarning tangensial (urinma) tezlanishiga mos keladi.

Yuk pastga tushayotganda burchak tezlanish vektori va shkivga qo'yilgan ipning taranglik kuchi momenti yo'nalishi ishqalanish kuchi momentining yo'nalishiga qarama-qarshi bo'ladi. Yo'nalishlarni hisobga olib, (13) ni skalyar ko'rinishda quyidagicha yozish mumkin

$$\begin{aligned} ma &= mg - F_t \\ I\beta &= F_t r - M_{ishq} \end{aligned} \quad (14)$$

Yukning va shkiv sirtidagi nuqtalarning tezlanishi tekis tezlanuvchan harakat uchun yo'l qonunidan aniqlanadi

$$a = a_\tau = \frac{2h}{t^2},$$

burchak tezlanish esa, tangensial va burchak tezlanishlar orasidagi bo'lanishdan topiladi

$$\beta = \frac{a_t}{r} = \frac{2h}{t^2 r}.$$

Ishqalanish kuchi momentini hisobga olmaslik uchun tajribani ipga turli m_1 va m_2 yuklarni osib bajariladi, bu esa taranglik kuchi, aylantiruvchi moment va tezlanishning qiymatlarini o'zgartiradi

$$I\beta_1 = M_1 - M_{ishq} \quad (15)$$

$$I\beta_2 = M_2 - M_{ishq}. \quad (16)$$

(16) dan (15)ni ayirib, quyidagi ifodani hosil qilamiz

$$I(\beta_2 - \beta_1) = M_2 - M_1, \quad (17)$$

bunda $\beta_1 = \frac{2h}{t_1^2 r}$; $\beta_2 = \frac{2h}{t_2^2 r}$ almashtirishlarni bajarsak:

$$M_1 = F_{t1}r = m_1(g - a_1)r = m_1 \left(g - \frac{2h}{t_1^2} \right) r ,$$

$$M_2 = F_{t2}r = m_2(g - a_2)r = m_2 \left(g - \frac{2h}{t_2^2} \right) r$$

bu ifodalarni (17)ga qo'yib, quyidagi formulani olamiz

$$I = \frac{\left[m_2 \left(g - \frac{2h}{t_2^2} \right) - m_1 \left(g - \frac{2h}{t_1^2} \right) \right] r}{\frac{2h}{r} \left(\frac{1}{t_2^2} - \frac{1}{t_1^2} \right)} . \quad (18)$$

Ishni bajarish tartibi

1. Shtangensirkul yordamida shkivning radiusi $r = \frac{d}{2}$ o'lchanadi va 1-jadvalga yoziladi.
2. Ipga osilgan yukning massasi m_1 aniqlanadi.
3. Aylantiruvchi momentni o'zgartirish uchun m_1 yuk ustiga qo'yiladigan qo'shimcha yukchanning Δm massasi aniqlanadi va $m_2 = m_1 + \Delta m$ qiymat 1-jadvalga yoziladi.
4. Yuklar sterjenlarning chetiga mahkamlanadi. Ipni shkivga o'rab, yuk yuqoriga ko'tariladi va elektromagnitni ulab, yukni shu holatda tutib turiladi.
5. Yukning pastki qismidan yuk kelib uriladigan platformagacha bo'lgan h masofa o'lchanadi.
6. Elektromagnit o'chirilib, shu ondayoq sekundomer ishga tushiriladi va yukning tushish vaqti t_1 o'lchanib, 1-jadvalga yoziladi. Tajriba 3 marta takrorlanib, yukning o'rtacha tushish vaqti $\langle t_1 \rangle$ topiladi.
7. Tushayotgan yukka qo'shimcha yukcha qo'shib, 6-bandda bajarilgan ishlar 3 marta takrorlanadi. O'lchangan t_2 vaqt 1-jadvalga yoziladi va uning o'rtacha qiymati $\langle t_2 \rangle$ topiladi.
8. Yuklar sterjenning o'rtasiga mahkamlanadi. 6 va 7 bandlarda bajarilgan ishlar yana takrorlanadi. Yukning tushish vaqtlari t_1'' va t_2'' 1-jadvalga yoziladi hamda o'rtacha tushish vaqti $\langle t_1'' \rangle$, $\langle t_2'' \rangle$ topiladi.
9. Sterjenga mahkamlangan yuklarning m_0 massasi hamda sterjenning m_s massasi o'lchanadi (yoki aniqlanadi) va 2-jadvalga yoziladi.
10. Yuklarning aylanish radiuslari R_1 va R_2 hamda sterjenning uzunligi l o'lchanadi va 2-jadvalga yoziladi (bunda simmetrik joylashgan

yuklarning markazlari orasidagi $2R_1$ va $2R_2$ masofalarni va sterjenlar uchlari orasidagi $2l$ masofani o'lchash maqsadga muvofiqdir).

O'lchash natijalarini hisoblashga doir uslubiy ko'rsatmalar

1. Yuklarning $\langle t_1 \rangle$ va $\langle t_2 \rangle$ o'rtacha tushish vaqtlarini (18) formulaga qo'yib, yuklar sterjenlarning chetiga mahkamlangan holat uchun tizimning inersiya momenti I_1 topiladi.
2. Yuklarning $\langle t_1'' \rangle$ va $\langle t_2'' \rangle$ o'rtacha tushish vaqtlarini (18) formulaga qo'yib, yuklar sterjenlarning o'rtasiga mahkamlangan holat uchun tizimning inersiya momenti I_2 topiladi.
3. Quyidagi formulalardan foydalanib inersiya momentining nazariy qiymati hisoblanadi:

$$I_1^N = 4m_0R_1^2 \quad \text{va} \quad I_2^N = 4m_0R_2^2$$

4. Yuklar inersiya momentlarining tajribada va nazariy yo'l bilan topilgan qiymatlari solishtiriladi:

$$\Delta_1 = |I_1^N - I_1|, \quad \Delta_2 = |I_2^N - I_2|.$$

5. Inersiya momentini aniqlashdagi nisbiy xatolik topiladi:

$$\delta_1 = \left| \frac{I_1^N - I_1}{I_1^N} \right| \cdot 100\%, \quad \delta_2 = \left| \frac{I_2^N - I_2}{I_2^N} \right| \cdot 100\%.$$

1-jadval

O'lc. t.r.	r	h	m_1	m_2	Yuklar sterjen chetida			Yuklar sterjen o'rtasida		
					t_1	t_2	I_1	t_1''	t_2''	I_2
1										
2										
3										

2-jadval

m_0	$4m_0$	l	R_1	R_2	I_1^N	I_2^N	δ_1	δ_2
-------	--------	-----	-------	-------	---------	---------	------------	------------

--	--	--	--	--	--	--	--	--

NAZORAT SAVOLLARI

1. Aylanma harakatni tavsiflovchi kattaliklar - burchak tezlik, burchak tezlanishni ta'riflang. Chiziqli va aylanma harakat kinematikasini tavsiflovchi kattaliklar o'zaro qanday bog'langan?
2. Aylanma harakat dinamikasining asosiy kattaliklari - jismning kuch momenti, inersiya momenti, impuls momentining ma'nosini tushuntiring.
3. Aylanma harakat dinamikasining asosiy qonunini ta'riflang. Ilgarilanma harakat bilan solishtiring.
4. Ilgarilanma va aylanma harakat qilayotgan jismlarning harakat tenglamalarini tuzishda dinamika qonunlarining qo'llanilishini tushuntiring.
5. Ushbu ishda qo'llangan yuklarning inersiya momentlarini aniqlash usulini tushuntiring.
6. Oberbek mayatnigining burchak tezlanishi kattaligi nimaga bog'liq va u tajriba davomida qanday o'zgaradi? Tajribada aylantiruvchi moment va inersiya momenti qanday o'zgartiriladi?

ADABIYOTLAR

1. Savelyev I.V. "Umumiy fizika kursi", I tom. Toshkent, "O'qituvchi", 1983.
2. Ismoilov M.I., Habibullayev P.K., Xaliulin M.G. Fizika kursi (Mexanika, elektr, elektromagnetizm). Toshkent, "O'zbekiston", 2000.
3. Ahmadjonov O. Fizika kursi (Mexanika va molekulyar fizika). Toshkent, "O'qituvchi" 1985.
4. Трофимова Т.И. Курс физики. Москва. «Высшая школа» 1990.

4 - Laboratoriya Ishi

TUSHAYOTGAN SHARCHANING KINETIK VA POTENSIAL ENERGIYALARINI ANIQLASH

Kerakli asboblari: Grimzel qurilmasi, po'lat sharcha, masshtabli chizg'ich, ko'chiruvchi qora qog'oz, toza oq qog'oz, elyektromagnit.

Ishning maqsadi

Laboratoriya ishini bajarish davomida talaba "energiya" va "ish" fizikaviy tushunchalarining ma'nosini tushunishi hamda energiyaning saqlanish qonuni mazmunini anglab olishi kerak.

Tushayotgan sharcha misolida mexanik jarayonlarda energiyaning bir turdan boshqa turga o'tishini tahlil qila olishi kerak.


Topshiriq

1. Laboratoriya ishi bajariladigan qurilma tuzilishini va o'lchash usulini o'rganish.
2. Tushayotgan sharchaning kinetik va potensial energiyasini o'lchash.
3. Energiyaning saqlanish qonunini bajarilishini analitik va grafik ravishda tahlil qilish.
4. O'lchash natijalari aniqligini tekshirish.

Asosiy nazariy ma'lumotlar

Materiyaning barcha shakldagi harakatlarining universal o'lchovi energiyadir. U mexanik tizimning holat funksiyasi bo'lib, tizimning oxirgi konfiguratsiyalari va tezliklarning oxirgi qiymatlari bilan aniqlanadi $W=f(x,y,z, v_x, v_y, v_z)$. Energiyaning o'zgarishi jismlarning o'zaro ta'siri jarayonida, ya'ni ish bajarish jarayonida sodir bo'ladi. Demak energiya shunday fizikaviy kattalikki, uning o'zgarishi ishga tengdir va u jismning ish bajarish qobiliyatini ifodalaydi.

\vec{F} kuchning \vec{dl} kichik siljishdagi ta'siri (1-rasm) elementar ish deb ataluvchi, \vec{F} ning \vec{dl} ga skalyar ko'paytmasiga teng bo'lgan kattalik bilan xarakterlanadi



$$\delta A = (\vec{F}, \vec{dl}) = F dl \cos \alpha = F_1 dl. \quad (1)$$

Butun l yo'l bo'yicha \vec{F} kuch tomonidan bajarilgan ish yo'lning alohida kichik bo'laklarida bajarilgan elementar ishlar yig'indisiga teng bo'ladi

$$A = \int_l F_1 dl. \quad (2)$$

Agar jismni 1 nuqtadan 2 nuqtaga ko'chirishda \vec{F} kuch tomonidan bajarilgan A_{12} ish ko'chirish qaysi

trayektoriya bo'yicha amalga oshirilganligiga bog'liq bo'lmay, faqat jismning boshlang'ich va oxirgi vaziyatlari (tizimning boshlang'ich va oxirgi konfiguratsiyalari) bilan aniqlansa, jismga ta'sir etayotgan \vec{F} kuch konservativ kuch deyiladi

$$A_{1-2} = A_{1-a-2} = A_{1-b-2} . \quad (3)$$

Jism harakati yo'nalishini teskari tomonga o'zgartirish konservativ kuch bajargan ishning ishorasi o'zgarishiga olib keladi. Shuning uchun jism yopiq trayektoriya bo'yicha harakatlanganda konservativ kuch bajargan ish nolga teng bo'ladi

$$\oint_l F_l dl = 0 . \quad (4)$$

(3) va (4) dan ko'rinadiki, konservativ kuchlar bajargan ish tizimning konfiguratsiyaga bog'liq bo'ladi. Tizimning konfiguratsiyasi bilan bog'liq ish zaxirasi tizimning potensial energiyasini ifodalaydi. Potensial energiya faqat uning koordinatalari funksiyasi hisoblanadi. Konservativ kuchlar bajargan ish tizimning potensial energiyasini kamaytiradi

$$A_{1-2} = W_{p1} - W_{p2} = -\Delta W_p . \quad (5)$$

Konservativ kuchlarga misol qilib, butun olam tortishish kuchi, elastik kuchlar, elektrostatik o'zaro ta'sir kuchlarini ko'rsatish mumkin.

(3) va (4) shartlarni qoniqtirmaydigan kuchlar nokonservativ kuchlar deyiladi. Nokonservativ kuchlarning xususiy holi sifatida dissipativ kuchlarni ko'rsatish mumkin. Bu kuchlar ta'sirida mexanik energiya boshqa turdagi (masalan, issiqlik) harakatiga aylanadi.

Agar jismga bir vaqtning o'zida bir necha $\vec{F}_1, \vec{F}_2, \dots, \vec{F}_n$, kuchlar ta'sir etsa, $d\vec{l}$ siljishda barcha kuchlar bajargan ishlarning algebraik yig'indisi, shunday siljishda kuchning teng ta'sir etuvchisi bajaradigan ishga teng bo'ladi. $dl = \vartheta dt$ ekanligini hisobga olgan holda, Nyutonning 2-qonunini $F = m \frac{d\vartheta}{dt}$ qo'llab, teng ta'sir etuvchi kuch bajargan ishni topamiz

$$A = \int_{\vartheta_1}^{\vartheta_2} m \frac{d\vartheta}{dt} \vartheta dt = \int_{\vartheta_2}^{\vartheta_1} m \vartheta d\vartheta = \frac{m\vartheta_2^2}{2} - \frac{m\vartheta_1^2}{2} . \quad (6)$$

(6)dan ko'rinadiki, teng ta'sir etuvchi kuch ishi quyidagi kattalikni oshib borishiga olib keladi

$$W_K = \frac{m\vartheta^2}{2} , \quad (7)$$

bu kattalik jism o'zining mexanik harakati hisobiga bajarishi mumkin bo'lgan ishni ifodalaydi va u jismning kinetik energiyasi deyiladi.

Potensial va kinetik energiyalar yig'indisi jismlar tizimining to'liq mexanik energiyasi deyiladi.

Mexanik tizimni tashkil etuvchi jismlar bir-biri bilan yoki tizimga tegishli bo'lmagan boshqa jismlar bilan ta'sirlashishi mumkin. Shunga binoan, tizimdagi jismlarga ta'sir etuvchi kuchlarni ichki (tizimdagi jismlarning o'zaro ta'sirlashuvi) va tashqi (tizimga tegishli bo'lmagan jismlar ta'sirlashuvi) kuchlarga ajratiladi. Ichki kuchlar har doim konservativ bo'ladi, tashqi kuchlar esa konservativ ham, dissipativ ham bo'lishi mumkin.

Teng ta'sir etuvchi kuchlar bajargan ish tizimning kinetik energiyasini o'zgartiradi, ichki va tashqi konservativ kuchlar ishi tizimning umumiy potensial energiyasini o'zgartiradi, dissipativ kuchlar ishi esa tizimning to'liq mexanik energiyasini o'zgartiradi. Bu o'zgarishlar bir-biri bilan quyidagicha bog'langan

$$dW_k = -dW_{pi} - dW_{pt} + dA_{nk} \quad (8)$$

yoki,

$$d(W_k + W_{pi} + W_{pt}) = dA_{nk} \quad (9)$$

Agar tizimda faqat konservativ kuchlar ta'sir qilsa, $dA_{nk} = 0$ va

$$W_k + W_{pi} + W_{pt} = W_k + W_p = const \quad (10)$$

bo'ladi.


Agar jismlar tizimiga faqat konservativ kuchlar ta'sir etayotgan bo'lsa, bu tizimning to'liq mexanik energiyasi o'zgarmas bo'lib qoladi (mexanik energiyaning saqlanish qonuni).

Agar tizimga nokonservativ kuchlar ta'sir etayotgan bo'lsa, tizimning mexanik energiyasi kamayadi: energiyaning dissipatsiyasi (sochilishi) ro'y beradi, lekin ekvivalent miqdorda boshqa turdagi energiyalar hosil bo'ladi. Energiya hech qachon yo'qolmaydi va qayta hosil bo'lmaydi, u faqat bir turdan ikkinchi turga aylanadi (energiya saqlanishining umumiy qonuni).

Qurilmaning tuzilishi va o'lchash usuli

Qurilmaning sxemasi (Grimzel qurilmasi) 2-rasmda ko'rsatilgan. Gorizontaal taxtaga vertikal ustunlar o'rnatilgan. (H) ustunlarga yengil bifilyar osmada mis halqa biriktirilgan bo'lib, u bo'sh qo'yilganda (vertikal holatda) halqaning teshigi (H) ustunlarga ko'ndalang mahkamlangan (M) plastina teshigiga to'g'ri keladi. Ustunlarga yoysimon metal tarnov (Д) o'rnatilgan bo'lib, tarnov bo'ylab (ЭМ) elektromagnit harakatlanadi. Elektromagnit toki (K) kalit bilan o'chiriladi va yoqiladi. Osmo halqa va metal sharchani moddiy nuqta deb hisoblash mumkin.

Agar sharchali halqani elektromagnitga tekkuncha siljitsak (A holatga), elektromagnit sharchani shu holatda tutib turadi. Elektromagnit toki o'chirilganda sharcha ABC trayektoriya bo'ylab harakatga keladi. AB oraliqda sharcha aylana yoyi bo'ylab, BC oraliqda esa parabola bo'ylab harakatlanadi.



Elektromagnitni yoysimon tarnov bo'ylab surib, sharchaning h_1 ko'tarilish balandligini o'zgartirish mumkin.

A nuqtada sharcha quyidagi potensial energiyaga ega bo'ladi

$$W_{p1} = mgh_1. \quad (11)$$

B nuqtada sharchaning potensial energiyasi

$$W_{p2} = mgh_2. \quad (12)$$

AB yo'lda sharchaning potensial energiyasi kamayadi

$$\Delta W_p = W_{p1} - W_{p2} = mg(h_1 - h_2). \quad (13)$$

Shu vaqtning o'zida sharcha quyidagi kinetik energiyaga ega bo'ladi

$$W_K = \frac{m\vartheta^2}{2}, \quad (14)$$

ϑ - sharchaning B nuqtadagi tezligi.

Bu ishda havoning qarshilik kuchi sharchaning og'irlik kuchidan juda kichik bo'lganligi uchun havoning qarshilik kuchi e'tiborga olinmaydi. Sharchaning harakatini ikkita harakatning ya'ni gorizontal yo'nalishda ϑ tezlik bilan tekis harakat va vertikal yo'nalishda g tezlanish bilan tekis tezlanuvchan harakat yig'indisi deb qarash mumkin. (B) nuqtada tezlikning vertikal tashkil etuvchisi nolga teng. Unda BC trayektoriya bo'ylab sharchaning harakat vaqti sharchaning BB' vertikal bo'ylab erkin tushish vaqtiga tengdir, ya'ni

$$t = \sqrt{\frac{2h_2}{g}}. \quad (15)$$

Sharchaning gorizontal yo'nalishdagi siljishi l va harakat vaqti t ni aniqlab, tezlikning gorizontal tashkil etuvchisini hisoblash mumkin. U o'zgarmas bo'lib, sharchaning tezligiga teng

$$g = \frac{l}{t} = \frac{l}{\sqrt{\frac{2h_2}{g}}}. \quad (16)$$

Sharcha ko'chirma qog'oz qoplangan oq qog'oz ustiga tushib, iz qoldiradi. Bunda chizg'ich bilan gorizontaal ko'chish $l = B'C$ osongina o'lchanadi.

Tezlikning topilgan qiymatini (14) formulaga qo'yib, sharchaning B nuqtadagi kinetik energiyasi hisoblanadi

$$W_K = \frac{mgl^2}{4h_2}. \quad (17)$$

Energiyaning saqlanish qonuniga binoan sharchaning B nuqtadagi kinetik energiyasining qiymati sharchani A nuqtadan B nuqtaga ko'chirganda potentsial energiyasining kamayishiga teng bo'lishi kerak

$$\frac{m g^2}{2} = mg(h_1 - h_2), \quad (18)$$

yoki (17) ni hisobga olgan holda,

$$\frac{mgl^2}{4h_2} = mg(h_1 - h_2). \quad (19)$$

Ishni bajarish tartibi va o'lchash natijalarini hisoblashga doir uslubiy ko'rsatmalar

1. Sharchaning massasi m va h_2 balandlik o'lchanadi. Olingan natijalar 1-jadvalning yuqori qismiga yoziladi.
2. A nuqtaga sharchali halqa keltirilib, elektromagnit yoqiladi, sharcha ko'tarilgan h_1 balandlik o'lchanadi.
3. Qurilma stoliga oq qog'oz qo'yilib, ko'chirma qog'oz bilan qoplanadi. (K) kalit orqali elektromagnit o'chiriladi. Chizg'ich bilan $l_i = B'C_i$ masofa o'lchanadi va qog'ozda qolgan sharchaning izi belgilanadi. Qog'ozni biroz surib, yana ko'chirma qog'oz qoplanadi.
4. Tajriba 5 marta qaytariladi. Muayyan h_1 balandlikdan sharchaning uchib tushish uzunligining o'rtacha arifmetik qiymati $\langle l \rangle$ topiladi.
5. 2,3,4 punktlar h_1 ning boshqa qiymatlari uchun takrorlanadi. h_1 balandlik 5 marta o'zgartiriladi.
6. Sharchaning B nuqtadagi W_k kinetik energiyasi (17) formula bo'yicha va ΔW_p potentsial energiyaning kamayishi (13) formula bo'yicha hisoblanadi.
7. Usulning aniqligini baholash uchun quyidagi nisbat hisoblanadi

$$\delta = \frac{\Delta W_p - W_K}{\Delta W_p}. \quad (20)$$

8. O'lchash natijalari va hisoblashlar jadvalga yoziladi.

9. Olingan natijalar asosida grafik chiziladi. "x" o'qiga ΔW_p , "y" o'qiga W_k qiymatlari joylashtiriladi. (18) ga asosan nazariy chiziq o'qlarga nisbatan 45° burchak ostida o'tuvchi to'g'ri chiziq ko'rinishida bo'lishi kerak. Nazariy chiziq punktir bilan, tajriba grafigi uzluksiz chiziq bilan chiziladi.

		m=..... kg				h ₂ =.....m		
No	h ₁	l ₁	l ₂	l ₃	$\langle l \rangle$	W _k	ΔW_p	δ
1								
2								
3								

NAZORAT SAVOLLARI

1. Kinetik energiya nima va u qanday hisoblanadi? Qanday kuchning bajargan ishi kinetik energiya o'zgarishiga teng bo'ladi?
2. Potensial energiya nimani tavsiflaydi? Qanday kuchlarning bajargan ishi potensial energiyaning o'zgarishi bilan bog'liq?
3. Mexanik energiya nima? Mexanikada energiyaning saqlanish qonuni qanday ifodalanadi? Qanday sharoitlarda u bajariladi?
4. Qanday kuchlar dissipativ kuchlar deb ataladi? Energiyaning umumiy saqlanish qonuni qanday ifodalanadi?
5. Qurilma sxemasini tushuntiring. Nima uchun sharcha dumalab harakatlanmay halqa bilan birga harakatlanadi?
6. Kinetik energiyani hisoblash formulasini keltirib chiqaring.
7. Tushayotgan sharchaning potensial energiyasi o'zgarishi qanday hisoblanadi?

ADABIYOTLAR

1. Savelyev I.V. "Umumiy fizika kursi", I tom. Toshkent, "O'qituvchi" nashriyoti, 1983.
2. Ismoilov M.I., Habibullayev P.K., Xaliulin M.G. Fizika kursi (Mexanika, elektr, elektromagnetizm). Toshkent, "O'zbekiston", 2000.
3. Ahmadjonov O. Fizika kursi (Mexanika va molekulyar fizika). Toshkent, "O'qituvchi", 1985.
4. Трофимова Т. Курс физики. Москва. «Высшая школа», 1990.

5 - Laboratoriya Ishi

ELEKTROSTATIK MAYDONDA POTENSIALNING TAQSIMLANISHINI O'RGANISH

Kerakli asboblari: tagi ma'lum masshtabda kataklarga bo'lingan elektrolitik vanna, indikator lampa o'rnatilgan zond, maydoni tekshiriladigan ikkita metal elektrod, ulash simlari, tok manbai.

Ishning maqsadi

Elektrodlar atrofida hosil bo'lgan elektr maydonini o'rganish va ekvipotensial sirtlarning geometrik o'rnini aniqlash usuli bilan tanishish.

Topshiriq

1. Qurilmaning tuzilishini o'rganish va ishda qo'llaniladigan o'lchash usuli bilan tanishyish.
2. Elektrodlar o'rtasidagi potensial taqsimotini o'lchash va bu maydonning ekvipotensial chiziqlarini chizish.
3. Kuchlanganlik chiziqlari orqali elektr maydonining grafik tavsiflash
4. Elektrodlar o'rtasidagi o'q bo'ylab potensialning o'zgarish grafigi $\varphi=f(x)$ ni tuzish.
5. Grafikdan foydalanib berilgan nuqtadagi maydon kuchlanganligini topish.

Asosiy nazariy ma'lumotlar

Qo'zg'almas zaryadlar hosil qilgan va vaqt o'tishi bilan o'zgarmaydigan maydon elektrostatik maydon deyiladi. Bu maydonlar vektor va potensial hisoblanadi.

Elektrostatik maydonning har bir nuqtasini maydonga kiritilgan sinov zaryadiga (q_0) ta'sir etuvchi kuch (\vec{F}) bilan xarakterlash mumkin.

Elektrostatik maydonning biror nuqtasidagi kuchlanganligi (\vec{E}) deb, maydonning shu nuqtasiga kiritilgan bir birlik musbat sinov zaryadiga (q_0) ta'sir qilgan kuchga (\vec{F}) miqdor jihatidan teng bo'lgan fizik kattalikka aytiladi

$$\vec{E} = \frac{\vec{F}}{q_0}, \quad \text{bu yerda } F = \frac{qq_0}{4\pi\epsilon_0 r^2} \quad (1)$$

$$\vec{E} = \frac{q}{4\pi\epsilon_0 r^2} \quad \text{nuqtaviy zaryad maydon kuchlanganligi.}$$

Elektrostatik maydonning potentsiali deb, maydonning shu nuqtasiga kiritilgan birlik musbat sinov zaryadiga (q_0) mos kelgan

potensial energiyaga (W_p) miqdor jihatidan teng bo'lgan fizik kattalikka aytiladi

$$\varphi = \frac{W_p}{q_0}, \quad W_p = \frac{qq_0}{4\pi\epsilon_0 r}, \quad \varphi = \frac{q}{4\pi\epsilon_0 r}. \quad (2)$$

Zaryadlangan jismlar hosil qilgan elektrostatik maydonni kuch chiziqlari va ekvipotensial sirtlar orqali grafik ravishda tavsiflash mumkin.

Maydonning kuch chiziqlari deb, shunday chiziqlarga aytiladiki, uning har bir nuqtasida maydon kuchlanganlik vektori unga urinma ravishda yo'nalgan bo'ladi.

Ekvipotensial sirtlar deb, potentsiallari bir xil bo'lgan nuqtalarning geometrik o'rniga aytiladi.

Elektrostatik maydon potensial maydon va unda ta'sir etuvchi kuchlar konservativ kuchlardir. Yopiq kontur bo'yicha zaryadni ko'chirishda bajarilgan ish nolga tengdir, $A = \oint q_0 E_e de = 0$ va $q_0 = 1$ bo'lganda $\oint E_e dl = 0$ bo'ladi.

Demak, kuchlanganlik vektorining yopiq kontur bo'yicha sirkulyatsiyasi har doim nolga tengdir. q_0 zaryadni kichik siljishida bajarilgan ishni ikki xil aniqlash mumkin

$$dA = Fdl = q_0 E \cos(\vec{E}d\vec{l}) dl, \quad \text{va} \quad (3)$$

$$dA = -q_0 d\varphi = -dW, \quad (4)$$

ya'ni potensial energiyani kamayishi orqali aniqlash mumkin. Bu formuladan \vec{E} va φ lar orasidagi bog'lanishni topish mumkin

$$q_0 E \cos(\vec{E}d\vec{l}) dl = -q_0 d\varphi, \quad E \cos(\vec{E}d\vec{l}) dl = E_e$$

ya'ni \vec{E} vektorni dl ga proyeksiyasi

$$E_e = -\frac{d\varphi}{dl}.$$

Formuladagi minus ishorasi \vec{E} vektorning yo'nalishi potensialni kamayishi tomonga yo'nalgan ekanligini bildiradi.


Agar zaryad dl yo'nalishi bo'ylab ko'chadigan bo'lsa, ya'ni kuch chiziqlariga perpendikular yo'nalishda, demak \vec{E} vektorga perpendikular bo'lsa,

$$E \cos(\vec{E}d\vec{l}) = 0, \quad \vec{E}_e = 0 \quad \text{va} \quad \frac{d\varphi}{dl} = 0, \quad \varphi = const \quad \text{bo'ladi.}$$

Demak, kuchlanganlik vektori chiziqlariga perpendikular bo'lgan egri chiziq potentsiali bir xil, ya'ni ekvipotensial sirtlar bo'ladi.

Qurilmaning tuzilishi va o'lchash usuli

Laboratoriyada foydalaniladigan elektrolitik vannalar qurilmasining



2- rasm

prinsipial elektr sxemasi 2-rasmda keltirilgan. Yaxshi elektrizolyatsiya xossasiga ega bo'lgan organik shishadan $25 \times 50 \text{ sm}^2$ o'lchamda yasalgan, x va y o'qlar bo'yicha darajalangan vannaga A va B elektrodlar joylashtiriladi, ular orasida tekshiriladigan maydon hosil qilinadi. Vanna elektr o'tkazuvchanligi metalnikiga nisbatan kichik bo'lgan suyuqlik –

elektrolit bilan to'ldiriladi. Xususan bunday elektrolit sifatida oddiy suv olinadi. A va B elektrodlar vanna tubiga tayanib, vannaga qo'yilgan elektrolit sathidan chiqib turadi. Elektr zond sifatida metal simning o'tkir uchi xizmat qilib, u nol galvanometr, yoki ossillograf, yoki indikator (yashil ko'zli) radiolampa orqali P potentsiallarga ulanadi. Agar elektrodga o'zgarish kuchlanish berilsa, elektroliz sababli elektrodlarda modda ajraladi va qutblanish elektr yurituvchi kuch hosil bo'lib, u tekshirilayotgan maydon xarakterini o'zgartiradi. Shu sababli bu ishda o'zgarish tok o'rnida past chastotali o'zgaruvchan tokdan foydalaniladi.

Laboratoriya ishida zaryadlangan metal elektrodlar orasida hosil bo'ladigan elektr maydoni shunday maydonni modellashtirish yo'li bilan ya'ni, ekvivalent elektr maydoni hosil qilib o'rganiladi. O'tkazuvchanligi yomon bo'lgan elektrolitlarda Ohm qonuni bajarilganligi $j = \sigma E$ uchun shunday elektrolitlarda hosil bo'lgan maydon o'rganiladi: formulada j - tokning zichligi, σ - solishtirma o'tkazuvchanlikdir.

Elektrolitdagi tok chiziqlari maydon kuchlanganligi yo'nalishi bilan mos keladi, elektrolitik vannada maydonning ekvipotensial sirtlari modellashtirilgan ekvipotensial sirtlar bilan mos tushadi.

Eslatma! Laboratoriya ishini bajarishda quyidagi shartlar bajarilishi zarur:

1. Elektrolit bir jinsli va katta qarshilikka ega bo'lishi kerak. Shu yo'l orqali maydonlarni o'xshashligi hosil qilinadi va kuch chiziqlarini va elektrodlar sirtlarining tok chiziqlariga perpendikularligi hosil bo'ladi.
2. O'zgarish tok o'rnida kichik chastotali o'zgaruvchan tokdan foydalanish ma'quldir.
3. Laboratoriya ishida ekvipotensial sirtlar potentsiali o'lchanganligi uchun ishning elektr sxemasi ko'priki (Uitston ko'prigi) sxemasini eslatadi va bunda reoxord voltmetrli potentsiometrik reostat bilan almashtirilgan. Bu voltmetr reostatning suriluvchan kontakti bilan

uning potentsiali nolga teng bo'lgan elektrolitik vannaga ulangan elektrodleri orasidagi kuchlanishni o'lchaydi.

Ishni bajarish tartibi va o'lchash natijalarini hisoblashga doir uslubiy ko'rsatmalar

1. Elektrolit turadigan idish (vanna)ning gorizontalligini tekshirib ko'rib, unga suv quyiladi.
2. Millimetr shtrixlari chizilgan qog'ozga yoki katak daftarga masshtabni moslab elektrodler va koordinata o'qlari chiziladi.
3. Vanna tokka ulanib B elektrodning potentsiali yozib olinadi. Buning uchun reostatning suriluvchi kontaktini oxirigacha suriladi voltmetrning eng katta ko'rsatishi B elektrodning potentsiali bo'ladi. So'ngra reostatni suriluvchi kontakti orqali voltmetrni 5V dan kamaytirib ampermetr ko'rsatishlarini nolga aylanguncha surib boramiz.
4. Topilgan nuqtani tayyorlab qo'yilgan millimetrli qog'ozga tushiramiz va undan 1-2 sm narida ikkinchi va hokazo nuqtalarni qidiramiz. Nuqtalarni ko'paytirib va ularni birlashtirib, ekvipotensial sirtlarni topamiz.
5. Ekvipotensial sirt chizilgandan so'ng, grafikda kuch chiziqlari chiziladi. Bunda kuch chiziqlari elektrodler sirtiga va ekvipotensial sirtlarga perpendikular bo'lishi e'tiborda bo'lishi kerak.
6. Ekvipotensial sirtlar ketma-ket zich qilib olinsa, bu holda maydonning har qanday nuqtasida maydon kuchlanganligini topish mumkin. Buning uchun potentsiallari φ_1 va φ_2 ikkita ketma-ket keluvchi ekvipotensial sirtlar orasidagi masofa d ni kichik bo'lganligi uchun bu maydonni bir jinsli deb hisoblasa bo'ladi, unda

$$E = \frac{\varphi_1 - \varphi_2}{d}, \quad (B/M.)$$

Y	$\varphi_1 = V$	$\varphi_2 = V$	$\varphi_3 = V$	$\varphi_4 = V$	$\varphi_5 = V$
	X	X	X	X	X
o	/	/	/	/	/
± 2	/	/	/	/	/
:	/	/	/	/	/
± 10	/	/	/	/	/

NAZORAT SAVOLLARI

1. Elektrostatik maydonning kuchlanganligi va potentsialini ta'riflang va tushuntiring.
2. Maydonlarning superpozitsiya prinsipini tushuntiring. Nuqtaviy zaryadning maydon kuchlanganligi va potentsiali qanday topiladi?

3. Maydon kuchlanganligi va elektr siljish vektori uchun Gauss teoremasi nimani ta'kidlaydi?
4. Kuchlanganlik vektorining sirkulyatsiyasi nimaga teng?
5. Qanday sirtlar ekvipotensial sirtlar deyiladi va ular kuch chiziqlariga nisbatan qanday joylashgan bo'ladi?
6. Ushbu usulda nima uchun o'zgaruvchan tokdan foydalaniladi?

ADABIYOTLAR

1. Savelyev I.V. "Umumiy fizika kursi", II tom. Toshkent, "O'qituvchi", 1983 .
2. Ismoilov M.I., Habibullayev P.K., Xaliulin M.G. Fizika kursi (Mexanika, elektr, elektromagnetizm). Toshkent, "O'zbekiston", 2000.
3. Ahmadjonov O. Fizika kursi ,2- qism, Toshkent, "O'qituvchi" 1985.
4. Трофимова Т.И. Курс физики. М. «Высшая школа» 1990.
5. Детлаф А.А., Яворский Б.М. Курс физики. Москва. «Высшая школа», 1989
6. Kalashnikov S.G.. Elektr. Toshkent, "O'qituvchi", 1979.

6 - Laboratoriya Ishi

O'TKAZGICH QARSHILIGINI UITSTON KO'PRIGI VOSITASIDA O'LGHASH

Kerakli asboblari: Uitston ko'prigi qurilmasi, o'zgarmas tok manbai, reoxard, reostat, tumbler (kalit), galvanometr, o'lchanadigan rezistorlar (qarshiliklar), sxemani ulash simlari .

Ishning maqsadi

Laboratoriya ishini bajarish natijasida talaba: tok kuchi, tok zichligi, kuchlanish kabi fizikaviy kattaliklarning ma'nodini bilishi; Om, Joul-Lents qonunlarini go'llashni bilishi: parallel va ketma-ket ulangan qarshiliklardan iborat zanjir uchun Kirxgof qoidalarini qo'llay olishi kerak.

Topshiriq

1. Qarshiliklarni ko'prik sxemasi yordamida o'lchashning klassik usuli- Uitston ko'prigi bilan tanishish.
2. Uitston ko'prigi qurilmasidan foydalanib ikkita qarshilikning qarshiligini alohida-alohida o'lchash.
3. Bu qarshiliklarni parallel va ketma-ket ulangan hollari uchun umumiy qarshilikni o'lchash.
4. O'lchash natijalarini parallel va ketma-ket ulangan qarshiliklarning umumiy qarshiligini hisoblash formulalari bo'yicha nazariy hisoblashlar bilan solishtirish va tegishli xulosalar chiqarish.

Asosiy nazariy ma'lumotlar

1. Elektr zanjiri va uning elementlari. Eng sodda elektr zanjiri elektr energiyasi manбайдan, elektr energiyani uzatuv-chi va qabul qiluvchi qismlardan tashkil topgan bo'ladi. Shunday qilib, elektr energiya manbai, tok o'tishi mumkin bo'lgan simlar va tokni qabul qiluvchi qismlardan tashkil topgan sistema elektr zanjiri deyiladi. Elektr zanjirni tashkil qilgan qismlarning shartli belgilar asosida ifodalanishi elektr sxema deyiladi.

2. Elektr toki va tokning kuchi. Zaryadlarning tartibli harakatiga elektr toki deyiladi. Zaryadlangan jismlarning tartibli harakatidan hosil bo'lgan tokka konveksion tok deyiladi.

Metallardagi erkin elektronlarning tashqi elektr maydoni ta'sirida tartibli harakati natijasida hosil bo'lgan tokka o'tkazuvchanlik toki deyiladi.

Tok kuchi deb, o'tkazgichning ko'ndalang kesim yuzasidan vaqt birligi ichida o'tgan zaryadga miqdor jihatdan teng bo'lgan fizik kattalikka aytiladi

$$I = \frac{dq}{dt} . \quad (1)$$

Agar tokning kuchi miqdor va yo'nalish jihatdan doimiy, ya'ni $I = \text{const}$ bo'lsa, (1) tenglama integral ko'rinishga keladi

$$I = \frac{q}{t} . \quad (1.a)$$

3. Zanjirning bir qismi uchun Om qonuni. O'tkazgichning bir qismidan o'tgan tokning kuchi, uning uchlaridagi kuchlanish U ga to'g'ri, qarshiligi R ga teskari proporsionaldir

$$I = \frac{U}{R} . \quad (2)$$

O'tkazgichning qarshiligi uning uzunligi l ga to'g'ri, ko'ndalang kesim yuzi S ga esa teskari proporsionadir, ya'ni

$$R = \rho \frac{l}{S} , \quad (3)$$

bunda, ρ - proporsionallik koeffitsiyenti, u metallning tabiatiga bog'liq bo'lib, solishtirma qarshilik deb ataladi.

Metallardagi zaryadli zarralarning ta'sirlashuvi o'tkazgichning temperaturasi bog'liq bo'lib, bu o'z navbatida o'tkazgich elektr qarshiligining o'zgarishiga olib keladi. Bu bog'lanishni ifodalash uchun qarshilikning temperatura koeffitsiyenti (α) tushunchasi kiritiladi.

Agar berilgan o'tkazgich materialining $T_0 = 273^\circ\text{K}$ (0°C) temperaturadagi solishtirma qarshiligi ρ_0 bo'lsa, u holda uning ixtiyoriy temperaturadagi ρ solishtirma qarshiligining temperaturaga bog'lanishi quyidagicha ifodalanadi

$$\rho = \rho_0(1 + \alpha \Delta T) = \rho_0[1 + \alpha(T - T_0)] \quad (4)$$

U vaqtda (3) ga asosan o'tkazgich qarshiligining temperaturaga bog'lanishi quyidagicha bo'ladi

$$R = R_0(1 + \alpha \Delta T) = R_0[1 + \alpha(T - T_0)] , \quad (5)$$

bunda, R_0 - o'tkazgichning $T_0 = 273 \text{ K}$ (0°C) temperaturadagi qarshiligidir. (4) va (5) formulalardagi $(1 + \alpha \Delta T) = [1 + \alpha(T - T_0)]$ ifodaga termik qarshilik binomi deb ataladi va o'tkazgich qarshiligining R_0 ga nisbatan necha marta o'zgarishini ko'rsatadi.

O'tkazgichlar uchun yana xarakterli bo'lgan parametrlar solishtirma qarshilik va qarshilikning teskari ifodasidan iborat bo'lgan solishtirma va elektr o'tkazuvchanlik (σ , G) dir

$$\sigma = \frac{1}{\rho} , \quad G = \frac{1}{R} . \quad (6)$$

4. To'liq zanjir uchun Om qonuni. Yopiq zanjirdan o'tayotgan tokning kuchi manbaning elektr yurituvchi kuchi (E.Yu.K.)ga to'g'ri, zanjirning to'la qarshiligiga teskari proporsionaldir

$$I = \frac{\varphi_1 - \varphi_2 + \varepsilon_{12}}{R}, \quad (7)$$


$$I = \frac{\varepsilon_{12}}{R} = \frac{\varepsilon_{12}}{R_g + r}. \quad (8)$$

Om qonunining differensial ifodasi

$$\vec{j} = \sigma \vec{E} = \frac{1}{\rho} \vec{E} \quad (9)$$

5. Kirxgof qonunlari. Tarmoqlangan murakkab zanjirni Om qonuni asosida hisoblash juda qiyin bo'lib, uni Kirxgof qonunlari asosida osongina hisoblash mumkin.

a) Kirxgofning 1-qonuni. Zanjir tugunida uchrashgan toklarning algebraik yig'indisi nolga tengdir



1-rasm

$$\sum_{i=1}^n I_i = 0. \quad (10)$$

Bunda tugunga kelayotgan toklar musbat deb olinsa, tugundan chiqib ketayotgani manfiy deb olinadi.

1-rasmda tasvirlangan tugun uchun (10) tenglama yozilsa

$$I_1 - I_2 - I_3 + I_4 + I_5 - I_6 = 0$$

(10.a)

yoki,
$$I_1 + I_4 + I_5 = I_2 + I_3 + I_6. \quad (10.b)$$

(10.b) ga binoan Kirxgof 1-qonunini yana quyidagicha ta'riflash mumkin: Tugunga keluvchi toklarning yig'indisi tugundan ketuvchi toklarning yig'indisiga tengdir.

b) Kirxgofning 2- qonuni: Tarmoqlangan murakkab zanjirning ixtiyoriy berk konturi qismlaridan o'tayotgan tok kuchlarining mos ravishda qarshiliklariga ko'paytmalarining yig'indisi, shu konturdagi E.Yu.K.larning algebraik yig'indisiga tengdir

$$\sum_i I_i R_i = \sum_k E_k \quad (11)$$

6. O'tkazgichlarni ulash:

a) O'tkazgichlarni ketma-ket ulash. Elektr zanjiriga o'tkazgichlar ulanganda tarmoqlanish sodir bo'lmasa, ular o'zaro ketma-ket ulangan bo'ladi.

Ketma-ket ulangan n-ta o'tkazgichlardan tuzilgan batareyaning umumiy qarshiligi har bir ulangan qarshiliklarning algebraik yig'indisiga tengdir

$$R_{n-n} = R_1 + R_2 + R_3 + \dots + R_n = \sum_{i=1}^n R_i \quad (12)$$

Agar ketma-ket ulangan barcha o'tkazgichlarning qarshiliklari o'zaro teng va R_0 bo'lsa, (12) quyidagiga teng bo'ladi

$$R_{n-1} = \sum_{i=1}^n R_0 = nR_0. \quad (13)$$

Shunday qilib, qarshiliklari bir xil bo'lgan, ketma-ket ulangan n -ta o'tkazgichdan tuzilgan batareyaning umumiy qarshiligi har bir o'tkazgichning qarshiligidan n marta kattadir.

b) O'tkazgichlarni parallel ulash. O'tkazgichlarning birinchi va ikkinchi uchlari mos ravishda ulanib tarmoqlanish hosil bo'lsa, ular o'zaro parallel ulangan bo'ladi. Parallel ulangan m -ta o'tkazgichlardan tuzilgan batareya umumiy qarshiligining teskari ifodasi har bir o'tkazgich qarshiligi teskari ifodalarining algebraik yig'indisiga tengdir, ya'ni

$$\frac{1}{R_{nap}} = \frac{1}{R_1} + \frac{1}{R_2} + \frac{1}{R_3} + \dots + \frac{1}{R_m} = \sum_{i=1}^m \frac{1}{R_i}. \quad (14)$$

Agar parallel ulangan o'tkazgichlar qarshiliklari o'zaro bir-biriga teng va R_0 bo'lsa, u holda (14) dan quyidagi hosil bo'ladi:


$$\frac{1}{R_{nap}} = \sum_{i=1}^m \frac{1}{R_0} = \frac{m}{R_0} \quad \text{yoki,} \quad R_{nap} = \frac{R_0}{m}. \quad (14.a)$$

Shunday qilib, parallel ulangan qarshiliklari bir xil bo'lgan m ta o'tkazgichdan tuzilgan batareyaning umumiy qarshiligi har bir o'tkazgich qarshiligidan m marta kichikdir.

Qurilmaning tuzilishi va o'lchash usuli

Biror R_x qarshilikning qiymatini R_0 ma'lum qarshilikning qiymati bilan taqqoslab topishda qo'llaniladigan sxema Uitston ko'prigi deb ataladi. Uitston ko'prigining prinsipial sxemasi 2-rasmda tasvirlangan. Uitston ko'prigidagi E manbaga ulangan zanjirdan o'tuvchi I tok kuchi A tugunda tarmoqlanadi.

Zanjirning ACBA qismi ketma-ket ulangan R_x – noma'lum va R_0 – aniq ikkita qarshilik va tarang tortilgan AB simdan iboratdir. Bu qarshiliklarning uchlari ulangan C nuqtaga o'lchov asbobi G-galvanometr ulanib, ikkinchi uchi esa D sirpanuvchi kontaktga ulangan. Bu kontakt AB sim bo'ylab siljiy oladi va shu tarzda AD va DB qismlarning R_1 hamda R_2



2- rasm

qarshiliklar yoki l_1 hamda l_2 uzunliklar nisbatini o'zgartira oladi. Bu holat uchun tokning yo'nalishi 2-rasmda ko'rsatilgandek tanlab olinsa, Kirxgofning I-qonunini (10) ifodaga binoan quyidagi tenglamalar orqali yozish mumkin. A, C, D tugunlar uchun:

$$\begin{cases} I_1 + I_2 - I = 0 \\ I_1' + I_g - I_1 = 0 \\ I_2' - I_g - I_2 = 0 \end{cases} \quad (15)$$

Sxemadagi ACDA, CBDC va ABEA berk konturlarning har biri uchun Kirxgofning II-qonuni (11) ga binoan quyidagi tenglamalarni yozish mumkin:

$$\begin{cases} I_1 R_x + I_g R_g - I_2 R_1 = 0 \\ I_1' R_0 - I_2' R_2 - I_g R_g = 0 \\ I_2 R_1 + I_2' R_2 + IR = 0 \end{cases} \quad (16)$$

Galvanometrdan o'tuvchi tok nolga ($I_g = 0$) teng bo'lganda (15) va (16) tenglamalar quyidagi ko'rinishga keladi

$$\begin{cases} I_1 R_x = I_2 R_1 \\ I_1 R_0 = I_2 R_2 \end{cases} \quad (17)$$

bundan,

$$\frac{R_x}{R_0} = \frac{R_1}{R_2}. \quad (18)$$

Bu yerda bir jinsli AB sim qismlar qarshiliklarining nisbati, uzunliklari nisbati kabidir, ya'ni:

$$R_x = R_0 \frac{l_1}{l_2}, \quad \text{va} \quad R_x = R_0 \frac{l_1}{l - l_1}. \quad (19)$$

(19) formulada yelkalar nisbati $\frac{l_1}{l_2}$ birga yaqin bo'lganda R_x -ning o'lchash aniqligi katta bo'ladi. Shuning uchun ham Uitston ko'prigidan R_x no'malum qarshilikni o'lchashda R_0 ma'lum qarshilik noma'lum qarshilikdan ko'p farq qismasligi maqsadga muvofiqdir.

Ishni bajarish tartibi va o'lchash natijalarini hisoblashga doir uslubiy ko'rsatmalar

1. O'lchashning aniqligi maksimal bo'lishi uchun, ulash simlarining kontaktlari toza va sirpangich D ning reoxord bilan kontakti ham yaxshi bo'lishi kerak.
2. Uitston ko'prigida ulash simlarining qarshiligiga yaqin bo'lgan, ya'ni 1 Om dan kichik qarshiliklarni o'lchash tavsiya qilinmaydi.
3. Ishning yig'ilgan sxemasi tekshirtirilgandan keyin, zanjirda hosil bo'ladigan ekstra toklar galvanometrni ishdan chiqarmasligi uchun, oldin K_1 kalit orqali tok manbai ulanib, keyin K_2 kalit orqali galvanometr ulanadi. (Kalitlarni uzish teskari tartibda bajariladi).
4. Uitston ko'prigidagi galvanometrning ko'rsatishini chegaralash uchun, unga 10^3 - 10^4 Om qarshiliklar ketma-ket ulanadi. Uitston ko'prigidagi R_x no'malum qarshilikni o'lchashda, ko'prikdagi qarshiliklar magazinidan R_0 ma'lum qarshilikni shunday tanlab olinadiki, D qo'zg'aluvchi kontakt reoxordning o'rtasiga yaqin joyda bo'lganda galvanometr nolni ko'rsatsin.
5. Reoxordning l_1 va l_2 yelkalarining uzunliklari AB sim bo'ylab joylashtirilgan hisob chizig'i yordamida topiladi va (19) formula asosida izlanayotgan R_x qarshilik hisoblanadi. Berilgan har bir o'tkazgich uchun o'lchashlar 3-4 marta takrorlanib, har bir o'tkazgichning o'rtacha qarshiligi hisoblanadi.
6. O'lchash va hisoblash natijalari 1-jadvalga yoziladi.

1- jadval

Qarshiliklar	O'lchashlar	R ₀ , Om	l ₁	l ₂	R _x , Om	<R _x >, Om
R'_x	1					
	2					
	3					
R''_x	1					
	2					
	3					

7. Berilgan o'tkazgichlardan ikkitadan o'zaro ketma-ket va parallel ulangandagi qarshiligi yana Uitston ko'prigidan o'lchanadi va (19) formula asosida hisoblanadi.

8. 1-hisoblash jadvalidagi aniqlangan har bir o'tkazgichlarning o'rtacha qarshiliklari R' , R'' , R''' larni haqiqiy qiymatlar deb, ularga asosan ketma-ket va parallel ulangan o'tkazgichlarning qarshiliklari quyidagi formulalar asosida nazariy hisoblanadi:

$$R_{k-k}^{naz} = \sum_{i=1}^n R_i \quad \text{va} \quad \frac{1}{R_{par}^{naz}} = \sum_{i=1}^n \frac{1}{R_i}.$$

9. O'zaro ketma-ket va parallel ulangan o'tkazgichlarining R^{taj} – tajribada aniqlangan va R^{naz} – nazariy hisoblangan qarshiliklari asosida, o'lchashning nazariyaga nisbatan nisbiy xatoligi quyidagi formuladan aniqlanadi

$$\delta = \frac{|R^{taj} - R^{naz}|}{R^{naz}} 100\%.$$

7, 8, 9 – bandlarda o'lchangan va hisoblangan natijalar 2-jadvalga yoziladi.

2- jadval

Ulash	R_0, Om	l_1	l_2	R_x^{taj}, Om	R_x^{naz}, Om	$\delta, \%$
Ketma-ket						
Paral-Lel						

NAZORAT SAVOLLARI

1. Tok va tokning kuchi deb nimaga aytiladi?
2. Zanjirning bir qismi uchun Om qonuni ta'riflansin va matematik ifodasi yozilsin.
3. Qarshilik va solishtirma qarshilik nima? Ular qanday birliklarda o'lchanadi?
4. O'tkazgichlarni ketma-ket va parallel ulashni tushuntirib bering.
5. Kirxgofning birinchi va ikkinchi qonunlarini ta'riflang. Matematik ifodasini yozing.
6. Qarshilik Uistston ko'prigida qanday o'lchanadi?

7 - Laboratoriya Ishi

AMPER KUCHINI VA MAGNIT MAYDON INDUKSIYASINI ANIQLASH

Kerakli asboblari: Taqasimon magnitlar, < Arg'umchoq > simon osilgan o'tkazgich, tok manbai, chizg'ich va ulash simlari.

Ishning maqsadi

Laboratoriya ishini bajarish natijasida talaba;

- Amper qonunini bilishi;
- Amper qonunini qo'llab doimiy magnitning magnit maydon induksiya-sini aniqlay olishi zarur.

Topshiriq

1. Laboratoriya qurilmasining tuzilishi bilan tanishing.
2. Tajriba natijalaridan Amper kuchining qiymatini toping.
3. Magnit maydon induksiya-sining modulini hisoblang.

Asosiy nazariy ma'lumotlar

Magnit maydoni deb, harakatlanuvchi zaryadlar, tokli o'tkazgich va doimiy magnitlar atrofida hosil bo'ladigan maydonga aytiladi. Demak, magnit maydonini faqat harakatlanuvchi zaryadga, tokli o'tkazgichga va doimiy magnitlarga ta'sir orqaligina aniqlash mumkin.

Magnit maydoniga joylashtirilgan to'g'ri tokli o'tkazgichga F_A - Amper kuchi ta'sir etadi. Amper qonuni quyidagicha ta'riflanadi. Magnit maydoniga kiritilgan (dl) elementar uzunlikdagi tokli o'tkazgichga ta'sir etuvchi elementar kuch (dF_A) o'tkazgichdan o'tayotgan tok kuchiga, o'tkazgichning uzunligi ($d\vec{l}$) bilan magnit maydon induksiya-si (\vec{B}) ning vektor ko'paytmasiga to'g'ri proporsional

$$dF_A = I \cdot [d\vec{l} \cdot \vec{B}] \quad \text{yoki} \quad dF_A = I \cdot B \cdot dl \cdot \sin(d\vec{l} \cdot \vec{B}), \quad (1)$$

bu yerda, $d\vec{l}$ vektorning yo'nalishi tok yo'nalishi bilan bir xil (1-rasm).


Cekli uzunlikdagi tokli o'tkazgichga magnit maydoni tomonidan ta'sir etuvchi Amper kuchi quyidagicha aniqlanadi:

$$F_A = \int_0^l (IB \sin \alpha) \cdot dl, \quad (2)$$


bunda integrallash o'tkazgichning butun uzunligi bo'yicha olinadi. Bir jinsli magnit maydoni ($\vec{B} = const$) va doimiy tok ($I = const$) bo'lgan hol uchun esa,

$$F = IB l \sin \alpha,$$

bu yerda α burchak - $d\vec{l}$ va \vec{B} vektorlar orasidagi burchak.



1-rasm



2-rasm

Agar $d\vec{l} \perp \vec{B}$ bo'lsa, $d\vec{F}_A$ kuchning yo'nalishi chap qo'l qoidasi bilan topiladi.

Agar chap qo'lning kaftiga magnet induksiya vektori tik kirsa, to'rt barmoq yo'nalishi elektr tokining yo'nalishi bo'yicha joylashtirilsa, bu holda 90° ga ochilgan bosh barmoq, magnet maydoniga kiritilgan tokli o'tkazgichga ta'sir etuvchi Amper kuchi yo'nalishini ko'rsatadi.


Bu holda $\sin 90^\circ = 1$, va Amper kuchi maksimal bo'ladi (2-rasm).

Amper qonuni magnet maydonning kuch xarakteristikasi bo'lgan (\vec{B}) ni ta'riflash imkonini yaratadi. Magnet maydon induksiyasi deb, bir birlik tok elementi ($I d\vec{l}$) ga ta'sir etuvchi Amper kuchining maksimal qiymatiga teng bo'lgan fizikaviy kattalikka aytiladi

$$B = \frac{dF_{\max}}{I dl}$$

Bunga ko'ra magnet maydon induksiyasining o'lchov birligi - tesla (Tl) ning ta'rifini berish mumkin. 1 Tl - bir jinsli magnet maydonining shunday induksiyasiki, bunda maydon yo'nalishiga perpendikular joylashtirilgan o'tkazgichdan 1A tok o'tganda, o'tkazgichning har bir metriga 1 N kuch ta'sir etadi, ya'ni

$$1 \text{ Tl} = 1 \frac{\text{N}}{\text{A}\cdot\text{m}}$$



3 - rasm

Qurilmaning tuzilishi va o'lchash usuli

Laboratoriya ishini o'tkazish uchun Amper kuchini "arg'imchoq" yordamida kuzatish usulidan foydalaniladi. "Arg'imchoq" qalin mis simdan iborat bo'lib, uning ikki uchiga emal himoya qoplamali ingichka ikkita ip kavsharlangan. "Arg'imchoq" shtativga mahkamlangan izolatsiyalovchi sterjenga osilgan. "Arg'imchoq"ning mis simi

taqasimon magnit qutblari orasiga joylashtirilgan.

Tok o'tkazilganda mis sim Amper kuchi ta'sirida ma'lum (x) masofaga siljiydi (3-rasm). Muvozanat holatida o'tkazgichga ta'sir etuvchi kuchlar kompensatsiyalangan bo'lib, natijaviy kuch nolga teng

$$m\vec{g} + \vec{F}_A + \vec{F} = 0$$

bunda: $m\vec{g}$ – mis o'tkazgichga ta'sir etuvchi og'irlik kuchi, \vec{F}_A – Amper kuchi, \vec{F} – "arg'imchoq"ning taranglik kuchi.

3-rasmdan KDM va BCD uchburchaklar o'xshashligidan α - kichik burchaklar uchun quyidagi munosabatni yozish mumkin:

$$\frac{F_A}{x} = \frac{mg}{L}, \text{ bundan } F_A = \frac{mgx}{L}$$

Amper kuchini o'lchab, magnit maydon induksiyasini quyidagi formuladan hisoblanadi:

$$B = \frac{F_A}{I \cdot l}$$

bunda I – mis o'tkazgichdan o'tayotgan tok kuchi; l – magnit ichidagi o'tkazgich uzunligi.

[Ishni bajarish tartibi va o'lchash natijalarini hisoblashga doir uslubiy ko'rsatmalar](#)

1. Osma "arg'imchoq"ning uzunligi – L va magnit maydon ichidagi mis o'tkazgich uzunligi l (uni magnitning kengligiga teng deb olinadi) o'lchanadi.
2. Doimiy tok manbai ulanadi. Ulashdan oldin manba ko'rsatkichi nolga keltirib olinadi. Tok kuchining qiymati qo'yilib, magnit maydonidagi "arg'imchoqqa" osilgan mis o'tkazgichning boshlang'ich holatidan qanchaga og'gani (x) chizg'ich yordamida aniqlanadi.
3. $F_A = \frac{mgx}{L}$ formula orqali Amper kuchi hisoblanadi, m - o'tkazgich massasi (qurilmada ko'rsatilgan bo'ladi).
4. $B = \frac{F_A}{I \cdot l}$ formula bo'yicha magnit maydon induksiyasi hisoblanadi, bunda I – zanjirdagi tok kuchi bo'lib, u ampermetr bo'yicha aniqlanadi.
5. 1-4 bandlar tok kuchining boshqa qiymatlari uchun ham takrorlanadi (bunda tok kuchi 2A dan oshmasligi kerak).
6. Ikkita bir xil magnitni birlashtirish orqali magnit maydon ichidagi o'tkazgich uzunligini ikki marta oshirib, tajribaning takrorlash mumkin.
7. Tajriba natijalari quyidagi jadvalga yoziladi.

T/r №	O'tkazgich uzunligi, l (m)	x (m)	Tok kuchi, I (A)	Amper kuchi F_A (N)	Magnit maydon induksiyasi			O'lchash xatoligi, $\varepsilon = \frac{\langle \Delta B \rangle}{\langle B \rangle} \cdot 100\%$
					B (T)	$\langle B \rangle$	$\langle \Delta B \rangle$	
1								
2								
3								
4								
5								

NAZORAT SAVOLLARI

1. Nimalar magnit maydon manbalari bo'lishi mumkin? Ushbu ishda magnit maydoni nima orqali hosil qilinadi?
2. Amper kuchini vektor va skalyar ifodalarini yozing va Amper qonunini ta'riflang. Amper kuchining yo'nalishi qanday aniqlanadi.
3. Magnit maydon induksiyasini va SI tizimida magnit maydon induksiyasi birligini ta'riflang.
4. Parallel toklar uchun Amper formulasini yozing va tok kuchi birligi (amper)ning ta'rifini ayting.
5. O'lchash va hisoblashlarni o'tkazish tartibini tushuntirib bering.

ADABIYOTLAR

1. Savelyev I.V. "Umumiy fizika kursi", II tom. Toshkent, "O'qituvchi", 1983.
2. Ismoilov M.I., Habibullayev P.K., Xaliulin M.G. Fizika kursi (Mexanika, elektr, elektromagnetizm). Toshkent, "O'zbekiston", 2000.
3. Ahmadjonov O. Fizika kursi, 2- qism, Toshkent, "O'qituvchi" 1985.
4. Трофимова Т.И. Курс физики. Москва. «Высшая школа» 1990.
5. Детлаф А.А., Яворский Б.М. Курс физики. Москва. «Высшая школа», 1989
6. Kalashnikov S.G.. Elektr. Toshkent, "O'qituvchi", 1979.

8- LABORATORIYA ISHI

TANGENS-BUSSOL YORDAMIDA YER MAGNIT MAYDON KUCHLANISHINING GORIZONTAL TASHKIL ETUVCHISINI ANIQLASH

Kerakli asboblari: Tangens-Bussol, aylana shaklidagi tokli g'altak, doimiy tok manbai, kalit, ampermetr, reostat

Ishning maqsadi

Laboratoriya ishini bajarish natijasida talaba:

- Magnit maydon tavsiflari \vec{B} va \vec{H} ta'riflari va ular orasidagi bog'lanish; Yer magnitizmi haqida tasavvurga ega bo'lishi kerak.
- Turli shakldagi tokli o'tkazgichlarning magnit maydon induksiyasini hisoblash uchun Bio-Savar-Laplas qonunini qo'llashni bilishi kerak.


Topshiriq

1. Tangens-Bussol yordamida yer magnit maydon kuchlanganligining gorizonttal tashkil etuvchisini o'lchash.
2. O'lchash xatoliklarini hisoblash


Asosiy nazariy ma'lumotlar

Yer magnetizmi, geomagnetizm – Yerning xususiyatlaridan biri, Yer shari atrofidagi magnit maydoniga bog'liqdir. Yerning magnit qutblari geografik qutblariga mos kelmaydi va vaqt o'tishi bilan o'z o'rnini o'zgartirib turadi. Yerning janubiy magnit qutbi shimoliy geografik qutbi yaqinida shimoliy magnit qutbi esa janubiy geografik qutbi yaqinida joylashgandir (1-rasm). Yer magnit maydonini taxminan Yer markazidan bir necha yuz kilometr janubda joylashgan magnit momenti $P_m = -8,1 \cdot 10^{22} \frac{J}{Tl}$ ga teng bo'lgan magnit dipoli hosil qilgan maydon deb qarash mumkin.

Yer magnit maydoni kuchlanganligi uncha katta bo'lmasa ham u juda keng tarqalganligi sababli uning energiyasi juda kattadir. Yerning magnit induksiya oqimiga teng bo'lgan magnit induksiya oqimi hosil qilishlik uchun, Yer ekvatoriga o'ralgan simdan 660 mln amper kattalikdagi tokni o'tkazishi kerak bo'lar edi.



1-rasm



2-rasm

Yer magnit maydonini kompasning magnit strelkasi yordamida osongina tekshirish mumkin. Agar magnit strelkasi og'irlik markazidan yengil ipga osib qo'yilsa, u Yer magnit maydon kuch chiziqlari, ya'ni maydon kuchlanganligi vektori \vec{H} bo'ylab oreintatsiyalanadi. Xususiyl hollarda, Yerning magnit maydon kuchlanganligi ekvatorida gorizontall yo'nalgan bo'lib 0,34 erstedga va qutbda esa vertikal yo'nalgan bo'lib 0,66 erstedga tengdir.

\vec{H} vektorning miqdori Yer magnetizmining elementlari, ya'ni magnit og'ish burchagi (φ), gorizontall tashkil etuvchisi (\vec{H}_0), enkayish burchagi (α) va vertikal tashkil etuvchisi \vec{H}_z bilan ifodalanadi.

Yer magnetizmi elementlari to'g'ri burchakli koordinatalar sistemasida quyidagicha joylashgan (2-rasm): y -geografik meridian, x -geografik kenglik va z -vertikal chiziq bo'ylab yo'nalgan koordinata o'qlari. Yer magnit maydon kuchlanganligi \vec{H} ning x , y , z - o'qlariga bo'lgan proyeksiyalari \vec{H}_x , \vec{H}_y , \vec{H}_z - larga Yer magnit maydonining shimoliyl, sharqiy va vertikal tashkil etuvchilari deb ataladi.

Yer magnit maydon kuchlanganligi \vec{H} vektorning gorizontall tekislikdagi proyeksiya \vec{H}_0 ga Yer magnit maydon kuchlanganligining gorizontall tashkil etuvchisi deyiladi.


\vec{H} vektor joylashgan H_0OZ tekislikka magnit meridian tekisligi deyiladi. Magnit meridian tekisligi H_0OZ bilan YOZ tekisligi orasidagi burchak φ ga magnit maydonning og'ish burchagi deyiladi va Yer magnit maydon kuchlanganligi \vec{H} vektor bilan gorizontall tashkil etuvchisi \vec{H}_0 orasidagi burchak α ga esa enkayish burchagi deyiladi.

Yer magnetizmini xarakterlovchi kattaliklar, ya'ni elementlar kompas, magnet teodometr, turli magnetometrlar, magnet tarozilar, magnet variometrlar va boshqalar yordamida o'lchanadi. Bundan tashqari, dengizda, havoda o'lchash uchun kema, samolyot va vertolyotlarga maxsus asboblarni o'rnatiladi.

Yerning magnet maydoni doimiy va o'zgaruvchan magnet maydonlardan tashkil topgandir. Doimiy magnet maydoni Yer yuzining hamma joyida mavjud bo'lib, juda sekin, "asriy" ravishda o'zgaradi. U Yer magnet maydonining 99% ni tashkil qiladi. Yer doimiy magnet maydonning mavjud bo'lishiga sabab Yer ichki qatlamlarida kechadigan turli jarayonlar sabab bo'ladi. O'zgaruvchan magnet maydon Yer magnet maydonining 1% ni tashkil etadi va Yer atmosferasining yuqori qatlamlarida hosil bo'lgan elektr toklaridan vujudga keladi. Shu bilan birga, Yer magnet maydonining tasodifiy o'zgarishlari ham mavjuddir. Yer magnet maydonining tasodifiy o'zgarishlari Quyoshda sodir bo'ladigan chaqnash hodisalariga ham bog'liq, ular magnet bo'ronlariga sabab bo'ladi, radiolokatorni buzadi.

Qurilmaning tuzilishi va o'lchash usuli

Tangens-galvanometr (tangens-bussol) (n) ta vertikal sim o'ramidan iborat (r) radiusli g'altakdan va g'altak markaziga gorizontalk tekislikda joylashtirilgan kompasdan tashkil topgan. G'altakda tok bo'lmaganda magnet strelkasi Yerning (N-S) magnet meridiani bo'ylab joylashadi.



G'altakni vertikal o'q atrofida aylantirib g'altak tekisligini magnet meridian tekisligi bilan ustma-ust tushirishga erishish mumkin (3-rasm).

Bunday holatda g'altak orqali tok o'tkazilsa, magnet strelkasi qandaydir (φ) burchakka buriladi. Bu holat magnet strelkasiga 2 ta maydon ta'siri orqali tushuntiriladi: Yerning magnet maydoni (gorizontalk tashkil etuvchisi) H_0 va tok hosil qilgan maydon H_i . Superpozitsiya prinsipiga

ko'ra, magnit strelkasiga ta'sir etuvchi natijaviy magnit maydon kuchlanganligi \vec{H} , \vec{H}_0 , \vec{H}_i , vektorlarning geometrik yig'indisiga teng:


$$\vec{H} = \vec{H}_0 + \vec{H}_i$$

Bitta asosga o'ralgan (n) ta o'ramdan iborat aylanma o'tkazgichning markazidagi magnit maydon kuchlanganligi

$$H_i = \frac{In}{2r}, \quad (1)$$

bunda I – o'ramdagi tok kuchi, r – g'altak radiusi, n – o'ramlar soni.

(1) ifodani ($I d\vec{\ell}$) tok elementi uchun Bio-Savar-Laplas qonunidan osongina olish mumkin



5-rasm

$$d\vec{H} = \frac{1}{4\pi} \frac{I [d\vec{\ell}, \vec{r}]}{r^3} \quad \text{yoki} \quad dH = \frac{1}{4\pi} \frac{Id\ell \sin \alpha}{r^2}$$

Aylanma tok elementi (dl) uchun $\alpha = \frac{\pi}{2}$, $\sin \alpha = 1$

(5-rasm).

Superpozitsiya qonuniga binoan

$$H = \int dH = \frac{1}{4\pi} \cdot \frac{I}{r^2} \int_0^{2\pi} d\ell = \frac{I}{2r}$$

n ta o'ram uchun esa,

$$H_i = \frac{In}{2r}.$$

Aylanma tok kuchlanganligi \vec{H}_i o'ram tekisligiga perpendikular bo'lgan tekislikda yotadi (4-rasm). Chunki aylanma tokli o'ramning tekisligi bilan mos tushadi, u holda \vec{H}_i vektor \vec{H}_0 vektorga perpendikular

$$3\text{-rasmdan ko'rinadiki,} \quad \text{tg} \varphi = \frac{H_i}{H_0} \quad \text{va} \quad H_0 = \frac{H_i}{\text{tg} \varphi}. \quad (2)$$

Shunday qilib, (1) va (2) ifodalardan Yer magnit maydonining gorizonta tashkil etuvchisini hisoblash formulasini keltirib chiqaramiz:

$$H_0 = \frac{In}{2r \text{tg} \varphi} = \frac{In}{2r} \text{ctg} \varphi \quad (\text{A/m})$$

H_0 ni tangens-bussol g'altagidagi tokning 3-5 ta qiymatida o'lchab,

$H_{o'r} = \frac{\sum H_{0i}}{n}$ o'rtacha qiymat va og'ishning o'rtacha qiymati topiladi:


$$\Delta H_{o'r} = \frac{\sum \Delta H_{0i}}{n} \quad \text{bu yerda,} \quad \Delta H_{0i} = |H_{o'r} - H_{0i}|$$

Strelka uchlarning o'ram markazi bilan aniq mos tushmasligi sababli shimoliy (φ_N) va janubiy (φ_S) uchlari bo'yicha hisoblashlar olish

kerak. Xatoliklarni kamaytirish uchun har bir tok qiymati uchun og'ish burchagi (φ' va φ'') tokning turli yo'nalishlari uchun ikki martadan o'lchanadi va hisoblanadi

$$\varphi_i = \frac{\varphi_{iN}^I + \varphi_{iS}^I + \varphi_{iN}^{II} + \varphi_{iS}^{II}}{4}$$

Qurilmaning elektr sxemasi 6-rasmda berilgan.



6-rasm

Ishni bajarish tartibi va o'lchash natijalarini hisoblashga doir uslubiy ko'rsatmalar

1. Tangens-galvanometrni shunday o'rnatiladiki, o'ram tekisligi magnet meridiani bilan mos tushsin.
2. K (K') kalit va П – o'tkazuvchilar ulanib, tok manbai yoqiladi. O'zgaruvchi rezistor (R) yordamida magnet strelkasini 30° - 50° gacha og'diruvchi tok kuchi beriladi. I_i – ampermetr ko'rsatishi va (φ'_{iN} va φ'_{iS}) burchaklarning qiymatlari berilgan tok uchun jadvalga yoziladi.
3. Almashtirgich (П) yordamida tok yo'nalishi o'zgartirilib I_i'' va φ''_{iN} va φ''_{iS} qiymatlari yoziladi.
4. Tajriba tokning 3 ta turli xil qiymatlarida takrorlanadi.
5. $H_{0o'r}$, $\Delta H_{0o'r}$ larning qiymatlari hisoblab topiladi

$$H_0 = H_{0o'r} \pm \Delta H_{0o'r} \quad , \quad \delta = \frac{\Delta H_{0o'r}}{H_{0o'r}} \cdot 100\%$$

N ^o	I_i^I	I_i^{II}	$I_i (A)$	φ'_{iN}	φ'_{iS}	φ''_{iN}	φ''_{iS}	φ_i	H_{oi}	$H_{oo'r}$	ΔH_{oi}	$\Delta H_{oo'r}$	δ
1													
2													
...													

NAZORAT SAVOLLARI

1. Magnet induksiya vektori deb nimaga aytiladi va u qanday birliklarda o'lchanadi?
2. \vec{B} vektorning yo'nalishi qanday aniqlanadi?
3. Magnet maydon kuchlangani va induksiyasi qanday bog'langan?

4. Magnit maydoni grafigi qanday tavsiflanadi. Elektr va magnit maydonlarining tasviri qanday ifodalanadi.
5. Magnit maydoni superpozitsiya prinsipi qayerda qo'llaniladi.
6. Bio-Savar-Laplas qonuni formulasini (vektor va skalyar) ko'rinishlarini yozing. Bu qonunning grafigi talqinini bering.
7. Bio-Savar-Laplas qonunini aylanma tok magnit maydonini hisoblashga tatbiqi.
8. Yer magnit maydon kuchlanganligining gorizonta tashkil etuvchisini topish usulini tushuntiring va hisoblash formulasini keltirib chiqaring.

ADABIYOTLAR

1. Savelyev I.V. "Umumiy fizika kursi", II tom. Toshkent, "O'qituvchi", 1983.
2. Ismoilov M.I., Habibullayev P.K., Xaliulin M.G. Fizika kursi (Mexanika, elektr, elektromagnetizm). Toshkent, "O'zbekiston", 2000.
3. Ahmadjonov O. Fizika kursi ,2- qism, Toshkent, "O'qituvchi" 1985.
4. Трофимова Т. Курс физики. Москва. «Высшая школа» 1990.
5. Детлаф А.А., Яворский Б.М. Курс физики. Москва. «Высшая школа», 1989
6. Kalashnikov S.G.. Elektr. Toshkent, "O'qituvchi", 1979.

9- Laboratoriya Ishi

SOLENOID O'QIDAGI MAGNIT MAYDONINI O'RGANISH

Kerakli asboblari: Solenoid, flyuksmetr (galvanometr ga ulangan N ta o'ramdan tashkil topgan sinov galtagi), tok manbai, milliampermetr, ulash simlari.

Ishning maqsadi

Laboratoriya ishini bajarish natijasida talaba:

- elektromagnit induksiyasi hodisalarini va magnit maydonning asosiy fizikaviy kattaliklarini ta'riflay bilishi kerak;
- Bio-Savar-Laplas qonunini turli shakldagi tokli o'tkazgichlarning magnit maydon kuchlanganligini hisoblashda qo'llashni o'rganishi zarur;
- flyuksmetr yordamida solenoidning magnit maydonini o'rganishda elektromagnit induksiyasi hodisasining ahamiyatini tushuntirib berishi kerak.

Topshiriq

1. Flyuksmetr yordamida magnit maydon induksiyasini o'lchash usulini o'rganish;
2. Olingan natijalar asosida ballistik galvanometr ko'rsatkichlari η ning solenoid o'qidagi ixtiyoriy nuqtaning x koordinata bilan bog'lanish grafiqi $\eta=f(x)$, yoki $B=f(x)$ ni chizish.
3. Olingan natijalarni tahlil qilish.

Asosiy nazariy ma'lumotlar

Toklarning magnit maydonini hisoblash asosida tok elementi (Idl), maydonning superpozitsiya prinsipi va Bio-Savar-Laplas qonunlari yotadi


$$d\vec{B} = \frac{\mu_0 I [d\vec{l}, \vec{r}]}{4\pi r^3}, \text{ yoki } dB = \frac{\mu_0 Idl \sin \alpha}{4\pi r^2},$$

bu yerda, \vec{r} -dl tokli o'tkazgichdan magnit maydon induksiyasi hisoblanayotgan maydondagi A nuqtagacha bo'lgan radius-vektor (1-rasm).


I -tok kuchi, $d\vec{l}$ -tok o'tayotgan tomonga yo'nalgan elementar o'tkazgich uzunligi, $(Id\vec{l})$ - vektor kattalik elementar tok, \vec{r} - elementar tokdan magnit induksiyasi aniqlanayotgan nuqtagacha yo'nalgan radius-vektor, α - $(Id\vec{l})$ va \vec{r} vektorlar orasidagi burchak.

Bio-Savar-Laplas formulasini

va



88



2 - rasm

superpozitsiya prinsipini qo'llash natijasida solenoid o'qidagi magnit maydon induksiyasini aniqlash mumkin

$$B = \frac{\mu_0 In}{2} (\cos \varphi_2 - \cos \varphi_1),$$

bunda I - tok kuchi, n - solenoidning bir birlik uzunligiga to'g'ri keluvchi o'ramlar soni, φ_1 va φ_2 - magnit maydon induksiyasi o'lchanayotgan nuqtadan solenoidning chetki o'ramlariga o'tkazilgan radius-vektorlar orasidagi burchaklar (2-rasm). Solenoid markazida esa,

$$\cos \varphi_2 = \frac{2l}{\sqrt{l^2 + 4R^2}}, \quad \cos \varphi_1 = -\cos \varphi_2$$

Bundan

$$B = \frac{\mu_0 Inl}{\sqrt{l^2 + 4R^2}} = \frac{\mu_0 In}{\sqrt{1 + \frac{4R^2}{l^2}}}$$

Agar solenoidning uzunligi uning o'ramlari diametridan ancha katta bo'lsa $l \gg 2R$, u holda, solenoiddan tashqarida hosil bo'lgan magnit maydon induksiyasi nolga teng bo'ladi, maydon solenoid ichida bir jinsli bo'lib, quyidagiga teng

$$B = \mu_0 \frac{IN}{l} = \mu_0 In,$$

bu yerda I - solenoid o'ramlaridan o'tuvchi tok kuchi, l - cheksiz uzun solenoidning bir qismi uzunligi, N - l uzunlikdagi o'ramlar soni, $n = \frac{N}{l}$ - bir birlik uzunlikka mos keluvchi o'ramlar soni.

Ixtiyoriy S -yuzadan o'tuvchi magnit oqimi deb, quyidagi fizik kattalikka aytiladi

$$\Phi = \int_S B_n dS, \quad \text{yoki} \quad \Phi = \int_S (\vec{B}_n \cdot d\vec{S})$$


bunda $B_n = B \cos \alpha$ - \vec{B} vektorning dS birlik yuzaga tushirilgan n normalga proyeksiyasi. (3-rasm). Bir jinsli magnit maydonda oqim $\Phi = BS \cos \alpha$ ga teng.

Yopiq o'tkazuvchi konturidagi magnit oqimining o'zgarishi, konturda induksion tokni hosil qiladi, bu hodisa elektromagnit induksiya hodisasi deyiladi.


Faradey qonuniga ko'ra, yopiq konturda hosil bo'lgan induksion EYuK, shu kontur bilan chegaralangan yuza orqali o'tayotgan magnit induksiya oqimining o'zgarish tezligiga miqdor jihatdan teng, yo'nalishi esa qarama-qarshidir

$$\varepsilon = -\frac{d\Phi}{dt}.$$

Agar o'tkazuvchi konturdan o'zgaruvchan tok o'tsa, u holda uning atrofida o'zgaruvchi magnit maydoni hosil bo'ladi. Binobarin, konturning



3- rasm



4- rasm

o'zida induksion EYuK ning hosil bo'lishiga olib keladi, bu o'zinduksiya hodisasi deyiladi.

O'zinduksiya EYuK quyidagiga teng

$$\varepsilon_S = -L \frac{dI}{dt}, \quad \Phi = LI,$$

bunda, L - o'tkazgichning induktivligi bo'lib, Φ va I orasidagi proporsionallik koeffitsiyenti, u faqat konturning geometrik shakli, o'lchami va muhitning magnit singdiruvchanligiga bog'liq.

Induktivlikning o'lchov birligi genri (Gn)

$$1Gn = 1 \frac{V \cdot s}{A}.$$

Cheksiz uzun solenoidning induktivligi

$$L = \mu\mu_0 n^2 V,$$

bu yerda, V -solenoid hajmi, $V = Sl$, $n = \frac{N}{l}$.


Konturning induktivligi undan o'tayotgan tokning o'zgarishiga nisbatan olingan elektr "inersiya"si hisoblanadi: ya'ni, tok kuchi asta sekin ortadi yoki kamayadi.

Qurilmaning tuzilishi va o'lchash usuli

Magnit maydonni o'lchash usullaridan biri elektromagnit induksiyasi hodisasiga asoslangan.

N ta o'ramlardan tashkil topgan g'altakni galvanometr bilan ulab, o'rganilayotgan magnit maydonga joylashtirilgan (4-rasm).

Flyuksmetr deb, elektromagnit induksiya qonuniga binoan induksiyalangan zaryadni o'lchab, magnit oqimini aniqlashga imkon beradigan qurilmaga aytiladi. Flyuksmetrning asosiy gismi galvanometrga ulangan N ta o'ramdan tashkil topgan sinov galtigidan iborat (4-rasm). Galvanometr strelkasining og'ishi $\Delta\Phi$ magnit oqimining o'zgarishiga proporsional va oqimni hamda magnit maydon induksiyasi B ni o'lchash mumkin.



Galvanometr zanjiridan o'tuvchi induksion tok tashuvchi zaryadni aniqlash mumkin. Elektromagnit induksiya qonuniga asosan

$$\varepsilon_i = -\frac{d\Phi}{dt},$$

Om qonuniga asosan galvanometr zanjirida induksiyalangan tok kuchi

$$I_i = \frac{\varepsilon_i}{R},$$

bu yerda R -galvanomentr zanjiridagi umumiy qarshilik. Tok kuchi ifodasiga ko'ra

$$I = \frac{dq}{dt}.$$

Bundan ,

$$dq = Idt = \frac{\varepsilon}{R} dt = -\frac{d\Phi}{R},$$

$$q = -\frac{1}{R} \int_{\Phi_1}^{\Phi_2} d\Phi = -\frac{\Phi_2 - \Phi_1}{R} = -\frac{\Delta\Phi}{R}. \quad (1)$$

Odatda, magnit oqimini o'zgartirish uchun quyidagi usullarining biridan foydalaniladi:

- a) magnit maydonda sinov g'altagi 90° yoki 180° ga buriladi;
- b) g'altak, o'lchanayotgan maydon sohasidan, nolinci maydon sohasiga chiqariladi, yani g'altak magnit maydonida harakatlantiriladi;
- v) g'altak tinch holatda qoldirilib, o'lchanayotgan magnit maydoni o'zgartiriladi.

Ushbu laboratoriya ishida (5-rasm) ko'ndalang kesim yuzasi S va o'ramlar soni N bo'lgan sinov g'altagi, induksiya chiziqlariga perpendikular holda joylashtirilgan, magnit maydonni o'chirib- ulanadi. Solenoiddagi tok kuchi (B) tok manbai orqali hosil qilinadi. Solenoid zanjiriga (A) ampermetr ulangan.

Sinov g'altagining solenoid ichkarisida joylashishi (x) masshtabli chizg'ich orqali aniqlanadi.

Bu ishda harakatlanuvchi tizimli yuqori inersiya momentiga ega bo'lgan ballistik galvanometr ishlatiladi.

Galvanometr ramkasining ballistik og'ishi unda tok bo'lmaganda sodir bo'ladi, uning impulsini o'lchanayotgan zaryad tashib o'tadi. Tok impulsining davomiyligi sekundning yuzdan yoki mingdan bir qismini tashkil etadi.

Ballistik galvanometr nazariyasiga ko'ra uning zanjiridan oqib o'tuvchi zaryad miqdori, galvanometr qo'zg'almas tizimining birinchi og'ishidagi bo'limlar soniga proporsional (ballistik og'ish).

$$q = b\eta, \quad (2)$$

b – galvanometrning ballistik doimiysi.

Magnit maydon induksiyasi kattaligi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi

$$B = \frac{\Delta\Phi}{NS}$$

(1) va (2)ni hisobga olgan holda,

$$B = \frac{Rq}{NS} = \frac{Rb}{NS}\eta \quad (3)$$

ifodani olamiz. Ya'ni B induksiya kattaligi galvanometrning ballistik og'ishiga proporsional.

Ushbu ishdan maqsad $B(x)$ orasidagi bog'lanish grafigini olish. (3) formuladan, B galvanometrning birinchi ballistik og'ishi η ga proporsional bo'lgani uchun, $\eta(x)$ bog'lanish grafigini chizish mumkin.

**Ishni bajarish tartibi va o'lchash natijalarini hisoblashga doir
uslubiy ko'rsatmalar**

1. Galvanometrning yorituvchi qurilmasi ulanadi va ko'rsatishi "nol" holatga keltiriladi.

2. Sinash g'altagini solenoid markaziga joylashtiriladi va Π -pereklyuchatel yordamida solenoid zanjiriga tok berilib, ballistik og'ish η kuzatiladi. Solenoiddagi tok shunday tanlanadi, bunda galvanometrning ko'rsaishi ("0" ga yaqin bo'lmasligi va juda katta bo'lmasligi kerak). Agar ikki marta katta og'ishlarni olish kerak bo'lsa, u holda tokni o'chirmasdan perpendikular yo'nalishini, uni markazida ushlab turmasdan tez almashtirish kerak.
3. 2 banddagi o'lchashlar tokning bir xil qiymatida, lekin sinash g'altaning har xil (tashqi tomondan har 1 sm da va solenoid o'rta qismidan har 2-3 sm da) qaytariladi. Tokning o'zgarmasligiga qarab turiladi.
4. Hamma o'lchashlar tokning boshqa qiymatlarida qaytariladi, B va I larning proporsionalligiga iqror bo'lish kerak.
5. Quyidagi jadval to'ldiriladi.

X cm							
η_1							
η_2							
$\langle \eta \rangle$							I=

6. Ikkala grafikni millimetrli qog'ozga chiziladi $B(x)$, $\eta(x)$

NAZORAT SAVOLLARI

1. Magnit oqimi deb nimaga aytiladi? O'lchov birligi nima? Nimalarga bog'liq?
2. Berk sirt ichidan o'tuvchi \vec{B} vektor oqimini ta'riflovchi teoremani tushuntiring (Gauss teoremasi). Uning fizik ma'nosi nimada?
3. Elektromagnit induksiya hodisasini va uning qoidasini ta'riflang.
4. Induksion tok olib o'tgan elektr miqdori nimaga teng (formulasini keltirib chiqaring).
5. Cheklangan solenoid magnit maydoni cheksiz uzun solenoid maydonidan nima bilan farq qilinadi? Bio-Savar-Laplas qonunidan va sirkulyatsiya teoremasidan foydalanib cheksiz uzun solenoid va cheklangan solenoidning (chetida va o'rtasida)gi induksiyasini hisoblash formulasini keltirib chiqaring.
6. O'zinduksiya hodisasini ta'riflang va uni ushbu ishda ishlatilishini tushuntiring? Induktivlik nima? Induktivlikning o'lchov birligi? Solenoidning induktivligi nimaga teng?

7. Ballistik galvanometr yordamida magnit maydonni induksion usulda o'rganish nimadan iborat? Ishni bajarish tartibini va usulini tushuntirib bering.

10 - Laboratoriya Ishi.


Fizik va matematik mayatniklarning tebranishlarini o'rganish va erkin tushish tezlanishini aniqlash

Ishdan maqsad. Talaba laboratoriya ishini bajarishi natijasida quyidagilarni bilishi kerak: tebranma jarayonlarni tavsiflovchi fizik kattaliklarni ma'nosini; garmonik tebranishlar qonunlarini va ularning tenglamalarini; ma'lum bir tebranma tizim uchun garmonik tebranishlar differensial tenglamasini tuza olishi.

Kerakli asboblari va uskunalari: fizik va matematik mayatniklar; mashtabli chizg'ich; shtangelsirkul; sekundomer.

Qisqacha nazariy ma'lumotlar

Og'irlik markazidan o'tmagan gorizontal o'q atrofida erkin tebrana oladigan qattiq jismga **fizik mayatnik** deyiladi. M massali A jism (1-rasm) O nuqtaga osib qo'yilgan bo'lsin. Jismning og'irlik markazi C jism osilgan nuqtadan d uzoqlikda joylashgan. Og'irlik kuchi P jismning og'irlik markaziga qo'yilgan deb faraz qilaylik. A jismni muvozanat holatidan α kichik burchakka og'dirib, so'ng qo'yib yuboraylik. U holda jism, og'irlik kuchi P ning tangensial tashkil etuvchisi P_t ta'sirida muvozanat holat atrofida T ga teng tebranish davri bilan tebranadi. Jismning harakat tenglamasini yechib, tebranish davrini topish mumkin. Haqiqatan, o' o'qiga nisbatan og'irlik kuchining momenti:



1-rasm

$$M = -P d \sin \alpha \quad (1)$$

ga teng. Bundagi minus ishora, R kuchining siljishga qarama-qarshi yo'nalganligini ko'rsatadi. Bu moment ta'sirida jism $\beta = \frac{d^2 \alpha}{dt^2}$ ga teng burchak tezlanish oladi. Aylanma harakat uchun Nyutonning ikkinchi qonunidan

$$\beta = \frac{M}{I}$$

(2)

ga teng. Bunda I - jismning aylanish o'qi o ga nisbatan inersiya momenti. M ning qiymatini (1) formuladan (2) ga qo'yib va oq'ish burchagi kichik bo'lganda $\sin \alpha \approx \alpha$ deb olinsa,


$$\frac{d^2 \alpha}{dt^2} = -\frac{mgd}{I} \alpha \quad (3)$$

tenglama hosil bo'ladi. Bu tenglama oq'irlik kuchi ta'sirida hosil bo'lgan garmonik tebranma harakatni differensial tenglamasidir. Bu tenglamadan siklik chastotani

$$\omega^2 = \frac{mgd}{I}. \text{ Ikkinchidan, } \omega = \frac{2\pi}{T} \text{ yoki } T^2 = \frac{4\pi^2}{\omega^2} \text{ ekanligini}$$

eslab, fizik mayatnikning tebranish davri ifodasini topamiz:

$$T_{\phi} = 2\pi \sqrt{\frac{I}{mgd}}, \quad (4)$$



2-rasm

Oq'irligi hisobga olinmasa bo'ladigan darajada kichik va cho'zilmaydigan ipga osilgan moddiy nuqtaga (2-rasm) **matematik mayatnik** deyiladi. Agar shunday mayatnikni muvozanat holatidan kichik burchakka oq'dirilsa, u T tebranish davri bilan tebrana boshlaydi va uni osongina topish mumkin. Moddiy nuqtaning O o'qiga nisbatan inersiya momenti $I = ml^2$ ga teng. Moddiy nuqtaning oq'irlik markazi nuqtaning o'zida bo'lganidan $d = l$ ga teng bo'ladi. Shularni hisobga

olib, (4) - formulani quyidagicha yozamiz:

$$T_M = 2\pi \sqrt{\frac{l}{g}} \quad (5)$$


(4) va (5) - formulalarni solishtirib, fizik mayatnikda l_k matematik mayatnikning uzunligi kabi rolni o'ynashini ko'ramiz. Shuning uchun $\frac{I}{md}$ ga **fizik mayatnikning keltirilgan uzunligi** deyiladi. Har qanday fizik mayatnik uchun, shunday uzunlikdagi matematik mayatnik tanlash mumkinki, ularning tebranish davrlari birday bo'lsin, u holda

$$l_k = \frac{I}{md} \quad (6)$$

bo'ldi. Demak, fizik mayatnikning keltirilgan uzunligi deb, shunday matematik mayatnikning uzunligiga aytiladiki, fizik va matematik mayatniklarni tebranish davrlari bir-biriga teng bo'ldi.

Qurilmaning tuzilisi va ishni bajarish tartibi

Bu ishda matematik mayatnik bilan fizik mayatniklar (3-rasm) ning sinxron,



3-rasm. (1-matematik, 2-fizik mayatniklar)

ya'ni bir xil davr bilan tebranishiga erishiladi. Shu paytdagi matematik mayatnik uzunligi, fizik mayatnikning keltirilgan uzunligi bo'ldi. Matematik mayatnik sifatida, kronshteyntirqishi-dan o'tgan (3-rasm) ipga osilgan sharcha olingan. B q'altakni aylantirib, ipni uzaytirish va qisqartirish mumkin. Bu ko'ri-nishdagi matematik mayatnikning uzunligi $l = l_0 + r$ bo'ldi, fizik mayatnik sifatida esa L uzunlikdagi bir jinsli silindrik sterjen olingan. Sterjenni oq'irlik markazi C uning o'rtasida joylashgan deb hisoblaymiz.

Shteyner teoremasiga asosan sterjenni aylanish o'qiga nisbatan inersiya momenti:

$$I = I_0 + md^2 = \frac{1}{12} mL^2 + md^2 \quad (7)$$

Bu ifodani (6) ga qo'yib, fizik mayatnikning keltirilgan uzunligini hisoblash formulasini hosil qilamiz:

$$l_k = \frac{I}{md} = \frac{\frac{1}{12} mL^2 + md^2}{md} = \frac{L^2}{12d} + d \quad (8)$$

Bu formuladan ko'rinadiki, d va L ni o'lchab, fizik mayatnikning keltirilgan uzunligi osongina topiladi. Lekin fizik mayatnikning keltirilgan uzunligini tajribada matematik mayatnik uzunligini o'zgartirib ham topish mumkin.

1. Matematik va fizik mayatniklar muvozanat holatdan kichik burchakka (8°) oq'dirib, ularning sinxron tebranishiga erishiladi. Keyin matematik mayatnik uzunligi $l = l_0 + r$ hisoblanadi. Xuddi shu uzunlik tajribada aniqlangan, fizik mayatnikning keltirilgan uzunligi bo'ladi. Tajribani 3-marta takrorlab fizik mayatnik keltirilgan uzunligining o'rtacha qiymati aniqlanadi.

2. Fizik mayatnik uzunligi L , osilgan nuqtasidan sterjen oxirigacha masofa H o'lchanib, o'lchanganlar asosida $d = H - \frac{L}{2}$ topiladi. Topilgan L va d larning qiymatlarini (8) formulaga qo'yib, fizik mayatnikning keltirilgan uzunligi nazariy hisoblanadi.

3. O'lchangan va hisoblanganlarni 1-chi jadvalga yozish tavsiya etiladi.

Fizik mayatnikning keltirilgan uzunligi l_k ning tajribada o'lchangan qiymati, (8) formula bo'yicha hisoblangan qiymatiga yaqin bo'lishi kerak.

1-jadval

Tajribaning tartib raqami	r m	l_0 m	Tajriba asosida l_k , m	L m	H m	d m	Formula bo'yicha hisoblangan $l_{k,m}$
1.							
2.							
3.							
4.							

MATEMATIK MAYATNIK YORDAMIDA ERKIN TUSHISH TEZLANISHINI ANIQLASH

1. Matematik mayatnik ipining uzunligi l_0 ni chizg'ich bilan, sharchaning diametri d ni shtangensirkul bilan o'lchab, mayatnik uzunligi $l = l_0 + r$ hisoblanadi.

2. Mayatnikni kichik burchak (8°) ga oq‘dirib, so‘ng qo‘yib yuboriladi va sekundomer ishga tushiriladi. Mayatnik 20-30 marta to‘la tebrangach, sekundomer to‘xtatiladi va tebranishlar soni va tebranishlar uchun ketgan vaqt yozib olinadi.
3. Tebranishlar uchun ketgan vaqt (t) ni tebranishlar soni (N) ga bo‘lib, tebranish davri (T) aniqlanadi.
4. Mayatnik uzunligini o‘zgartira borib, tajriba 5 marta takrorlanadi. Tajribada o‘lchangan va hisoblangan kattaliklarning qiymatlari 2-jadvalga yozib boriladi.
5. Erkin tushish tezlanishini $g = 4\pi^2 \frac{l}{T^2}$ formula bo‘yicha aniqlanadi.
6. Erkin tushish tezlanishini aniqlashda yo‘l qo‘yilgan absolyut va nisbiy xatoliklar hisoblanadi.

2-jadval

Tajriba tartib raqami	l_0 m	r m	l m	t s	N	T=t/N s	g m/s ²	ε (g) %)
1.								
2.								
3.								
4.								
5.								

Nazorat uchun savollar

1. Tebranma harakat siljish tenglamasi. Tebranish amplitudasi, fazasi, chastotasi, davri, erkin tebranma harakat differensial tenglamasi.
2. Tebranma harakat kinematikasi: tezlik va tezlanish.
3. Tebranma harakat energiyasi.
4. Fizik va matematik mayatniklarni ta‘riflang.
5. Fizik mayatnikning keltirilgan uzunligi deb nimaga aytiladi?

11-Laboratoriya Ishi

Soʻnuvchi tebranishlarni oʻrganish va soʻnishning logarifmik dekrementini aniqlash.

Ishdan maqsad. Talaba laboratoriya ishini bajarishi natijasida quyidagilarni bilishi kerak: soʻnuvchi tebranishlarni tavsiflovchi fizik kattaliklar (amplituda, chastota, soʻnuvchi tebranishlar davri, soʻnish koeffitsiyenti, sonish dekrementi, relaksatsiya vaqti, asillik) ni va bu kattaliklar orasidagi oʻzaro boqʻlanishni; biror mehanik tizim uchun soʻnuvchi tebranishlar differensial tenglamasini tuza olishi; yuqorida koʻrsatilgan kattaliklarni aniqlashni va olingan natijalarni tahlil qilishi.

Kerakli asboblari va uskunalari: Tebranuvchi gurilma; sekundomer; mashtabli chizqʻich; qoʻshimcha yuklar; tarozi.

Qisqacha nazariy maʼlumotlar

Tebranuvchi, oʻzaro boqʻlangan jismlar toʻplami – tebranuvchi tizim deyiladi. Agar tebranish uzoq davom etsa, tizimga muhitning taʼsiri sezilarli boʻlib, tebranish amplitudasi vaqt oʻtishi bilan kichrayib boradi. Bunday tebranishlar soʻnuvchi tebranishlar deyiladi. Tebranish sekin soʻnsa va tebranish amplitudasi kichik boʻlganda, soʻnuvchi tebranishlarni davriy, muhit qarshilik kuchini esa tebranuvchi jism tezligiga proporsional deb hisoblash mumkin:

$$R = -r \frac{dx}{dt},$$

(1)

bu yerda R – qarshilik kuchi, r – esa qarshilik koeffitsiyenti. Tebranuvchi sistemaga kvazielastik kuch

$$F_{\text{kvz. el.}} = -kx$$

(2)

ham taʼsir etganida, soʻnuvchi tebranayotgan sistemani harakat

tenglamasini quyidagicha yozamiz: $m \frac{d^2x}{dt^2} = -r \frac{dx}{dt} - kx.$

Bu ifodani nolga tenglab m – ga boʻlsak,

$$\frac{d^2x}{dt^2} + \frac{r}{m} \cdot \frac{dx}{dt} + \frac{k}{m}x = 0. \quad (3)$$

Belgilashlar kiritamiz:

$$2\beta = \frac{r}{m}, \text{ bundan } \beta = \frac{r}{2m}$$

(4)

ga soʻnish koeffitsiyenti deyiladi,

$$\omega^2 = \frac{k}{m}$$

(5)

tebranishning tsiklik davriy chastotasi. U holda (3) ni quyidagicha yozish mumkin.

$$x + 2\beta x + \omega^2 x = 0 .$$

(6)

Bu ifoda, soʻnuvchi tebranishning differensial tenglamasi deyiladi. Differensial tenglamalar nazariyasida bu koʻrinishdagi tenglamani yechimi

$$x = A_c e^{-\beta t} \cos(\omega t + \varphi)$$


(7)

koʻrinishga ega ekanligi isbotlanadi. Bu tenglamadagi koʻpaytma

$$A_t = A_0 e^{-\beta t} ,$$

(8)

soʻnuvchi tebranishning amplitudasi deb ataladi. U vaqt oʻtishi bilan eksponensial qonun boʻyicha kamayadi (1-rasm). Bunda β -soʻnish koeffitsiyenti boʻlib, soʻnuvchi tebranish amplitudasi A_t 2. 718 marta kamayishi uchun kerakli vaqtga teskari kattalik.



Soʻnish koeffitsiyentining qiymatini tebranayotgan jism massasini qoʻshimcha yuk yordamida oʻzgartirish mumkin.

1-rasm

Bir-biridan bir marta toʻla tebranish davriga farq qiluvchi amplitudalar nisbatiga

soʻnish dekrementi deyilad

$$D = \frac{A(t)}{A(t+T)} = \frac{A_0 e^{-\beta t}}{A_0 e^{-\beta(t+T)}} = e^{\beta T} .$$

(9)

Amplitudalar nisbatidan olingan natural logarifmga - soʻnishning logarifmik dekrementi deyiladi:

$$D = \ln \frac{A(t)}{A(t+T)} = \beta T .$$

(10)

Vaqt boʻyicha bir toʻla tebranish davriga farq qiluvchi amplitudalar bir-biridan oz farq qilganidan, soʻnish koeffitsiyentini kam xato bilan aniqlash uchun, bir-biridan n ta davr uzoqdagi amplitudalar oʻlchanadi. Haqiqatdan:

$$\frac{A_0}{A_1} = e^{\beta T}, \quad \frac{A_1}{A_2} = e^{\beta T}, \quad \frac{A_{n-1}}{A_n} = e^{\beta T}.$$

Bu ifodalarni ko'paytirib, so'ng logarifmlansa,

$$\frac{A_0}{A_1} \cdot \frac{A_1}{A_2} \cdot \frac{A_2}{A_3} \dots \frac{A_{(n-1)}}{A_n} = (e^{\beta T})^n, \quad \ln \frac{A_0}{A_n} = n\beta T.$$

(11)

Demak, n – ko'p bo'lsa, so'nish koeffitsiyentini kichik xato bilan aniqlash mumkin.

2. QURILMANING TAVSIFI VA TAJRIBANI

O'TKAZISH TARTIBI

Ishni bajarish uchun 2-rasmda ko'rsatilgan qurilmadan foydalanish mumkin. Qurilma alyumin trubkaga osib qo'yilgan 12 sm diametrli kavak sharda iborat bo'lib, mayatnik uchiga ko'rsatkich strelka maxkamlangan. Ko'rsatkich strelka masshtabli shkala bo'ylab harakatlanib, tebranish amplitudasining o'zgarishini kuzatish va o'lchash imkonini beradi.


Tajribani o'tkazish tartibi quyidagicha bo'ladi:

1. Tebranuvchi sistemani, qo'shimcha yuksiz, muvozanat holatdan chiqarib, boshlanq'ich amplituda A_0 shkala bo'yicha o'lchanadi.
2. Sistema qo'yib yuboriladi va sekundomer ishga tushiriladi.

Tebranish amplitudasi 2-3 bo'lakka kamayguncha tajriba davom etadi.

Tebranish amplitudasi 2-3 bo'lakka kamaygach, sekundomer to'xtatiladi va tebranishning oxirgi amplitudasi A_1 o'lchanadi.

3. Tajribani kamida ikki boshlanq'ich amplituda uchun takrorlash kerak.
4. Qo'shimcha yukchalarni tebranuvchi sistemaga maxkamlab, 1, 2, 3 – da aytilganlar takrorlanadi.
5. Tajriba natijalarini quyida keltirilgan jadvalga yozib borish tavsiya etiladi.
6. Tajribada o'lchanganlar asosida tebranishning davri, so'nishning logarifmik dekrementi va so'nish koeffitsiyenti aniqlansin.
7. So'nishning logarifmik dekrementini aniqlashda yo'l qo'yilgan absolyut va nisbiy xatolik hisoblanadi.



2-rasm

T.r	YUKSIZ						
N ^o	A ₀ , m	n	t s	T=t/N...s	$D = \frac{1}{n} \ln \frac{A_0}{A_1}$	$\beta = \frac{D}{T}$	$\delta (D)$
1.							
2.							
3.							

Yukcha tebranuvchi sistemaga maxkamlangan							
1.							
2.							
3.							

TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR

1. So‘nuvchi tebranishni ta’riflang, so‘nish sabablarini tushuntiring.
2. So‘nuvchi tebranishning differensial tenglamasini yozing. So‘nish koeffitsiyentini ta’riflang.
3. So‘nuvchi tebranishning amplitudasini vaqt o‘tishi bilan o‘zgarish qonunini ayting va formulasini yozing. Chizmasini chizib ko‘rsating.
4. So‘nishning logarifmik dekrementini ta’riflang va formulasini yozing.
5. So‘nishning logarifmik dekrementini va so‘nish koeffitsiyentini tajribada aniqlash tartibini bayon eting.

12-Laboratoriya Ishi.

Torning xususiy tebranishini rezonans usuli bilan tekshirish

Ishdan maqsad. Talaba laboratoriya ishini bajarishi natijasida quyidagilarni bilishi kerak: o‘lchash usullari nazariyasini; torning xususiy tebranishlar xossalarini; oberton va garmonika tushunchalarini; turgun to‘lqinlarni hosil bo‘lishi va ularning xossalarini; majburiy tebranishlar nazariyasini va rezonans hodisasini; tajribada hosil bo‘ladigan garmonikalarni ajrata olishni.

Kerakli asboblari va uskunalar: tovush to‘lqinlari generatori, torli qurilma, chizq‘ich, mikrometr, yukchalar, tarozi.

Qisqacha nazariy ma’lumotlar




1-rasm

Interferentsiyaning alohida ko‘rinishi – bu turq‘un to‘lqinlardir. Ular ikkita bir-biriga qarama-qarshi yo‘nalishda tarqalayotgan

yuguruvchi to'liqlarning usnma-ust tushishi natijasida xosil bo'ladi. Masalan, ikki uchi mahkamlangan ℓ uzunlikdagi torni olaylik (1-rasm). Agar shu torning ma'lum bir nuqtasini muvozanat holatdan chiqarib so'ng o'z holiga qo'yib yuborilsa, u nuqta elastiklik kuchi ta'sirida garmonik tebranma harakat qiladi. Tebranuvchi nuqtaning energiyasi qo'shni nuqtalarga uzatilib ularni tebranma harakatga keltiradi va kichik vaqt o'tgandan keyin torning mahkamlangan nuqtasidan bo'shqa hamma nuqtalari tebrana boshlaydi. Torning barcha nuqtalari birday fazada tebranadi, ya'ni maksimal siljish nuqtalariga bir vaqtda yetib keladi, muvozanat vaziyatlaridan bir vaqtda o'tadi va hokazo. Tebranishning siljishi tebranuvchi nuqta torning qayerdaligiga bog'liq: biz tekshirayotgan torning o'rtasida joylashgan nuqta eng katta siljishga, chetki nuqtalari esa kichik siljishga ega bo'ladi. Tebranish davri esa hamma nuqtalar uchun birday bo'lib, torning tarangligiga va oq'irligiga boq'liqdir (1-rasm). Jismning ichki elastik kuchlar ta'siridagi tebranishiga shu jismning xususiy tebranishi deyiladi. Agar yuqorida aytilgan torning o'rtasidan ham mahkamlab, so'ng tebranishga majbur etilsa (2-rasm) yana garmonik tebranish hosil bo'ladi, faqat o'rtasidagi nuqta tebranmaydi. Bu holda hosil bo'lgan tebranishning davri 1-rasmda hosil bo'lgan tebranish davridan ikki marta kichik bo'ladi.

Agar torning chetki nuqtalaridan tashqari yana ikki nuqtasidan mahkamlansa

(teng uch bo'lakka bo'linadigan qilib) (3-rasm), hosil bo'lgan tebranishning davri (1-rasm)da hosil bo'lgan tebranish davridan uch marta kichik bo'ladi (3-rasm).




2-rasm

Tebranayotgan jismda (torda), ayrim nuqtalarning qo'zg'almasdan qolishi, qolgan nuqtalarning birday fazada tebranishiga turg'un to'liqin deyiladi. To'liqinning muxitni qo'zq'almas nuqtalariga to'q'ri kelgan yerlarini turq'un to'liqinning tugunlari, eng katta siljishga ega bo'lgan nuqtalariga to'q'ri kelgan yerlarini turq'un to'liqinning do'ngliklari deyiladi.

Ikki qo'shni tugun yoki do'nglik orasidagi masofaga turq'un to'liqinning uzunligi deyiladi.

Yuqorida ko'rilgan misollarimizdan ko'rinadiki, tor uzunligida butun sondagi (1, 2, 3 . . .)



3-rasm

to'liqin uzunlikli turq'un to'liqlar hosil bo'ladi. Tor uzunligida bitta turq'un to'liqin hosil bo'lsa, uni torning asosiy tebranishi yoki asosiy toni deyiladi.

Tor uzunligida bir nechta turq'un to'lqin hosil bo'lsa, ularni torning obertonlari yoki garmonikalari deb yuritiladi (3-rasm).

Agar ixtiyoriy ravishda tebranayotgan torni qisqich yordamida biror nuqtasidan qisilsa, uning hamma garmonikalari qo'shilish natijasida torda murakkab tebranish hosil bo'ladi. Bu holda torning xususiy tebranish davrini aniqlash qiyinlashadi.

Lekin amalda murakkab tebranishning ayrim garmonikasini kiritib olib, so'ng uni tebranish davrini o'lchash usullari mavjuddir. Keng tarqalgan usullaridan biri rezonans hodisasidan foydalanishdir.

Agar xususiy tebranayotgan jismga, mos ravishda davriy o'zgaruvchan kuch bilan ta'sir etilsa, tebranishning amplitudasi orta boshlaydi. Agar majburlovchi kuchning tebranish davri, jismning xususiy tebranish davriga yaqinlashsa, tebranishning amplitudasi eng katta qiymatga intiladi.

Biz ko'rib o'tgan xususiy tebranish, tebranma davrlari $T_0, \frac{T_0}{2}, \frac{T_0}{3}, \dots$, yoki tebranish chastotalari ν_1, ν_2, ν_3 , yoki $\nu_0, 2\nu_0, 3\nu_0, 4\nu_0$, bo'lgan tebranishlarning qo'shilishlaridan iborat. Agar shu tebranuvchi torga davriy o'zgaruvchan kuch bilan ta'sir etilsa, masalan ν_2 ga teng chastota tanlansa, rezonans hodisasi natijasida unga tebranishning $2\nu_0$ – chastotali garmonikasi "javob" bo'ladi. Qolgan garmonikalarning amplitudasi juda kichik bo'lib, ular torning tebranishiga deyarli ta'sir etmaydi. Shunday qilib, davriy ta'sir etuvchi kuchning chastotasini o'zgaitirib, torning xususiy tebranish garmonikalarini ajratib olish mumkin. Rezonans hodisasi paytidagi majburlovchi kuchning chastotasi va torda hosil bo'lgan do'ngliklar soni garmonikaning tartib nomerini va uning chastotasini beradi.

Garmonikaning tartib nomeri torda hosil bo'lgan do'ngliklar soniga teng. Bu laboratoriya ishidan maqsad torning xususiy tebranish chastotasi bilan tarangligi orasidagi bog'lanishni ifodalovchi nazariy formulani tekshirishdan iborat.

Nazariyadan ma'lumki, turg'un to'lqinning uzunligi har doim "chopar" (берущей) to'lqin uzunligining yarmiga teng.

$$\lambda_t = \frac{\lambda}{2} .$$

(1)

Chopar to'lqin uzunligi esa, o'z navbatida tebranishning chastotasi va tarqalish tezligi "c" bilan quyidagicha boq'langan:

$$\lambda = \frac{c}{\nu} .$$

(2)

λ - ning qiymatini (2) formuladan (1) -ga qo'yilsa, torda hosil bo'lgan aniq garmonikali turq'un to'lqinning uzunligini topamiz.

$$\lambda_t = \frac{c}{2\nu_n}.$$

(3)

Bunda ν_n , n - nchi garmonikaning tebarinsh chastotasi. Yuqorida aytilganga ko'ra torda butun sonda ifodalangan turq'un to'lqin hosil bo'ladi:

$$\ell = n\lambda_t.$$

(4)

(3) va (4) formulalarni birlashtirib n - nchi garmonikaning chastotasini topamiz.

$$\nu_n = \frac{nc}{2\ell}.$$

(5)

Nazariyadan ma'lumki, torda to'lqinning tarqalish tezligi

$$c = \sqrt{\frac{P}{\rho S}}$$

(6)

ga teng. Bunda R - torning taranglik kuchi, ρ - esa torning chizirli zichligi, S ning ifodasini (6) dan (5) ga qo'yib, ushbu natijaviy formulani hosil riamiz.

$$\nu_n = \frac{n}{2\ell} \sqrt{\frac{P}{\rho S}}.$$


(7)

Laboratoriya ishini maqsadi, shu munosabatni, ya'ni (7) ni tekshirishdan iborat.

ISHNING TAVSIFI

Laboratoriya ishini qurilmasi 4-rasmda keltirilgan. Mis simdan yasalgan torning bir uchi A-da mahkamlangan bo'lib, oo' tayanchga ega.

Torning tayanchlari orasidagi uzunligi l - bo'ladi. Torning ikkinchi uchi blok orqali o'tib, R yuk yordamida taranglashadi. Torning doimiy magnit maydoniga joylashtirib, so'ng undan chastotasi 20 dan 20000 Gs gacha o'zgaradigan tovush generatori orqali o'zgaruvchan tok o'tkaziladi.



Ma'lumki, magnit maydoniga joylashtirilgan tokli o'tkazgichga Amper kuchi ta'sir etadi. Bu kuch o'tkazgich uzunligiga, o'tkazgichdan o'tayotgan tokka proporsionaldir. Berilgan taranglikdagi tordan o'tayotgan tokning chastotasi sekin orttira borilsa, kichik chastotada tor deyarlik qo'zq'almaydi. Tok chastotasini orttirishi davom ettirilsa, torda hosil bo'lgan tebranishning siljishi orta boradi va ma'lum ν_1 chastotada maksimumga erishadi. Shu vaqtda torning o'rtasida do'nglik kuzatiladi. Tok chastotasini yana orttirilsa, torda hosil bo'lgan tebranishning siljishi minimum holatga keladi, chastota $\nu_2=2\nu_1$ bo'lganda tebranishning siljishi yana maksimumga erishadi. Bu holda torning o'rtasida tugun hosil bo'ladi, do'ngliklar soni 2-ta bo'ladi (ikkinchi garmonika). Tok chastotasini yana orttirib, torda 3-chi, 4-chi va hokazo garmonikalarni uyq'otish mumkin.

TAJRIBANI BAJARISH TARTIBI

1. Torning mahkamlangan uchiga R yuk osib, tarang tortiladi.
2. Tordan o'tayotgan tokning chastotasini generator yordamida o'zgartirib, birinchi, ikkinchi va hokazo garmonikalar uchun rezonans chastotalar aniqlanadi. Topilgan chastotalarning karrali ekanligiga ishonch hosil qilish zarur.
3. Yukni yana ikki marta o'zgartirib, torning tarangligi o'zgartiriladi va tajriba takrorlanadi.
4. Har bir taranglikda torda o'lchangan garmonikalarning rezonans chastotalari bo'yicha birinchi garmonikaning o'rtacha rezonans chastotasi hisoblanadi:

$$V_{\text{1o'rt}} = \frac{\nu_1 + \frac{1}{2}\nu_2 + \frac{1}{3}\nu_3 + \dots + \frac{1}{n}\nu_n}{n}.$$

5. ν o'rtacha, formula (7) bo'yicha $n=1$ deb hisoblangan chastota bilan solishtiriladi. Buning uchun torning uzunligi va diametrini o'lchab, misning zichligi jadvaldan olinadi.
6. Tajriba natijalari jadvalga yoziladi.

1-jadval

l m	d m	ρ S kg/ m	Taranglik kuchi R, N	Garmonika tartibi	Rezonans ν_n	ν_1 - Q'o'tacha chastota	Formula bo'yicha hisoblangan
				1. 2. 3.			

TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR

1. Turq'un to'lqin tenglamasini yozing va turq'un to'lqin hosil bo'lish mexanizmini bayon eting.
2. Torning asosiy toni va obertoni deb nimaga aytiladi?
3. Torda to'lqinni tarqalish tezligi formulasini yozing.
4. Torning xususiy tebranishlarini tekshirishda tartib etilgan rezonans usulini tushuntirib bering.
5. Qurilma chizmasini chizing va tushuntirib bering.

13- Laboratoriya Ishi.

Havoda tovushning tarqalish tezligini turq'un to'lqinlar usuli bilan aniqlash

Ishdan maqsad. Talaba laboratoriya ishini bajarishi natijasida quyidagilarni bilishi kerak: to'lqin jarayonlari nazariyasini va ularning asosiy tavsiflarini; tovush to'lqini nima ekanligini; to'lqinlar superpozitsiyasi nazariyasini;

turq'un to'lqinlar tavsifini; o'lchash va natijalarni tahlil qilishni.

Kerakli asboblari va uskunalari: tovush to'lqinlari generatori; tovush to'lqini tarqaladigan va ichiga qo'zq'uvchi porshen o'rnatilgan metal trubka; mashtabli chizq'ich; tovushni eshitish uchun rezina naychasi.

Qisqacha nazariy ma'lumotlar

Muhitning davriy deformatsiyalanishi natijasida hosil bo'lgan to'lqinsimon harakatga tovush to'lqinlari yoki qisqacha tovush deyiladi. Tovush to'lqinlari faqat elastik muhitlarda hosil bo'ladi va tarqaladi.

Muhit zarrachalarining tebranish chastotalari 1 sekundda taxminan 20 tebranishdan 20000 tebranishgacha bo'lgan intervaldagilari bizning eshitish a'zoimiz – quloq'imizga yetgach, maxsus tovush sezgisini hosil qiladi. Bu ishda tovushni havoda tarqalishini ko'rib chiqamiz.

Nazariyada tovush manbalari va tovush tarqalayotgan elastik muhit zarrachalarining tebranishi garmonik deb hisoblanadi. Shuning uchun tovush manbai tebranishini ushbu tenglama yordamida ifoda etamiz.

$$S = A_0 \sin \omega t ,$$

(1)

bunda S – tovush manbaining istalgan nuqtasining muvozanat holatdan siljishi, A_0 – tebranishni boshlanq'ich amplitudasi, ω - tebranishning siklik chastotasi va t – vaqt oraliqi. (1) formulada biz boshlanq'ich vaqt

oraliq'ida ($t=0$), tebranuvchi nuqta muvozanat holatda deb olsak ($S=0$), bunday tebranishning boshlanq'ich fazasi nolga teng bo'ladi. Muhitning biror nuqtasidagi tebranishi qo'shni nuqtaga biroz vaqt o'tgandan so'ng yetib keladi. Faraz qilaylik, tovush manbaidan x - oraliq'idagi nuqtaga tovush to'lqin $\tau = \frac{x}{v}$ vaqt o'tgandan so'ng yetib kelsin (bunda v - tovush to'lqinning tarqalish tezligi). Natijada muhitning nuqtadagi tebranishi τ vaqtga kechikiadi, lekin nuqtaning tebranish chastotasi, manbaning chastotasi kabi bo'ladi. Muhit nuqtasining siljishi esa $S=A_0 \sin \omega t'$ ga teng bo'ladi. Bunda $t' = t - \tau$ ga teng. t' ni va τ -ning qiymatlarini hisobga olib muhit nuqtasining siljish formulasini quydagicha yozamiz:

$$s = A_0 \sin \omega \left(t - \frac{x}{v} \right) \quad (2)$$


(2) tenglama monoxromatik chopar to'lqin tenglamasi deyiladi. Bu tenglama yordamida, tovush manbaidan istalgan aniq masofadagi muhit zarrachasining muvozanat holatdan siljishini topish mumkin.

To'lqin bir vaqtda yetib kelgan nuqtalarning geometrik o'rni tekislikdan iborat bo'lsa, to'lqin yassi deyiladi. Yassi to'lqin tarqalishida energiya yo'qolmasa, muhit zarrachasining tebranishi amplitudasi A , manbaning tebranish amplitudasi A_0 - ga teng deb olinadi. Doiraviy yoki siklik chastota odatdagi chastota bilan shunday boq'langandir:

$$\Omega = 2\pi \omega.$$

(3)

Odatdagi chastota ν , tebranish davri T bilan ham boq'liq:



1-rasm

$$\nu = \frac{1}{T} \quad (4)$$

(2) formuladan ko'rinadiki, tovush manbai o dan x_1 va x_2 oraliqda joylashgan va masofalar ayirmasi $x_2 - x_1 = 2k\lambda/2$ ga teng bo'lgan nuqtalar (1-rasm) birday fazada tebranadilar. Ularning muvozanat holatga nisbatan siljishlari ham birday bo'ladi. Haqiqatan ham A - nuqtaning t - vaqt oraliq'idagi siljishi:

$$S_A = A \sin \omega \left(t - \frac{x_1}{v} \right) = A \sin \left(\omega t - \frac{\omega}{v} x_1 \right),$$

bo'lsa, shu vaqt oraliq'idagi B -nuqtaning siljishi

$$S_B = A \sin \omega \left(t - \frac{x_2}{v} \right) = A \sin \left(\omega t - \frac{\omega}{v} x_2 \right),$$

lekin

$$x_2 = x_1 + \frac{2\pi v}{\omega}$$

bo'lganidan

$$S_B = A \sin \omega \left(t - \frac{x}{v} - \frac{2\pi}{\omega} \right) = A \sin \left(\omega t - \frac{\omega}{v} x_1 - 2\pi \right)$$

bo'ladi, chunki sinus, davri 2π li davriy funksiyadir. Bir xil fazada tebranuvchi ikki nuqta orasidagi eng yarin masofaga to'lqin uzunligi deyiladi va λ - bilan belgilanadi. Isbotlanganga asosan $\lambda = \frac{2\pi v}{\omega}$ ga teng. λ - ning qiymatini formula (3) ga qo'yib:

$$\lambda = \frac{2\pi v}{2\pi \nu} = \frac{v}{\nu} = \nu T$$

(5)

ni hosil qilamiz. Demak, to'lqin uzunligi, to'lqinni bir tebranish davri T ga teng vaqt oralig'ida bosib o'tgan masofasiga teng ekan.


Agar muhit zarrachalarining siljishi to'lqinning tarqalish yo'nalishi bo'yicha bo'lsa, to'lqin bo'yлама deyiladi. Agar muhit zarrachalarining siljishi to'lqinning tarqalish yo'nalishiga perpendikular bo'lsa, to'lqin ko'ndalang deyiladi. Havodagi tovush to'lqinlari ko'ndalang to'lqinlardir.

Tovush to'lqinlari biror to'siqni uchratsa, qisman qaytib, qisman ikkinchi muhitga o'tib, unda tarqalishni davom ettiradi. Natijada muhitning har bir nuqtasi manbadan kelgan va to'siqdan qaytuvchi tebranishlarda ishtirok qiladi. Manbadan ixtiyoriy nuqtaga kelgan to'lqinni hosil qilgan tebranishning siljishi- (2) formulaga asosan

$$S_1 = A \sin \omega \left(t - \frac{x}{v} \right) = A \sin \left(\omega t - \frac{\omega}{v} x \right),$$

ga teng, to'siqdan qaytgan to'lqinning shu nuqtada hosil qilgan siljishi

$$S_2 = A \sin \omega \left(t - \frac{x+2\ell}{v} \right) = A \sin \left(\omega t - \frac{\omega(x+2\ell)}{v} \right) \quad (6)$$



2-rasm

bo'ladi. Manbadan tarqalayotgan chopar to'lqinga qaraganda qaytgan to'lqin (teskari to'lqin) 2ℓ masofani ortiq o'tadi (2-rasm) va siljishga ega tebranishlarning qo'shilishi natijasida ushbu ifoda hosil bo'ladi:

$$S = S_1 + S_2 = 2A \cos \omega \frac{\omega \ell}{v} \cdot \sin \omega \left(t - \frac{x+\ell}{v} \right).$$

(7)

$$\omega = \frac{2\pi}{T}, \quad \text{ekanini eslab,}$$


$$S = 2A \cos \omega \frac{2\pi\ell}{\lambda} \cdot \sin 2\pi \left(\frac{t}{\pi} - \frac{x+\ell}{\nu} \right) \quad (7a)$$

hosil qilamiz. Bu tenglamadan ko'rinadiki:

1) Natijaviy tebranish amplitudasi $2A \cos 2\pi\ell/\lambda$, to'siqdan to'q'ri qaytgan to'lqinlar ($\ell=0$) natijaviy tebranish amplitudasi $2A$ ga teng (to'lqin zichligi muhit zichligidan kichik to'siqdan qaytadi deb olinganda)

$$\frac{\lambda}{4}; \frac{3}{4}\lambda; \frac{5}{4}\lambda; \dots \text{ yoki } \ell = (2\kappa + 1) \frac{\lambda}{4}$$


masofalarda natijaviy tebranish amplitudasi nolga teng.



3-rasm

2) Ikki to'lqin sirtlari orasida joylashgan muhit nuqtalari birday faza bilan tebranadilar, chunki (7a) formuladagi $x+\ell$ hamma nuqtalar uchun o'zgarmasdir. Faqat kosinusning ishorasi musbatdan manfiyga o'tganda o'zgaradi.

Bu nuqtalarda uchrashgan to'q'ri va qaytgan to'lqinlarning qo'shilishi natijasida hosil bo'lgan to'lqinga turq'un to'lqin deyiladi (3-rasm). Natijaviy tebranish amplitudasi nolga teng bo'lgan nuqtalarga turq'un to'lqinning tugunlari deyiladi. Natijaviy tebranish amplitudasi eng katta qiymatga teng nuqtalarni turq'un to'lqinning do'ngliklari deyiladi.



1-rasm

Ikki tugun yoki do'nglik orasidagi masofaga turq'un to'lqin uzunligi deyiladi. U chopar to'lqin uzunligining yarmiga teng.

Agar to'liqin zichligi kattaroq muhitdan qaytsa, to'siqda tugun hosil bo'ladi, 1-chi do'nglik esa undan $\frac{\lambda}{4}$ ga teng masofada hosil bo'ladi (4-rasm).

Turq'un to'liqinlar hosil qilish usuli bilan tovush to'liqinining uzunligini va muhitda tovushning tarqalish tezligini aniqlash mumkin. (5)-formuladan ma'lumki.

$$v = \lambda \nu$$

(8)
yoki


$$v = 2\lambda_t \cdot \nu.$$

(8a)


Bu formuladan ko'rinadiki, tovushning tebranish chastotasi va turq'un to'liqinining uzunligi ma'lum bo'lsa, berilgan muhitda tovushning tarqalish tezligini aniqlash mumkin.

ISHNING TAVSIFI

Xavoda tovushning tezligini aniqlash uchun ishlatiladigan qurilma uzunligi 0.5 metr, diametri 4 sm metal trubadan iborat (5-rasm). Trubani bir uchi qo'zq'aluvchi metal porshen bilan berkitilgan bo'lib, uning qancha masofaga qo'zq'atilganligi masshtab lineyka bilan o'lchanadi. Trubaning ikkinchi uchiga tovush manbai sifatida telefon o'rnatilgan. Telefon tovush generatori Г3-33 ga ulangan. Mikrofonga kelayotgan



o'zgaruvchan tokning chastotasini tovush generatori yordamida 20 dan 20000 Gs gacha o'zgartirish mumkin. Tovushni generatorga "amplituda" deb yozilgan buragich yordamida o'rgartirish mumkin. Trubaga telefondan tashqari eshitish trubkasi ham o'rnatilgandir. Telefon membranasidan tarqalayotgan to'liqinlar, trubka ichidagi porshendan qaytadi va chopar to'liqin bilan qaytgan to'liqin uchrashishi natijasida trubka ichida turq'un to'liqinlar hosil bo'ladi. Turq'un to'liqin tugunlari va do'ngliklarining qayerda hosil bo'lishi porshenning



holatiga boq'liq.

Agar eshitish trubkasi bilan porshen orasidagi masofa $\ell = 2k\frac{\lambda}{4}$ ga teng bo'lsa, u nuqtada (6-rasmga qarang) turq'un to'liqini tuguni hosil bo'ladi va tovush eshitilmaydi. Agar $\ell = (2k+1)\frac{\lambda}{4}$, ya'ni tok sondagi chorak to'liqin uzunligiga teng bo'lsa, u nuqtalarda turq'un to'liqinning do'ngliklari hosil bo'ladi, eshitish trubkasida kuchli tovush eshitiladi.

TAJRIBANI O'TKAZILISH TARTIBI

1. Trubka ichidagi porshenni eshitish trubkasiga yarim holatga keltiriladi.
2. Tovush generatori (ГЗ-33) ma'lum bir chastota (mas. 1000 s^{-1}) ga moslanadi.
3. Eshitish trubkasida max kuchli tovush eshitilguncha porshen siljiriladi va porshenning holati yozib olinadi. Porshenni yana surib, tovush maksimumi eshitilayotgan keyingi nuqta topiladi va porshenning shu holati yana yozib olinadi va hokazo. Keyin porshen orqaga surib avvalgidek nuqtalar yozib olinadi. Porshenning ikki maksimum holati bo'yicha o'rta holat topiladi.
4. Porshenning qo'shni maksimum holatlar o'rasidagi masofalar topiladi.
5. Topilgan ayirmalarning o'rta qiymati hisoblanadi. Topilgan son o'lchanayotgan to'liqin uzunligining yarmiga yoki turq'un to'liqin uzunligiga teng bo'ladi.
6. Ma'lum tebranish chastotasi ν ni va turq'un to'liqin uzunligini (8a) formulaga qo'yib, tovushning berilgan muhitda tarqalish tezligi hisoblanadi.
7. Yuqorida aytilganlar turli chastotalarda takrorlanadi.
8. Tovush tezligi o'lchanayotgan paytdagi havo temperaturasini termometrga qarab yozib qo'yiladi.
9. Tovush tezligini o'lchashda qilingan absolyut va nisbiy xatoliklar hisoblanadi.
10. O'lchangan va hisoblangan kattaliklar jadvalga yoziladi.

ν_i	№	ℓ_1^I m	ℓ_1^{II} m	$\bar{\ell}_i$ m	$\lambda_t = \frac{\lambda}{2}$	$\nu = \nu 2\lambda_t$ m/s	Xatolikni hisoblash
ν_1	1.						
	2.						
	3.						
ν_2	1.						

	2.						
	3.						
v_3	1.						
	2.						
	3.						

TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR

1. To‘lqinning siljishi, amplitudasi, davri, doiraviy, oddiy chastotasi va fazasini ta’riflang.
2. To‘lqin hosil bo‘lish jarayonini tushuntiring. Bo‘ylama va ko‘ndalang to‘lqinlarni ta’riflang va misollar keltiring. Tovush to‘lqinlari deb qanday to‘lqinlarga aytiladi?
3. To‘lqin uzunligini ta’riflang. To‘lqin uzunligi, to‘lqinning tarqalish tezligi va chastotasi orasidagi boq‘lanish formulasini yozing.
4. Yassi to‘lqinni ta’riflang. Yassi to‘lqin tezligini formulasini yozing.
5. To‘lqinlar interferensiyasini tushuntiring.
6. Turq‘un to‘lqin deb qanday to‘lqinlarga aytiladi. Turq‘un to‘lqinning tugunlari va do‘ngliklarining hosil bo‘lishini tushuntiring.
7. Turq‘un to‘lqin usuli bilan tovush tezligini aniqlashni bayoni.

16- Laboratoriya Ishi. Malyus qonunini o‘rganish

Ishdan maqsadi. Polyarizator va analizatoridan o‘tgan yoruq‘lik intensivligining polyarizator va analizator optik o‘qlari orasidagi burchakka boq‘liqligini tajribada tekshirishdan iborat.

Kerakli asboblari va uskunalari: yoruq‘lik manbai, polyarizator va analizator o‘rnatilgan optik qurilma, analizatorning burilish burchagini o‘lchovchi moslama.

YORUQ‘LIKNING QUTIBLANISHI. QUTIBLANMAGAN (TABIY) VA QUTBLANGAN YORUQ‘LIK NURLARI

Maksvel sof nazariya asosida elektromagnit to‘lqinning mavjudligini ko‘rsatib berdi va shuningdek, bu to‘lqinlarning vakuumda tarqalish tezligi yoruq‘likning tezligi $C=3 \cdot 10^8$ m/s ga teng ekanligini aniqladi. Shunga asosan, Maksvel yoruq‘lik elektromagnit to‘lqindan iborat, nazariyasini yaratdi. Bundan tashqari, elektromagnit to‘lqindan iborat, nazariyasini yaratdi. Elektromagnit to‘lqinlarning ko‘ndalang to‘lqin ekanligi Maksvel nazariyasidan bevosita kelib chiqadi.


Gers xosil qilgan elektromagnit to‘lqinlar tarqalganda yoruq‘lik to‘lqinlariga xos bo‘lgan: qaytish, sinish, interferensiya, difraksiya qutblanish va boshqa xossalarga ega bo‘lishi isbotlandi. Bu esa

yoruq'likning elektromagnit to'lqin nazariyasi ob'yektiv nazariya ekanligini butkul isbotlab berdi.

Yoruq'lik ko'ndalang elektromagnit to'lqindan iborat bo'lib, \vec{E} vektorning xosil qilgan to'lqini ko'zning to'r pardasiga yoki fotoemulsiyaga ta'sir qiladi. Binobarin, yoruq'lik to'lqini deyilganda, faqat \vec{E} vektor xosil qilgan to'lqin tushuniladi (magnit ta'sir elektr ra'sirga nisbatan juda kichik).

Yoruq'lik to'lqini \vec{E} vektorning yo'nalishiga qarab qutblangan va qutblanmagan yorug'lik to'lqinlariga bo'linadi.

Tarqalish yunalishiga perpendikular bo'lgan barcha yo'nalishda \vec{E} vektor tebranishi teng ehtimolli bo'lib, yoruq'lik to'lqini qutblanmagan, unga tabiiy yoruq'lik to'lqini deyiladi (1-rasm).




1-rasm

Xuddi shuningdek, odatdagi yorug'lik manбайдan chiqayotgan yoruq'lik nuri xam qutblanmagandir.

Qutblanmagan yoruq'lik nurlari nikoli prizmasi, turmalin plastinkasi va polyarodlardan o'tganda yassi-qutblangan yoruq'lik nuriga aylanadi.

Yassi-qutblangan yoruq'lik nuri deb, \vec{E} tebranish amplitudasi vaqt bo'yicha bir tekislikda yotgan to'lqinlarga aytiladi (2-rasm).




2-rasm

Qutblangan nur \vec{E} vektor va yoruq'lik to'lqinining tarqalish tezligidan o'tuvchi tekislikka qutblanish tekisligi deyiladi (3-rasm).

Tabiiy yoruq'likni qutblashga imkon beruvchi qurilmaga polyarizator deyiladi.


Yoruq'likning qutblanganligi va qutblanmaganligini taxlil qilishda foydalaniladigan qurilmaga analizator deyiladi.

Bir vaqtning o'zida yoruq'likni qutblovchi qurilmaning o'zidan xam polyarizator, xam analizator sifatida foydalanish mumkin.



3-rasm

Agar polarizator (P) dan chiqayotgan, amplitudasi \vec{E} bo'lgan yassi-qutblangan yorug'lik nuri analizator (A) ga tushayotgan bulsin (4-rasm) RASM.



4-rasmdagi chizmada MN va M' N' - lar polarizator (P) va analizator (A)ning qutblanish tekisliklari bo'lib, ular orasidagi burchak φ ga teng bo'lsin. U vaqtda analizatoridan o'tgan yorug'lik to'liqning amplitudasi \vec{E} quyidagiga teng bo'ladi;

$$E = E_0 \cos \varphi . \quad (1)$$

Yorug'likning intensivligi I tebranishlar amplitudasi \vec{E} ning kvadratiga to'g'ri proporsionaldir:

$$I = kE^2 \quad (2)$$

U vaqtda (1) ni kvadratga ko'tarib, K-proporsionallik koeffitsiyentiga ko'paytirib yuborilsa:

$$kE^2 = kE_0^2 \cos^2 \varphi . \quad (3)$$

Buni (2) ga asosan quyidagi ko'rinishda yozamiz:

$$I = I_0 \cos^2 \varphi , \quad (4)$$

bunda I_0 -analizatorga tushuvchi yassi-qutblangan yorug'lik nurining intensivligi.

(4)-ifoda Malyus qonunining matematik ifodasi bo'lib, u quyidagicha ta'riflanadi.

Polyarizator va analizatoridan o'tgan yorug'likning intensivligi polarizator va analizator qutblanish tekisliklari (MN va M'N') orasidagi burchak kosinusining kvadratiga to'g'ri proporsionaldir.

Malyus qonunidan ko'rinadiki, polarizatorga nisbatan analizator burilganda yorug'likning intensivligi noldan I_0 gacha o'zgaradi.

YORUQ'LIKNING IKKI DIELEKTRIK CHEGARASIDAN

QAYTISH VA SINISHIDA QUTBLANISHI. BRYUSTER QONUNI.

Qutblanmagan (tabiiy) yoruq'lik ikki dielektrik chegarasidan qaytgan va o'tgandagi qutblanishini tajriba asosida tekshirgan Bryuster o'z qonunini ta'riflaydi:

Ikki dielektrik chegarasiga yoruq'likning tushish burchagining tangensi ikki muxitning nisbiy sindirish ko'rsatgichiga teng bo'lganda qaytgan nur to'liq qutblanib, sindirish qisman

qutblanar ekan (5-rasm), ya'ni: $tgi_b = n$.

Bu yerda i_b - to'la qutblanish (Bryuster) burchagi, n ikki muxitning nisbiy sindirishini kursatgich Yorug'likning sinish qonuni

$n = \frac{\sin i_b}{\sin r}$ ni (4) bilan taqqoslansa, quyidagi

kelib chiqadi: $i + \tau = 90^\circ$.

Demak, ikki dielektrik chegarasidan qaytgan yoruq'lik to'liq qutblanganda, qaytgan va singan nurlar orasidagi burchak 90° ga teng bo'lishi kerak.

Shunday qilib, ikki dielektrik chegarasi yoki dielektrik bilan vakuum chegarasi polyarizator (qutblagich) bo'la olar ekan.


Nurning tushish burchagidan qat'inazar singan nur qisman qutblanadi. Shuning uchun xam cheksiz ko'p yomq'ir tomchilardan sinib o'tgach kamalak ko'rinishidagi yoruq'lik xam qutblangandir.

Qurilma va tajribaning tavsifi

(Bu ishni bajarishdan oldin "Yoruq'likning qutblanishi" dan iborat qisqacha nazariya bilan tanishib chiqish kerak).

Malyus qonuniga binoan, polyarizator va analizator o'tgan yoruq'likning intensivligi polyarizator va analizator qutblanish tekisliklari orasidagi burchak kosinusining kvadratiga to'q'ri proporsionaldir.

$$I = I_0 \cos^2 \varphi. \quad (5)$$




5-

Qurilmaning chizmasi 9-rasmda tasvirlangan. Unda L – lampochkadan chiqayotgan yoruq‘lik nuri, qo‘zq‘almas P – polarizatoridan o‘tganda qutblanadi va nur o‘tgan o‘q atrofida erkin aylana oladigan A analizatorga tushadi. Analizator maxkamlangan D diskning shkalasidan A analizatorning burilish burchagi φ - ni o‘lchash mumkin. Polarizator va analizatoridan o‘tgan yoruq‘lik nuri Φ fotoelementga tushadi.

To‘q‘rilagichga ulangan fotoelementda hosil bo‘lgan fototokning qiymati mikroampermetr (mkA) bilan o‘lchanadi. Fotoeffekt qonuniga binoan fototokning qiymati yoruq‘likning intensivligi I ga proporsionaldir, ya‘ni $I_{\phi} = \kappa I$.

U vaqtda fototok I_{ϕ} ham $\cos^2 \varphi$ ga proporsional bo‘ladi. Agar I_{ϕ} fototokning $\cos^2 \varphi$ ga boq‘lanish grafigi chizilsa, bunday boq‘lanish koordinata boshidan o‘tuvchi to‘q‘ri chizirdan iborat bo‘ladi.



O‘lchash va o‘lchash natijalarini xisoblash

1. Fototok I_{ϕ} ning analizatorning burilish burchagi φ ga boq‘lanishini har 10° dan oralatib, 0° dan to 360° gacha o‘lchanadi.
2. Burilish burchak kosinusining absolyut qiymati $|\cos\varphi|$ ga mos kelgan fototoklar I_{ϕ} ning va ularning o‘rtacha $\langle I_{\phi} \rangle$ qiymatlari

quyidagi jadvalga yoziladi. Jadvaldagi gorizontaal burchaklar, masalan 60° , 120° , 240° va 300° ga mos kelgan $|\cos\varphi|=0.5$ ga teng bo'ladi.

3. Jadvaldagi xisoblash natijalariga asosan q'rtacha fototok $\langle I_f \rangle$ ning $\cos^2 \varphi$ ga boq'lanish $I=f(\cos^2 \varphi)$ grafigi chiziladi.

O'lchash va xisoblash jadvali

φ°	I_{ϕ} mкA	φ°	I_{ϕ} mкA	φ°	I_{ϕ} mкA	φ°	I mкA	$\langle I_{\phi} \rangle$	$\cos\varphi$	$\cos^2\varphi$
0		180				360				
10		170		190		350				
20		160		200		340				
30		150		210		330				
40		140		220		320				
50		130		230		310				
60		120		240		300				
70		110		250		290				
80		100		260		280				
90				270						

17- Laboratoriya Ishi.

Stefan-bolsman va plank doimiylarini aniqlash

Ishdan maqsad. Talaba laboratoriya ishini bajarishi natijasida quyidagilarni bilishi kerak: issiqlik nurlanish asosiy tavsiflarini tariflashni va issiqlik nurlanish qonunlari mohiyatini.

Kerakli asboblari va uskunalari: optic pirometr; temperaturasi aniqlanishi kerak bo'lgan qizdirilgan volfram plastinka; ampermetr; voltmeter; o'zgarmas tok manbai.

Issiqlik nurlanishining qisqacha nazariyasi

Qizdirilgan modda atomlari va molekularining tartibsiz issiqlik harakati tufayli yuzaga keladigan elektromagnit nurlanishlariga issiqlik yoki temperaturali nurlanish deyiladi. Bu nurlanishlar temperaturasi absolyut nol (OK) dan farqli bo'lgan barcha jismlarda kuzatilib, ular jismning temperaturasi kuchli boq'liq bo'ladi.

Barcha qizdirilgan qattiq va suyuq moddalarning issiqlik nurlanishi tutash spektr beradi. Spektrda energiya taqsimoti ham temperaturaga boq'liq bo'lib, past temperaturada issiqlik nurlanishi asosan infraqizil ($\lambda=5 \cdot 10^{-4}$ m dan $\lambda_q=8 \cdot 10^{-7}$ m gacha) nurlanishdan, yuqori temperaturalarda esa, ko'zga ko'rinadigan ($\lambda=8 \cdot 10^{-7}$ m dan $4 \cdot 10^{-7}$ m

gacha) va ultrabinafsha ($\lambda=4\cdot 10^{-7}$ m dan $\lambda_p=10^{-9}$ m gacha) nurlanishlar hosil bo'ladi.

Issiqlik nurlanishga oid qonunlarni bayon qilishdan oldin nurlanish va uning jism bilan ta'sirlanishini tavsiflovchi ba'zi kattaliklarni qarab chiqaylik.

1. Nurlanishning oqimi deb, vaqt birligi ichida yuza orqali o'tayotgan nurlanish energiyasiga miqdor jihatidan teng bo'lgan fizik kattalikka aytiladi, ya'ni

$$\Phi = \frac{dW}{dt} \quad ,$$

(1)

bunda dW berilgan yuza orqali dt vaqt ichida o'tgan nurlanish energiyasi.

2. Jismning issiqlik nurlanishi energetik yorqinlik yoki integrall nurlanish qobiliyati deb ataluvchi R kattalik bilan ham tavsiflanadi. Jismning nurlanish qobiliyati deb birlik yuzadan vaqt birligi ichida chiqayotgan nurlanish energiyasiga miqdor jihatidan teng bo'lgan fizik kattalikka aytiladi, ya'ni

$$R_T = \frac{dW}{Sdt} \quad .$$

(2)

3. Jismning spektral nurlanish qobiliyati $R_{\nu,T}$ yoki $R_{\lambda,T}$ deb nurlanish qobiliyatining chastotasi yoki to'lqin uzunligining bir-birligi oraliq'iga mos kelgan nurlanish qobiliyatiga miqdor jihatidan teng bo'lgan fizik kattalikka aytiladi, ya'ni

$$R_{\nu,T} = \frac{dR_T}{d\nu} \quad , \text{ yoki } R_{\lambda,T} = \frac{dR_T}{d\lambda} \quad ,$$

(3)

(13.3) dan integral nurlanish qobiliyati dR_T quyidagiga teng bo'ladi:

$$dR_T = R_{\nu,T} d\nu = R_{\lambda,T} d\lambda \quad .$$

(4)

Spektral nurlanish qobiliyatlari $R_{\nu,t}$ va $R_{\lambda,t}$ larning o'zaro boq'lanishi

$\lambda = \frac{c}{\nu}$ ni differensiallab aniqlash mumkin

$$d\lambda = -\frac{c}{\nu^2} d\nu \quad , \quad \text{yoki} \quad |d\lambda| = \frac{c}{\nu^2} d\nu \quad ,$$

(5)

(13.5) ni (13.4) ga qo'yilsa, quyidagi hosil bo'ladi:

$$R_{\nu,T} = -\frac{c}{\nu^2} R_{\lambda T}, \quad R_{\lambda,T} = -\frac{\nu^2}{c} R_{\nu,T},$$

(6)

bunda $c=3 \cdot 10^8$ m/s - elektromagnit to'liqning vakuumdadi tarqalish tezligi.

4. Jismning integral nur yutish qobiliyati deb, jism yutgan yoruq'lik energiyasi DW_{Yut} ning shu jismga tushayotgan yoruq'lik energiyasi dW_{tush} ga bo'lgan nisbatiga miqdor jihatidan teng bo'lgan fizik kattalikka aytiladi.

$$A = \frac{dW_{yut}}{dW_{tush}}.$$

(7)

Jismning nur yutish qobiliyati o'lchamsiz kattalikdir. Jismning nur yutish qobiliyati chastota (to'liq uzunligi) ga boq'liq bo'lganligi uchun, u spektral nur yutish qobiliyati $A_{\nu,t}$ yoki $A_{\lambda,t}$ bilan ham tavsiflanadi: jismning spektral nurlanish qobiliyati deb, to'liq chastotasi $d\nu$ yoki to'liq uzunligi $d\lambda$ intervaldagi nur yutish qobiliyatiga aytiladi:

$$A_{\nu T} = \frac{dW_{\nu, \nu+d\nu}^{yut}}{dW_{\nu, \nu+d\nu}}, \quad \text{yoki} \quad A_{\lambda, T} = \frac{dW_{\lambda, \lambda+d\lambda}^{yut}}{dW_{\lambda, \lambda+d\lambda}}.$$

(8)

Ta'rifga binoan jismning nur yutish qobiliyati birdan katta bo'lishi mumkin emas.

5. Tushayotgan yoruq'lik energiyasini, ixtiyoriy temperaturada, butunlay yutadigan jismlarga *absolyut qora jismlar* deyiladi. Boshqa jismlardan farqli ravishda absolyut qora jismning spektral nurlanish va nur yutish qobiliyatlarini mos ravishda $r_{\lambda,t}$, $r_{\nu,t}$ va $a_{\nu,t}$, $a_{\lambda,t}$ kichik harflar orqali belgilaymiz. Ta'rifga binoan absolyut qora jismning nur yutish qobiliyati 1 ga tengdir, ya'ni

$$a_{\nu, T} = a_{\lambda, T} = 1.$$

(9)

Tabiatda absolyut qora jismlar mavjud emas. Qurum yoki platina qorasi uchun nur yutish qobiliyati, faqat ko'zga ko'rinadigan to'liq uzunligi intervalida birga yaqin. O'z xususiyatlari bilan absolyut qora jismga juda ham yaqin bo'lgan qurilma yasash mumkin. Bunday qurilma juda kichik teshikka ega bo'lgan sferadan iboratdir (1-rasm). Nur teshik orqali qurilma ichiga kirib, nur chiqib ketguncha sferaning ichki sirtidan juda

ko'p marta qaytadi. Har bir qaytishda energiyaning bir qismi yutila boradi, natijada barcha chastotali hamma nurlar shu sfera ichida yutiladi. Shuning uchun ham, bunday qurilmaga absolyut qora jism modeli deyiladi. Absolyut qora jism tushunchasi bilan bir qatorda kul rang jism tushunchasi amaliy qo'llanishga ega. Kul rang jism deb, nur yutish qobiliyati barcha chastotalar uchun bir va birdan kichik bo'lib, temperaturaga, jism moddasiga va uning sirtiga boq'liq bo'lgan jismga aytiladi. Shunday qilib, kul rang jismning nur yutish qobiliyati quyidagiga teng:

$$A_{\nu,T}^{kul,r} = A_T = const < 1 . \quad (10)$$

KIRXGOF QONUNI

Tekshirishdan ma'lum bo'ldiki, ixtiyoriy jismning nurlanish va nur yutish qobiliyati o'rtasida aniq boq'lanish mavjud ekan. Jismlarning nurlanish qobiliyati $R_{\nu,t}$ qancha katta bo'lsa, uning nur yutish qobiliyati $A_{\nu,t}$ ham shuncha katta bo'lib, ular-ning nisbati o'zgarmas qoladi, ya'ni

$$\left(\frac{R_{\nu,T}}{A_{\nu,T}} \right)_1 = \left(\frac{R_{\nu,T}}{A_{\nu,T}} \right)_2 = \left(\frac{R_{\nu,T}}{A_{\nu,T}} \right)_3 = \dots = const , \quad (11)$$

bunda 1, 2, 3, va x.k. indekslar turli jismlarga tegishlidir. (13.11) dan absolyut qora jism ($a_{\nu,t}=1$) uchun $\frac{r_{\nu,T}}{a_{\nu,T}}$ bilan tenglashtirilsa, quyidagi

tenglama kelib chiqadi.

$$\frac{R_{\nu,T}}{A_{\nu,T}} = \frac{r_{\nu,T}}{a_{\nu,T}} = r_{\nu,T} = f(\nu, T) . \quad (12)$$

Bu tenglama Kirxgof qonunining matematik ifodasi bo'lib, u quyidagicha ta'riflanadi: Har qanday jismning nurlanish qobiliyatini nur yutish qobiliyatiga bo'lgan nisbati jismlarning tabiatiga boq'liq bo'lmay, shu sharoitdagi absolyut qora jismning nurlanish qobiliyatiga teng bo'lib chastota va temperaturaning universal funksiyasidir.

Shunday qilib, Kirxgofning $f(\nu, T)$ universal funksiyasi absolyut qora jismning nurlanish qobiliyati $r_{\nu,t}$ ning o'zginasidir. Binobarin, bu universal funksiya $f(\nu, T)$ ning ko'rinishi aniqlangandagina, absolyut qora jismning nurlanish qonuniyati masalasi hal qilingan bo'ladi. Kirxgof qonuni (12) bajarilmaydigan holda nurlanish issiqlik nurlanishi bo'laolmaydi.

STEFAN-BOLTSMAN QONUNI

Kirxgof universal funksiyasi $f(\nu, T)$ ning ko'inishini nazariy keltirib chiqarishdagi urinishlar uzoq vaqt masalaning umumiy yechimini bera olmadi. Avstraliyalik fiziklardan I.Stefan tajriba natijalariga va L.Boltsman esa termodinamik mulohazalarga asoslanib, xususiy holda, absolyut qora jismning integral nurlanish qobiliyati uchun quyidagilarni topdilar:

$$r_T = \int_0^{\infty} f(\nu, T) d\nu = \int_0^{\infty} r_{\nu, T} d\nu = \sigma T^4, \quad (13)$$

bu yerda σ - Stefan-Boltsman doimiysi bo'lib, uning qiymati quyidagiga teng

$$\sigma = 5.67 \cdot 10^{-8} BT / M^2 K, \quad (13a)$$


T-absolyut temperatura. temperatura. Absolyut qora jismning integral nurlanish qobiliyati bilan absolyut temperatura orasidagi (13) munosabat Stefan-Boltsman qonunining matematik ifodasi bo'lib, u quyidagicha ta'riflanadi:

absolyut qora jismning integral nurlanish qobiliyati absolyut temperaturaning to'rtinchi darajasiga proporsionaldir.

VIN QONUNI

Absolyut qora jismning spektral tavsifi, - ya'ni nurlanish qobiliyati $r_{\nu, T}$ - ning to'lqin uzunligi λ ga boq'lanish izotermalari ($T_1 < T_2 < T_3$) 2-rasmda keltirilgan. Tajriba asosida aniqlangan bu egri chiziqlar asosida quyidagi xulosalar kelib chiqadi.

1. Absolyut qora jismning spektral tavsifi uzluksizdir.
2. Har bir temperaturaga tegishli spektral tavsif egri chiziq'ida aniq maksimum mavjud bo'lib, u temperatura oshgan sari qisqa to'lqin uzunlik sohasiga siljiydi (2-rasm).



Nemis fizigi Vin (1864-1928), absolyut qora jismning spektral tavsifiga termo va elektrodinamika qonunlaridan foydalangan holda quyidagi qonunni yaratdi: absolyut qora jismning spektral tavsifining maksimumiga mos kelgan λ_{\max} to'liq uzunligi absolyut temperaturasiga teskari proporsional bo'lib, temperatura ortgan sari qisqa to'liqlar sohasi tomon siljib boradi, ya'ni:

$$\lambda_{\max} = \frac{b}{T} \quad (14)$$

bu yerda b -Vin doimiysi deb ataladi, uning son kiymati quyidagiga teng:

$$b = 0,28979 \cdot 10^{-2} m.K$$

(14a)

Bu qonunni keyinchalik Vin qonuni deb ataldi.

PLANK FORMULASI

Klassik fizika qonunlariga tayanib, absolyut qora jism spektral nurlanish qobiliyati $r_{v,t}$ ning tajriba bilan mos keluvchi ifodasini topishdagi muvaffaqiyatsizliklarining sababi - klassik nazariya zaminida kamchiliklarning mavjudligidir.

1900 yilda nemis fizigi M.Plank klassik nazariyaga zid bo'lgan gipotezasini yaratib, absolyut qora jism spektral nurlanish qobiliyati $r_{v,t}$

ning tajriba natijasiga aniq mos kelgan ifodasining topishga muvaffaq bo'ldi.

Plank gipotezasining mohiyati quyidagidan iboratdir:

Jismning nurlanishi uzluksiz bo'lmagan alohida ulushlar-kvantlar sifatida chiqariladi. Har bir yoruq'lik kvantining energiyasi ε_0 yoruq'lik chastotasi ν ga proporsionaldir, ya'ni:

$$\varepsilon_0 = h\nu, \quad (5)$$

bunda h - Plank doimiysi bo'lib, uning son qiymati quyidagiga tengdir

$$h = 6,625 \cdot 10^{-34} \text{ j.c.} \quad (15a)$$

Shunday qilib, nurlanishlarning ulushlar-kvantlar ko'rinishida sodir bo'lishi ossillyatorlarning chiqargan yoruq'lik energiyasi ε , yoruq'lik kvanti energiyasi ε_0 ning karrali qiymatiga teng, ya'ni

$$\varepsilon = n\varepsilon_0 = nh\nu (n = 0, 1, 2, \dots) \quad (16)$$

U vaqtda ossillyator nurlanish kvantining o'rtacha energiyasi $\langle \varepsilon \rangle$ energiyaning diskret qiymati orqali quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$\langle \varepsilon \rangle = \frac{h\nu}{e^{\frac{h\nu}{KT}} - 1},$$

(16a)

bunda K - Boltsman doimiysi, T - absolyut temperatura.

Binobarin, absolyut qora jismning spektral nurlanish qobiliyati, quyidagi ko'rinishga keladi chiqadi:

$$r_{\nu, T} = \frac{2\pi\nu^2}{c^2} \langle \varepsilon \rangle = \frac{2\pi\nu^2}{c^2} \cdot \frac{h\nu}{e^{\frac{h\nu}{KT}} - 1}.$$

(17)

Bu formula Plank formulasi deb ataladi. Bunda ν - nurlanish chastotasi, c - yorug'likning vakuumdagi tarqalish tezligi, K - Boltsman doimiysi, h - Plank doimiysi, T - absolyut temperatura.

Plank formulasidan foydalanib, absolyut qora jism nurlanishining emperik ravishda aniqlangan barcha qonunlarini hosil qilish mumkin. (17) ni chastota ν bo'yicha 0 dan ∞ gacha integrallasak:

$$r_T = \int_0^{\infty} r_{\nu, T} d\nu = \int_0^{\infty} \frac{2\pi\nu^2 h\nu}{c^2 e^{\frac{h\nu}{KT}} - 1} d\nu = \frac{2\pi^5 k^4}{15c^2 h^3} T^4 = \sigma T^4.$$

(18)

Bu ifodadan Stefan-Boltsman doimiysi σ quyidagiga teng ekanligi kelib chiqadi:

$$\sigma = \frac{2\pi^5 k^4}{15c^2 h^3}.$$

(19)

Bunda , Boltsman doimiysi $K=1.32 \cdot 10^{-23} \text{ J/k}$, Plank doimiysi $h=6.625 \cdot 10^{-34} \text{ J.s}$.

$c=3 \cdot 10^8 \text{ m/s}$ - yoruq'likning vakuumda tarqalish tezligi.

STEFAN-BOLTSMAN VA PLANK DOIMIYLARINI ANIQLASH

Kerakli asbob va materiallar.

1. Optik pirometr. 2. Sirti oksidlangan nikel plastinka. 3. Ampermetr. 4. Voltmetr. 5. Reostat. 6. Mikrometr. 7. Tok manbai. 8. Kalitlar.


Ishning maqsadi:

Temperaturali nurlanish hodisasiga asoslangan optik pirometrning tuzilishi va ishlash prinsipi bilan tanishish, uning yordamida nurlanuvchi jism absolyut temperaturasini o'lchab, Stefan-Boltsman doimiysini aniqlashdan iborat.

Bu ishda absolyut qora jismning integral nurlanish qobiliyati r ni va absolyut temperaturasi T ni tajribada o'lchab, Stefan-Boltsman qonunini ifodalaydigan (18) formuladan foydalanib r_T ning qiymati topiladi.

$$r_T = \sigma T^4 . \quad (18a)$$

Shu maqsadda 3-rasmda tasvirlangan chizma



bo'yicha zanjir tuziladi. Bu jism, sirti oksidlangan nikel (Ni) plastinka bo'lib, uning nurlanishi absolyut qora jismnikiga yaqindir.

Yupqa nikel (Ni) plastinkasi tok transformatoriga ulangan bo'lib, transformatorning F.I.K. $\eta=1$ bo'lganligi uchun, plastinkaning nurlanish quvvati

$$N=IU .$$

(20)

Bundagi I va U lar ampermetr hamda volmetrning ko'rsatishidan olinadi.

U vaqtda tasmaning birlik yuzasidan vaqt birligi ichida sochilgan nurlanish energiyasi, ya'ni plastinkaning integral nurlanish qobiliyati quyidagiga tengdir:

$$R_T = \frac{dW}{Sdt} = \frac{Ndt}{Sdt} = \frac{N}{S} = \frac{IU}{S},$$

(21)

bunda S - plastinkaning nurlanish yuzasi bo'lib, u taxminan plastinka ikki yuzasining yiq'indisiga tengdir.

$$S = 2a\epsilon.$$

Bunda a - plastinkaning kengligi, b - esa uzunligidir.

U vaqtda (21) formula quyidagi ko'rinishga keladi.

$$R_T = \frac{IU}{2a\epsilon}.$$

(21a)

Ikkinchi tomondan Stefan-Boltsman qonuni (13) ga binoan, absolyut qora jismning biror muhitdagi integral nurlanish qobiliyati r_T quyidagiga teng bo'ladi:

$$r_T = \sigma(T^4 - T_0^4),$$

(22)

bunda T_0 - atrofdagi muhit (xona)ning temperaturasi: T - esa cho'q'langan plastinkaning temperaturasi.

Nikel plastinka absolyut qora jismdan qoralik darajasi bilan farq qiladi, ya'ni:

$$R_T = \alpha(T)r_T,$$

(23)

bunda $\alpha(T)$ - jismning qoralik darajasi yoki qoralik koeffitsiyenti deyiladi. Nikel oksidi uchun temperaturaning (800-1400)°C oraliq'ida $\alpha(T) = 0.85$ ga teng ekan. (13.21a) va (13.22) ni (13.23) ga qo'yilsa

$$\frac{IU}{2a\epsilon} = \alpha(T)\sigma(T^4 - T_0^4).$$

Oxirgi ifodadan Stefan-Boltsman doimiysini aniqlash formulasi kelib chiqadi.

$$\sigma = \frac{IU}{2\alpha(T)a\epsilon(T^4 - T_0^4)}.$$

(24)

Bu formuladagi $\alpha(T)$, a , b larni bilgan holda T va T_0 larni tajribada aniqlab, σ hisoblab topiladi.

Stefan-Boltsman doimiysi σ ning qiymatini bilgan holda, (19) formuladan Plank doimiysi h ni quyidagi formuladan hisoblab chiqariladi:

$$h = \sqrt[3]{\frac{2\pi^5 \kappa^4}{15c^2 \sigma}}.$$

(25)

Ishni bajarish tartibi

1. STEFAN-BOLTSMANDOIMIYSINI ANIQLASH

1. Nikel plastinkaning berilgan qoralik koeffitsiyenti $\alpha(T)$ ni, xonaning harorati T_0 ni va plastinkaning eni "a" ni, uzunligi "b" ni o'lchab, ularning qiymatlari 1-hisoblash jadvaliga kiritiladi.
2. 13.3-rasmda keltirilgan ish chizmasi bo'yicha elektr zanjir tuziladi.
3. Optik pirometr (O.P.) cho'q'langan nikel plastinkaning temperaturasi o'lchashga tayyorlab qo'yiladi.
4. Elektr zanjir chizmasi tekshirilgandan keyin, K kalit ulanadi va R reostat yordamida plastinkaga zarur bo'lgan tok berilib, voltmeter va ampermetrning ko'rsatishi qayd qilinib, ular 1-hisoblash jadvaliga yoziladi.
5. Cho'q'langan plastinkaning haroratini o'lchash uchun optik pirometr (O.P.) lampa tolasining va plastinkaning nurlanish ravshanligi bir xil bo'lganda, pirometrning ko'rsatishi plastinkaning temperaturasi bilan bir xil bo'lib, uning qiymati ham 1-hisoblash jadvaliga kiritiladi.
6. O'lchab olingan kattaliklardan foydalanib, har bir T, U, I lar uchun (24) formuladan Stefan-Boltsman doimiysi σ ning qiymati hisoblanib, uning o'rtacha qiymati $\langle\sigma\rangle$ topiladi va 1-hisoblash jadvaliga kiritiladi.
7. O'lchashda qo'yilgan absolyut σ hamda nisbiy δ % hatoliklar hisoblab chiqiladi, ular 1-jadvalga yoziladi.

1-jadval

T.r. №	I	U	t	T	σ	$\langle\sigma\rangle$	$\Delta\sigma$	$\langle\Delta\sigma\rangle$	δ
	A	v	s	K	Vt/m^2K^4				%
1.									
2.									
3.									
4.									
5.									

2. PLANK DOIMIYSINI ANIQLASH

1. Plank doimiysini hisoblashda zarur bo'lgan Boltsman doimiysi K ning va yorug'likning bo'shliqdagi tarqalish tezligi c ning qiymatlari 2-hisoblash jadvaliga yoziladi.

2. Aniqlangan Stefan-Boltsman doimiysi σ ning topilgan qiymatlari 1-jadvaldan olinib, yana bir bor 2-jadvalga yoziladi.
3. Boltsman doimiysi K ni va yoruq'lik tezligi c ni bilgan holda, tajribadan aniqlangan har bir σ ning qiymati uchun (25) formuladan Plank doimiysi h hisoblab chiqiladi va o'rtacha qiymati $\langle h \rangle$ topiladi.
4. Xisoblashda yo'l qo'yilgan absolyut Δh , o'rtacha absolyut $\langle \Delta h \rangle$ va nisbiy xatoliklar $\delta\%$ hisoblab topiladi va 2-hisoblash jadvaliga kiritiladi.

2-jadval

		$K=1.38 \cdot 10^{-23} \text{ J/K}$	$c=3 \cdot 10^8 \text{ m/s}$			
T.r.	σ	h	$\langle h \rangle$	Δh	$\langle \Delta h \rangle$	$\delta\%$
Nº	$\text{Wt/m}^2\text{K}^4$	$\text{J}\cdot\text{S}$				%
1.						
2.						
3.						
4.						
5.						

TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR

1. Issiqlik (termoparali) nurlanish deb qanday nurlanishga aytiladi?
2. Issiqlik nurlanishi qanday spektrni beradi?
3. Nurlanish oqimi deb nimaga aytiladi?
4. Jismning issiqlik nurlanishining energetik yorqinligi yoki integral nurlanishning qobiliyati deb nimaga aytiladi? Spektral nurlanish qobiliyati deb-chi?
5. Jismning integral nur yutish qobiliyati deb nimaga aytiladi? Spektral nur yutish qobiliyati deb-chi?
6. Absolyut qora jism deb nimaga aytiladi? Kulrang jism deb-chi?
7. Kirxgof qonunini ta'riflab, uning matematik ifodasini yozing.
8. Absolyut qora jism nurlanishining emperik Stefan-Boltsman va Vinning siljish qonunlarini ta'riflang?
9. Pirometrning tuzilishi va uning elektr hamda optik chizmasini chizib, ishlash prinsipi tushuntirib berilsin.
10. Plank gipotozasining mohiyati qanday?
11. Plank formulasini yozib, uni izohlab bering.
12. Plank formulasidan Stefan-Boltsman va Vinning siljish qonunlari qanday kelib chiqadi?

18- Laboratoriya Ishi.

Tashqi fotoeffekt qonunlarini o'rganish

Ishdan maqsad. Talaba laboratoriya ishini bajarishi natijasida quyidagilarni bilishi kerak: fotoelektr effect qonuniyatlarini, yorug'likning kvant hususiyatlariga asosiy tushunchalarni, tashqi fotoeffekt qonunlarini tushuntira olishni.

Kerakli asboblari va uskunalari: fotoelement, o'zgarmas tok manbai, voltmeter, milliampermetr, reostat, yorug'lik manbai, svetofiltrlar, mashtabli chizq'ich.



Qisqacha nazariy ma'lumotlar

Elektromagnit nurlanish ta'siri natijasida moddalardan elektronlarning ajralib chikishi xodisasiga tashqi fotoeffekt deb ataladi.

Tashqi fotoeffekt qonunlarini o'rganish uchun 1-rasmda ko'rsatilgan qurilmadan foydalaniladi. Xavosi so'rib olingan trubaga ikki elektrod: anod va katod joylashtiriladi. Katodga tekshirilishi lozim bo'lgan metal qoplanadi va D tirqish orqali monoxromatik elektromagnit nurlar bilan yoritiladi. Anod va katod orasidagi potentsiallar farqi R potentsiometr orqali boshqarilib, V voltmeter yordamida o'lchanadi. Fototok galvanometr bilan o'lchanadi.

Fotoeffektning asosiy xarakteristikasi j fototok anod va katod orasidagi potentsiallar farqiga bo'qliqdir (2-rasm). Bu bogliqligini fotoeffektning volt-ampere xarakteristikasi deb ataladi. J_1 va J_2 yoritilayotgan yorug'lik nurining intensivligidir. 2-rasmni talqin qilish natijasi shuni ko'rsatadiki, qandaydir kuchlanishda I fototok to'yinishiga erishiladi, ya'ni katoddan chiqayotgan barcha elektronlar anodga kelib tushadi. To'yinish toki shuni ko'rsatadiki, birlik vaqtda elektronlarning ajralib chikishi chegaralangandir. Rasmning egri qismi katoddan elektronlar xar xil tezlikda uchib chikishini bildiradi.

Elektronlarning uchib chikishini to'xtatish uchun tormozlovchi



elektr maydon xosil qilish kerak bo'ldi, yoki anodga manfiy kuchlanish beriladi. Rasmdagi 2- egri chiziq' yorug'lik nurini intensivligi oshishi natijasida, elektronlarni birlik vaqtida katoddan ajralib chiqishi ortishini ko'rsatadi. Fototokning 0 va U_0 kuchlanishi oraligida xosil bo'lishi, katoddan yorug'lik nuri urib chiqarayotgan elektronlarning kinetik energiyasi 0 dan farqligini bildiradi. Shu energiya xisobiga elektronlar to'rtmozlovchi kuchlanishga nisbatan ish bajaradi va anodga yetib keladi.


Elektronlarning maksimal tezligi v_{\max} tormozlovchi kuchlanish bilan quyidagicha boq'langan:

$$\frac{mv_{\max}^2}{2} = eU_0, \quad (1)$$

bu yerda e - elektron zaryadi, m - elektron massasi $U \leq U_0$ bo'lganda j fototok nol ga teng. Rasmdagi ikkala egri chizigining boshi bir nuqtada bo'lishi, yorug'lik nuri ta'sirida urib chiqarilgan elektronlarni maksimal tezligi, nurlanish intensivligiga bogliq emas ekanligini ko'rsatadi

Agar yorug'lik intensivligini doimiy sanab, uning chastotasini o'zgartirsak, elektronlarning kinetik energiyasi ortganligini kuzatamiz (3-rasm).

Ya'ni tormozlovchi kuchlanish ortadi. Tormozlovchi kuchlanish chastotaga boq'liqlik grafigi 4-




rasmda ko'rsatilgan. v_{\min} chastotada fotoeffekt yo'qoladi va xar xil metallar uchun boshqa qiymatlarga ega bo'ldi.

2-4 - rasmlarni o'rganish natijasida tashqi fotoeffekt qonunlari keltirib chiqarilgan:

1. Chastotasi o'zgarmas saqlangan monoxramatik yorug'lik ta'siri natijasida xosil bo'lgan to'yinish toki, yorug'lik oqimiga to'q'ri proporsional. (Stoletov qonuni).

2. Fotoelektronlarning tezligi fotokatodga tushayotgan yorug'lik chastotasi ortishi bilan ortadi va yorug'likning intensivligiga boq'liq emas.



3. Har bir modda uchun mutlaqo aniq chegaraviy to'liqin uzunligi borki, fotoeffekt undan qisqa to'liqin uzunliklardagina kuzatiladi. Bu chegaraviy to'liqin uzunligi fotoeffektning qizil chegarasi deb ataladi.

4. Fotoeffekt yoruglik tushgan ondayoq boshlanadi, ya'ni u inersiyasiz hodisadir.

Klassik to'liqinning fizikasi yordamida faqat Stoletov qonunini tushuntirish mumkin. Fotoeffektning inersizligini, elektronlarning tezligi va kinetik energiyalari tushayotgan yoruq'lik intensivligiga boq'liq emasligi va tushayotgan yoruq'lik chastotasi ortishi bilan qizil chegara mavjudligini klassik fizika qonunlari tushuntirib bera olmaydi. Klassik nazariyaga ko'ra metalda ushlab turuvchi potensial to'siqdan o'ta oladigan holda keladi, ya'ni chiqish ishini bajaradi. Demak, fotoelektron energiyasi tushayotgan yoruq'lik intensivligiga to'q'ri boq'liq bo'lishi kerak edi. Tajriba ko'rsatadiki, tormozlovchi potensial va fotoelektronlar energiyasi intensivlikka boq'liq bo'lmay, tushayotgan yoruq'lik chastotasiga boq'liqdir.

1905 yili A.Eynshteyn fotoeffektning nazariy tushuntirib berdi. U elektromagnit kvantlarning (fotonlar) mavjudligini belgilovchi gipotezaga asoslanadi. Tushayotgan yoruq'lik nurini elektromagnit to'liqlari deb qaramasdan, ularni zarrachalar kvanti yoki fotonlar deb belgiladi. Zarrachaning tezligi yoruq'likni vakuumdagi tezligiga tengdir.

Kvant energiyasi $E=h\nu$ bo'lib, Plank doimiysi $h=6.62 \cdot 10^{-34}$ J.S ga teng. Energiya va massa orasidagi boq'liqlikdan foton massasi $m = \frac{E}{c^2} = \frac{h\nu}{c^2}$ va

$$\text{impulsi } P = mc = \frac{h\nu}{c}.$$

Yoruq'lik oqimidagi zarrachalar konsentratsiyasi yoruq'lik intensivligiga boq'liqdir.

Yoruq'lik kvanti modda bilan ta'sirlashishi natijasida o'z energiyasini modda elektroniga beradi. Har bir kvant bitta elektronni urib chiqaradi. Elektron $E=h\nu$ foton energiyasini agar uning energiyasi yetarli darajada katta bo'lsa, metaldan otilib chiqib, chiqish ishini bajaradi.

Elektrondagi qolgan energiya unga kinetik energiya berishga sarflanadi.

$$h\nu = A + \frac{m\nu_{\max}^2}{2}. \quad (2)$$

(2) tenglama fotoelektrik effekt uchun Eynshteyn tenglamasi deb ataladi. Elektronlarni moddadan chiqarib olish uchun, unga berilgan eng kichik energiya chiqish ishi deb ataladi. (2) tenglama barcha tajribalar natijalariga mos keladi.

O'zgarmas chastotali tushayotgan yorug'lik nurining intensivligi fotonlar konsentratsiyasiga mos ravishda o'zgaradi. Shuning uchun fototok nurlanish intensivligiga proporsional ravishda o'zgaradi (fotoeffektning I-qonuni). Agar nurlanish intensivligi juda yuqori bo'lmasa, har bir foton bittadan elektron urib chiqaradi. Bu holatda elektron tezligi va energiyasi foton energiyasiga va chastotasiga boq'liq bo'ladi (fotoeffektning ikkinchi qonuni). (2) tenglamadan $\nu < \nu_0 = \frac{A}{h}$ holda Eynshteyn tenglamasi ma'noga ega bo'lmaydi. Bu fotoeffektning qizil chegarasi mavjudligini tushuntiradi (fotoeffektning III-qonuni).

Tashqi fotoeffekt vujudga kelishi uchun quyidagi tenglik bajarilishi kerak:

$$\nu \geq \nu_0 = \frac{A}{h}, \quad (3) \quad \text{yoki} \quad h\nu \geq A. \quad (4)$$

Ya'ni tushayotgan kvant energiyasi chiqish ishidan yuqori bo'lishi kerak. Tushayotgan yorug'likning to'lqin uzunligi uchun

$$\lambda \leq \lambda_0 = \frac{hc}{A}, \quad (5)$$

Tenglama o'rinlidir: Metallar uchun chegaraviy chastota $\nu_0 = \frac{A}{h} \approx 10$ Gs. Bu chastota elektromagnit to'lqinlarining ko'rinish optik diapazoniga to'q'ri keladi, shuning uchun fotoeffekt yorug'lik nurining ko'rinish diapozonidan boshlab vujudga keladi.

Fotoeffektning inertsizligi (IV-qonuni), foton o'z energiyasini elektron bilan to'qnashgan ondayoq berishi bilan isbotlanadi.


FOTOELEMENTNING VOLT-AMPER XARAKTERISTIKASINI OLISH VA STOLETOV QONUNINI TEKSHIRISH

Ishning maqsadi.

Talaba laboratoriya ishini bajarish natijasida, fotoelektrik effekt qonuniyati, yorug'likni kvant tushunchasini bilish, tashqi fotoeffekt qonunlarini tushuntirish, elektromagnit to'lqinlari modda bilan ta'sirlanganda diskret xarakterga ega bo'lishini o'rganishi lozim.

QURILMANING TAVSIFI

Tashqi fotoeffektning o'rganish uchun vakuumli surma-seziy fotoelementdan foydalaniladi. U shisha ballondan iborat bo'lib, uning ichki sirtining bir tomoniga seziy bugi bilan ishlangan surma ratlami surtilgan va havosi so'rib olingan. Bu qatlam katod vazifasini bajaradi.



5-rasm

Anod doiraviy shaklda bo'lib ballon markaziga joylashtirilgan. Bu fotoelementning qizil chegarasi elektromagnit to'lqinlarining ko'rinish diapozoniga joylashgan. Anod va katod orasida potentsiallar farqi hosil qilinadi. Fotoelement yoritilmaganda zanjirda tok bo'lmaydi. Katod yoritilganda, undan elektronlar otilib chiqib, anod tomon harakat qiladi, natijada zanjirda fototok hosil bo'ladi. Fotoelementning asosiy xarakteristikasi uning Volt-amper xarakteristikasidir, ya'ni u fototok bilan katod va anod orasidagi U potentsiallar farqi orasidagi boq'lanish. Bu xarakteristikani o'rganish uchun 5-rasmdagi zanjir yiq'iladi. Fotoelement va yorug'lik manbai optik o'rindiqqa bir-biriga nisbatan suriladigan qilib joylashtiriladi. Yorug'lik manbai-oddiy cho'q'lanma elektr lampasidir.

ISHNING BAJARILISH TARTIBI VA O'LCHASH NATIJALARINI XISOBLASH

1. Fotoelement va yorug'lik manbai ma'lum (60 sm) masofada joylashtiriladi.
2. Qurilma yoqilib (o'zgarmas masofada), R reostat yordamida U kuchlanish o'zgartirilib J fototok o'lchanadi. O'lchangan J va U jadvalga yoziladi. O'lchash J_t to'yinish toki hosil bo'lguncha olib boriladi.
3. Kuchlanishni kamaytirib, yana oldingi kuchlanishlar uchun J fototok o'lchanadi.
4. Shu o'lchash yana ikki masofa uchun bajariladi.
5. O'lchangan natijalar asosida Φ oqim o'zgarmas holi uchun $J=f(U)$ grafigi Φ oqimni uchta qiymati uchun $J=f(U)$ bir chizmada chiziladi.
6. O'lchashlar natijasidan $J=f(\Phi)$ grafigi chiziladi. Buning uchun yorug'lik oqimi o'zgarmas quvvatli lampochkalarda fotoelement va yorug'lik manbai orasidagi masofa ℓ orqali belgilanadi. $\Phi \sim \frac{1}{R^2}$ dan ,
demak $J=f(\frac{1}{R^2})$ tenglama orqali $J=f(\Phi)$ grafigi chiziladi.

1-jadval

N_0	Masofa ℓ_1		ℓ_2		ℓ_3	
	U_0	J_f	U_0	J_f	U_0	J_f
1						
2						
3						

TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR

1. Fotoeffekt hodisasini tushuntiring.
2. Fotoeffekt hodisasining klassik fizika tushuntira olmasligini, izohlang.
3. Fotoeffekt qonunlarini o'rganuvchi qurilmani tushuntiring.
4. Fotoeffekt qizil chegarasi nima?
5. Nima uchun fotoelektronlarning maksimal energiyasi katodga tushayotgan nurlanish oqim zichligiga boq'liq emas? Fotoelektronlarning maksimal tezligi qanday o'lchanadi?
6. Fotoeffektning asosiy qonunlarini ta'riflang. Fotoeffektning qaysi qoidalari klassik fizika qonunlari asosida tushuntirib bo'lmaydi? Bu qonunlar, nurlanishni, kvant nazariyasi asosida qanday izohlanadi?
7. Chiqish ishi nomi, u nimalarga boq'liq?
8. Stoletov qonunlari tajribada qanday tekshiriladi? Volt-amper xarakteristikasini tushuntiring?

ADABIYOTLAR

1. Savelev I.V. "Umumiy fizika kursi". 3-tom "O'qtuvchi". Toshkent, 1976.
2. Shpolskiy E.V. Atom fizikasi "O'qtuvchi". Toshkent, 1970.
3. Bekjonov R.B. Atom va yadro fizikasi. "O'qtuvchi", Toshkent, 1972.
4. Axmadjonov O. Fizika kursi. 3-tom. "O'qtuvchi", Toshkent, 1989.
5. Umumiy fizika kursidan praktikum. Prof. P.K. Xabibullaev tahriri ostida. "O'qtuvchi", Toshkent, 1982.

1-Laboratoriya Ishi

Suyuqliklarning ichki ishqalanish koeffisientini Stoks usuli bilan aniqlash

Ishning maqsadi: Ko'chish hodisasini o'rganish, suyuqliklarning ichki ishqalanish koeffisientini hisoblash .

Kerakli asboblari va materiallari: taglikka o'rnatilgan va ichiga qovushqoq suyuqlik solingan shisha silindr qurilma; kichik diametrlilik pitra-metal sharchalar; mikrometrik okulyarli mikroskop; masshtabli chizg'ich; areometr; termometr; sekundomer.

Asosiy nazariy ma'lumotlar

Ichki ishqalanish ko'chish hodisalaridan biri bo'lib, ixtiyoriy muhitda kuzatiladi. Suyuqliklarda ichki ishqalanishning hosil bo'lish sabablarini gidrodinamik va molekulyar kinetik nazariya asosida qarab chiqamiz. Suyuqlikning qovushqoqligi, ya'ni impulsning qatlamdan qallamga

ko'chishi asosan molekular tufayli sodir bo'ladi. . Suyqlikning molekulari gaz molekulari kabi erkin harakat qila olmaydi, ular tebranma harakat qilib, vaqti-vaqti bilan ko'chadi, bunda siljish masofasi ularning o'lchamlari tartibida bo'ladi. Suyuqlik zichligi katta bo'lganligi sababli molekularning ilgariharakati cheklangandir. Past haroratlarda suyuqlik molekularining sakrab ko'chishi juda siyrak bolganligi sababli, suyuqlikning qovushqoqligi gazlarnikiga nisbatan juda katta boladi. Suyuqlikning qovushqoqligi haroratga kuchli bog'liq bo'lib, harorat ortishi bilan tez kamaya boradi.

Suyuqlik harakatlenganda uning qatlamlari orasida ichki ishqalanish kuchlari yuzaga kelib, ular qatlamlar tezliklarini tenglashtirishga intiladi. Bu kuchlarning yuzaga kelishini quyidagicha tushuntirish mumkun: har xil tezliklar bilan harakatlanuvchi qatlamlar molekulari bilan o'zaro almashinadi, natijada katta tezlik bilan harakatlanuvchi qatlam molekulari sekinroq harakatlanuvchi qatlama bir miqdor impuls uzatishi sababli sekinroq harakatlanuvchi qatlamning harakati tezlashadi. Aksincha, bunday almashinish natijasida tezligi katta bo'lgan qatlam sekinlashadi. Shunday qilib, qatlamdan qatlama impulsning ko'chishi, impulsning o'zgarishiga sabab bo'ladi. O'z o'rnida impulsning o'zgarishi esa qatlamlararo parallel joylashtirilgan tekislikka urinma ravishda yo'nalgan ichki ishqalanish kuchini hosil qiladi. Nyuton qonuniga binoan ichki ishqalanish kuchi quyidagiga tengdir(1-rasm):


$$F_{ishq} = -\eta \frac{dU}{dz} \Delta S \quad (1)$$

(1) dan ko'rinadiki, suyuqlik qatlamlari orasidagi ichki ishqalanish kuchi qatlamlar orasidagi $\frac{dU}{dz}$ tezlik gradientiga to'g'ri proporsionaldir.

Bu ifodadagi η - proporsionallik koeffisienti bo'lib, u suyuqlik tabiatiga, holatiga va haroratiga bog'liq. Unga *ichki ishqalanish koeffisienti* yoki *qovushqoqlik koeffisienti*, yoki qisqacha *suyuqlikning qovushqoqligi* ham deyiladi.

Agar (1)da $\frac{dU}{dz} = 1$ va

$\Delta S = 1$ bo'lsa, $|F_{ishq}| = 1$ bo'lganligidan ichki ishqalanish koeffisientini quyidagicha ta'riflash mumkun:



Dinamik qovushqoqlik koeffitsienti deb, tezlik gradienti bir birlikka teng bo'lganda qatlamlararo joylashgan yuza birligiga urinma ravishda ta'sir qiluvchi ichki ishqalanish kuchiga miqdor jihatdan teng bo'lgan fizik kattalikka aytiladi.

Ichki ishqalanish koeffitsienti SI sistemasida $|\eta|_{SI} = N \cdot s / m^2 = kg \cdot m^{-1} \cdot s^{-1}$ larda o'lchanadi.

Qovushqoqlik muhitida tushayotgan sharchaga vertikal bo'ylab quyidagi uchta kuch ta'sir qiladi (2- rasm):

1) pastga tomon yo'nalgan og'irlik kuchi:


$$P = mg = \rho g V = \rho g \frac{4}{3} \pi r^3 = \frac{1}{6} \pi d^3 \rho g \quad (2)$$

2) yuqoriga yo'nalgan, sharcha siqib chiqargan suyuqlikning og'irligiga miqdor jihatdan teng bo'lgan Arximed kuchi:

$$F_A = P_0 = \rho_0 g V = \rho_0 g \frac{4}{3} \pi r^3 = \frac{1}{6} \pi d^3 \rho_0 g \quad (3)$$

3) o'z orqasida uyurmalar hosil qilmay, kichik tezlik bilan tushayotgan sharchaga, Stoks ko'rsatishicha, ichki ishqalanish kuchi

$$F_{ishq} = 6\pi \mathcal{G} r \eta = 3\pi \mathcal{G} d \eta \quad (4)$$



2 - rasm

ta'sir etadi. Bu formulalarda ρ va ρ_0 mos ravishda sharcha va suyuqlik zichliklari; V - sharcha hajmi; r va d - sharchaning radiusi va g - erkin tushish tezlanishi; \mathcal{G} - sharchaning qovushqoq suyuqlikdagi barqarorlashgan tezligi.

Sharchaning suyuqlik ichidagi harakatini ikki bosqichga ajratish mumkin:

Birinchi bosqichda sharcha tezlanuvchan harakat qilib, bu harakat davomida sharchaga ta'sir qiluvchi natijalovchi kuch kamaya boradi. Birinchi bosqichda sharcha harakat tengla-masini Nyutonning 2- qonuni asosida quyidagicha yozamiz:

$$m \frac{d\mathcal{G}}{dt} = \vec{P} - \vec{F}_A - \vec{F}_{ishq} \quad (5)$$

bunda m - sharchaning massasi, $\frac{d\mathcal{G}}{dt}$ - sharchaning tezlanishi.

Ikkinchi bosqichda, sharchaning tezligi muayyan qiymatga ega bo'lganda, natijalovchi kuch nolga teng bo'lib, sharcha doimiy tezlik bilan harakatlanadi. U holda (5) tenglama quyidagi ko'rinishga keladi:

$$\vec{P} - \vec{F}_A - \vec{F}_{ishq} = 0 \quad (6)$$

(6)dagi \vec{P} - og'irlik, \vec{F}_A - Arximed va \vec{F}_{ishq} - Stoks kuch vektorlari bir to'g'ri chiziq bo'ylab yo'nalganligi uchun uning skalyar ko'rinishdagi ifodasi ham shunday bo'ladi:

$$P - F_A - F_{ishq} = 0 \quad (6a)$$

(2), (3), (4) lardan, P, F_A, F_{ishq} kuchlarning ifodalarini (6a)ga qo'yilsa

$$\frac{1}{6} \pi d^3 g (\rho - \rho_0) - 3\pi \mathcal{G} d \eta = 0 \quad (7)$$

tenglamani olamiz va bundan η - ichki ishqalanish koeffitsientini aniqlasak:

$$\eta = \frac{1}{18} \frac{\rho - \rho_0}{\mathcal{G}} g d^2 \quad (8)$$

Bu yerda \mathcal{G} - sharchaning barqaror topgan tezligi bo'lganligidan, u quyidagiga tengdir:

$$\mathcal{G} = \frac{\ell}{\tau} \quad (9)$$

(9) ni (8) ga qo'yilsa, nihoyat ishchi formula kelib chiqadi:

$$\eta = \frac{1}{18} \frac{\rho - \rho_0}{\ell} g d^2 \tau \quad (10)$$

Bunda ℓ -sharcha tekis harakatlanib o'tadigan, qo'shni belgilar orasidagi masofa, τ - sharchaning shu masofani o'tish vaqti.

(10) formuladagi $\rho, \rho_0, d, \ell, \tau$ - kattaliklarning qiymatlarini bilgan holda ushbu ifoda yordamida suyuqlikning ichki ishqalanish koeffitsientini aniqlash mumkun.

Bu (10) ishchi formula sharcha harakatlanadigan muhitning chegaralari cheksiz uzoqlashgan hollar uchun, ya'ni sharcha harakatiga idish devorining ta'siri bo'lmagan hol uchun o'rinlidir. Shu maqsadda juda kichik diametrlilik sharchalar olingan.

Ikkinchi tomondan, Stoks formulasidagi ichki ishqalanish kuchlari, faqat suyuqlikning *laminar oqimi* uchungina o'rinlidir.

Laminar oqim (*lamina* - qatlam) deb, suyuqlik yoki gaz qatlamlarining bir-biriga nisbatan sirpanib oqishiga, boshqacha qilib aytganda, qatlamli oqimga aytiladi. Laminar oqimda suyuqlik (yoki gaz) qatlamlari o'zaro parallel siljiydi. Laminar oqimda vaqt bo'yicha oqim chizig'i o'zgarmasligi sababli, u statsionar- barqaror harakatdan iboratdir. Biroq yetarlicha katta tezliklarda laminar oqim beqaror bo'lib qoladi va *turbulent oqim* deb ataluvchi oqimga aylanadi.

Turbulent oqim (*turbulentus* - jo'shqin, tartibsiz) deb, suyuqlik yoki gaz zarrachalarining tezigi doim tartibsiz o'zgarib turadigan, uyurmali oqimga aytiladi.


Turbulent oqimda, oqim chizig'i har doim o'zgarib turganligi sababli, bu harakat nostatsionar – beqaror harakatdan iboratdir.

Shunday qilib, (10) ishchi formula suyuqlikning laminar oqimidan iborat bo'lgan statsionar- barqaror harakati uchun o'rinalidir.

Qurilmaning tuzilishi va o'lchash usuli

Suyuqlikning ichki ishqalanish koeffitsientini Stoks usuli bilan aniqlashda ishlatiladigan qurilma (3-rasm), diametri ~5 sm, uzunligi ~50 sm bo'lgan shisha idishdan iborat bo'lib, unga tekshirilayotgan suyuqlik (glitsirin) quyiladi. Tajribada ishlatiladigan sharchalarning diametri mikrometrik okulyarli mikroskop yordamida aniqlanadi. O'lchanadigan sharchalar mikroskopning buyum stolchasiga o'rnatilib, uning tasviri aniq ko'runguncha fokuslanadi.

Tajribalarni turli sharchalar bilan kamida 10 marta takrorlash kerak.



3 - rasm

1. Tajribani o'tkazish tartibi va hisoblashlar

1. Millimetrli chizg'ich yordamida tekshiriladigan suyuqlik solingan idishning A va B (3-rasm) belgilari orasi o'lchanadi.
2. Areometr yordamida tekshirilayotgan suyuqlikning ρ_0 zichligi, termometr bilan harorati t° o'lchanadi.
3. Sharcha zichligi ρ ning qiymati tegishli jadvaldan aniqlanadi.
4. O'lchanadigan har bir sharchani mikroskopning buyum stolchasiga o'rnatib, uning har 60° burchak ostidagi $O_1O'_1$, $O_2O'_2$ va $O_3O'_3$ yo'nalishlardagi (4-rasm) diametrining uchta:

$\Delta N_1 = N_2' - N_1'$; $\Delta N_2 = N_2'' - N_1''$; $\Delta N_3 = N_2''' - N_1'''$
qiymatlari mikrometrik shkalalar bo'limida o'lchanadi.


5. Har bir sharchaning o'rtacha diametri, mikrometrik shkalalar bo'limida ifodalanadi:

$$\langle \Delta N \rangle = \frac{\Delta N_1 + \Delta N_2 + \Delta N_3}{3} \quad (11)$$

6. Har bir sharchaning o'rtacha diametri $\langle d \rangle$ santimetrlarda ifodalanadi:

$$\langle d \rangle = \alpha \langle \Delta N \rangle \quad (12)$$

bunda $\alpha = 1 \cdot 10^{-3}$ sm bo'lib, mikrometrik shkala har bir bo'limning santimetrdagi



4 - rasm

ifodasidir.

Bu ma'lumotlarning barchasi 1-jadvalga yoziladi.

1-jadval

N ^o	N' ₁	N' ₂	N'' ₁	N'' ₂	N''' ₁	N''' ₂	ΔN ₁	ΔN ₂	ΔN ₃	⟨ΔN⟩	⟨d⟩	Doimiylar
1												t° =
2												ρ ₀ =
3												ρ =
...												l =
...												
...												
10												

7. Har bir sharchaning A va B belgilar orasini bosib o'tish vaqti τ sekundomer yordamida aniqlanadi.

8. Tajribada aniqlangan kattaliklar ρ, τ, ρ₀, ℓ va ⟨d⟩ ning qiymatlari (10) hisoblash formulasiga qo'yib, har bir tajriba uchun suyuqlikning ichki ishqalanish koeffitsienti aniqlanadi. 6, 7 va 8 bandlardan olingan natijalar 2-jadvalga yoziladi.

Tajriba xatoliklarini hisoblash

1. 2-jadval asosida aniqlangan suyuqlikning ichki ishqalanish koeffitsientlarining o'rtacha qiymati hisoblanadi:

$$\langle \eta \rangle = \frac{\eta_1 + \eta_2 + \dots + \eta_n}{n} = \frac{\sum_{i=1}^n \eta_i}{n} \quad (13)$$

2. Har bir tajribada qilingan absolyut xatolik hisoblanadi:

$$\Delta \eta_i = \langle \eta \rangle - \eta_i \quad (14)$$

3. Tajriba paytida qilingan o'ratacha absolyut xatolik topiladi:

$$\langle \Delta \eta \rangle = \frac{|\Delta \eta_1| + |\Delta \eta_2| + \dots + |\Delta \eta_n|}{n} = \frac{\sum_{i=1}^n |\Delta \eta_i|}{n} \quad (15)$$

4. Suyuqlik ichki ishqalanish koeffitsientining ishonch intervali quyidagicha yoziladi:

$$\eta = \langle \eta \rangle \pm \langle \Delta \eta \rangle \quad (16)$$

5. Tajribada qilingan nisbiy xatolik hisoblanadi:

$$\delta(\eta) = \frac{\langle \Delta \eta \rangle}{\eta} \cdot 100\% \quad (17)$$

Bu topilgan ma'lumotlarning barchasi 2-jadvalga yoziladi.

2-jadval

N ^o	d _i	τ _i	η _i	⟨η⟩	Δη _i	⟨Δη⟩	η	δ(η)
----------------	----------------	----------------	----------------	-----	-----------------	------	---	------

1								
2								
3								
...								
...								
10								

Nazorat uchun savollar

1. Suyuqliklarda ichki ishqalanish kuchining hosil bo'lishini gidrodinamik va molekulyar–kinetik nazariya asosida tushuntiring.
2. Ichki ishqalanish (qovushqoqlik) koeffitsientini ta'riflang.
3. Hisoblash formulasi asosida ichki ishqalanish koeffitsientining SI sistemasidagi o'lchov birrligini chiqaring.
4. Suyuqliklarning qanday harakatini laminar va turbulent oqim deb ataladi.
5. Stoks qonunini ta'riflang.
6. Suyuqlikning ichki ishqalanish koeffitsientini aniqlash – Stoks usulini tushuntiring.
7. Suyuqlikka tushirilgan sharchaga ta'sir qiluvchi kuchlarni tushuntirib bering.
8. Suyuqlikning ichki ishqalanishi haroratga nisbatan qanday o'zgaradi?
9. O'lchash xatoliklari qanday hisoblanadi?

Adabiyotlar

1. Frish S.E, va Timoreva A.V. Umumiy fizika kursi.- 1 tom. T. O'qituvchi. 1965. §42,46
2. Savelev N.V. Umumiy fizika kursi.- 1 tom.T.:O'qituvchi.1973. § 58, 59, 69.
3. Sivuxin D.V. Umumiy fizika kursi "Mexanika" T.:O'qituvchi. 1961, 194, 96, 97, 98, 99.
4. Fizikadan praktikum. Mexanika va molekulyar fizika. Professor Iveronova V.I. tahriri ostida. T.:O'qituvchi.1973. 46-vazifa.
5. Nazirov E.N. va boshqalar. Mexanika va molekulyar fizikadan praktikum. T.:O'qituvchi.1979, 14-ish.

Gazlar issiqlik sig'irlarining nisbatini Kleman-Dezor usuli bilan aniqlash

Ishning maqsadi: Termodinamikaning birinchi qonunini, ichki energiya va uning formulasini o'rganish, issiqlik sig'irlari bilan tanishish

Kerakli asbob va materiallar: qurilma, U–simon suvli manometr, nasos yoki kompressor

Asosiy nazariy ma'lumotlar

Tekshirilayotgan jismlar to'plamiga jismlar tizimi yoki soddagina qilib tizim deb ataladi. Juda kichik o'lchamlar va massalarga ega bo'lgan jismlar sifatida qaraluvchi ko'p sonli molekulalardan tuzilgan tizimlarga misol qolib gazlarni olish mumkin.

Molekulalari o'zaro ta'sirlashmaydigan moddiy nuqtalar to'plamiga o'xshash xossalarga ega bo'lgan gazlarga *ideal gazlar* deyiladi.

Har qanday gazning holati, holat parametrlari deb ataluvchi bosim P , harorat T va gaz egallagan hajm V bilan xarakterlanadi.

Barcha holat parametrlari uzoq vaqt davomida o'zgarmay qolgan tizimning holatiga *muvozanatli holat* deyiladi.

Tizimning bir holatdan ikkinchi holatga o'tishiga *jarayon* deyiladi. Muvozanatli holatlarning uzluksiz ketma-ketligidan iborat bo'lgan jarayonga muvozanatli jarayon deb ataladi.

Muvozanatli holat va muvozanatli jarayon tushunchalari termodinamikada katta rol o'ynaydi. Termodinamikaning barcha miqdoriy xulosalarini faqat muvozanatli jarayonlargagina qo'llash mumkin.

Gaz(yoki tizim)ga berilgan issiqlik miqdori, uning holatini o'zgartiradi, natijada biror ish bajaradi. Bunday o'zgarishni energiyaning saqlanish qonunidan iborat bo'lgan, quyidagi termodinamikaning bosh qonuni to'liq izohlab beradi.

Tizimga berilgan issiqlik miqdori (dQ) tizimning ichki energiyasining o'zgarishi (dU) ga va tizimning tashqi kuch ustidan bajargan ishi (dA)ga sarflanadi, ya'ni

$$dQ = dU + dA \quad (1)$$

Agar tizim ideal gazdan iborat bo'lsa, gazning ichki energiyasi molekulalar harakatining o'rtacha kinetik energiyasi $\langle \varepsilon \rangle = \frac{1}{2} kT$ ning

yig'indisiga tengdir. Agar berilgan gazda N ta molekula bo'lsa uning ichki energiyasi

$$U = N \langle \varepsilon \rangle = N_A \frac{m}{\mu} \cdot \frac{i}{2} kT = \frac{m}{\mu} \frac{i}{2} RT \quad (2)$$

bunda $N_A = 6,022 \cdot 10^{26} \text{ kmol}^{-1}$ – Avogadro soni;

$k = 1,38 \cdot 10^{-23} \text{ J/K}$ – Boltsman doimiysi;

$R = 8,31 \cdot 10^3 \text{ J/(kmol} \cdot \text{K)}$ – universal gaz doimiysi;

T – absolyut harorat, K ;

m – gazning massasi, kg ; μ – gazning molyar massasi;

i – gaz molekularining erkinlik darajasi.

Gaz molekularining o'rtacha erkinlik darajasi deb, gaz molekularining fazodagi harakati holatini aniqlab beruvchi erkin koordinatalar soniga aytiladi. Masalan,

bir atomli gaz molekulari uchun $i = 3$;

ikki atomli gaz molekulari uchun $i = 5$;

uch va ko'p atomli gaz molekulari uchun $i = 6$ ga tengdir.

(2)dan gaz ichki energiyasining o'zgarishi

$$dU = \frac{m}{\mu} \cdot \frac{i}{2} R dT \quad (3)$$

Nihoyat, gaz hajmining o'zgarishida bajarilgan ish gaz bosimi P ning hajm o'zgarishi dV ga ko'paytmasiga tengdir:

$$dA = p \cdot dV \quad (4)$$

(3) va (4) larni (1) ga qo'yilsa, termodinamika birinchi qonunining matematik ifodasi quyidagi umumiy ko'rinishga keladi

$$dQ = \frac{m}{\mu} \frac{i}{2} R dT + p dV \quad (5)$$

Termodinamikada tizimlarning issiqlik olish xususiyatlarini xarakterlash uchun issiqlik sig'imi tushunchasi kiritilgan.

Termodinamika birinchi bosh qonunining (5) ko'rinishidagi matematik ifodasidan ideal gazning holat tenglamalarini va gaz jarayonlaridagi issiqlik sig'imlarining matematik ifodalarini osongina isbotlash mumkun.

1. Moddaning issiqlik sig'imi (C_m) deb, uning haroratini $1K$ ga o'zgartirish uchun zarur bo'lgan issiqlikka miqdor jihatidan teng bo'lgan fizik kattalikka aytiladi, ya'ni

$$C_m = \frac{dQ}{dT}, \quad dQ = C_m dT \quad (6)$$

2. Moddaning solishtirma issiqlik sig'imi (C) deb, massasi bir birlikka teng bo'lgan moddani $1K$ ga isitish uchun zarur bo'lgan issiqlikka miqdor jihatdan teng bo'lgan fizik kattalikka aytiladi, ya'ni

$$C = \frac{dQ}{m dT}, \quad dQ = C m dT \quad (6a)$$

3. Moddaning molyar issiqlik sig'imi (C_μ) deb, 1 mol moddani 1 K ga isitish uchun zarur bo'lgan issiqlikka miqdor jihatdan teng bo'lgan fizik kattalikka aytiladi, ya'ni

$$C_\mu = \frac{dQ}{\frac{m}{\mu} dT}, \quad (7)$$

$$dQ = \frac{m}{\mu} \cdot C_\mu dT \quad (7a)$$

Solishtirma issiqlik sig'imi C bilan molyar issiqlik sig'imi C_μ orasida quyidagi munosabat mavjud

$$C = \frac{1}{\mu} C_\mu \quad (8)$$

$$C_\mu = \mu \cdot C \quad (8a)$$

Gazlarning ussiqlik sig'implari, ularning qanday sharoitda isitilishiga bog'liqdir. Agar modda o'zgarmas hajmda, ya'ni $V = const$ ($dV = 0$) sharoitda isitilsa, **o'zgarmas hajmdagi issiqlik sig'imi** yoki **izoxorik issiqlik sig'imi** deb ataladi va C_V bilan belgilanadi.

Agar moddani isitishda bosim o'zgarmas $P = const$ bo'lsa, **o'zgarmas bosimdagi issiqlik sig'imi** yoki **izobarik issiqlik sig'imi** deyilib, u C_p bilan belgilanadi.

Biror gazga o'zgarmas hajmda, ya'ni $V = const$ ($dV = 0$) issiqlik berilsa, u faqat gaz ichki energiyasining o'zgarishiga sarf bo'ladi. U vaqtda (5) va (7a) larga asosan quyidagilarni yozish mumkin

$$dQ_V = \frac{m}{\mu} \cdot \frac{i}{2} R dT \quad (9)$$

$$dQ_V = \frac{m}{\mu} \cdot C_V dT \quad (9a)$$

(9) va (9a)dan o'zgarmas hajmdagi molyar issiqlik sig'imi C quyidagiga teng bo'ladi

$$C_V = \frac{i}{2} R \quad (10)$$

Agar gazga o'zgarmas bosimda ($P = const$) issiqlik miqdori berilsa, u gaz ichki energiyasining o'zgarishi dU va kengayishidagi bajarilgan ish dA_p ga sarf bo'ladi, ya'ni

$$dA_p = p \cdot dV = \frac{m}{\mu} R dT \quad (11)$$

$$(11)\text{dan} \quad R = \frac{A_p}{\frac{m}{\mu} dT} \quad (11a)$$

Binobarin, universal gaz doimiysi R o'zgarmas bosimda 1 mol ideal gazni 1 K ga isitishda gazning kengayishidagi bajargan ishiga miqdor jihatdan teng.

U vaqtda dQ_p ning ifodasini (5), (7a) va (11) tenglamalar asosida yozilsa

$$dQ_p = \frac{m}{\mu} \frac{i}{2} R dT + \frac{m}{\mu} R dT = \frac{m}{\mu} \left(\frac{i}{2} R + R \right) \quad (12)$$

$$dQ_p = \frac{m}{\mu} C_p dT \quad (12a)$$

Bu (12) va (12a) tenglamalarni o'zaro tenglashtirib, o'zgarmas bosimdagi molyar issiqlik sig'imi C_p ni aniqlash mumkun

$$C_p = \frac{i}{2} R + R \quad (13)$$

$$\text{yoki} \quad C_p = \frac{i+2}{2} R \quad (13a)$$

(13)da $\frac{i}{2} R = C_v$ bo'lganligi uchun

$$C_p = C_v + R \quad (13b)$$

Bu ifodaga Robert-Mayer formulasi deyiladi .

Gazlarning o'zgarmas bosimdagi C_p sig'imining o'zgarmas hajmdagi C_v issiqlik sig'imiga nisbati $\gamma = \frac{C_p}{C_v}$ adiabatik jarayonlarda tovushning gazlarda tarqalishida, gazlarning naylarda tovush tezligiga yaqin tezliklarda oqishida katta ahamiyatga egadir.

(13) ni (10) ga bo'lib, har bir gaz uchun o'ziga xos bo'lgan C_p ning C_v ga nisbatini topamiz

$$\gamma = \frac{C_p}{C_v} = \frac{i+2}{2} \quad (14)$$

(14)dan ko'rinadiki, γ kattalik gaz molekula tuzilishini tavsiflovchi molekulaning erkinlik darajasi bilan aniqlanar ekan.

γ berilgan gaz uchun o'zgarmas bo'lib, Puasson koeffitsienti ham deyiladi.

Gazlarning solishtirma issiqlik sig'irlarining $\gamma = \frac{C_P}{C_V}$ nisbatini

topishning quyida bayon etilgan Kleman-Dezor usuli juda ham soddadir .

Qurilmaning tuzilidhi va o'lchash usuli


Qurilma havo bilan to'ldirilgan 10-20 litr hajmli B shisha balondan iborat (1-rasm).

Rezina naylar yordamida balonga ulangan U—simon manometrning tirsaklaridagi gazning hajmini balonning hajmiga nisbatan nazarga olmasa ham bo'ladi. Balonga yana N qo'l nasos yoki kompressor ulangan bo'lib, uning yordamida balonga gaz damlanadi. Po'kak tiqin yoki elektromagnit tiqin balon ichidagi gazni tashqi atmosferadan ajratib turadi. Balonda siqilgan gazning ortiqchasi juda kichik vaqtda tashqariga chiqib ketishga ulgurishi va yuz beradigan kengayish adiabatik jarayondan iborat bo'lishi uchun tiqin o'rnatilgan teshik yetarlicha katta bo'lishi kerak.

Usulning nazariyasi

Balonga nasos yoki kompressor yordamida havo damlab, tiqin tez ochib yopilgan-da balondagi gaz quyidagi uchta holatlardan o'tadi.

1. Agar tiqinni berkitib balonga nasos bilan havo damlansa, idishning issiqlik o'tkazuvchanligi sababli idishdagi havoning harorati tashqi havoning harorati T_1 ga tenglashguncha osha borishi sababli, idishdagi gazning bosimi ham osha boradi. Nihoyat idishdagi gazning harorati tashqi harorat T_1 ga teng bo'lgandagina ortiqcha bosimni ifodalovchi manometr sathlarining farqi aniq h_1 qiymatga erishadi. Gazning bu holati T_1 va P_1 parametrlar bilan xarakterlanadi (1-holat: T_1 va P_1).



1 - rasm

Agar atmosfera bosimi P_0 bo'lsa, balondagi gazning bosimi quyidagiga teng bo'ladi

$$P_1 = P_0 + h_1 \quad (15)$$

2. Agar endi tiqin tez ochilsa, idishdagi havoning bosimi P_1 tashqi P_0 ga tenglashguncha idishdagi gaz adiabatik ravishda kengaya boradi, natijada havo T_2 haroratgacha soviydi. Bu holat gazning ikkinchi holatidir (2 holat: T_2, P_0).

3. Agar tiqin ochilgan zahotiy oq qaytadan berkitilsa, balondagi gaz izoxorik ravishda isiy boshlaydi. Gaz harorati ortishi bilan bosim ham orta boradi va nihoyat gazning harorati tashqi T_1 harorat bilan tenglashganda bosimning oshishi to'xtaydi . Bu holat gazning uchunchi holati bo'ladi. (3-holat: T_1, P_2). Idishdagi havoning shu paytdagi bosimini

P_2 bilan, manometrning shu bosimni munosib ko'rsatishini h_2 bilan belgilansa, P_2 quyidagiga teng bo'ladi

$$P_2 = P_0 + h_2 \quad (16)$$

Shunday qilib gazning birinchi holatdan 2-holatga o'tishi adiabatik jarayondan iborat bo'lganligi uchun, Puasson tenglamasini quyidagi ko'rinishda yozish mumkin

$$\frac{P_1^{\gamma-1}}{T_1^\gamma} = \frac{P_0^{\gamma-1}}{T_2^\gamma} \quad (17)$$

Bu yerda γ gazning o'zgarma bosimdagi issiqlik sig'imini o'zgarma hajmdagi issiqlik sig'imiga nisbatiga tengdir, ya'ni

$$\gamma = \frac{C_P}{C_V}$$

Gaz ikkinchi holatdan 3- holatga izoxorik-o'zgarma hajmda o'tganligi uchun Gey-Lyussak qonuniga binoan quyidagini yozamiz

$$\frac{P_1}{T_1} = \frac{P_0}{T_2} \quad (18)$$

(17) tenglamaga P_1 ning ifodasini (15) dan qo'yib hadlarning joyini almashtirish orqali quyidagi tenglamani hosil qilamiz

$$\left(\frac{P_0 + h_1}{P_0}\right)^{\gamma-1} = \left(\frac{T_1}{T_2}\right)^\gamma \quad (18a)$$

yoki
$$\left(1 + \frac{h_1}{P_0}\right)^{\gamma-1} = \left(1 + \frac{T_1 - T_2}{T_2}\right)^\gamma \quad (19)$$

Bu tenglamada $\frac{h_1}{P_0}$ va $\frac{T_1 - T_2}{T_2}$ lar birdan juda kichik bo'lgani

uchun, tenglamaning ikki hadini Nyuton binomi bo'yicha yoyib, birinchi tartibli aniqlik bilan olinsa

$$\begin{aligned} \left(1 + \frac{h_1}{P_0}\right)^{\gamma-1} &= 1 \cdot (\gamma - 1) \frac{h_1}{P_0} + \dots \approx 1 + (\gamma - 1) \frac{h_1}{P_0}, \\ \left(1 + \frac{T_1 - T_2}{T_2}\right)^\gamma &= 1 + \gamma \frac{T_1 - T_2}{T_2} + \dots \approx 1 + \gamma \frac{T_1 - T_2}{T_2}. \end{aligned}$$

Shunday qilib, (10) tenglamani taxminan quyidagi ko'rinishda yozish mumkin:

$$1 + (\gamma - 1) \frac{h_1}{P_0} = 1 + \gamma \frac{T_1 - T_2}{T_2} \quad (20)$$

Bundan
$$P_0 \frac{T_1 - T_2}{T_2} = \frac{\gamma - 1}{\gamma} h_1 \quad (20a)$$

Ikkinchi tomondan (16)dan P_2 ning ifodasini (18)ga qo'yib quyidagini osongina hosil qilish mumkin:

$$h_2 = P_0 \frac{T_1 - T_2}{T_2} \quad (21)$$

Demak,
$$h_2 = h_1 \frac{\gamma - 1}{\gamma} \quad (22)$$

Bu tenglamadan gazning o'zgarmas bosimdagi va o'zgarmas hajmdagi issiqlik sig'iminin nisbati γ ni aniqlasak:

$$\gamma = \frac{C_P}{C_V} = \frac{h_1}{h_1 - h_2} \quad (23)$$

Bu tenglama yordamida γ ni hisoblash uchun gazning adiabatik kengayishigacha va adiabatik kengayishidan keyingi bosimining atmosfera bosimidagi ortiqcha qismlar h_1 va h_2 larni o'lchash kerak.

Ishni bajarish tartibi va o'lchash natijalarini hisoblash

1. O'lchashni boshlashdan oldin qurilmaning ulanish joylari yetarlicha germetik ekanligiga ishonch hosil qilish kerak. Buning uchun manometrda suv sathlari farqi 15-20 sm ga yetguncha balonga nasos yordamida havo damlanadi. Vaqt o'tishi bilan balondagi gaz bosimining o'zgarishi kuzatib boriladi.

Agar qurilma germetik bo'lsa, ma'lum vaqtdan keyin termo-dinamik muvozanat yuz berib, bosimning kamayishi to'xtaydi.

2. Damlangan balon ichidagi gazning bosimi barqarorlashgach, bosimning atmosfera bosimidan ortiqcha qismi h_1 o'lchanadi. U suvli manometrda sathlar ayirmasiga tengdir.

3. So'ngra P tiqin (ventil) juda kichik muddat ichida ochib yopiladi. Termodinamik muvozanat hosil bo'lgandan keyin yana balon ichidagi gaz bosimining atmosfera bosimidan ortiqcha qismi h_2 suvli manometrda sathlar ayirmasidan olinadi.

4. Tajribalar kamida 10 marta takrorlanib, har bir tajriba natijalarini (23) formulaga qo'yib, γ hisoblanadi. Havo uchun tajribadan aniqlangan γ ning qiymati $i = 5$ deb, (14) formula bo'yicha hisoblangan γ ning qiymatiga yaqin bo'lishi kerak.

5. Har bir o'lchash uchun γ_i , uning o'rtacha qiymati $\langle \gamma \rangle$, har bir o'lchashning absolyut xatoligi $\Delta \gamma_i$ va o'rtacha absolyut xatolik $\langle \Delta \gamma \rangle$, γ ning haqiqiy qiymati $\gamma = \langle \gamma \rangle \pm \langle \Delta \gamma_i \rangle$ va $\delta(\gamma) = \frac{\langle \Delta \gamma \rangle}{\langle \gamma \rangle}$ nisbiy xatolik hisoblanadi.

Olingan barcha ma'lumotlar quyidagi jadvalga yoziladi.

N ^o	h_1	h_2	γ_i	$\langle \gamma \rangle$	$\Delta \gamma_i$	$\langle \Delta \gamma \rangle$	γ	$\delta(\gamma), \%$
1								
2								
·								
·								
·								
10								

Nazorat savollari

1. Qanday gazga ideal gaz deyiladi?
2. Ideal gazning ichki energiyasini ta'riflang va ifodasini yozing.
3. Termodinamikaning birinchi bosh qonunini ta'riflang?
4. Moddalar issiqlik sig'implarining turlarini ta'riflang.
5. Ideal gazning o'zgarmas hajm va o'zgarmas bosimdagi molyar issiqlik sig'implarining ifodasini yozing.
6. Robert – Mayer tenglamasini yozing.
7. Gaz molekularining erkinlik darajasi deb nimaga aytiladi?
8. Adiabatik jarayonni ta'riflang va uning tenglamasini yozing.
9. Hisoblash formulasini isbotlang.
10. Tajribani bajarish tartibini tushuntiring.

Adabiyotlar

1. Savelev I.V. Umumiy fizika kursi. 1 tom.T.:O'qituvchi.1973. §93, 94, 95, 101, 102, 103.
2. Kikoin A.K., Kikoin I.K. Molekulyarnaya fizika T. O'qituvchi. 1973. § 20, 21, 23, 24, 25, 26, 30.
3. Fizikadan praktikum. Mexanika va molekulyar fizika. Prof. Iveronova V.I. tahriri ostida. T. O'qituvchi.1973. 40-vazifa.

5 - laboratoriya ishi

Termoparani darajalash va termoelektr yurituvchi kuchni aniqlash

Kerakli asbob va materiallar: Tayyor termopara, sezgirligi yuqori bo'lgan galvanometr, termostat yoki isitgichli kalorimetr.

Ishning maqsadi: Qattiq jismlarda yuz beruvchi kontakt hodisalarni termopara yordamida va termoelektr yurituvchi kuchlarni aniqlash asosida o'rganish.

Asosiy nazariy ma'lumotlar

Ikki xil metal sim uchlari kavsharlanganda ularning haroratiga va moddalarning kimyoviy tabiatiga bog'liq holda erkin elektronlarining diffuziyalanishi sababli o'tkazgichlarning uchlari hosil bo'lgan potentsiallar farqiga kontakt potentsiallar farqi deb ataladi. Bu hodisani birinchi marta 1797 yili italiyalik fizik A. Volta tajribada tekshirib, o'zining quyidagi ikkita qonunini kashf qildi.

Voltaning birinchi qonuni: ikki har xil metal - o'tkazgichlar tutashtirilganda, ular uchlari hosil bo'lgan kontakt potentsiallar farqi ularning fizikaviy-kimyoviy xususiyatlariga va haroratga bog'liqdir.

Voltaning ikkinchi qonuni: o'zaro ketma-ket ulangan bir qancha metal o'tkazgichlar uchlari hosil bo'lgan kontakt potentsiallar farqi o'zgarmas haroratda faqat eng chekkadagi o'tkazgichlarning fizikaviy-kimyoviy xususiyatlariga bog'liq. Volta metallarning shunday qatorini tuzdiki, bu qatorida har bir oldingi metal o'zidan keyingilariga tutashtirilganda musbat zaryadlanar ekan. Volta qatori quyidagichadir: Sb-43; Fe-15; Mo+7,6; Cd+4,6; W+3,6; Cu+3,2; Zn+3,1 $\left(\frac{mKB}{epad}\right)$


Metallarning klassik elektron o'tkazuvchanlik nazariyasiga binoan, tutashtirilgan ikki metal o'tkazgich (1-rasm) uchlari dagi kontakt potentsiallar farqi tashqi

$$\Delta\varphi_{tashqi} = -\frac{A_1 - A_2}{e}$$

va ichki

$$\Delta\varphi_{ichki} = \frac{kT}{e} \ln \frac{n_{01}}{n_{02}}$$

kontakt potentsiallar farqlarining yig'indisiga tengdir, ya'ni




1-rasm

$$\Delta\varphi_{12} = \Delta\varphi_t + \Delta\varphi_i = -\frac{A_1 - A_2}{e} + \frac{\kappa T}{e} \ln \frac{n_{01}}{n_{02}} \quad (1)$$

bunda A_1, A_2 – birinchi va ikkinchi metallardan elektronning chiqish ishi, e – elektronning zaryadi, k – Bolsman doimiysi, T – absolyut harorat, n_{01}, n_{02} – birinchi va ikkinchi o'tkazgichlardagi erkin elektronlar konsentratsiyasi. (1) formula Volta birinchi qonunining matematik ifodasi bo'lib, haqiqatdan ham tutashtirilgan ikki o'tkazgich uchlaridagi kontakt potentsiallar farqi $\Delta\varphi_{12}$ harorat T ga va ularning fizik-kimyoviy xususiyatlari A_1, A_2, n_{01}, n_{02} ga bog'liqdir.

Volta ikkinchi qonunini isbotlash uchun, 2-rasmda tasvirlangan, o'zgarmas haroratda o'zaro ketma-ket ulangan o'tkazgich zanjirini qarab chiqaylik. (1) dan foydalanib quyidagini yozamiz:


$$\Delta\varphi_{14} = \Delta\varphi'_{12} + \Delta\varphi'_{23} + \Delta\varphi'_{34} = -\frac{A_1 - A_2}{e} + \frac{\kappa T}{e} \ln \frac{n_{01}}{n_{02}} - \frac{A_3 - A_4}{e} + \frac{\kappa T}{e} \ln \frac{n_{03}}{n_{04}}$$


2-rasm

Bundan

$$\Delta\varphi_{14} = -\frac{A_1 - A_4}{e} + \frac{\kappa T}{e} \ln \frac{n_{01}}{n_{04}}, \quad (3)$$

bunda $\Delta\varphi_{14}$ – kontakt potentsiallar farqi oraliqdagi o'tkazgichlarning fizik-kimyoviy xususiyatlariga bog'liq emas. Agar bu o'zaro ketma-ket ulangan to'rtta o'tkazgichlarning uchlari tutashtirilib, yopiq zanjir hosil qilinsa (3-rasm) u vaqtda (1) ga asoslanib quyidagi munosabat kelib chiqadi:



3-rasm

$$\Delta\varphi = \Delta\varphi'_{12} + \Delta\varphi'_{23} + \Delta\varphi'_{34} + \Delta\varphi'_{41} = \frac{A_1 - A_2}{e} + \frac{\kappa T}{e} \ln \frac{n_{01}}{n_{02}} - \frac{A_2 - A_3}{e} + \frac{\kappa T}{e} \ln \frac{n_{02}}{n_{03}} - \frac{A_3 - A_4}{e} + \frac{\kappa T}{e} \ln \frac{n_{03}}{n_{04}} - \frac{A_4 - A_1}{e} + \frac{\kappa T}{e} \ln \frac{n_{04}}{n_{01}} = 0 \quad (4)$$

Bundan ko'rinadiki, kontaktlardagi haroratlar bir xil bo'lganda, yopiq zanjirda kontakt potentsiallar farqi hosil bo'lmas ekan.

Termoelektr hodisasi. Kontaktlardagi haroratlar turlicha bo'lgan yopiq zanjirda noldan farqli bo'lgan **termoelektr kuch** yuzaga keladi. Agar ikkita metallardan yopiq zanjir tuzib payvandlangan uchlaridan biri T_1

haroratgacha sovutilib, ikkinchisi T_2 haroratgacha isitilsa, zanjirda termoelektr yurituvchi kuch hosil bo'ladi (1-rasm).

Har xil o'tkazgichlardan tuzilgan yopiq zanjirda termo EYUK ning hosil bo'lish effektiga termoelektr hodisa deyiladi. Termoelektr hodisasidan texnikada haroratni aniqlashda foydalaniladi. Bu maqsadda ikkita ikki xil metallardan yoki qotishmadan iborat termoelement – termoparadan o'lchashda foydalanish uchun u termometr yordamida darajalanib, TEYUK ning haroratga bog'lanish grafigi olinadi. Termoparaning sezgirligi juda katta bo'ladi.

Masalan, temir-konstantan materiallardan tayyorlangan termopara 800 K gacha, platina va 10 % li radiy elementi qo'shilgan platina qotishmasidan tayyorlangan termopara 1800 – 2100 K gacha haroratni o'lchashi mumkin.

4-rasmda tasvirlangan ikkita ikki xil o'tkazgichdan hosil bo'lgan termopara-termoelementda hosil bo'lgan TEYUK, uning kontaktlaridagi $\Delta\varphi'_{12}$ va $\Delta\varphi'_{21}$ kontakt potentsiallar farqlarining yig'indisiga teng

$$\varepsilon_T = \Delta\varphi_{12} = \Delta\varphi_{21} = -\frac{A_1 - A_2}{e} + \frac{\kappa T}{e} \ln \frac{n_{01}}{n_{02}} - \frac{A_1 - A_2}{e} + \frac{\kappa T}{e} \ln \frac{n_{01}}{n_{02}} \quad (5)$$

bunda

$$\varepsilon_T = \frac{\kappa T}{e} \ln \frac{n_{01}}{n_{02}} (T_2 - T_1) = C(T_2 - T_1)$$

Bu yerda $C = \frac{\kappa T}{e} \ln \frac{n_{01}}{n_{02}}$ - har bir juft o'tkazgich tizimi uchun xarakterli o'zgarmas kattalik bo'lib, unga solishtirma termoelektr yurituvchi kuch deyiladi.

(5) dan termoparaning asosiy tavsifi C - solishtirma TEYUK quyidagiga teng bo'ladi

$$C = \frac{\varepsilon_T}{T_2 - T_1} \quad (6)$$


Solishtirma termoelektr yurituvchi kuch deb, termopara kontaktlarida temperatura farqi 1 K ga teng bo'lganda, hosil bo'lgan TEYUK teng bo'lgan kattalikka aytiladi.

Qurilmaning tuzilishi va o'lchash usuli

4-rasmda laboratoriyada termoparani darajalash uchun mo'ljallangan qurilma sxemasi keltirilgan.

1. 4-rasmda ko'rsatilgan tajriba qurilmasining elektr sxemasi yig'iladi va yig'ilgan sxemaning to'g'ri ekanligiga ishonch hosil qilingach, termoparaning kavsharlangan uchlaridan biri ichida sovuq suv yoki muz bo'lgan idishga tushiriladi, ikkinchi uchi esa qizdiriladigan suyuqlik ichiga tushiriladi.

2. Boshlangich holda idishlar ichida suyuqliklarning harorati bir xil bo'lganligi uchun $\Delta T=0$ va demak $\varepsilon'_T = 0$ bo'ladi.
3. Galvanometr strelkasi aniq nolga keltirilgach, muz yoki sovuq suvning harorati tajriba davomida o'zgarmas saqlanadi.
4. Termostatdagi yoki ikkinchi idishdagi suyuqlik juda sekinlik bilan



4-rasm

isitiladi va $\Delta T_1=0$ holatdan boshlab, suyuqlik harorati to $(90-100)^\circ\text{C}$ ga ko'tarilguncha har 5°C oraliqda mazkur haroratga mos kelgan galvanometrning ko'rsatishi olinadi va ε' millivolt (mV) larda ifodalanib, jadvalga yoziladi.

jadval

N ^o	t $^\circ\text{C}$	Δt $^\circ\text{C}$	ε'_T mV	ε''_T mV	$\langle \varepsilon_T \rangle$ mV	C_i $\frac{mV}{grad}$	$\langle C \rangle$ $\frac{mV}{grad}$	ΔC_i $\frac{mV}{grad}$	$\langle \Delta C \rangle$ $\frac{mV}{grad}$	δ %
1		0								
2		5								
3		10								
4		15								
5		..								
.		..								
.		..								
16		75								
17		80								

5. Isitkichni tok manбайдan uzib, suvning asta-sekin sovushiga imkon beriladi va 4-banddagi oxirgi qiymatdan haroratning pasayishi tomonga qarab ularga mos kelgan galvanometrning ko'rsatishlari (ε'') jadvalga yozib boriladi.
6. $\langle \varepsilon_T \rangle$ ning Δt ga bog'lanish grafigi $\varepsilon_T=f(\Delta t)$ chiziladi.
7. Jadvaldagi qiymatlardan foydalanib, termoparaning solishtirma termoelektr yurituvchi kuchi C_i ning qiymati (6) formula asosida hisoblanadi va uning o'rtacha qiymati $\langle C \rangle$ topiladi.

8. Tajriba paytida qilingan xatoliklar - absolyut xatolik $\Delta C_i = \langle C_i \rangle - C_i$, o'rtacha absolyut xatolik $\langle \Delta C \rangle = \frac{\varepsilon \cdot C_i}{n}$ va o'lchashning nisbiy xatoligi

$$\delta = \frac{\langle \Delta C \rangle}{\langle C \rangle} 100\% \text{ hisoblanadi.}$$

Nazorat savollari

1. Metallardagi kontakt potentsiallar farqini tushuntiring.
2. Voltaning birinchi va ikkinchi qonunlarini ta'riflang.
3. Volta qatorlari nima?
4. Ichki va tashqi kontakt potentsiallar farqi nima?
5. Termoparani darajalash deganda nimani tushunasiz?
6. Termoelektr yurituvchi kuch nima? U qanday aniqlanadi?
7. Termopara nima? Termobatareya-chi? Ular qayerda ishlatiladi?
8. Termoparaning solishtirma termoelektr yurituvchi kuchi deb, nimaga aytiladi?

Adabiyotlar

1. Savelyev I.V. Umumiy fizika kursi. T.2. Toshkent. 1975.
2. Епифанов Г.И. Физика твердого тела. М. Высшая школа. 1977. стр.229-233.

6 - Laboratoriya Ishi

Fotoqarshilikni o'rganish

Kerakli asbob va materiallar: fotoqarshilik, yorug'lik manbai, tok manbai, reostat, voltmeter, mikrovoltmeter, kalit

Ishning maqsadi: Fotoqarshilikning volt-amper va yorug'lik tavsiflarini (xarakteristikalarini) o'rganish, uning solishtirma sezgirligini hisoblash, qarshilikning karrali o'zgarishini aniqlash

Asosiy nazariy ma'lumotlar

Ichki fotoeffekt ta'sirida ishlaydigan yarim o'tkazgich elementlar fotoqarshiliklar (FQ) deb ataladi. Ichki fotoeffekt yorug'lik kvanti yutilishidagi energiya hisobiga elektronlarning valent zonadan o'tkazuvchanlik zonasiga o'tishi bilan bog'liq. Aralashmali yarim o'tkazgichlarda ma'lum sharoitlarda elektronlar valent zonadan aralashma sathiga o'tishi yoki aralashma sathidan o'tkazuvchanlik zonasiga o'tishi mumkin. Bu o'tishlar natijasida tok tashuvchilar (elektronlar va kovaklar) soni ortadi hamda yoritilgan yarim o'tkazgichning elektr o'tkazuvchanligi oshadi.

FQ ning sezgirligi fotoelementlarga nisbatan juda yuqoridir. FQ signal berish va avtomatlashtirishda keng qo'llaniladi hamda yorug'lik nurlanishini o'lchashda foydalaniladi. FQ ni tavsiflovchi asosiy tavsiflar: volt-amper, yorug'lik, spektral va chastotaviy tavsiflardir.

1. Volt-amper tavsifi fototok I_F ning (o'zgarmas yorug'lik oqimidagi tokning yoki qorong'ulikdagi tokning) berilgan U kuchlanishga bog'lanishini ifodalaydi. Ko'pchilik FQ lar uchun yuqoridagi bog'lanish ish rejimida chiziqlidir. Fototok yorug'lik toki bilan qorong'ulik toki orasidagi farqdan topiladi

$$I_F = I_{yorug'} - I_q \quad (1)$$

2. Yorug'lik tavsifi fototokning berilgan o'zgarmas kuchlanishda FQ ga tushayotgan spektral tarkibi o'zgarmas bo'lgan yorug'lik oqimiga bog'lanishini ifodalaydi. FQ ning yorug'lik tavsifi chiziqli emas.

3. Spektral tavsif FQ sezgirligining berilgan kuchlanish va o'zgarmas yorug'lik oqimida yorug'likning to'lqin uzunligiga bog'lanishini ko'rsatadi.

4. Chastotaviy tavsif FQ sezgirligining o'zgarmas yorug'lik oqimida yorug'lik chastotasiga bog'lanishini ifodalaydi.

FQ ning asosiy parametrlariga solishtirma, spektral, integral sezgirlik, qorong'ulik qarshiligi, qarshilikning karrali o'zgarishlari kiradi. FQ ning sezgirligini aniqlashda fototokning tushayotgan yorug'lik oqimining

spektral tarkibiga va miqdoriga, shuningdek berilgan kuchlanishning kattaligiga bog‘liqligini hisobga olish kerak.

Solishtirma sezgirlik K quyidagi tenglikdan aniqlanadi

$$K = \frac{I_F}{dU} = \frac{I}{ESU} \quad (2)$$


bunda E – FQ ning yoritilganligi; S – FQ ning yorug‘lik tushayotgan yuzasi; U – kuchlanish. Ushbu ishda yoritilganligi 200 lk, harorati 250 K bo‘lgan rangli yorug‘lik nurlantiruvchi manbadan foydalaniladi.

Integral sezgirlik (γ) solishtirma sezgirlikning ishda qo‘llanilayotgan kuchlanishga ko‘paytmasi bilan aniqlanadi:

$$\gamma = KU \quad (3)$$

Spektral sezgirlik.

Har xil yarim o‘tkazgichlardan tayyorlangan FQ larning berilgan monoxromatik nurlanishga nisbatan sezgirliги turlicha bo‘ladi. Shuning uchun FQ ning spektral sezgirliги eng asosiy tavsiflardan biri bo‘lib hisoblanadi. Buni bilish FQ ni qaysi sohada qo‘llash mumkinligini aniqlashga imkon beradi. Spektral sezgirlikni fotoqarshilikning spektral tavsifi ko‘rsatadi. 1-rasmda har xil materiallardan tayyorlangan fotoqarshiliklar uchun nisbiy birliklarda tok kuchining tushayotgan yorug‘lik to‘lqin uzunligiga bog‘liqligi ko‘rsatilgan.



1 - rasm

200 lk yoritilganlik olinganda 30 s dan keyin 20°S haroratdagi FQ ning qarshiligi qorong‘ulik qarshiligi r_q deyiladi. Qarshilikning karrali


o‘zgarishi deb $\frac{r_q}{r_y}$ - FQ qorong‘ulik qarshiligining 2850 K haroratda rangli

yorug'likka ega bo'lgan yoritilganligi 200 lk bo'lgan yorug'lik oqimining ta'sirida bo'lgan FQ qarshiligiga nisbatiga aytiladi.

FQ ning ma'lum qiymatlarida uning parametrlari o'zgarmas bo'lib, ko'rsatilgan ishlatish muddatida foydalanish mumkin bo'lgan kuchlanishga ishchi kuchlanish deyiladi. Eng ko'p tarqalgan FQ turlari FS-A₁, FS-A₄ oltingugurtli qo'rg'oshindan, FS-YE₂ oltingugurtli vismutdan, FS-K₁, FS-K₂, FSK-M₁, FSK-M₂ oltingugurtli kadmiydan tayyorlangan. Agar FQ nomlariga M harfi qo'shilsa, FQ monokristalldan yasalgan bo'ladi.

Qurilmaning tuzilishi va o'lchash usuli

FQ silliqlangan taglik (1) ustiga surtilgan yarim o'tkazgich (2) qatlamdan hamda ikkita tok o'tkazuvchi (3) elektrodlardan iborat bo'lgan asbobdir (2-rasm). FQ ning qabul qiluvchi yuzasi odatda shaffof lak bilan himoya qilinadi, u kvadrat, to'rtburchak yoki aylana shaklida tayyorlanadi. Monokristalli FQ larda yarimo'tkazgich qatlami monokristall bilan almashtiriladi.




2 - rasm

1-vazifa

FQ ning volt-amper va yorug'lik tavsiflarini olish

- 3-rasmda ko'rsatilgan sxemaga qarab elektr zanjiri yig'iladi.
- FQ ning qorong'ulik volt-amper tavsifi olinadi, bunda yorug'lik manbaini yoqmasdan, FQ ga berilayotgan kuchlanishni o'zgartirib tok kuchining qiymatlari yozib boriladi. Natijalar 1(a)-jadvalga yoziladi.
- Yorug'lik manbai ulanadi. O'zgarmas ($E = const$) yoritilganlikda (FQ bilan yorug'lik manbai orasidagi l masofa o'zgarmas) kuchlanishni



3 - rasm

o'zgartirib, FQ yoritilgan tok kuchining qiymatlari olinadi. Natijalar 1(b)-jadvalga yoziladi. (1) ifodadan foydalanib I_F topiladi.

- Qorong'ulik toki va fototokning kuchlanishga bog'lanish grafiklari chiziladi, $I_q = f(U)_E$, $I_F = f(U)_E$
- O'zgarmas kuchlanishda l masofani o'zgartirib har xil yoritilganlik uchun $E = \frac{I_{yk}}{l^2}$ (I_{yk} -yorug'lik kuchi) tok kuchining qiymatlari o'lchanadi. Olingan natijalar 1(v)-jadvalga yoziladi.
- Fototok bilan yoritilganlik orasidagi $I_F = f(E)$ bog'lanish grafigi chiziladi.

1-jadval

a) $E = 0$			b) $E = const$				v) $U = const$			
N ^o	U_q, V	I_q, A	l, m	U_y, V	I_y, A	I_F, A	U, V	l, m	I_y, A	I_F, A
1										
2										
.										
.										
.										

2-vazifa

Fotoqarshilikning solishtirma sezgirligi va qarshiligining o'zgarish darajasini aniqlash

- FQ ga berilgan (U) kuchlanishning bir xil qiymatida, I_y -yoritilganlik toki (uning sirti 200 lk yoritilganlik qiymatida yoritilganda) va I_q -qorong'ulik toki (E=200 lk yoritilganlik ta'siri olib tashlangandan 30 s o'tgandan keyin) o'lchanadi. Bu (U) kuchlanishning 3 ta qiymatida bajariladi.
- Qarshilikning o'zgarish karraligini quyidagi ifoda yordamida hisoblanadi

$$\frac{r_q}{r_y} = \frac{I_y}{I_q}$$

- (2) ifodadan foydalanib FQ ning solishtirma sezgirligi (K) hisoblanadi. Hisoblash natijalari 2-jadvalga yoziladi.

Izoh: O'lchashlarni bajarishdan oldin FQ sirtining yoritilganligi 200 lk bo'lgan masofa luksmetr yordamida yoritilganlik o'lchanib aniqlanadi va belgilab qo'yiladi.

2-jadval

N ^o	E, lk	U, V	I_y, A	I_q, A	$\frac{r_q}{r_y} = \frac{I_y}{I_q}$	K
1						

2	200					
.						
.						
.						

Nazorat savollari

1. Ichki fotoeffekt deb nimaga aytiladi?
2. Ichki va tashqi fotoeffekt o'rtasida qanday farq bor?
3. Fotoqarshilik deb nimaga aytiladi?
4. Fotoqarshiliklar qayerlarda qo'llaniladi?
5. Fotoqarshilikning asosiy tavsiflari haqida tushuncha bering?
6. Fotoqarshiliklarni o'rganish uchun qanday qurilmadan foydalaniladi?

Adabiyotlar

1. Savelyev I.V. "Umumiy fizika kursi" T.2 Toshkent. "O'qituvchi", 1975
2. Qo'ziboyev M.M "Fotoqarshilik" Toshkent. "O'qituvchi", 2016
3. Епифанов Г.И. «Физика твердого тела» Москва «Высшая школа» 1965

7 - Laboratoriya Ishi

Yarim o'tkazgich moddalar qarshiligining haroratga bog'liqligini o'rganish va uning man etilgan zona kengligini aniqlash

Kerakli asbob va materiallar: elektron termometr, Ommetr, kuchlanishni stabillashtiradigan tok manbai, yarim o'tkazgich modda.

Ishning maqsadi: laboratoriya ishini bajarib, talaba qattiq jismlarning zonalar nazariyasini o'rganishi, metallar va yarim o'tkazgichlar qarshiliklarini haroratga bog'lanisini bilishi va tushuntirishi kerak.

Asosiy nazariy ma'lumotlar

Qattiq jismlar elektr o'tkazuvchanligiga qarab 3 guruhga bo'linadi. Elektr o'tkazuvchanligi $\sigma = 10^5 \div 10^7 \text{ Om}^{-1}\cdot\text{m}^{-1}$ ga teng bo'lgan moddalar o'tkazgichlar yoki metallar deyiladi. Elektr o'tkazuvchanligi $\sigma = 10^{-8} \div 10^{-15} \text{ Om}^{-1}\cdot\text{m}^{-1}$ bo'lgan moddalar dielektriklar yoki izolyatorlar deyiladi va elektr o'tkazuvchanligi bular oralig'ida bo'lgan moddalar yarim o'tkazgichlar deb atalib, ularning elektr o'tkazuvchanligi $\sigma = 10^{-3} \div 10^4 \text{ Om}^{-1}\cdot\text{m}^{-1}$ ga tengdir.

Yarim o'tkazgichlar va metallarning elektr o'tkazuvchanligini solishtirib, bular o'rtasidagi tafovutni ko'rib chiqamiz.

Hamma metallarda harorat ortishi bilan ularning qarshiligi ortib boradi, ya'ni

$$R(t) = R_0(1 + \alpha t)$$


bu yerda R_0 - harorat $t=0^\circ \text{C}$ bo'lganda o'tkazgichning qarshiligi va $R(t)$ - esa $t^\circ \text{C}$ haroratdagi qarshilik, α - metall qarshiligining harorat koeffitsienti.

Yarim o'tkazgichlarda harorat ortishi bilan ularning qarshiligi kamayib boradi.

$$R(T) = R_0 e^{\frac{b}{T}}$$

bu yerda R_0 va b -berilgan yarim o'tkazgich moddalar uchun o'zgarmas kattalikdir.

1-rasmda metall va yarim o'tkazgich moddalar uchun qarshiliklarni haroratga bog'lanish grafiklari berilgan.



1 - rasm

Metallarning klassik nazariyasiga ko'ra metallarda elektr tokini tashuvchi bo'lib elektronlar va ba'zi metallarda kovaklar xizmat qiladi.

Agar metallarga ma'lum yo'nalishda tashqi elektr maydoni qo'yilsa zaryadlangan zarrachalar maydon yo'nalishiga mos ravishda o'zlarining issiqlik harakat tezliklariga ma'lum tartibli qo'shimcha tezlik oladi.

Natijada metallardagi hamma erkin elektronlar tashqi maydon ta'sirida metallarning bir qismidan ikkinchi qismiga qarab ko'chib boradi, demak metallarda elektr toki hosil bo'ladi. Bu tok

$$j = en\Delta\overline{g}_g \quad (1)$$

ga tengdir. Bunda e - elektron zaryadi. Elektr maydoniga kiritilgan o'tkazgichning elektronlari maydon ta'sirida uning yo'nalishiga qarama-qarshi a tezlanish oladi. Elektroniga ta'sir etuvchi kuch $\vec{F} = e\vec{E}$ bu formuladan $ma = eE$ tezlanishni topamiz.

$$a = \frac{eE}{m} \quad (2)$$

Metallarning klassik nazariyasiga ko'ra metaldagi o'tkazuvchi elektronlar tabiati ideal gaz molekulariga o'xshagan deb faraz qilinadi. Elektronlar xaotik harakat davomida bir-biri bilan va kristal panjara bilan to'qnashishi mumkin. To'qnashish orasidagi vaqtlarda ular deyarli erkin harakatlanib, o'rtacha A yo'lni bosib o'tadi. Elektron gazga gazlarning kinetik nazariyasini tatbiq etish mumkin. Bu holda elektronlarning issiqlik harakati o'rtacha tezligining qiymatini hisoblash mumkin. ya'ni

$$\langle g \rangle = \sqrt{\frac{8kT}{\pi m}}, \quad \text{bunda } k=1,38 \cdot 10^{-23} \text{ J/K}, \quad m=9,1 \cdot 10^{-31} \text{ kg}$$

va uy haroratini $T \sim 300 \text{ K}$ deb olib, elektronlarning o'rtacha tezligini hisoblaymiz.

$$\langle g \rangle = \sqrt{\frac{3 \cdot 1,38 \cdot 10^{-23} \cdot 300}{3,14 \cdot 9,1 \cdot 10^{-31}}} \approx 10^5 \text{ m/s}$$

Bunday tezlik bilan xaotik harakat qiluvchi elektronlarga endi elektr maydoni ta'sir etsa ular tartibli harakat qilib, biror tezlikka erishadi. Bu tartibli harakatning tezligi dreyf tezlik deyiladi. Tok zichligini hisoblashdagi $\overline{\Delta \mathcal{G}_g}$ bu dreyf tezligidir.

Elektronning kristall panjara ioni bilan o'zaro to'qnashuvida elektronning tartibli harakat tezligi nolga teng bo'ladi. Maydon kuchlanganligi o'zgarmas bo'lganda elektron yugurishining oxuridagi tezligi $\mathcal{G} = a\tau$ ga teng bo'ladi. Bu yerda τ - elektronning panjara ionlari bilan o'zaro ikkita ketma-ket urilishi uchun ketgan vaqt.

Agar elektronlarning tezliklar bo'yicha taqsimotini etiborga olmasak va ularning barchasini bir xil qiymatli \mathcal{G} - tezlik bilan harakat qiladi deb $\tau = \lambda/\mathcal{G}$ ni olishimiz mumkin. Bunda λ - erkin yugurish yo'lining o'rtacha qiymati. Bu holda tezlik uchun (2) formulani e'tiborga olib, quyidagini yozish mumkin

$$U_{\max} = a\tau = \frac{eE\lambda}{m\mathcal{G}} \quad (3)$$

Yugurish vaqtida \mathcal{G} tezlik chiziqli o'zgaradi. Shuning uchun uning o'rtacha qiymati maksimal qiymatning yarmiga teng

$$U = \frac{1}{2}U_{\max} = \frac{eE\lambda}{2m\mathcal{G}} \quad (4)$$

Bu ifodani (1)ga qo'ysak

$$j = \frac{ne^2\lambda}{2m\mathcal{G}} E \quad (5)$$

Bu formulani Om qonunining differensial ko'rinishi $j = \sigma E$ bilan solishtirib

$$\sigma = \frac{ne^2\lambda}{2m\mathcal{G}} \quad (6)$$

ni hosil qilamiz.

Demak, metallarning elektr qarshiliklari erkin elektronlarning metallning kristal panjara tugunlarida joylashgan ionlari bilan to'qnashishlari natijasida yuzaga keladi.

(4) formuladan $\mu = \frac{U}{E} = \frac{e\lambda}{2m\mathcal{G}}$. Bu yerda μ - elektronlarning

harakatchanligi deyiladi, U - elektronlarning dreyf tezligi.

Maydon kuchlanganligining bir-birlikka o'zgarishiga mos kelgan dreyf tezligiga teng kattalik zarrachalarning harakatchanligi deyiladi.

Xulosa qilib, shuni aytish mumkinki, metallardagi elektr o'tkazuvchanlik zarrachalarning konsentratsiyasiga, zaryadiga va

ularning erkin yugurish yo'liga to'g'ri va zarrachalarning massasi va issiqlik harakat tezligiga teskari proporsionaldir.

Metallarning klassik elektron nazariyasida ulardagi erkin elektronlarni oddiy molekulyar zarracha kabi faqat kristall panjara tugunlari bilan ta'sirlashadi, shuning natijasida metallarning qarshiligi vujudga keladi, deb tushuntiriladi. Kvant nazariyasiga ko'ra elektron, to'lqin xususiyatlariga ega bo'lgan zarrachadir. Elektronning metall ichidagi harakati elektron to'lqinlarining metall ichidagi tarqalishi deb qaralib, bu to'lqinlarning uzunligi de-Broyl to'lqin uzunligiga tengdir.

Kvant nazariyasiga ko'ra elektronlarning metall ichidagi erkin yugurish yo'li

$$\bar{\lambda} = \frac{E_{el}d}{\pi n k T} \quad (7)$$

Bu yerda E_{el} – elastiklik moduli, d - kristall panjara doimiysi, n – metall atomlarining konsentratsiyasi.

(7) formulani (6)ga qo'yib

$$\sigma = \frac{e^2 E_{el} d}{m 9 \pi k T} \quad (8)$$


ni hosil qilamiz. Bu formula aynan tajriba natijalariga mos keladi.

Kvant nazariyasiga ko'ra kristall jismdagi elektronlar energiyasi xuddi atomdagi elektron energiyasi kabi kvantlanish xususiyatiga ega. Elektronlar energiyasi energetik sath deb ataluvchi faqat diskret qiymatlarni qabul qila olishi mumkun. Kristallardagi ruxsat etilgan energetik sathlar zonalarga gruhlanadi.

2-rasmda atomlar orasidagi r masofaning funksiyasi sifatida turli sathlarning bo'linishi ko'rsatilgan. r_1 va r_2 ikki xil kristalldagi atomlar orasidagi masofaga mos keladi.

Kristall tuzilishida valent zona bilan undan keyin keladigan o'tkazuvchanlik zonasi man etilgan zona bilan ajralib turadi. Valent zona bilan o'tkazuvchanlik zonasi orasidagi man etilgan zona juda kichik bo'lsa, bunday zonalar qo'shilib ketgandek bo'ladi yoki o'tkazuvchanlik zonasi elektronlar bilan qisman to'ldirilgan, ya'ni ikki energetik zonaning qo'shilib ketishi


kuzatiladigan kristallar elektr tokini yaxshi o'tkazadi. Bular metallar guruhidir. Valent zona bilan o'tkazuvchanlik zonasi man etilgan zona bilan ajralgan kristallar dielektriklar yoki izolyatorlar deyiladi.



2 - rasm

Man etilgan zonaning kengligi ΔW (3 eV) kichik bo'lgan kristallar yarim o'tkazgichlar deyiladi (3-rasm).

Agar biror usul bilan valent zonadagi elektronning energiyasini



3 - rasm

ΔW dan oshirsak, u o'tkazuvchanlik zonasiga o'tib ketadi. Valent zonada qolgan bo'sh o'rin o'zini musbat zarracha kabi tutadi va o'tkazuvchan kovak (teshik) deb atalib o'tkazuvchanlikda ishtirok etadi. Hech qanday aralashmasi bo'lmagan toza sof yarim o'tkazgich xususiy yarim o'tkazgich deyiladi. Yarim o'tkazgichdagi aralashmalar ularning elektr o'tkazuvchanligini keskin o'zgartirib yuboradi. Xususiy yarim o'tkazgichlarda zaryad tashuvchilarning konsentratsiyalari bir-biriga teng $n = p$. Yarim o'tkazgichlardagi tokning zichligi quyidagi formula orqali topiladi:

$$j = ne^{-}U_n + pe^{+}U_p; \quad |e^{-}| = |e^{+}|; \quad n = p$$

bo'lgani uchun μ_n va μ_p elektron va kovaklarning harakatchanligi

$$j = n_i e(\mu_n + \mu_p)E; \quad \sigma = ne(\mu_n + \mu_p) \quad (9)$$

Yarim o'tkazgichlardagi zaryad tashuvchilarning konsentratsiyasi xususiy yarim o'tkazgichlar uchun

$$\left. \begin{aligned} n &= 2 \frac{(2\pi m_n^* kT)^{3/2}}{h^3} \cdot e^{\frac{\mu}{kT}} \\ p &= 2 \frac{(2\pi m_p^n kT)^{3/2}}{h^3} \cdot e^{-\frac{\Delta E + \mu}{kT}} \end{aligned} \right\} \quad (10)$$

bu yerda
$$\mu = \frac{\Delta W}{2} + \frac{3}{4} kT \ln \frac{m_p^n}{m_n^*} \quad (11)$$

Fermi sathi aralashmali yarim o'tkazgichlar uchun. Donor yarim o'tkazgichlar uchun

$$\left. \begin{aligned} n &= \sqrt{2N_d} \frac{(2\pi m_n kT)^{3/4}}{h^{3/2}} e^{-\frac{\Delta W_d}{kT}} \\ p &= \sqrt{2N_A} \frac{(2\pi m_p kT)^{3/4}}{h^{3/2}} e^{-\frac{\Delta W_A}{kT}} \end{aligned} \right\} \quad (12)$$

$$\mu = \frac{\Delta E_d}{2} + \frac{kT}{2} \ln \left[\frac{N_d \cdot h^3}{2(2\pi m_n kT)^{3/2}} \right] \quad (13)$$


(10) yoki (12) va (9) formulaga qo'yib, xususiy va aralashmali yarim o'tkazgichlarning elektr o'tkazuvchanligi uchun quyidagi formulalarni hosil qilamiz, xususiyyarim o'tkazgichlar:

$$\sigma_i = \sigma_0 e^{-\frac{\Delta W}{2kT}}; \quad \ln \sigma_i = \ln \sigma_0 - \frac{\Delta W}{2kT} \quad (14)$$

va aralashmali yarim o'tkazgichlar

$$\sigma_n = \sigma'_0 e^{-\frac{\Delta W_{ap}}{2kT}}; \quad \ln \sigma_n = \ln \sigma'_0 - \frac{\Delta W_{ap}}{2kT} \quad (15)$$

(14) va (15) formulalardagi $\frac{\Delta W}{2k}$ va $\frac{\Delta W_{ap}}{2k}$ xususiy va aralashmali yarim o'tkazgichlar uchun har xil qiymatlarni beradi va quyidagi grafikdan topiladi (4-rasm)



4 - rasm

$$\frac{\Delta W}{2K} = \operatorname{tg} \alpha_1, \quad \frac{\Delta W_{ar}}{2K} = \operatorname{tg} \alpha_2 \quad (16)$$

(16) formuladan

$$\Delta W = 2K \cdot \operatorname{tg} \alpha_1; \quad \Delta W_{ar} = 2K \cdot \operatorname{tg} \alpha_2 \quad (17)$$

Qurilmaning tuzilishi va o'lchash usuli

(14) formulani e'tiborga olib xususiy yarim o'tkazgich umumiy qarshiligining haroratga bog'lanish formulasini yozamiz:

$$R(T) = \rho(T) \frac{\ell}{S} = \frac{1}{\sigma(T)} \cdot \frac{\ell}{S} = R_0 e^{\frac{\Delta W}{2kT}} \quad (18)$$

bu yerda $R_0 = \frac{1}{\sigma} \cdot \frac{\ell}{S} = \text{const}$ haroratga deyarli bog'liq bo'lamagan o'zgarmas son.

(18) formulani ikki harorat T_1 va T_2 lar uchun logarifmlab R_1 va R_2 larning logarifmlarini hosil qilamiz

$$\left. \begin{aligned} \ln R_1 &= \ln R_0 + \frac{\Delta W}{2k} \cdot \frac{1}{T_1}; \\ \ln R_2 &= \ln R_0 + \frac{\Delta W}{2k} \cdot \frac{1}{T_2} \end{aligned} \right\} \quad (19)$$

Bu tenglamalar tizimidan R_0 ni yo'qotib ΔW ga nisbatan yechamiz:

$$\ln R_1 - \ln R_2 = \frac{\Delta W}{2k} \left(\frac{1}{T_1} - \frac{1}{T_2} \right)$$

va bu yerdan

$$\Delta W = \frac{2k(\ln R_1 - \ln R_2)}{\frac{1}{T_1} - \frac{1}{T_2}} \quad (20)$$


Yarim o'tkazgichlarning elektr o'tkazuvchanligi metallarnikidan farq qilib, ular harorat ortishiga qarab keskin kamayib ketadi. Chunki, yarim o'tkazgichlarda zaryad tashuvchilarning konsentratsiyasi harorat o'zgarishiga kuchli bog'liq, ya'ni eksponensial bog'lanishda. Haroratga kuchli bog'lanishda bo'lgan yarim o'tkazgich qarshiliklari termistorlar deyiladi.

Qurilmaning prinsipial sxemasi 5-rasmda berilgan.

Labaratoriya qurilmasi 4 qismdan iborat

- 1) Qizitgich vazifasini spool (keramik) qarshilik bajaradi. Bu qarshilikning o'rtasi kovak bo'lib unga tekshirilayotgan yarim o'tkazgich va elektron termometr (termodatchik - issiqlik datchigi) joylashtiriladi.
- 2) Isitgichning haroratini aniqlash uchun mikrosxemalar asosida yig'ilgan elektron termometr;
- 3) Yarim o'tkazgichlarning qarshiligini o'lchash uchun Ommetr;
- 4) Kuchlanishni stabillashtiradigan tok manbai. Tok manbai ikkilamchi o'ramlari ikkita bo'lgan pasaytiruvchi transformatorga ega. Uning birinchi

o'ramlaridan isitgichga kuchlanish beriladi, ikkinchi o'ramlari elektron termometrغا kuchlanish beradigan stabilizatorga ulanadi.



5 - rasm

Asbobning shkalasi Selsiy graduslarida va kiloOmlarda graduirvka qilingan va qurilmaning oldingi qismiga o'rnatilgan, shuning uchun to'g'ridan-to'g'ri haroratni va aniqlanayotgan yarim o'tkazgich namunasining qarshiligini o'lchash mumkun.

Ishni bajarish tartibi

1. Laborant ishtirokida qurilmani tokka ulang.
2. Ulang (БКЛ) degan kalitni ulang.
3. R va T larning boshlang'ich ko'rsatgichlarini 1-jadvalga yozing.
4. 44Istgich(нагр) degan tumblerni ulang va elektron termometr ko'rsatgichlarini va bunga mos kelgan qarshiliklarini har 5° dan 60°C gacha yozib boring .
5. Isitgich (нагр) tumblerni uzib qo'ying.
6. Sovutgich (охл.) degan kalitni ulang va yarim o'tkazgich soviyotgan vaqtda o'lchashlarni davom ettiring. 4-banddagi holatlarda ommetrning ko'rsatishlarini yozib oling.
7. 1-jadvalni to'ldiring.
8. $R=f(T)$ funksiyaning grafigini chizing va tekshiring.
9. O'qituvchi grafikni imzolayotgan vaqtda man etilgan zona kengligini hisoblashni 3ta nuqtasini ko'rsatadi (20 formulaga asosan).
10. ΔW ning qiymatlarini elektron voltlarda ifodalang va 2-jadvalni to'ldiring.
11. ΔW ning o'rtacha qiymatini topib, xatoliklarni hisoblang.

1-jadval

t, °C	25°	30°	35°	40°	45°	50°	55°	60°
T.k								
R _{is}								
R _{sov}								
R _{or}								

2-jadval

Nº	R	lnR	T	1/T	ΔW, eV	<ΔW>	δ%
1.							
2.							
3.							
4.							
5.							
6.							

Nazorat uchun savollar

1. Metallarning klassik elektron nazariyasini tushuntiring.
2. Metallar solishtirma qarshiligining haroratga bog'lanishini tushuntiring. Harakatchanlik nima?
3. Metallarda energetik zonalarning hosil bo'lishini tushuntiring. Metall, dielektrik va yarim o'tkazgichlarni zonalar nazariyasi asosida tushuntiring.
4. Xususiy yarim o'tkazgichning zonalar tuzilishini tushuntiring.
5. Yarim o'tkazgichlarning elektr o'tkazuvchanligi nimalarga bog'liq?
6. Xususiy yarim o'tkazgichlarda zaryad tashuvchilarning konsentrtsiyasini hisoblash formulalarini tushuntiring. Fermi sathi, uning energiyasini tushuntirib bering..
7. Xususiy yarim o'tkazgichning elektr o'tkazuvchanligini tushuntiring.
8. Ushbu ishda man etilgan zona kengligini aniqlashni tushuntiring.

VIRTUAL LABORATORIYA ISHLARI

2.1 – laboratoriya ishi

Elektronning bir jinsli elektr maydonida harakati

Ma'ruzalar matni va o'quv qo'llanmasidan ishning nazariyasi bilan tanishish (Savelyev I.V., t.2, §5, §73)

Ishning maqsadi:

- Yassi kondensatorning bir jinsli elektrostatik maydoni bilan tanishish;
- Kondensatorning elektr maydonida elektron harakatining interaktiv modeli bilan tanishish;
- Bir jinsli elektr maydonida nuqtaviy zaryadning harakat trayektoriyasini o'rganish;
- Elektr maydon kuchlanganligi va zarralar tezligining uchib borish vaqti va masofasiga ta'sirini o'rganish;
- Kondensator elektr maydonida zarra harakatining interaktiv modeli yordamida elektronning solishtirma zaryadini aniqlash.

Qisqacha nazariya:

Zaryadlangan zarraning elektr maydonidagi harakati zamonaviy elektron asboblarda, jumladan, elektron dastasini og'diruvchi elektrostatik tizimdagi elektron-nur nay(trubka)larida keng qo'llaniladi.

Elektr zaryadi – ob'yektning elektr maydon hosil qilish va elektr maydon bilan ta'sirlashish qobiliyatini tavsiflovchi kattalik.

Nuqtaviy zaryad – elektr zaryadini tashuvchi moddiy nuqta (zaryadlangan MN) ko'rinishidagi mavhum ob'yekt (model).

Elektr maydoni – zaryadlangan ob'yektga elektr deb ataluvchi kuch ta'sir etadigan fazo sohasi.

Zaryadning asosiy xususiyatlari:

- additivlik (summalanish);
- invariantlik (barcha inersial sanoq tizimlarida bir xillik);
- diskretlik (orqali belgilanuvchi elementar zaryadning mavjudligi va barcha zaryadlarning shu elementar zaryadga karraligi: $q = Ne$, bu yerda N ixtiyoriy musbat yoki manfiy butun son);
- zaryadning saqlanish qonuniga bo'ysunishi (elektr izolatsiyalangan tizimdagi zaryadlar miqdori (summasi) o'zgarmas saqlanadi);
- musbat va manfiy zaryadlarning mavjudligi (zaryad algebraik kattalik).

Kulon qonuni ikkita nuqtaviy zaryadning o'zaro ta'sir kuchini aniqlaydi

$$\vec{F}_{12} = -\frac{q_1 q_2}{4\pi\epsilon_0 r^2} \vec{r}_{12},$$

bu yerda \vec{r} - birinchi zaryaddan ikkinchi zaryadga yo'nalgan birlik vektor.

Elektr maydon kuchlanganligi maydonning vektor tavsifi hisoblanib, son jihatdan nuqtaviy zaryadga ta'sir etuvchi \vec{F}_{el} kuchning, shu zaryad kattaligi q ga nisbati bilan aniqlanadi:

$$\vec{E} = \frac{\vec{F}_{el}}{q}$$

Agar elektr maydon kuchlanganligi ma'lum bo'lsa, zaryadga ta'sir etuvchi kuch quyidagi formula orqali topiladi:

$$\vec{F} = q\vec{E}$$

Bir jinsli maydon deb kuchlanganlik miqdor jihatdan ham, yo'nalish jihatdan ham barcha nuqtalarida bir xil bo'lgan maydonga aytiladi. Bir jinsli maydonning barcha nuqtalarida zaryadlangan zarraga ta'sir etuvchi kuch bir xil, shuning uchun Nyutonning ikkinchi qonuni orqali aniqlanadigan zarralar tezlanishi ham o'zgarmas bo'ladi (kichik tezliklarda, $\mathcal{G} \ll c$ bu yerda c – yorug'likning vakuumdagi tezligi):

$$\vec{a} = \frac{\vec{F}_{el}}{m} = \frac{q}{m} \vec{E} = const \quad Y = \frac{at^2}{2} = \frac{1}{2} \frac{q}{m} E \left(\frac{L}{V_{0x}} \right)^2, \quad V_y = at = \frac{q}{m} E \frac{L}{V_{0x}},$$

bu yerda Y - zarraning vertikal bo'ylab siljishi; \mathcal{G}_y - zarra kondensatordan uchib chiqqan paytdagi tezlikning vertikal tashkil etuvchisi.

O'lchash usuli va tartibi

Rasmni diqqat bilan qarab chiqing va barcha rostlagichlar hamda boshqa asosiy elementlarni toping. Ushbu laboratoriya ishida yassi kondensatorning elektr maydonida zaryadlangan zarraning (elektronning) harakatini ifodalovchi kompyuter modeli qo'llaniladi. Zarra boshlang'ich tezligining va tashkil etuvchilari qiymatini, shuningdek kondensator maydoni kuchlanganligining miqdorini va ishorasini o'zgartirish mumkin. Ekranda zarraning harakat trayektoriyasi namoyon bo'ladi va ixtiyoriy vaqt momentidagi zarraning koordinatalari hamda tezlikning tashkil etuvchilari qiymati chiqariladi.

Tajriba o'tkaziladigan maydonni va zarraning harakat trayektoriyasini chizing. "Run" tugmasini bosib, ekranda zarra harakatini kuzating.

O'qituvchidan o'lchashlarni bajarish uchun ruxsat oling.

$q = -1.60 \cdot 10^{-19} \text{ C}$
 $m = 9.11 \cdot 10^{-31} \text{ kg}$

$x = 0.0 \text{ cm}$
 $y = 0.0 \text{ cm}$
 $v_x = 5.0 \cdot 10^6 \text{ m/s}$
 $v_y = 1.0 \cdot 10^6 \text{ m/s}$
 $t = 0.0 \text{ s}$

$v_{ox} = 5.0 \cdot 10^6 \text{ m/s}$ $E = 5.0 \text{ kV/m}$ Run
 $v_{oy} = 1.0 \cdot 10^6 \text{ m/s}$ Reset

O'lchashlar

Sichqoncha kursorini E kuchlanganlikni rostlovchi yo'nalish-tugmalariga olib boring. Sichqonchani chap tugmasini bosib va uni bosilgan holda ushlab turib, E ni o'zgartiring. Sizing brigadangiz uchun 1-jadvalda ko'rsatilgan E ning son qiymatini o'rnating.

Shu yo'l bilan , $v_{0x} = 2 \cdot 10^6 \text{ m/s}$, $v_{0y} = 0$ qiymatlarni o'rnating. "Run" tugmasini bosib, zarra harakatini kuzating. ni oshirib borib, zarra kondensatordan uchib chiqadigan minimal qaymatni tanlang. Kondensator plastinkasi uzunligi (L) ning qiymatini yozing.

Zarraning kondensatordan uchib chiqish vaqtidagi harakat parametrlarini aniqlang. Son qiymatlarni ekrandan 2-jadvalga ko'chiring.

v_{0x} ni har safar $0.2 \cdot 10^6 \text{ m/s}$ ga oshirib, o'lchashlarni yana 5 marta takrorlang. Natijalarni 2-javdalga yozing.

1-jadval. Elektr maydon kuchlanganligi (Daftaringizga ko'chirmang)

Brigada	1	2	3	4	5	6	7	8
E [V/m]	100	200	300	400	-100	-200	-300	-400

2-jadval. O'lchash natijalari $E = \underline{\hspace{2cm}} V/m, L = \underline{\hspace{2cm}} m$

v_{0x} [MM/c]							
Y[MM]							
X[MM]							
t [HC]							
v_x [MM/c]							
v_y [MM/c]							

Natijalar ustida ishlash va hisobot tayyorlash:

Alohida varaqlarga tajribadan olingan quyidagi bog'lanishlar grafiklarini chizing:

- kondensatordan uchib chiqishda vertikal siljish(Y) ning boshlang'ich tezlik teskari qiymati kvadrati $(1/\mathcal{G}_{0x})^2$ ga bog'liqligi;
- kondensatordan uchib chiqishda tezlikning vertikal tashkil etuvchisi \mathcal{G}_y ning boshlang'ich tezlik teskari qiymati $(1/\mathcal{G}_{0x})$ ga bog'liqligi.

Har bir grafik uchun zarraning solishtirma zaryadi qiymatini toping.

Bunda birinchi grafik uchun $\frac{q}{m} = \frac{2}{EL^2} \frac{\Delta(Y)}{\Delta(\frac{1}{v_{0x}^2})}$ formuladan, ikkinchisi

uchun esa $\frac{q}{m} = \frac{1}{EL} \frac{\Delta(v_y)}{\Delta(\frac{1}{v_{0x}})}$ formuladan foydalaning.

Zarraning tajribadan topilgan solishtirma zaryadi o'rtacha qiymatini hisoblang.

Javobni yozing. Javob va grafiklar bo'yicha xulosa chiqaring.

Jadval bo'yicha elektronning solishtirma zaryadi $e/m = 1.76 \cdot 10^{11}$ kl/kg

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Elektr zaryadiga ta'rif bering.
2. Elektr zaryadi quyidagi tasnif sinflarining qaysi biriga taalluqligini aniqlang:
 - harakat tasnifi
 - ta'sir tasnifi
3. Zaryadning barcha xossalarini sanab bering.
4. Zaryadning diskretlik xossasini tushuntiring.
5. Zaryadning additivlik xossasini ta'riflang.
6. Zaryadning invariantlik xossasini tushuntiring.
7. Ikkita qo'zg'almas zaryadning o'zaro ta'sir kuchini ifodalovchi Kulon qonunini yozing.
8. Elektrostatik (elektr) maydonga ta'rif bering.
9. Elektr maydon kuchlanganligini ta'riflang.
10. Elektr maydon kuchlanganligini ifodalovchi formulani yozing.
11. Berilgan kuchlanishdagi elektr maydonda nuqtaviy zaryadgata'sir etuvchi elektr kuchini ifodalovchi formulani yozing.
12. Koordinatalar boshida joylashgan nuqtaviy zaryad uchun elektr maydon kuchlanganligi formulasini yozing.
13. Elektr maydon uchun superpozitsiya prinsipini tushuntiring.
14. Elektr maydon potensialini ta'riflang.
15. Koordinatalar boshida joylashgan nuqtaviy zaryad uchun elektr maydon potentsiali formulasini yozing.
16. Qanday maydon bir jinsli hisoblanadi?
17. Yassi kondensatorning sig'imi formulasini yozing.
18. Yassi kondensator plastinkalari orasida qanday maydon mavjud bo'ladi?
19. Elektronning yassi kondensator plastinkalari orasidagi harakat trayektoriyasi qanday shaklda bo'ladi?

2.2 – Laboratoriya ishi.

Nuqtaviy zaryadlarning elektr maydoni.

Ma'ruzalar matni va o'quv qo'llanmasi bilan tanishing (Savelyev, t.2 §5-10).

Ishning maqsadi

- Nuqtaviy manbalarning elektr maydonini modellashtirish bilan tanishish.
- Nuqtaviy zaryad va elektr dipoli(ED)ning elektr maydonlari qonuniyatlarining tajribada tasdiqlanishi.
- Elektr doimiysining qiymatini tajribada aniqlash.

Qisqacha nazariya

Qo'zg'almas zaryadlarning elektr maydoni elektrostatik maydon deyiladi. U vaqt o'tishi bilan o'zgarmaydi. Elektrostatik maydon faqat elektr zaryadlari tomonidan hosil qilinadi. U zaryadlar atrofini o'rab turuvchi fazoda hosil bo'ladi va ular bilan chambarchas bog'langan. "Zaryad" deb zaryadlangan zarrachaga, "nuqtaviy zaryad" deb esa elektr zaryadiga ega bo'lgan moddiy nuqtaga aytiladi.

Elektr zaryadining asosiy xossalari:

1. Eng asosiy xususiyati – 2 turda, ya'ni, "musbat" va "manfiy" turlarda mavjud bo'lishidir. Bir xil ishorali zaryadlar itarishadi, har xil ishorali zaryadlar tortishadi.
2. Zaryad diskret bo'lib, har bir jismning zaryadi miqdor jihatdan elektron zaryadiga ($e = 1,6 \cdot 10^{-19} \text{ K}l$) karralidir.
3. Zaryad invariantdir, ya'ni uning qiymati ixtiyoriy inersial sanoq tizimida bir xil.
4. Zaryad additivdir, ya'ni, jismlar tizimining zaryadi alohida olingan jismlar zaryadlarning yig'indisiga teng.
5. Zaryad saqlanadi – izolatsiyalangan (yopiq) jismlar tizimining to'la elektr zaryadi bu tizimda sodir bo'ladigan jarayonlarda o'zgarmaydi.

Nuqtaviy zaryadlar Kulon qonuni bo'yicha o'zaro ta'sirlashadi

$$\vec{F} = \frac{q_1 q_2}{4\pi\epsilon_0 r^3} \cdot \vec{r}$$

bu yerda \vec{r} – birlik radius vektor bo'lib, zaryadlarni tutashtiruvchi to'g'ri chiziq bo'ylab yo'nalgan.

Elektr maydon kuchlanganligi nuqtaviy zaryadga maydon tomonidan ta'sir etuvchi kuchning shu zaryad miqdoriga nisbatiga teng.

$$\vec{E} = \frac{\vec{F}}{q}$$

Nuqtaviy zaryadning maydon kuchlanganligi:

$$\vec{E} = \frac{q}{4\pi\epsilon_0 r^2} \vec{r}$$

EM grafik ko'rinishda kuchlanganlik chiziqlari yoki kuch chiziqlari orqali ta'svirlanadi. Kuch chiziqlari deb, shunday chiziqlarga aytiladiki, ularning har bir nuqtasiga o'tkazilgan urinma vektorning yo'nalishi bilan mos tushadi.

EM uchun superpozitsiya prinsipi bajariladi: bir necha manba hosil qilgan EM kuchlanganligi, har bir manba hosil qilgan maydon kuchlanganligi vektorlarining geometrik yig'indisiga teng.

$$\vec{E} = \sum_i \vec{E}_i$$

EM kuchlanganlik vektori oqimi deb, EM kuchlanganligi bilan sirt elementining skalyar ko'paytmasidan biror S sirt bo'ylab olingan integralga aytiladi:

$$\Phi_E = \int_S \vec{E} d\vec{S}$$

bunda $d\vec{S}$ vektor sirtga tushirilgan normal bo'ylab yo'nalgan.

EM uchun Ostrogradskiy - Gauss teoremasi:

Yopiq S sirt orqali kuchlanganlik vektori oqimi, shu sirt ichidagi zaryad yig'indisiga proporsionaldir

$$\Phi_E = \oint_S \vec{E} d\vec{S} = \frac{1}{\epsilon_0} \sum_i q_i$$

Berilgan nuqtada EM potentsiali deb, birlik musbat zaryadni berilgan nuqtadan cheksizlikka ko'chirishda bajarilgan ishga miqdor jihatdan teng bo'lgan skalyar kattalikka aytiladi:

$$\varphi = \frac{A_{1\infty}}{q} \text{ yoki } \varphi(r) = \int_{r_1}^{\infty} \vec{E} d\vec{r}$$

Kuchlanganlik va potentsial o'rtasidagi bog'lanish:

$$\vec{E} = -grad \varphi$$

bu yerda gradiyent operatori

$$grad = \left\{ \frac{\partial}{\partial x}; \frac{\partial}{\partial y}; \frac{\partial}{\partial z} \right\} = \vec{\nabla}$$

Dipol turli ishorali, modul jihatdan teng 2 ta zaryaddan iborat bo'lgan, bir – biridan masofada joylashgan va o'zaro bog'langan tizimdir (\vec{l} - dipol yelkasi bo'lib, manfiy zaryaddan musbat zaryad tomon yo'nalgan).

Dipol momenti quyidagicha aniqlanadi:

$$\vec{p} = q\vec{l}$$

\vec{p} vektor manfiy zaryaddan musbat zaryad tomon yo'nalgan.

Dipolning EM kuchlanganligi maydonlar superpozitsiya prinsipini qo'llash orqali topiladi:

1. Umumiy holda,

$$E = \frac{P}{4\pi\epsilon_0 r^3} \sqrt{1 + 3\cos^2 \alpha},$$

bunda r –dipol markazidan maydon kuchlanganligi aniqlanayotgan nuqtaga o'tkazilgan radius vektor qiymati, α - r va dipol yelkasi orasidagi burchak.


2. Xususiy hollarda:

a) dipol o'qida yotgan nuqtada ($\alpha = 0$)

$$E = \frac{P}{2\pi\epsilon_0 r^3}$$

b) dipol yelkasining o'rtasiga tushirilgan perpendikularda yotgan nuqtada


$$\left(\alpha = \frac{\pi}{2}\right) E = \frac{P}{4\pi\epsilon_0 r^3}$$



O'lchash usuli va tartibi

Ushbu laboratoriya ishida elektr maydonlarining superpozitsiya prinsipini tasvirlab beruvchi kompyuter modelidan foydalaniladi. 3 ta nuqtaviy zaryaddan iborat tizimda har ikki zaryad uchinchisi borligidan qat'iy nazar o'zaro Kulon qonuniga asosan ta'sirlashadi. Uchta zaryadning qiymati, ishorasi va orasidagi masofasini o'zgartirish mumkin. Zaryadlarni ko'chirish kursorni tanlangan zaryad ustiga qo'yib, sichqonchanning chap tugmasini bosish orqali amalga oshiriladi. Displayda o'zaro ta'sir kuchining qiymati ko'rinadi. Ta'sir kuchining musbat qiymatiga zaryadlangan zarralarning itarilishi, manfiy qiymatiga esa tortishish mos keladi.

Rasmni diqqat bilan qarab chiqing va keraklisini daftaringizga chizib oling.



$q_1 =$ <input type="text" value="5.0"/> $\cdot 10^{-8}$ C	$r_{12} = 97$ cm	$F_{12} = 10 \cdot 10^{-6}$ N
$q_2 =$ <input type="text" value="2.0"/> $\cdot 10^{-8}$ C	$r_{23} = 207$ cm	$F_{23} = -1 \cdot 10^{-6}$ N
$q_3 =$ <input type="text" value="-3.0"/> $\cdot 10^{-8}$ C	$r_{31} = 160$ cm	$F_{31} = -5 \cdot 10^{-6}$ N

1 – jadval. O‘lchash natijalari (9ta ustun)

(cm) =	20	30	...	100
$1/r^2, \text{M}^{-2}$				
$E_1, \text{B/M}$				
$E_2, \text{B/M}$				
$E_3, \text{B/M}$				
$E_4, \text{B/M}$				

2 – jadval. q_1 zaryadning qiymatlari (10^{-8} Kl) (ko‘chirib olmang)

Brigadalar				
1 и 5	4	6	8	10
2 и 6	4	5	9	10
3 и 7	-4	-5	-7	-9
4 и 8	-4	-6	-8	-10

Namunadan foydalanib 1- jadvalni tayyorlang.

Xuddi 1–jadvalga o‘xshash 3 va 4 –jadvallarni ham tayyorlang, faqat ularda 2–qator boshqacha bo‘lib, uning mazmuni keying bo‘limda beriladi.

O‘lchashlarni bajarish uchun o‘qituvchidan ruxsat oling.

O‘lchashlar

1 – tajriba. Nuqtaviy zaryad maydonini tekshirish

"Sichqoncha" bilan q_1 zaryadni ushlab harakatlantiring va uni tajriba maydonining chap chegarasi yaqiniga joylashtiring.

Birinchi zaryadning qiymatini o‘zgartiruvchi surilmani "sichqoncha" yordamida harakatlantirib, Sizning brigadangiz uchun 2–jadvalda ko‘rsatilgan zaryad qiymatini o‘rnating.

q_3 zaryadni birinchi zaryad tagiga joylashtiring va unga 0 qiymat bering.

q_2 zaryadning qiymatini 10^{-8} Kl ga teng qilib o‘rnating.

"Sichqoncha"ning chap tugmasini bosib, q_2 zaryadni o‘ng tomon siljiting va birinchi zaryadgacha bo‘lgan r_{12} masofani 1-jadvalda

berilgan qiymatda qo‘ying. $E_1 = \frac{F_{12}}{q_2}$ ning berilgan nuqtalarda

o‘lchangan qiymatlarini 1 – jadvalning tegishli qatoriga kiriting.

Tajribani q_1 zaryadning 2 – jadvalda ko‘rsatilgan boshqa uchta qiymati uchun takrorlang va E_2 , E_3 , E_4 larning qiymatini 1 – jadvalga yozing.

2 – tajriba. Dipol maydonini tekshirish.

"Sichqoncha" bilan dipolning ikkinchi zaryadi (q_3) qiymatini o'zgartiruvchi surilmani harakatlantiring va 2 –jadvalda brigadangiz uchun ko'rsatilgan zaryad miqdorini ishorasini o'zgartirgan holda qo'ying.

q_3 zaryadni shunday siljitingki, dipolning elektr momenti vertikal bo'lsin, dipol yelkasi ($L =_{13}$) esa 10 sm ga teng bo'lsin.

"Sichqoncha"ning chap tugmasini bosib turgan holda ikkinchi zaryadni dipol o'qi bo'ylab siljiting.

Dipol o'qidan 1–jadvalda ko'rsatilgan (r) masofada $E_1 = \frac{F_{12}}{q_2}$, $L = r_{12}$

ning qiymatlarini o'lchang va 3 – jadvalga kiriting (3–jadval 1–jadvalga o'xshash bo'ladi, faqat 2-qatorda ($1/r^3$, \mathcal{M}^{-3}) yoziladi).

Tajribani q_1 (va q_3) zaryadning 2–jadvalda ko'rsatilgan boshqa uchta qiymati uchun takrorlang va E_2 , E_3 , E_4 larning qiymatini 3 – jadvalga yozing.

Natijalar ustida ishlash va hisobot tayyorlash

1 va 3-jadvallarning ikkinchi qatoridagi qiymatlarni hisoblang va yozing.

Alohida bir varaqqa nuqtaviy zaryad EM kuchlanganligi (YE) bilan masofa kvadratining teskari qiymati ($1/r^2$) bog'liqlanishi grafigini chizing.

Ikkinchi varaqqa dipol o'qidagi EM kuchlanganligi (YE) bilan masofa kubining teskari qiymati ($1/r^3$) bog'liqlanishi grafigini chizing.

Har bir grafikdagi qiyalik burchagi tangensi bo'yicha elektr doimiysini

$$\varepsilon_0 = \frac{q_1}{4\pi} \frac{\Delta\left(\frac{1}{r^2}\right)}{\Delta(E)}$$

formula bo'yicha birinchi chizmadan,

$$\varepsilon_0 = \frac{p}{4\pi} \frac{\Delta\left(\frac{1}{r^3}\right)}{\Delta(E)}$$

formula bo'yicha ikkinchi chizmadan (r ning katta qiymatlari uchun) aniqlang

Elektr doimiysining o'rtacha qiymatini hisoblang.
Javoblarni yozing. Javoblar va grafiklarni tahlil qiling.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Elektr maydoni (EM) deb nimaga aytiladi?
2. EM manbalarini ayting.
3. Zaryadning asosiy xossalarini ayting va tushuntiring.
4. Zaryadlar o'rtasida qanday kuch ta'sir etadi?
5. EM kuchlanganlik chiziqlariga ta'rif bering. Ular nima uchun chiziladi?
6. Kulon qonunini yozing.
7. Nuqtaviy zaryad uchun maydon kuchlanganligi formulasini yozing.
8. EM uchun superpozitsiya prinsipini ta'riflang.
9. EM oqimi ta'rifini ayting.
10. EM uchun Gauss teoremasini ta'riflang va yozing.
11. Elektr dipoli deb nimaga aytiladi?
12. Dipol (elektr) momenti formulasini yozing va izohlang.
13. Dipol o'qidagi EM kuchlanganlik formulasini yozing va ta'riflang.
14. Tokli o'ramning magnit momenti deganda nimani tushunasiz?
15. Dipol markazi orqali o'tuvchi maydon chiziqlari qanday shaklga ega?
16. EM potentsiali nima va undan nima uchun foydalaniladi?
17. Gradiyent nima?

2.3 – LABORATORIYA ISHI

O'zgarmas tok qonunlari

Ma'ruzalar matni va o'quv qo'llanmasidan ishning nazariyasi bilan tanishish (Savelyev I.V., t.1, §§ 34-36).

Ishning maqsadi:

- O'zgarmas elektr toki zanjirlarini kompyuterda modellashtirish prinsiplari bilan tanishish;
- Elektr zanjirining yaratilgan modelidan foydalanib Om va Kirxgof qonunlarini o'rganish
- Asosiy qonunlar yordamida o'zgarmas elektr toki zanjiri tavsiflarini aniqlash.

Qisqacha nazariya:

Tok kuchini aniqlash $I = \frac{dq}{dt}$.

Zanjirning bir qismi uchun Om qonuni: bir jinsli (chetki kuchlar mavjud bo'lmagan) metal o'tkazgichdan o'tayotgan tok kuchi o'tkazgichdagi kuchlanish (U) ga to'g'ri proporsional, o'tkazgichning elektr qarshiligi (R) ga teskari proporsionaldir

$$I = \frac{U}{R}$$

Rezistor deb ma'lum o'zgarmas qarshilikka ega bo'lgan qurilmaga aytiladi.

Rezistordagi kuchlanish $U_R = IR$

Zanjirning bir jinsli bo'lmagan qismi uchun Om qonuni

$I = \frac{\varphi_1 - \varphi_2 + \varepsilon_{12}}{R}$, bu yerda φ_1 va φ_2 - zanjir qismi uchlaridagi potentsiallar, R -zanjirning mazkur qismiga ta'sir etayotgan EYUK.

Berk zanjir uchun Om qonuni $I = \frac{\varepsilon}{R}$, bu yerda ε -zanjirdagi

EYUKlar yig'indisi, R - zanjirdagi qarshiliklar yig'indisi.

Tarmoqlangan zanjir deb tugunlarga ega bo'lgan elektr zanjiriga aytiladi. Tugun deb esa ikkitadan ko'p o'tkazgichlar tutashgan nuqtaga aytiladi. Tugun tomon kelayotgan toklar musbat, tugundan chiqayotgan toklar manfiy deb hisoblanadi.

Kirxgofning birinchi qoidasi: tugunda uchrashuvchi toklarning algebraik yig'indisi nolga teng

$$\sum_{k=1}^n I_k = 0$$

Kirxgofning ikkinchi qoidasi: Zanjirdan xayolan ajratib olingan istalgan yopiq konturdagi kuchlanishlar tushishining algebraik yig'indisi, shu konturda ta'sir qilayotgan EYUK ning algebraik yig'indisiga teng bo'ladi

$$\sum_{k=1}^n I_k R_k = \sum_{i=1}^n \mathcal{E}_i$$

Tarmoqlangan zanjirni tahlil qilishda, barcha ketma-ket ulangan elementlar orqali bir tugundan ikkinchisiga oqayotgan toklarni bir xil indeks bilan belgilash lozim. Har bir tokning yo'nalishi ixtiyoriy ravishda tanlanadi.

Kirxgofning ikkinchi qoidasi asosida tenglamalar tuzishda, tanlangan aylanib chiqish yo'nalishiga qarab, tok va EYUK lar musbat yoki manfiy ishorali deb olinadi:

- agar tokning yo'nalishi aylanib chiqish yo'nalishi bilan mos tushsa, tokni musbat deb, qarama-qarshi bo'lsa manfiy deb hisoblash qabul qilingan;
- agar EYUK ning ta'sir yo'nalishi (u hosil qilayotgan tokning yo'nalishi) aylanib chiqish yo'nalishi bilan mos tushsa, EYUK musbat ishorali deb hisoblanadi.

Kirxgofning birinchi qoidasi asosidagi **tenglamalar soni** zanjirdagi tugunlar sonidan bitta kam bo'lishi kerak. Kirxgofning ikkinchi qoidasi asosidagi mustaqil tenglamalar soni shunday bo'lishi kerakki, bunda tenglamalarning umumiy soni turli toklar soniga teng bo'lishi lozim. Har bir yangi kontur hech bo'lmaganda oldin ko'rib chiqilgan konturlarga kirmagan zanjirning bir qismini o'z ichiga olishi kerak.


O'lchash usuli va tartibi

Ushbu laboratoriya ishida bitta rezistorga parallel ulangan uchta EYUK manbasi mavjud bo'lgan tarmoqlangan oddiy elektr zanjiri modeli tekshiriladi.

Rasmni diqqat bilan o'rganib chiqing, barcha regulyatorlar va boshqa asosiy elementlarni toping va ularni daftaringizga chizib oling.

Manbalarni tagma-tag joylashtirib, har bir manbaning ichki qarshiligi mavjudligini hisobga olgan holda konspektingizga zanjirning ekvivalent sxemasini chizing. Zanjirning har bir qismidagi toklarning yo'nalishini, EYUK ishoralarini va har qaysi yopiq konturni aylanib chiqish yo'nalishlarini ko'rsating. Zanjirning har bir qismidagi tokni topish uchun tenglamalar tizimini tuzing.

O'lchashlarni bajarish uchun o'qituvchidan ruxsat oling.



O'lchashlar:

1. Ekranda berilgan ekvivalent zanjirni yig'ing. Buning uchun dastlab sichqonchanning chap tugmasi yordamida ekranning pastki qismidagi EYUK tugmasini bosing. Sichqoncha kursorini ekranning nuqtalar joylashgan ishchi qismiga siljiting. Ushbu laboratoriya ishi qo'llanmasidagi sxema chizmasiga qarab ishni davom ettiring. Birinchi EYUK manbasi joylashadigan ekranning ishchi qismiga kursorni keltirib, sichqonchanning chap tugmasini bosing. Sichqoncha kursorini bir katak pastga siljiting va birinchi manba joylashgan joy tagida chap tugmani yana bir marta bosing. Bu yerda ikkinchi EYUK manbasi paydo bo'ladi. Uchinchi manbani ham shu tartibda joylashtiring.

2. Har bir manbaga ketma-ket qilib uning ichki qarshiligini ko'rsatuvchi rezistorni (ekranning pastki qismidagi R tugmasini bosgan holda) va ampermetrni (o'sha joydagi A tugmani bosgan holda) joylashtiring. Shundan keyin yuklanish rezistorini va unga ketma-ket qilib ampermetrni joylashtiring. Yuklanish rezistori tagida undagi kuchlanishni o'lchovchi voltmetrni joylashtiring.

3. Birlashtiruvchi simlarni ulang. Buning uchun ekranning pastki qismidagi simlar tugmasini bosing va sichqoncha kursorini sxemaning ishchi zonasiga suring. Kursorni sim o'tishi kerak bo'lgan joyga keltirib sichqonchanning chap tugmasini bosing.

4. Har bir element uchun parametrlar qiymatini belgilang. Buning uchun kursorni strekali tugmaga keltirib, sichqonchanning chap

tugmasini bosing. Keyin berilgan elementni bosib belgilang. Sichqoncha kursorni regulyatorning surgichiga olib boring va sichqonchani chap tugmasini bosing hamda uni bosilgan holda ushlab turib, parametr kattaligini o'zgartiring va Sizning brigadangiz uchun 1-jadvalda berilgan son qiymatini o'rnating.

5. Yuklanish rezistori qarshiligini $R=1$ Om qilib o'rnating. Barcha toklarni va yuklanishdagi kuchlanish qiymatlarini ("Hisoblash" tugmasini sichqoncha yordamida bosib) o'lchang va ularni 2-jadvalga yozing. R qarshilikni o'zgartirib, parametrlarni o'lchashni takrorlang va 2-jadvalni to'ldiring.

1-jadval. Manbalardagi EYUK va ichki qarshiliklarning qiymatlari (chizib olmang)

Бригада	1	2	3	4	5	6	7	8
$\varepsilon_1, \varepsilon_2, \varepsilon_3$ [B]	3,7,-2	4,-3,-8	3,6,-4	6,-2,-8	-6,5,8	5,8,-4	-4,6,-7	8,-4,6
R_1, R_2, R_3 [Om]	2,1,1	1,3,1	2,1,2	1,1,2	2,1,1	1,2,1	1,1,2	1,3,1

2-jadval. O'lchash natijalari

R[Om]	I_1 [A]	I_2 [A]	I_3 [A]	I [A]	U [B]
1					
2					
3					
4					
5					
6					
7					

3-jadval. Hisoblash natijalari

I_1 [A]	I_2 [A]	I_3 [A]	I [A]

Olingan natijalar ustida ishlash va hisobot tayyorlash

- Tuzgan zanjiringiz bo'yicha barcha toklar uchun umumiy ko'rinishda tenglamalar tizimining yechimini yozing.
- Yuklanish qarshiliklarining har biri uchun barcha toklarning qiymatlarini hisoblang va 3-jadvalga yozing.
- Yuklanishdagi kuchlanish tushuvi(U)ning undan o'tayotgan tok(I)ga bog'lanish grafigini chizing.
- Grafik asosida xulosalar chiqaring.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Elektr toki deb nimaga aytiladi?
2. Tok kuchiga ta'rif bering.
3. Potensiallar farqi (kuchlanish)ga ta'rif bering.
4. Rezistor nima?
5. Ketma-ket ulangan rezistorlar qarshiligini hisoblash formulasini yozing.
6. Parallel ulangan rezistorlar qarshiligini hisoblash formulasini yozing.
7. Zanjirning bir qismi uchun Om qonunini yozing va uni Om qonunining differensial shakli bilan solishtiring.
8. Zanjirning qanday qismi bir jinsli emas deb hisoblanadi?
9. Zanjirning bir jinsli bo'lmagan qismi uchun Om qonunini yozing.
10. EYUK manbasining qanday tavsiflari mavjud?
11. Kirxgofning birinchi qonunini ta'riflang. Unda zaryadning qanday xususiyati ifodalangan?
12. Kirxgofning birinchi qonunini ifodalovchi formulani yozing.
13. Kirxgofning ikkinchi qonunini ta'riflang.
14. Kirxgofning ikkinchi qonunini ifodalovchi formulani yozing.
15. Elektr zanjirining tuguni deganda nimani tushunasiz?
16. To'liq elektr zanjiri nima?

2.4 – LABORATORIYA ISHI

O'zgarmas tok manbalarining elektr yurituvchi kuchi va ichki qarshiligi. To'liq zanjir uchun Om qonuni.

Ishning maqsadi:

Tok manbaining ichki qarshiligini va elektr yurituvchi kuchini aniqlash.

Qisqacha nazariya.

O'zgarmas tok manbalari o'tkazgichda elektr tokini hosil qiladi. Bunday qurilmada zaryadlarga Kulon kuchidan farq qiluvchi boshqa kuchlar ta'sir etishi kerak. Birgina elektrostatik kuchlar (Kulon kuchlari) zanjirda o'zgarmas tokni saqlab tura olmaydi. Elektrostatik (Kulon) kuchlaridan tashqari zaryadlangan zarralarga ta'sir etayotgan barcha boshqa kuchlar chetki kuchlar deyiladi. Kontur bo'ylab zaryadni ko'chirishda chetki kuchlar bajargan ish(ning)ning shu zaryadga nisbati manbaining elektr yurituvchi kuchi (EYUK) deyiladi

$$\varepsilon = \frac{A_{\text{uem}}}{q} \quad (1)$$

EYUK ham kuchlanish kabi voltlarda o'lchanadi.

Ish – energiyani bir turdan boshqa turga aylantirish o'lchovidir. Demak, manbada chetki energiya elektr maydon energiyasiga aylanadi

$$W = \varepsilon \cdot q \quad (2)$$

Zaryad zanjirning tashqi qismida harakatlenganda manba tomonidan hosil qilingan va saqlab turilgan statsionar maydon energiyasiga aylanadi

$$W_1 = U_m \cdot q \quad (3)$$

Zanjirning ichki qismida esa

$$W_2 = U \cdot q \quad (4)$$

Energiyaning saqlanish qonuniga ko'ra

$$W = W_1 + W_2 \quad \text{yoki} \quad \varepsilon \cdot q = U_m \cdot q + U \cdot q \quad (5)$$

q ga qisqartirib, quyidagini hosil qilamiz

$$\varepsilon = U_m + U \quad (6)$$

ya'ni, EYUK zanjirning tashqi va ichki qismidagi kuchlanishlarning yig'indisiga teng.

Agar zanjir berk bo'lmasa $U_m = 0$, unda EYUK manbaining uchlaridagi kuchlanishga teng

$$\varepsilon = U \quad (7)$$

tenglikka U_m ning ifodasini qo'yib va zanjirning bir jinsli qismi uchun Om qonunidan foydalanib

$$U_m = I \cdot R, \quad U = I \cdot r$$


quyidagini hosil qilamiz

$$\varepsilon = I \cdot R + I \cdot r = I(R + r) \quad (8)$$

Bundan

$$I = \frac{\varepsilon}{R + r} \quad (9)$$

Shunday qilib, zanjirdagi tok kuchi manba elektr yurituvchi kuchining zanjirdagi tashqi va ichki qarshiliklar yig'indisiga nisbati bilan aniqlanadi. Bu to'liq yoki berk zanjir uchun Om qonunidir.



Tok kuchlarining qiymatlari I_1 va I_2 hamda turli R lar uchun reostatdagi kuchlanish tushuvlari ma'lum bo'lsin (1-rasm). EYUK uchun quyidagini yozish mumkin

$$\varepsilon = J_1(R_1 + r) \text{ va } \varepsilon = J_2(R_2 + r)$$

Bu ikki tenglikning o'ng tomonlarini tenglashtirsak

$$J_1(R_1 + r) = J_2(R_2 + r)$$

yoki

$$J_1 R_1 + J_1 r = J_2 R_2 + J_2 r$$

$$J_1 r - J_2 r = J_2 R_2 - J_1 R_1$$

$J_1 R_1 = U_1$ va $J_2 R_2 = U_2$ bo'lganligi uchun, oxirgi tenglikni quyidagi ko'rinishda yozish mumkin.

$$(J_1 - J_2)r = U_2 - U_1$$

Bundan:

$$r = \frac{U_2 - U_1}{J_1 - J_2}$$

Ishni bajarish tartibi

1-jadval. Reostatdagi qarshilik qiymatlari (R, om) (daftaringizga ko'chirmang)

Бригады						
2-	1 и 5	0.5 и 1	1.5 и 2	2.5 и 3	3.5 и 4	4.5 и 5
	2 и 6	0.7 и 1.2	0.9 и 1.4	1.1 и 1.6	1.3 и 1.9	1.5 и 2.1
	3 и 7	2 и 3	4 и 5	6 и 7	6.5 и 7.5	8 и 8.5
	4 и 8	1 и 3	2 и 4	2.5 и 3.5	3 и 5	4 и 6

jadval. O'lchash natijalari.

R, Om	1	2	1	2	1	2	1	2	1	2
U, B										
J, A										
R, Om										

Namunadan foydalanib, 2-jadvalni tayyorlang.

O'qituvchidan o'lchashlarni bajarish uchun ruxsat oling.

1. 1-rasmda ko'rsatilgan sxema bo'yicha zanjir yig'ing. Reostat qarshiligini o'z brigadangiz uchun 1-jadvalda belgilangan qiymatga tenglashtiring. Batareyadagi EYUK 1.5 V, ichki qarshilik 3 Om.
2. Reostatdagi kuchlanishni va tok kuchini "rasschitat" tugmasini bosib o'lchang. O'lchash asboblarning ko'rsatishini yozib oling.
3. Reostatning qarshiligini o'zgartiring va tok kuchi hamda kuchlanishning boshqa qiymatlarini yozib oling.
4. Reostat qarshiligining 10 ta turli qiymati uchun tok kuchi va kuchlanishni o'lchang. Olingan qiymatlarni 2-jadvalga yozing.
5. (11) formula bo'yicha ichki qarshilikni hisoblang.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Qanday kuchlar chetki kuchlar deyiladi?
2. Tok manbaining elektr yurituvchi kuchi nima?
3. Berk bo'lmagan tashqi zanjirda manbaining elektr yurituvchi kuchi nimaga teng?
4. To'liq zanjir uchun Om qonunini ta'riflang.
5. Tok manbaining ichki qarshiligi nima?
6. Berk zanjirning to'la qarshiligi nimaga teng?
7. Batareya qisqa tutashuv tokining kuchi qanday aniqlanadi?

2.5 – Laboratoriya ishi.

Magnit maydoni

Ma'ruzalar matni va o'quv qo'llanmasi bilan tanishing (Savelyev I.V., t.2, §39-47).

Ishning maqsadi.

- Turli manbalarning magnit maydonini modellashtirish bilan tanishish.
- To'g'ri tok va tokli o'ram (kontur) uchun magnit maydon qonuniyatlarining tajribada tasdiqlanishini tekshirish.
- Magnit doimiysi qiymatini tajriba orqali aniqlash.

Qisqacha nazariya.

Magnit maydoni (MM) deb, elektr jihatdan neytral bo'lgan tokli o'tkazgichga magnit deb ataluvchi kuch ta'sir etayotgan fazo qismiga aytiladi. Elektr zaryadiga ega bo'lgan harakatlanayotgan zarracha (zaryad) MMning manbasi hisoblanadi, bu zaryad shuningdek, elektr maydonini ham hosil qiladi.

Agar biror harakatlanayotgan zaryadli zarra (№1 zaryad) yaqinida, xuddi shunday (v) tezlik bilan harakatlanayotgan ikkinchi zaryadli zarra (№2 zaryad) mavjud bo'lsa, u holda ikkinchi zaryadga 2 ta kuch - F_{el} elektr (Kulon) kuchi va elektr kuchidan marta kichik bo'lgan F_m magnit kuchi ta'sir etadi (bu yerda s - yorug'lik tezligi).

Deyarli barcha tokli o'tkazgichlar uchun kvazineytrallik prinsipi bajariladi: ya'ni, o'tkazgich ichida zaryadli zarralarning mavjud bo'lishiga va harakatlanishiga qaramay, uning ixtiyoriy (uncha kichik bo'lmagan) bo'lagida elektr zaryadlarining yig'indisi 0 ga teng bo'ladi. Shu sababli, odatda tokli o'tkazgichlar o'rtasida faqat magnit ta'sirlar kuzatiladi.

Magnit induksiyasi – MM ni kuch jihatdan tavsiflovchi kattalik bo'lib, tokli o'tkazgichga MM ning ta'sir kuchini ifodalaydi. U vektor kattalik, harfi bilan belgilanadi.

Harakatlanuvchi elektr zaryadlarining o'zaro ta'sirini nisbiylik nazariyasi (relyativizm)ni ham hisobga olgan holda tahlil qilinganda; dL elementar uzunlikdagi I - tokli o'tkazgich hosil qilgan magnit induksiya vektori uchun quyidagi ifodani yozish mumkin (Bio-Savar-Laplas yoki BSL qonuni)

bu yerda r – kuzatish nuqtasining radius – vektori e - birlik radius – vektor, kuzatish nuqtasi orqonal yo‘nalgan, μ_0 - magnit doimiysi.

MM superpozitsiya prinsipiga bo‘ysunadi: bir necha manba hosil qilgan natijaviy MM induksiyasi, har bir manba hosil qilgan magnit induksiya vektorlarining geometrik yig‘indisiga teng.

Magnit maydon (MM) sirkulyatsiyasi deb, MM induksiyasining kontur elementiga skalyar ko‘paytmasiga aytiladi.

MM sirkulyatsiyasi qonuni (to‘liq tok qonuni) berk kontur bo‘yicha MM sirkulyatsiyasi shu kontur sirti S (L) ni sizib chiquvchi toklar yig‘indisi to‘g‘ri proporsional

BSL qonuni va MM superpozitsiya prinsipi yordamida boshqa ko‘pgina qonuniyatlarni olish imkonini beradi, xususan turlishakldagi toklio‘tkazgichlar hosil qilgan magnit maydon induksiyasini hisoblash mumkin.

Cheksiz uzun to‘g‘ri tokli o‘tkazgichning magnit maydon induksiyasi

To‘g‘ri tokli o‘tkazgichning magnit induksiya chiziqlari, markazi o‘tkazgich o‘qida joylashgan, o‘tkazgichga perpendikular tekislikda yotuvchi konsentrik fylanalardan iborat.

R radiusli J tokli aylana kontur o‘qidagi va uning markazidan masofada joylashgan nuqtadagi magnit maydon induksiyasi:

bunda,

S – yuzali o‘ramning magnit momenti, e - o‘ram sirtiga tushirilgan normal – birlik vektor.

Solinoid de buzun tokli g‘altakka aytiladi. Solinoid markaziga yaqin nuqtalarda MM induksiyasining qiymati juda kam o‘zgaradi. Bunday maydonni bir jinsli maydon deb hisoblash mumkin.

MM sirkulyatsiyasi qonunidan solenoid markazidagi MM induksiyasini hisoblash formulasini olish mumkin. Bunda, solenoidning uzunlik birligiga mos keluvchi o‘ramlar soni. O‘lchash usuli va tartibi. Kompyuter modelini tasvirlovchi rasmni diqqat bilan o‘rganing. Undagi barcha asosiy regulyatorlarni va tajriba maydonini toping. Keraklisini konspektingizga chizib oling.

1-model. To‘g‘ri tokning magnit maydoni. Bu model to‘g‘ri tokli o‘tkazgichning magnit maydon kuch chiziqlarini tokning turli qiymatlari uchun namoyish etadi. Magnit maydon induksiyasi maydonning ixtiyoriy nuqtasida o‘lchanishi mumkin.

Vektorning musbat yo'nalishi sifatida soat miliga teskari yo'nalish qabul qilingan.

Bunda to'g'ri tokning magnit maydon induksiyasi tokli o'kazgichgacha bo'lgan masofaga teskari proporsionalligiga ishon hosil qilish mumkin.

Magnit maydon tuzilishi tajribada temir kukunchalari yordamida ko'rsatilishi mumkin.

2 – model. Aylana tokli o'ramning magnit maydoni.

Solenoid deb, uzun to'g'ri g'altakka bir biriga zich o'ralgan o'tkazgichga aytiladi. Solenoid ichida magnit maydon bir jinsli. Bir jinslilik faqat solinoid uchlariga yaqin nuqtalarda buziladi.

Kompyuter modeli solenoidning magnit maydon tuzilishini namoyish etadi va g'altak o'qining har xil nuqtalaridagi magnit maydon induksiyasini o'lchash imkonini beradi.

Solenoid magnit maydoni tuzilishini temir kukunlari yordamida tajribada namoyish etish mumkin. O'lchash natijalari.

Namunada ko'rsatilgandek 1 – jadvalni tayyorlang . Xuddi shuningdek 1 – jadvalga o'xshash 3 va 4 jadvallarni ham tayyorlang. Faqat 2 – qatori bo'lmaydi. Bu jadvallarning mazmunini keyin bo'limdan qarang O'qituvchidan o'lchashlarni bajarish uchun ruxsat oling

O'lchashlar.

1-Tajriba.

- "To'g'ri tokning magnit maydoni" degan tajribani ishga tushiring. To'g'ri o'tkazgichning MM induksiya chiziqlarini kuzating.
- "Sichqoncha" bilan tok regulyatorining harakatlantirgichining ushlab siljiting. Brigadangiz uchun 2- jadvalda berilgan tok qiymatini belgilang.
- "Sichqoncha" yordamida "qo'l"ni o'tkazgich yaqinida siljitib, "sichqoncha"ning chap tugmasini bosing. r ning va V ning qiymatlarini 1 – jadvalga kiriting. 2 – jadvaldagi tokning qolgan 3 qiymati uchun o'lchashni takrorlang.

2 – Tajriba.

- Ichki oynaning yuqoridagi o'ng burchagidagi knopkani bosib 1 – tajriba oynasini yoping. So'ngra "Aylana tokli o'ramning magnit maydoni" degan keyingi tajribani qo'ying. Aylana o'ram (kontur) ning MM induksiya kuch chiziqlarini kuzating.
- "Sichqoncha" bilan tok regulyatorining harakatlantirgichini ushlab siljiting va brigadangiz uchun 2 – jadvalda berilgan tok qiymatini belgilang.

- "Sichqoncha" yordamida "qo'l"ni o'ram o'qi bo'ylab siljitib "sichqoncha"ning chap knopkasini 1 – jadvalda ko'rsatilgan o'ram o'qidan r masofadan bosib. r va B ning qiymatlarini 3 – jadvalga kiriting. U xudi 1- jadval singari tuziladi, faqat 2 qatorida qiymat yoziladi. 2 – jadvaldagi tokning qolgan 3 ta qiymati uchun ham o'lchashlarni takrorlang.

3 – Tajriba.

- Ichki oynaning yuqoridagi o'ng burchagidagi tugmani bosib 2 – tajriba oynasini yoping. So'ngra "Solinoidning magnit maydoni" degan keyingi tajribani qo'ying. Solinoidning MM induksiya chiziqlarini kuzating.

- "Sichqoncha" bilan tok regulyatorining harakatlantirgichini ushlab siljiting va brigadangiz uchun 2 – jadvalda berilgan tok qiymatini belgilang.

- "Sichqoncha" yordamida "qo'l"ni solinoid o'qi bo'ylab siljitib, "sichqoncha"ning chap tugmasini 1 – jadvalda ko'rsatilgan solinoid o'qidan nuqtagacha bo'lgan r masofadan bosib. r va B ning qiymatlarini 4 – jadvalga kiriting. U xudi 1- jadval singari tuziladi, faqat 2 qatoriga hech narsa yozilmaydi. . 2 – jadvaldagi tokning qolgan 3 ta qiymati uchun ham o'lchashlarni takrorlang.

Olingan natijalar ustida ishlash va hisobot tayyorlash

- 1,3 va 4 – jadvallarning 2 – qatorini hisoblash va yozing.
2. Bir varoqqa MM induksiya (V) bilan to'g'ri tokli o'tkazgich uchun masofaga teskari () bog'lanishni chizing.
3. Ikkinchi varoqqa tokli o'ram o'qidagi MM induksiyasi (V) bilan masofa kubining teskari qiymatiga
4. bog'lanish grafigini chizing.
5. Uchinchi varoqqa solenoid o'qidagi MM induksiya (V) Bilan berilgan masofa o'rtasidagi bog'lanishlar birinchi ikkinchi varoqdagi.
6. Grafiklarning qiyalik burchagi tangensi bo'yicha magnit doimiysini toping.
7. Magnit doimiysining o'rtacha qiymatini hisoblang.
8. Solinoidning magnit maydoni uchun har bir tokda maydonning bir jinslilik sohasi (Z)ni aniqlang, unda induksiya 10%dan ortiq o'zgarmagan bo'lsin. Bir jinslilik sohasining o'rtacha qiymatini toping.
9. Javoblarning yozing va javoblar va grafiklarni tahlil qiling.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Magnit maydoni (MM) deb nimaga aytiladi.?
2. MM manbalarini ayting.
3. Harakatlanuvchi zaryadlar o'rtasida qanday kuchlar ta'sirlashadi.
4. Ikkita harakatlanuvchi nuqtaviy zaryadlar o'rtasidagi magnit kuchlaridan necha marta kichik.
5. Tokli o'tkazgichlarning kvazi neytralligini ta'riflang.
6. Tokli o'tkazgichlar o'rtasida qanday kuchlar va nima uchun ta'sir etadi.
7. MM induksiyasi kuch chiziqlarining tarifini bering. Ular nima uchun chiziladi?
8. Bio-Savar-Laplas qonunini yozing. U Kulon qonuni Bilan qaysi tomondan o'xshash?
9. MM uchun superpozitsiya prinsipini yozing va ta'riflang.
10. MM sirkulyatsiyasiga ta'rif bering.
11. MM sirkulyatsiyasi qonuni formulasini yozing va tariflang.
12. To'g'ri tokli o'tkazgich uchun MM sirkulyatsiyasi formulasini yozing va ta'riflang.
13. To'g'ri tokli o'tkazgichni MM kuch chiziqlari qanday o'rinishga ega.
14. Aylanma tokli o'ram (kontur) o'qidagi MM induksiyasi formulasini yozing va ta'riflang.
15. Tokli o'ramning magnit maydoni deb nimaga aytiladi?
16. O'ram markazidan o'tgan induksiya kuch chiziqlari qanday shakilga ega.
17. Solinoid nima va u nima uchun ishlatiladi?
18. Solinoid markazidagi magnit induksiyasi nimagateng?
19. Solinoid ichidagi MM aniq bir jinслиmi?
20. Agar aniqlik darajasi berilsa solinoid ichidagi MM ning bir jinслиlik sohasini qanday aniqlash mumkin.

3. KVANT OPTIKASI

ATOM FIZIKASI

3.1 LABARATORIYA ISHI

Tashqi fotoeffekt

Ma'ruzalar matni va o'quv qo'llanmasi (Savelyev 3-tom, 9 §) bilan tanishib chiqing.

Ishning maqsadi:

- Tashqi fotoeffektning Kvant modeli bilan tanishuv.
- Tashqi fotoeffekt qonunlarinig tajribadagi isboti.
- fotoeffektning qizil chegarasi, fotokatoddan elektronlarning chiqish ishi va Plank doimiysini tajriba orqali aniqlash.

Asosiy nazariy ma'lumotlar

Fotonlar bu yorug'lik kvantlari bo'lib, ular tinch holatda massaga ega emas.

Foton energiyasi: $E_f = h\nu$ Bu yerda:

ν - nurlanish chastotasi,

h – Plank doimiysi, $h = 6.62 \cdot 10^{-34}$ J·s).

Bundan tashqari foton energiyasi “Elektronvolt”larda ham o'lchanadi.

1 eV = $1.6 \cdot 10^{-19}$ J.

Fotonning massasi uning energiyasi bilan Eynshteyn formulasi yordamida bog'langan.

$$E_f = m_f c^2 \quad m_f = h\nu / c^2$$

$$h = \frac{e \Delta(U_{3A\Pi})}{c \Delta\left(\frac{1}{\lambda}\right)} \quad \text{bu yerda } \lambda - \text{Elektromagnit}$$

to'lqin uzunligi

Tashqi fotoeffekt bu - modda(metall, fotokatod)dan uni elektromagnit to'lqinlar bilan nurlantirilganda (Masalan: yorug'lik yoki rentgen nurlari bilan) ulardan elektron uchib chiqish hodisasidir. Bu elektronlar – “Fotoelektronlar” deb ataladi. Endi bu hodisani qisqacha “fotoeffekt” deb nomlaymiz.

Modda ichidagi elektronning kinetik energiyasi $h\nu$ ga ortadi ammo bu holatda fotoelektron moddani tark etishi uchun uning energiyasi A_{chiq} (chiqish ishi) dan katta bo'lishi zarurdir. Fotoelektron energiyasi moddaning chiqish ishiga teng miqdorda kamayadi:

$$E = h\nu - A_{\text{chiq}}$$

Bu tenglik “fotoeffekt uchun Eynshteyn tenglamasi” deyiladi.


Fotoeffektning qizil chegarasi deb fotoeffekt yuz berishi mumkin bo'lgan minimal chastota tushuniladi. Demak bunda foton energiyasi chiqish ishiga teng bo'ladi: $h\nu_{kr} = A_{chiq}$.

Yopuvchi (to'xtatuvchi) kuchlanish deb fotokatod va vakumli lampaning anodi (Fotoelement) o'rtasidagi minimal kuchlanishga aytiladi. Bunda zanjirda tok bo'lmaydi chunki fotoelektronlar anodgacha yetib bormaydi. Bu holda katoddagi fotoelektronlarning kinetik energiyasi anoddagi elektronlarning potensial energiyasiga teng bo'ladi.

Ya'ni:
$$U_{yop} = \frac{E}{e} = \frac{h\nu - A_{chiq}}{e},$$

bu yerda e -elektron zaryadi.

Kerakli ma'lumotlarni ekrandan laboratoriya-konspekt daftaringizga ko'chirib yozing.



O'lchash natijalarini hisoblashga doir uslubiy ko'rsatmalar:

Sichqoncha ko'rsatkichi bilan fotokatod nurlanishini boshqaruvchi surgichni maksimal holatga keltiring.

Xuddi shunday yo'l bilan anod va katod o'rtasidagi kuchlanish va EMN to'lqin uzunligini minimal holatga keltiring va fotoelementdagi elektronlarning harakatini kuzating.

Tajribani o'tkazish uchun o'qituvchidan ruxsat oling.

Tajribani o'tkazish:

1. Sichqoncha ko'rsatkichini maxsus nuqtaga keltirib asta sekinlik bilan fotokatod nurlanishining to'lqin uzunligini orttiring. Fototokning butunlay to'xtashiga erishing. Hali fototokni to'xtata olmaydigan eng katta to'lqin uzunligi (λ_{qizil}) ni aniqlang. Daftaringizga fotoeffektning qizil chegarasi to'lqin uzunligi (λ_{qizil})ni yozib qo'ying.

- So'navchi nurlanishning yopuvchi kuchlanish bilan bog'liqligini yanada aniqroq o'rganish uchun quyidagi metodikadan foydalaniladi. Avvalo yopuvchi kuchlanish qiymatini jadvalda ko'rsatilgandek o'rnatish.
- Sichqoncha bilan vertikal spektr tog'irlagichni surish orqali fototok to'xtaydigan to'lqin uzunligini o'rnatish (Bunda elektronlar anodgacha yetib boradi, keyin esa yana katodga qaytadi). λ va U_{yop} qiymatlarini jadvalga kiritish.

1-Jadval. O'lchash natijalari:					2-Jadval. Yopuvchi kuchlanish qiymatlari (O'zgartirish kiritmang!)				
i =	1	2	3	4	Brigadala r	U_{yop1}	U_{yop2}	U_{yop3}	U_{yop4}
U_{yopi}, V					1,5	-0.1	-0.3	-0.6	-0.8
λ_i, nm					2,6	-0.2	-0.4	-0.6	-0.9
$1/\lambda_i, 10^6 m^{-1}$					3,7	-0.3	-0.5	-0.7	-1.0
					4,8	-0.4	-0.7	-0.8	-1.1

Natijalarni qayta ishlash va hisobotni tayyorlash:

Teskari to'lqin uzunligi ($1/\lambda$) ni hisoblab jadvalga kiritish.

Yopuvchi kuchlanish va teskari to'lqin uzunligining bog'lanish grafigini chizish.

Grafik va quyidagi formuladan foydalanib Plank doimiysini aniqlang:

$$h = \frac{e \Delta(U_{yop})}{c \Delta\left(\frac{1}{\lambda}\right)}$$

Fotoeffektning qizil chegarasini bilgan holda fotokatod materialining chiqish ishini hisoblang.

Olingan natijalar hususida mulohaza yuriting.

3 - jadval. Ayrim moddalar uchun chiqish ishi qiymatlari

Material	kaliy	litiy	platina	rubidiy	kumush	seziy	rux
A_{chiq}, eV	2.2	2.3	6.3	2.1	4.7	2.0	4.0

O'z o'zini tekshirish uchun savol va topshiriqlar:

- Foton deb nimaga aytiladi?
- Elektromagnit nurlanishning barcha modellarini sanab o'ting.
- Foton energiyasi formulasini yozing.

4. Foton energiyasini uning massasi bilan bog'lanishi formulasini yozing.
 5. Foton energiyasini uning impulsi orqali ifodalang.
 6. Tashqi fotoeffekt hodisasini izohlang.
 7. Metall sirtiga urilayotgan fotonning holatini qadam-ma qadam sanab bering.
 8. Erkin elektronning foton bilan to'qnashgandan keyingi holatini tasvirlang.
1. Atom tarkibiga kiruvchi elektronning foton bilan to'qnashgandan keyingi holatini tasvirlang .
 2. Chiqish ishi nima? Kvant optikasida bu harakteristika birinchi marta kim tomonidan berilgan?
 3. Tashqi fotoeffekt uchun Eynshteyn tenglamasini yozing.
 4. Fotoeffektning qizil chegarasiga tushuncha bering .
 5. Fotoelement qanday tuzilgan?
 6. Nima uchun fotoelementning katodi fotokatod deb ataladi?
 7. Fotokatod uchun yopuvchi kuchlanish nima?
 8. Agar fotoelementda anod potentsiali fotokatod potentsialidan past bo'lsa fotoelektron qanday harakat qiladi?
 9. Agar fotoelementda anod potentsiali fotokatod potentsialidan baland bo'lsa fotoelektron qanday harakat qiladi?
 10. Elektronning katoddagi kinetik energiyasi uning anoddagi potentsial energiyasi bilan qanday bog'langan va nima uchun?

3.2 LABARATORIYA ISHI

Atomar vodorodning to'lqin spektri

Ma'ruzalar matni va o'quv qo'llanmasi (Savelyev 3-tom, §12, §28) bilan tanishib chiqing.

Ishning maqsadi:

- Qo'zg'atilgan vodorod atomlarining elektromagnit nurlanishini modellashtirishda atomning Planetar va Kvant modellari bilan tanishuv.
- Past bosimda atomar vodorodning chiziqli spektrda nurlanishi qonuniyatlarini tajribada tasdiqlash.
- Tajribada Ridberg doimiysini aniqlash.

Asosiy nazariy ma'lumotlar:

Elektromagnit nurlanish spekri deb shu moddaning atomlari (yoki molekulari) tomonidan nurlanuvchi yoki yutiluvchi elektromagnit to'liqlar yig'indisiga aytiladi.

Chiziqli spektr alohida qismlardan tashkil topadi. Chiziqlar orasidagi masofa (To'liq uzunligi va chastotasi shkalasi bo'yicha) ularning uzunligidan anchagina katta bo'ladi. Bunday spektrni asosan atomar shakldagi gazlar nurlatadi.

Bundan tashqari yana molekulyar gazlardan nurlanadigan yo'l-yo'l va qizdirilgan qattiq jismlardan nurlanuvchi to'g'ri chiziqli spektrlar ham mavjud.

Atomning Planetar modeli: markazda atom o'lchamiga nisbatan juda kichik musbat zaryadlangan yadro joylashgan, ma'lum orbita bo'ylab uni atrofida elektronlar aylanadi. Statsionar orbitada aylanish jarayonida elektron o'zidan EMN chiqarmaydi. Ammo ma'lum bir sharoitda elektronga EMN (foton) bilan ta'sirlashsa u yuqoriroq statsionar orbitaga ko'chadi. Bunda uning energiyasi ΔE_{elek} (yutilgan foton energiyasiga teng) ga ortadi. Yana quyi orbitaga qaytishda elektron o'zidan energiyasi $E_f = |\Delta E_{\text{elek}}|$ ga teng bo'lgan foton chiqaradi.

Atomning Kvant modelining kamchiliklaridan biri unda elektron aniq belgilangan trayektoriya, koordinata va tezlikka ega emas. Atomning Kvant modelidan foydalanib faqatgina elektronning harakat orbitalini aniqlash mumkin xolos.

Elektronning Kulon maydonidagi harakati uchun Shredinger tenglamasi atomning Kvant modelini yaratishda qo'llaniladi. Bu tenglamani yechish natijasida nafaqat koordinataga, balki vaqt va yana "kvant sonlar" deb ataluvchi 4 ta parametrga bog'liq to'liqlik funksiya kelib chiqdi. Bu parametrlarning nomlari: asosiy(bosh), azimutal, magnitli va magnit spinli kvant sonlar.

Bosh kvant son faqatgina natural sonlarni (1,2,3,...,n) qabul qilishi mumkin. U elektronning atomdagi energiyasini ($E_n = -\frac{E_i}{n^2}$) izohlaydi. Bu yerda E_i – Vodorodning ionlashtirish energiyasi(13.6 eV).

Azimutal (orbital) kvant son - l elektronni orbitadagi harakatining impuls momentini modulini $|\vec{L}| = \hbar\sqrt{l(l+1)}$. izohlaydi. U faqat musbat sonlarni qabul qiladi: $l = 0, 1, 2, \dots, n-1$

Magnit kvant son " m_l " elektronni orbitadagi harakatining impuls momenti vektorining tashqi magnit maydon \vec{B} . yo'nalishiga proyeksiyasini ifodalaydi.. U moduli bo'yicha l ga teng bo'lgan musbat va manfiy butun sonlarni qabul qiladi $L_z = \hbar m_l$, bu yerda $m_l = 0, \pm 1, \pm 2, \dots, \pm l$

Magnit spinli kvant esa son m_s elektronni (spin) hususiy impuls momenti vektorining tashqi magnit maydon \vec{B} yo'nalishiga proyeksiyasini ifodalaydi.

$S_z = \hbar m_s$ va u faqatgina 2 ta qiymat qabul qilishi mumkin: $m_s = +1/2, -1/2$.

Spin moduli uchun: $|\vec{S}| = \hbar\sqrt{s(s+1)}$, bu yerda: s – spin kvant son, u har bir zarracha uchun faqatgina bitta qiymat qabul qilishi mumkin. Masalan, elektron uchun: $s = \frac{1}{2}$ (Proton va neytronlar uchun ham xuddi shunday).

Foton uchun: $s = 1$.


Elektronlar o'zaro teng energiyaga ega bo'lishsa ular "Elektronning atomdagi holatini ifodalash uchun bosh kvant sonni bildiruvchi raqam va azimutal kvant sonni izohlovchi harf ishlatiladi:

Harf	s	p	d	e	f
<i>l</i> ning qiymati	0	1	2	3	4

Azimutal kvant sonlarning o'tish qoidasi $\Delta l = \pm 1$. Atomdagi elektronlar bir holatdan ikkinchi holatga aynan shu qoidaga asoslanib o'tishi mumkin.

Seriya	Layman	Balmer	Pashen	Breket
O'tishlar	$np \rightarrow 1s$	$ns \rightarrow 2p,$ $nd \rightarrow 2p$	$nf \rightarrow 3d,$ $np \rightarrow 3d$	$ng \rightarrow 4f,$ $nd \rightarrow 4f$

Kerakli ma'lumotlarni ekrandan laboratoriya-konspekt daftaringizga ko'chirib yozing.



O'qituvchidan ishni bajarish uchun ruxsat oling.

O'lchash natijalarini hisoblashga doir uslubiy ko'rsatmalar:

- Sichqoncha ko'rsatkichini sizning brigadangiz uchun berilgan 2-jadvalda ko'rsatilgan qiymatlardagi n_o -energetik pog'ona ustiga keltiring.
- Ekraning yuqori chap burchagida Vodorod atomi modelidagi chaqnayotgan strelkalarni va ekraning pastgi va yuqori o'ng tomonidagi shu seriya yo'nalishlarini bildiruvchi chiziqlarni kuzating va chizib oling.
- Shu seriyaning quyi energetik pog'onasi uchun bosh Kvant son n ning qiymatini, seriya nomini va to'lqin uzunligini 1-jadvalga kiriting.

1-Jadval. O'lchash natijalari

Seriya _____ $n =$ _____

2-Jadval. Boshlang'ich ko'rsatkichlar

(O'zgartirish kiritmang!)

Chiziq raqami $i =$	n	$\lambda_i,$ mkm	$1/\lambda_i,$ mkm^{-1}
1			
2			
3			
4			

Brigada tartib raqami	Quyi pog'onaning bosh kvant soni n
1,5	1
2,6	2
3,7	3
4,8	4

Natijalarni qayta ishlash va hisobotni tayyorlash:

1. Teskari to'liqin uzunligi qiymatlarini 1-jadvalga kiriting.
2. Har bir o'tish chizig'i elektronning qaysi Kvant pog'onalaridan o'tishiga to'g'ri kelishini aniqlang. Jadvalga n ning qiymatini yozing.
3. Shu spektral seriya uchun teskari to'liqin uzunligi ($1/\lambda$) ning teskari bosh kvant son kvadrati ($1/n^2$) bilan bog'lanishi grafigini tuzing.
4. Shu grafig o'zgarishiga qarab Ridberg doimiysini aniqlang:

$$R = \frac{\Delta(1/\lambda)}{\Delta(1/n^2)}.$$

5. Olingan natijalar ustida bosh qotiring.

O'zgarimas qiymatlar: Ridberg doimiysi: $R = 1.1 \cdot 10^7 \text{ m}^{-1}$.

O'z o'zini tekshirish uchun savol va topshiriqlar:

1. Elektromagnit nurlanish spektri nima?
2. EMN ning chiziqli spektri nima?
3. Nimalar EMN ning chiziqli spektri manbai bo'la oladi?
4. EMN ning yo'l-yo'l spektri qanday hosil bo'ladi va uning manbai nima?
5. Qanday sharoitlarda EMN to'liqinli spektrda nurlanadi?
6. Atomning "Planetar" modelini tavsiflang.
7. Qanday sharoitlarda atomdagi elektronlar EMN yutadi yoki o'zidan chiqaradi?
8. O'zidan foton chiqaruvchi foton va elektronning xarakteristikalari bir biri bilan qanday bog'langan?
9. Atomning "Kvant" modelini tekshirishda qanday tenglamadan foydalaniladi?
10. Bu tenglamani qanday yechimga ega?
11. Elektron va uning harakati atomning "kvant" modelida qanday tushuntiriladi?
12. To'liqinli funksiyaning kvadrat moduli nimani bildiradi?
13. Atomdagi elektron orbitalariga izoh bering.
14. Bosh kvant son nimani bildiradi? Uni topish formulasini yozing.
15. Azimutal kvant son nimani bildiradi? Uni topish formulasini yozing.
16. Magnit kvant son nimani bildiradi? Uni topish formulasini yozing.
17. Elektron "spin"i nima?
18. Spin kvant son nimani bildiradi? Uni topish formulasini yozing.
19. Magnit-spin kvant son nimani bildiradi? Uni topish formulasini yozing.
20. Elektronning qo'zg'algan(?) holati nima?
21. Elektron qo'zg'alishining davomiyligini qanday aniqlash mumkin?

22. Elektron holatini bildiruvchi yozuv: ($2s^2, 2p^3$) ni tavsiflang.
23. Elektron $2d$ holatda mavjud bo'lishi mumkinmi? Nima uchun?
24. Spektral seriya nima?
25. Atomar vodorod nurlanishinig spektral seriyalarini sanab o'ting va ularning sodir bo'lish sabablarini yozing.

4. MOLEKULYAR FIZIKA

4.1 LABARATORIYA ISHI

Maksvell taqsimotlari

Ma'ruzalar matni va o'quv qo'llanmasi (Savelyev 1-tom, §93,98,99) bilan tanishib chiqing.

Ishning maqsadi:

- Ideal gaz molekularining harakati bilan tanishtiruvchi kompyuter modeli bilan tanishuv.
- Ideal gaz molekulari uchun Maksvell taqsimotlarini tajribada tasdiqlash

Asosiy nazariy ma'lumotlar:

O'lchovning qandaydir aniq P_i qiymatiga erishish uchun N_i marta ($N \rightarrow \infty$) o'lchash olib borish mumkin.

$dP_v = F(v) dv$, bu yerda $F(v)$ -proporsionallik koeffitsiyenti molekular tezligi qiymatining taqsimot funksiyasi deyiladi. U boshqa taqsimot funksiyalari orqali ham ifodalanishi mumkin:

$F(v) = \varphi(v_x) \cdot \varphi(v_y) \cdot \varphi(v_z) \cdot 4\pi v^2 = f(v) \cdot 4\pi v^2$, bu yerda $\varphi(v_x)$, $\varphi(v_y)$ va $\varphi(v_z)$ – molekular tezliklarining mos proyeksiyalari uchun taqsimot funksiyalari, $f(v)$ esa ularning yig'indisi.

§98 keltirilgan formulalar

$$F(v) = \left(\frac{m}{2\pi kT} \right)^{\frac{3}{2}} e^{-\frac{mv^2}{2kT}} 4\pi v^2.$$

$$\text{O'rtacha tezlik: } \langle v \rangle = \int_0^{\infty} v F(v) dv = \sqrt{\frac{8kT}{\pi m}},$$

$$\text{O'rta kvadratik tezlik: } v_{cp.kB} = \sqrt{\frac{3kT}{m}}.$$

$F(v)$ funksiya maksimumga erishadigan v_{aniq} tezlik “(?) tezlik” deb ataladi:


$$v_{\text{aniq}} = \sqrt{\frac{2kT}{m}}$$

Kerakli ma'lumotlarni laboratoriya-konspekt daftaringizga ko'chirib yozing.

O'lchash natijalarini hisoblashga doir uslubiy ko'rsatmalar:

Sichqoncha bilan ekrandagi "Start" tugmachasini bosing. Kompyuter monitoridagi tasvirni diqqat bilan ko'zdan kechiring. Ekraning chap qismida berk hajm bo'ylab harakatlanayotgan zarrachalar tizimiga e'tiboringizni qarating. Ular bir-biri va idish devori bilan absolyut elastik to'qnashmoqda. Zarralar soni 100 ga yaqin va bu tizim bimalol Ideal gazning mehanik modeli bo'la oladi. "Pause" tugmachasi yordamida molekular harakatini to'xtatib oniy suratlarni qo'lga kiritish mumkin.

O'qituvchidan ishni bajarish uchun ruxsat oling.



1 – TAJRIBA: Chap ekrandagi oniy surat yordamida yashil rang bilan ajralib turgan molekularning (Δv) tezlik diapazonini aniqlash.

Buning uchun sichqoncha ko'rsatkichini diapazon (<) belgisi ustiga keltirib uni eng quyi holatga keltiring ($v=0$). So'ngra sichqonchani (>) belgisi ustiga bosib tezlik v_{MAX} maksimal qiymatgacha ko'tariladi va

bosishlar soni N sanaladi. Keyin esa $\Delta v = v_{MAX} / N$ formuladan foydalaning.

2 – TAJRIBA: Molekulalarning tezlik bo'yicha taqsimlanishini o'rganish.

Tizimga brigadangiz jadvalida ko'rsatilgan T_1 temperatura bering. Tezlik qiymatlarini 2-jadvaldagiga yaqinroq tanlang, "Pause" tugmachasini bosib va tezligi berilgan Δv diapazonda yotgan molekular soni ΔN ni sanang. Natijalarni 2-jadvalga yozing. Avval "Start" tugmachasini, bir necha soniyadan so'ng esa "Pause" tugmachasini bosib orqali yana bir oniy suratga ega bo'ling va undagi berilgan tezlikda harakatlanayotgan molekularni sanang. Har bir tezlik uchun 5 ta o'lchash bajaring va natijalarni 2-jadvalga yozing. So'ngra tezlikni o'zgartirib (5 ta tezlik uchun) o'lchashlar bajarib natijalarni 2-jadvalga yozing.

Keyin esa 1-jadvalda ko'rsatilgan T_2 temperaturani o'rnatib 2-tajribadagi barcha punktlarni bajaring va natijalarni 3-jadvalga yozing.

1-JADVAL

Temperaturaning tahminiy qiymatlari (O'zgartirish kiritmang!!)

Brigada	1	2	3	4	5	6	7	8
T_1	150	200	250	300	350	400	450	500
T_2	700	740	770	800	840	870	900	930

**2 va 3-jadval (bir biriga o'xshash)
O'lchash natijalari $T = \text{___} \text{ K}$ da**

v [km/s]=	0.5	1.0	1.5	2.0	2.5	3.0	3.5
ΔN_1							
ΔN_2							
ΔN_3							
ΔN_4							
ΔN_5							
$\Delta N_{o'r}$							

Natijalarni qayta ishlash va hisobotni tayyorlash:

1. Zarrachalar sonining o'tacha qiymati $\Delta N_{o'r}$ ni hisoblang va jadvalga kiriting.

2. $\Delta N_{or}(v)$ bog'lanishni nazariy va amaliy shakllarining grafigini chizing. Nazariy bog'lanishni kompyuter ekranidan chizib olish mumkin (Mos masshtab qo'ygan holda)
3. Har bir temperatura uchun v_{aniq} ning (?) amaliy qiymatini aniqlang.
4. Aniq tezlikning temperatura bilan bog'lanish $v_{aniq}(T)$ grafigini chizing.
5. Bu grafikdan molekula massasini aniqlang:

$$m = 2k \frac{\Delta(T)}{\Delta(v_{aniq}^2)}$$

6. Massasi o'lchangan molekula massasiga yaqin bo'lgan gaz tanlang.
7. Olingan javoblar va grafiklar hususida mulohaza yuriting.

O'zgarmas qiymatlar

gaz	vodorod	geliy	neon	azot	kislorod
Molekula massasi 10^{-27} kg	3.32	6.64	33.2	46.5	53.12

O'z o'zini tekshirish uchun savol va topshiriqlar:

1. Biror o'lchashning qanday bajarilishi to'g'risida tushuncha bering.
2. Tezlik qiymatini o'lchashda qanday usuldan foydalanilganini tushuntiring.
3. Taqsimot funksiyasi nima?
4. Qiymatning taqsimot funksiyasi va tezlik proyeksiyasi o'zaro qanday bog'langan?
5. Ideal gaz molekulari tezligini taqsimot funksiyasi grafigining o'ziga xos hususiyatlari nimadan iborat?
6. Agar $f(A)$ taqsimot funksiyasi ma'lum bo'lsa A fizik kattalikning o'rtacha qiymati qanday aniqlanadi?
7. Molekulalarning o'rtacha tezligini hisoblash formulasini yozing.
8. Molekulalarning o'rtacha kvadratik tezligini hisoblash formulasini yozing.
9. Molekulalarning aniq (?) tezligini hisoblash formulasini yozing.
10. Ideal gaz molekularini o'rtacha tezligining ifodasini yozing.
11. Ideal gaz molekularini o'rtacha kvadratik tezligining ifodasini yozing.
12. Ideal gaz molekularini aniq (?) tezligining ifodasini yozing.
13. Ideal gaz molekularining o'rtacha va o'rtacha kvadratik tezliklari necha foizga farq qilishini hisoblang.
14. Ideal gaz molekularining o'rtacha va aniq (?) tezliklari necha foizga farq qilishini hisoblang.

4.2 - LABARATORIYA ISHI

Havo uchun molyar issiqlik sig'implari o'rtasidagi munosabat c_p/c_v ni aniqlash

Ishning maqsadi – Havo uchun Adiabata ko'rsatkichi $\gamma = C_p / C_v$ ni aniqlash

Asosiy nazariy ma'lumotlar

Issiqlik almashinuvisiz boruvchi termodinamik jarayon – Adibatik jarayon deyiladi. PV koordinata o'qlarida adibatik jarayon tenglamasini keltirib chiqaramiz.

Quyidagi formula istalgan termodinamik jarayon uchun qo'llanilishi mumkin.

$$\delta Q = dU + \delta A$$

(1)

Bu yerda δQ - sistemaga berilgan o'ta kichik issiqlik miqdori; dU - Ichki energiyaning o'ta kichik o'zgarishi; δA - Shu termodinamik jarayonda bajarilgan juda kichik ish.

Adibatik jarayon uchun (1) munosabat quyidagi ko'rinishga keladi:

$$dU + \delta A = 0$$

(2)

Demak ideal gaz uchun:

$$dU = \nu C_v dT$$

(3)

$$\delta A = p dV$$

(4)

Bu yerda ν - modda miqdori; C_v - O'zgarmas hajmdagi molyar issiqlik sig'imi; p - bosim; dT va dV – mos ravishda temperatura va hajmning o'ta kichik o'zgarishlari. (3) va (4)ni (2)ga qo'yib

$$\nu C_v dT + p dV = 0 \quad \text{ni hosil}$$

qilamiz. (5)

Ideal gaz Mendeleev-Klapeyron tenglamasiga bo'ysinadi:

$$pV = \nu RT.$$

Bu tenglamani differensiallab dP , dV va dT lar orasidagi bog'lanishni topamiz:

$$pdV + Vdp = \nu R dT.$$

(6)

(4) va (6) dan

$$dT = \frac{pdV + Vdp}{\nu R} \quad \text{ga ega}$$

bo'lamiz. (7)

(7) ni (5) ga qo'yib adiabatik jarayonda hajm va bosim bog'lanishining differensial tenglamasini hosil qilamiz:

$$(C_v + R)p dV + C_v V dp = 0.$$

(8)

$C_v + R = C_p$ - Ideal gazning doimiy bosimdagi molyar issiqlik sig'imi ekanligini hisobga olsak (8) dan

$$\frac{C_p}{C_v} \frac{dV}{V} + \frac{dp}{p} = 0 \quad \text{ni hosil qilamiz} \quad (9).$$

Ma'lumki Ideal gazning molyar issiqlik sig'implari: C_p va C_v faqatgina molekularning erkinlik darajasi i ga bog'liq bo'ladi:

$$C_p = \frac{i+2}{2} R; \quad C_v = \frac{i}{2} R$$

Demak $\gamma = \frac{C_p}{C_v}$ ko'rsatkich - bu gaz uchun doimiy qiymatdir. Bundan

(9) differensial tenglama $pV^\gamma = const$ ko'rinishga keladi

(11)

(11) tenglama adiabat tenglamasi (Puasson tenglamasi), γ koeffitsiyent esa adiabat doimiysi (Puasson doimiysi) deyiladi. Agar havoning bosimi atmosfera bosimiga, harorati 27° ga teng va uni asosan ikki atomli molekulalardan tuzilgan ideal gaz ($i=5$) deb hisoblasak unda havo uchun adiabatning nazariy qiymati:

$$\gamma = \frac{i+2}{i} = 1,4 \quad \text{ga teng bo'ladi.} \quad (12)$$

Tajriba dasturi va asosiy qurilmasining umumiy tuzilishi:





Рис. 1а

Tajriba qurilmasining asosiy qismlari bu: (1a rasimga qarang) havo bilan to'latilgan B ballon, ; suyuqlikli (suvli) manometr M va kompressor (u ballonga ulangan, 1a rasmda ko'rsatilmagan, 1b rasmda nasos). 1-klapan (K_1) ballonni atmosfera bilan birlashtiradi. 1-

klapanning ko'ndalang kesimi juda katta. U ochilganda ballonda tezlik bilan atmosfera bosimi hosil bo'ladi. Bosimning bu tezkor o'zgarishi tashqi muhit bilan deyarli issiqlik almashmasdan yuz beradi va bu jarayonni adiabatik jarayon deb atash mumkin.. 2-klapan yordamida (K_2) ballon uni havo bilan to'ldiruvchi kompressor bilan bog'lanishi mumkin.



(1 b) rasm. Dasturning asosiy oynasi. Modelli qurilma.

O'lchash natijalarini hisoblashga doir uslubiy ko'rsatmalar.

Ballonga kompressor yordamida havo damlaymiz va 1-klapani yopamiz. Ballondagi havo ozgina qiziydi ammo biroz vaqt o'tgach undagi gaz harorati xona harorati T_0 bilan teng bo'lib qoladi. Bunda ballondagi gaz bosimi:

$$p_1 = p_0 + p' \text{ ga o'zgaradi}$$

(13)

bu yerda p_0 – atmosfera bosimi; p' – havoning ortiqcha bosimi (Uni manometr orqali aniqlash mumkin).


Hozir klapandan uzoqda joylashgan V_1 hajmni egallab turgan ma'lum miqdordagi gazni qaraymiz. Agar 1-klapani qandaydir vaqtga ochiq qoldirsak ballondagi gazning bir qismi uni tark etadi va undagi bosim atmosfera bosimiga teng bo'lib qoladi (Bunda ballondagi gaz hajmi V_1 dan V_2 gacha ortadi (. 2-rasmdagi $1 \rightarrow a$ jarayon)). Ballondagi temperatura pasayadi chunki gaz ballondan chiqish jarayonida o'z ichki energiyasi kamayishi hisobiga ish bajardi.

$1 \rightarrow a$ jarayonni adiabatik deb hisoblab, (4.1) dan

$$p_1 V_1^\gamma = p_0 V_2^\gamma \quad \text{ni hosil}$$

qilamiz

(14)



2- rasm. PV (Bosim-hajm) grafigida asosiy jarayonlarning grafik tasviri

